

# TALQIN VA TADQIQOTLAR

ILMIY-USLUBIY JURNALI

**IMPACT  
FACTOR 8.2**

Yuqori impact factor 8.2 ga ega bo'lgan Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnaliga qabul qilingan maqolalarga 3 ish kunida DOI raqam olinadi va Directory of Research Journals Indexing Zenodo, OpenAire, Cyberleninka, Google scholar (10 ish kuni) kabi xalqaro ilmiy bazalarda indekslanadi va jurnal belgilangan sanada to'liq shaklda [www.talqinvatadqiqotlar.uz](http://www.talqinvatadqiqotlar.uz) rasmiy saytiga joylanadi.

Jurnalga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qiladi: Fizika-matematika fanlari, Kimyo fanlari, Texnika fanlari, Iqtisodiyot fanlari, Falsafa fanlari, Filologiya fanlari, Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlari, Sotsiologiya fanlari, Geologiya va mineralogiya fanlari, Tarix fanlari, Geografiya fanlari, Yuridik fanlari, San'atshunoslik fanlari, Arxitektura fanlari, Biologiya fanlari, Qishloq xo'jaliqi fanlari, Tibbiyot fanlari, Farmatsevtika fanlari, Veterinariya fanlari.

[talqinvatadqiqotlar.uz](http://talqinvatadqiqotlar.uz)

+99891-152-93-14

[talqin@bk.ru](mailto:talqin@bk.ru)





# TALQIN VA TADQIQOTLAR ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

UIF-2023: 8.2 | № 34

15.12.2023



[talqinvatadqiqotlar.uz](http://talqinvatadqiqotlar.uz)

## Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical  
journal

научно-методический  
журнал

Bosh muharrir:  
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:  
O.S.Israilov

Jurnal bir oyda ikki marta  
chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti  
Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va  
ommaviy kommunikatsiya  
agentligida 2022- yil  
12 - fevralda 1540 raqam  
bilan ro'yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko'chirib  
bosilganda, manba  
ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14  
E pochta: talqin@bk.ru  
Сайт: [talqinvatadqiqotlar.uz](http://talqinvatadqiqotlar.uz)

## Tahrir kengashi:

Muydinov Erkin Djamaldinovich

Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekanı

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma 'naviyat va huquq asoslari"

kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna

Falsafa fanlari doktori, professor

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Namangan Impuls tibbiyot instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li

TATU Farg'onा filiali, Kompyuter tizimlari kafedrasi mudiri

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibragimova Mayluda Ro'zmetovna

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi

Djurayev Muxammadrizo Mamurovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Komilov Rustamjon Maxamadovich

Farg'onा davlat universiteti Agrar qo'shma fakulteti "Aholi tomorqalaridan samarali  
foydalanish va dorivor o'simliklar" kafedrasi katta o'qituvchisi, q.x.f.f.d (PhD)

Raxmonov Elyor Abdullajonovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi o'qituvchisi,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jepbarova Sayat Qurbanmiratovna

Qoraqalpoq davlat universiteti Turkman tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

Farg'onा davlat universiteti mevachilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri  
q.x.f.f.d (PhD)

Bazarov Otabek Odilovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti

Rahimova Maftuna Odilovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Mirzaahmedova Kamola Toxirovna

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti

Djumaniyozova Enajon Kutimovna

Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi

Urazmetova Shoira Azatbayevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali  
o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Djurayeva Dilnoza Shakirjonovna

Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori

Maxkamova Dilafruz Yuldashevna

O'zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasi dotsenti

Usmonov Odil Kamilovich

FarDU Axoli tomorqalaridan samarali foydalanish va dorivor o'simliklar kafedrasi dotsenti,  
q.x.f.n

Nazarova Nargiza Mustaqimovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

## SUG‘ORISH TIZIMLARIDAGI SUV ISROFGARCHILIGI VA SUVNI TEJASHNING MAQBUL USULI

**M. Xurramov**

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

**F. Yusupov**

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola birinchi bo‘lib sug‘orish tizimlaridagi suv isrofgarchiligini tahlil qiladi undan so‘ng muammoning eng maqbul yechimlari tavsiya etiladi. Bugungi kunning eng dolzabr muammolaridan biri bu albatta suvdan yanada samarali foydalish bu maqolaning mazmuni ham aynan shundan iborat.

**Kalit so‘zlar:** filtratsiya, sug‘orish tizimi, texnalogiya, o‘zanli kanal, betonli kanal, material, suvning sizilishi, ichki ariqlar, sug‘orish texnologiyalari, suv sizilishi.

**Kirish:** Bugun suv taqchilligi nafaqat Respublikamizda balki qo’shni davlatlarda ham actual va asosiy muammo sifatida qaralmoqda bunga sabab yildan yilga yog‘ingarchilik miqdorining kamayib boryotganligi va suvni transport qilishdagi katta raqamli yo‘qotishlardir. Respublikamizda jami 4,3 mln hektar sug‘oriladigan yer mavjud bo‘lib yillik suvga bo‘lgan ehtiyoj 53 mlrd kub metrni tashkil etadi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligida yil davomida 39 mlrd kub metr suv iste’mol qilingan. Shundan 36 foizi yoki 14 mlrd kub metri tuproq o‘zanli va ariqlarda yo‘qolgan. Yana 5-6 mlrd kub metr suv sug‘orishning eskirgan usullari tufayli yo‘qotilmoqda. Yurt boshimiz

Sh. Mirziyoyev 29-noyabr kuni qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha o’tkazilgan videoselektor yig‘ilishida suv muammosiga jiddiyroq qarash kerakligini ta‘kidlab qator muhim vazifalarni belgilab berdi.

-birinchi muhim vazifa- kanal va ariqlarni betonlash;

Kelgusi yilda 1 ming 500 kilometr, ya’ni bu yilgiga nisbatan 4 barobar ko‘p yirik kanallarni betonlash vazifasi belgilandi. 2025-yildan kamida 2 ming kilometrdan kanallarni betonlashga o‘tiladi.

-ikkinci muhim vazifa- suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish;

Kelgusi uch yilda ham qishloq xo‘jaligi texnikasining 15 foizi va lazerli tekislagichning 30 foizini subsidiyalash amaliyoti davom ettiriladi. 2026-yilgacha hamma ekin yerlari lazerli tekislanadi. 2026-yildan keyin lazerli tekislanmagan yerlarga nisbatan yer va suv soliqlari keskin oshiriladi.

-uchinchchi muhim vazifa- suvni yetkazish xarajatlarini qisqartirish etib belgilandi.


Xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokida 95 ta nasos stansiyasini yangilash, kelgusi yil boshida yana 118 tasi bo'yicha tender e'lon qilish vazifasi qo'yildi. Shu bilan birga, xorijiy kompaniyalar 268 ta nasosni boshqaruvga olish tashabbusini bildirgan.

Umuman, ushbu choralar orqali kelgusi yili nasoslarning elektr sarfini 300 million kilovatt soatga, keyingi uch yilda esa 1,5 milliard kilovatt soatga kamaytirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi [1].

**Muammoning bugungi holati.** Respublikamizda yildan yilga suvga bo'lgan talab ortib bormoqda lekin suv kamayishda davom etmoqda buning asosiy sabablari suvdan samarasiz foydalanish va aholi sonining oshishi hisobiga suvga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Biz qachonki suvning bebafo va sehirli kuchga ega ekanligini qachonki xis qilgandagina suvni tejashga va undan yanada samaraliroq foydalaishga o'tamiz. Bugun kechagidanda suvni tejab ishlatalishga majburmiz sababi oldida kutulyotgan suv taqchilligi ham bugungi va kechagi suv isrofgarchiliklari hisobiga amalga oshishi mumkin. Ikkata asosiy vazifa bular suvni transport qilishdagi yo'qotishlarni kamaytirish uchun tashqi va ichki kanallani betonlashtirish va suv tejamkor texnologiyalarni tushunishimiz va keng joriy etishimiz eng maqbul yo'l xozirgi muammoni keskin yaxshilash uchun. Biz suvdan qachalik tejab qololsak va shu orqali yangi yerlarni o'zlashtirib natijada unumli yerlar qatoriga qo'sholsak bizda katta o'zgarishlar sodir bo'lish mumkin.

Jahon Resurslar Instituti (WRI) hisobotida ayttilishicha, O'zbekiston suv tanqisligi bo'lgan 164 davlat ro'yxatida 25-o'rinda. Tadqiqotga ko'ra, O'zbekiston suv tanqisligi yuqori bo'lgan 27 davlat ro'yxatidan joy olgan. O'zbekistonning gidroenergetika resurslari butun respublika hududining bor-yo'g'i 4,92% ni tashkil etadi, umumi suv resurslari yiliga 50–60 km<sup>3</sup> ni tashkil etadi, shundan atigi 12,2 km<sup>3</sup> i Respublika hududida, qolgan qismi esa suv resurslaridan iborat. Tashqaridan - Tyan-Shan va Pomir tog'lari - Oltoydan, yozda qor va muzliklarning erishi natijasida keladi. Suv resurslarining markaziy qismi paxta dalalarini sug'orishga ketadi. 2030 yilga borib respublika aholisining qariyb 40 million kishiga ko'payishi prognoz qilinmoqda, bu esa mayjud suv resurslarining 7-8 km<sup>3</sup> ga qisqarishiga olib keladi. Bunday sharoitda suv resurslari taqchilligi 2030 yilga borib hozirgi 13-14 foizdan 44-46 foizgacha oshadi, bu esa qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarning rivojlanishini sekinlashtiradi [2].

### 1-sxema



### Suv isrofgarchiligidan qochish sxemasi

Respublikamizdagi sug'orish tizimlaridagi ichki kanallarning 70% dan ortig'i grunt o'zanli kanallarga tog'ri keladi bundan umumi suvning manbadan dalaga yetib borgunga qadar 40% suv sizilish hisobiga yo'qotiladi. Bu umumi suvga nisbatan juda katta yo'qotish bo'lib xo'jaliklararo ichki kanallarni betonlashtirish yoki suv sizilishiga qarshi yangicha materiallarni qo'llash bugungi kunning asosiy masalalaridan biridir.



**1-rasm.** Toshkent viloyati, Nurafshon tumanidagi gruntli kanal va ichki grunt o'zanli ariqning ko'rinishi.

**Suvni tejashda ilg'or texnologiyalar.** Oxirgi yillarda suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda va buning natijasida millionlab kub metr suv tejab qolinmoqda. Sug'orishda asosan tomchilatib, yomg'irlatib, yer ostidan va an'anaviy usuldan foydalanib kelmoqdamiz.

Suv iste'moli (evapotranspiratsiya, umumiy bug'lanish) – rejalahtirilayotgan hosilni olish uchun qishloq xo'jalik ekini iste'mol qiladigan suv miqdoridir. Qishloq xo'jalik ekini etishtirilayotgan dalaning suv iste'moli ( $E$ ) ekinlarning bargidan, tanasidan (transpiratsiya,  $E_{tr}$ ) va tuproq yuzasidan ( $E_t$ ) bug'lantrilgan suvlarning miqdoriga tengdir:

$$E = E_{tr} + E_t \text{ mm, m}^3/\text{ga}$$

Tuproq yuzasidan bug'lanishga asosan tashqi muxit ta'sir etsa, transpiratsiyaga tashqi muxit bilan mujassamlashgan o'simlikning ichki omillari ta'sir etadi. SHuning uchun ularni ajratib olish murakkabligidan,  $E_{tr}$  va  $E_t$  birgalikda, bir butun qilib aniqlanadi.

**Suv iste'moli** - iqlim, gidrogeologik va xo'jalik sharoitlari, o'simlikning biologik xususiyatlari, hosildorligi va sug'orish usullariga bog'liqdir [3].

## 1-jadval

Sinflar	Tuproqning suv o'tkazuvchanligi	Tuproqning mexanik tarkibi	100 m egatda o'rtacha nisbiy suv shimilish sarfi, l/s
A	<b>YUqori darajada</b>	Qumli	0,4 dan yuqori
B	<b>Kuchaygan</b>	Qumoq	0,2
V	<b>Kuchaygan</b>	Engil soz tuproq	0,1
G	<b>Susaygan</b>	O'rta soz tuproq	0,05
D	<b>Sust</b>	Og'ir soz tuproq va gil	0,03 dan kichik

### 1-jadval. Tuproqlarning suv o'tkazuvchanlik darajalari

Dunyodagi yetakchi suv resurslarini boshqarish usullari va kelajakda suvni tejash bo'yicha innovatsiyalarga boy mamlakatlar va shaharlar: Saudiya Arabiston, Bangalor, Hindiston, Shimoliy Xitoy, Isroil, Keptaun, Janubiy Afrika, San-Fransisko, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya [4].

Tomchilatib sug'orish o'simliklarni sug'orishning eng samarali usullaridan biri sifatida mashhur. Misol uchun, o'rtacha purkagich tizimining samaradorligi taxminan 75-85% ni tashkil qilsa tomchilatib sug'orishda esa bu ko'rsatgich 90% dan ortiq samaradorlikka ega. Vaqt o'tishi bilan suvni yetkazib berish samaradorligidagi bu farq hosildorlik va kompaniya daromadida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Suv tanqis bo'lgan hududlarda, masalan, AQShning cho'l hududlarida, tomchilatib sug'orish sug'orishning optimal usuliga aylandi. Tomchilatib sug'orish tizimlari nisbatan arzon va o'rnatish oson, dizayni oddiy va dalalardagi namlik darajasining pasayishi tufayli o'simliklarning sog'lig'ini maksimal darajada oshirishga yordam beradi. Italiya dunyoning eng yirik agrar davlatlaridan biri bo'lib, yerlearning katta qismida bug'doy, makkajo'xori, sholi va mevalar yetishtiriladi. Italiya 2011-yilda tomchilatib sug'orishni joriy qila boshlagan. Keyingi o'ttiz yil ichida Evro Jahon suv taraqqiyoti hisobotiga (WWDR) ko'ra, 2030 yilga kelib dunyo aholisining 47 foizi suv ta'siri yuqori hududlarda yashashi mumkin. Agar bu ogohlantirishga ishonadigan bo'lsak, suv manbalaridan yaxshiroq foydalanish va tejash yo'llarini ishlab chiqishimiz va amalga oshirishimiz muhim ahamiyatga ega. Tomchilatib sug'orish esa dehqonchilik uchun mukammal yechim bo'lishi mumkin.

Tomchilatib sug'orish tizimining "asosiy qismlari". Tomchilatib sug'orish tizimini sozlash juda oddiy va ular bir nechta tarkibiy qismlardan iborat. Tizim quyidagi komponentlardan iborat bo'ladi.



2-rasm. Soddalashtirilgan tomchilatib sug'orish tizimi



3-rasm. Tomchilatib sug'orish tizimining daladagi ko'rinishi

Kelajakda suv ta'minoti muammosi kundan kunga kengayib borayotganligi sababli, suvdan foydalanishni yaxshilash zarurati, ehtimol tomchilatib sug'orish texnalogiyasi qishloq xo'jaligi uchun tobora muhimroq bo'lib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Tomchilatib sug'orish nisbatan oddiy texnologiya bo'lib, an'anaviy suvga "och" yoki "chanqagan" sug'orish usullariga ajoyib alternativ yechimchi taklif etadi. [5].

**Xulosa** qilib aytishimiz mumkin bizning mamlakatimizda suvni tejash va undan oqilona foydalanish zarur va shart. Shu sababli mavjud suv zaxirasini saqlash va sug'orishda yangicha texnalogiyalarning ahamiyati xususan tomchilab tug'orishni va suv hisobini aniq raqamlarda monitoring qilish bugungi kunning talabidir. Xorijiy tajribalardan kelib chiqib suvni qanchalik tejashimiz suv tejamkor texnalogiyalardan foydalanishni chuqurroq o'rganish va kerakli joyga zarur bo'lgan texnalogiyani tanlashimizga bog'liq ekan.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

- [1]. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/17/water/>
- [2]. <https://cabar.asia/en/uzbekistan-s-water-sector-environmental-and-managerial-issues>
- [3]. М. Xamidov, B. Suvanov, K. Isabaev Sug'orish melioratsiyasi 32, 71-betlar Toshkent-2019
- [4]. <https://impacx.io/blog/top-cities-breaking-the-mold-in-water>
- [5]. <https://interestingengineering.com/science/how-exactly-does-drip-irrigation-work>
- [6]. Осипова М.А. Инженерная геология в коломенский спициальная геология М.А. Осипова-М. УДН, 2019. Б-115.
- [7]. Павчин М.П., Методы определения коэффициента фильтрации грунтов / М.П. Павчин Б.И., Балыков.-М. Энергетика, Б-115.

## ЖАМИЯТДАГИ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЗИДДИЯТЛАРДА МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР ОМИЛИ

**Мусаев Одил Рахматович**

Ренессанс таълим университети профессори,  
фалсафа фанлари доктори (DSc)

**Аннотация:** Мазкур мақолада жамият ижтимоий сиёсий барқарорлигини таъминлаш, кўпмиллатли жамиятларда миллатлараро муносабатларни мустаҳкамлаш, жамиятдаги ижтимоий-сиёсий зиддиятларда миллатлараро муносабатлар омили таҳлил этилган. Шунингдек унда зиддият – мураккаб, кўп қиррали ва даражали ижтимоий-рухий ҳолат эканлиги, зиддият деганда, аввало, қадриятлар ҳамда маълум бир мақом, ҳокимият, захиралар учун кураш, рақиблар томонидан бир бирига моддий ва маънавий зарар етказиш, рақибни йўқ қилиш тушунилиши борасида фикр юритилади.

**Калит сўзлар:** кўпмиллатли жамият, зиддият, ижтимоий зиддиятлар, миллатлараро зиддиятлар, шахслараро зиддиятлар, манфаат, миллий сиёсат, миллатлараро тотувлик, бағрикенглик.

## ФАКТОР МЕЖЭТНИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СОЦИАЛЬНО- ПОЛИТИЧЕСКИХ КОНФЛИКТАХ В ОБЩЕСТВЕ

**Аннотация:** В данной статье анализируется социально-политическая стабильность общества, укрепление межэтнических отношений в полигэтнических обществах, а также фактор межэтнических отношений в социально-политических конфликтах в обществе. Также рассматривается тот факт, что конфликт представляет собой сложную, многогранную и многоуровневую социально-психологическую ситуацию, конфликт означает, прежде всего, ценности и борьбу за определенный статус, власть, резервы, материальный и моральный ущерб со стороны противников. и уничтожение противника.

**Ключевые слова:** многонациональное общество, конфликт, социальный конфликт, межэтнический конфликт, межличностный конфликт, интересы, национальная политика, межэтническое согласие, толерантность.

## THE FACTOR OF INTERETHNIC RELATIONS IN SOCIO-POLITICAL CONFLICTS IN SOCIETY

**Annotation:** This article analyzes the socio-political stability of society, the strengthening of interethnic relations in multi-ethnic societies, as well as the factor of interethnic relations in socio-political conflicts in society. The fact that conflict is a complex, multifaceted and multi-level socio-psychological situation is also considered; conflict means, first of all, values and the struggle for a certain status, power, reserves, material and moral damage from opponents. and destruction of the enemy.

**Key words:** multinational society, conflict, social conflict, interethnic conflict, interpersonal conflict, interests, national policy, interethnic harmony, tolerance.

Ижтимоий тараққиётнинг боришига қараб миллатлар ривожланиб боради. Фақат биргина XX аср давомида Ер куррасидаги аҳоли 1,7 миллиарддан 6,2 миллиардгача ўсган, яъни 3,5 карра ошган. Демак миллатлар йириклишиб хам бормоқда. Ер юзасидаги аҳоли масалалари билан шуғулланувчи мутахассисларнинг хисобларига кўра ҳозирги даврда 2,5 мингдан 5,5 мингача турли миллатлар ва элатлар мавжуд. Рақамлардаги бундай катта тафовутни тушуниш мумкин, чунки ер юзининг қисмларида ҳали аҳоли сони, таркиби ва миллий тафовутлари, уларнинг фарқлари етарли даражада ўрганилган эмас. Ундан ташқари, ахолининг қайси гурухини миллат деб аташ мумкин, қайсини эса элат дейиш маъқул деган масалада умумқабул қилинган меъёр ва мезонлар йўқ ва ҳар бир тадқиқотлар гурухи ўз қоидалари асосида иш кўради. Аммо, жаҳондаги кўпгина миллий-оммабоп адабиётларда ер юзидағи миллатлар ва элатларнинг сони 3 мингга яқин, дейилади.

Мутахассисларнинг фикрича, ер юзи ахолисининг 96 фоизи у ёки бу даражага уюшган миллатлар бўлиб, 4 фоизи эса элатлар ва қабилалардир. Баъзи халқлар ўзининг камсонлиги, тарқоқ ҳолда катта худудларда истиқомат қилиши каби сабабларга кўра миллат бўлиб уюша олмаганлар. Улар элат ҳолида қолиб, ўз атрофидаги йирик миллатлар билан ҳамкорлик йўлидан бормоқдалар. Бундай элатлар ер юзида анчагина бўлиб, камсонликлари ва тарқоқликлари сабабли инсоният хаётига сезиларли таъсир кўрсатмайдилар. Ер юзида миллатлар ва элатларнинг кўплиги улар манфаатларининг ҳам турли туманлигини билдиради. Бу эса миллатлараро муносабатларда у ёки бу шаклда зиддиятларнинг мавжудлигидан далолат беради.

Инсоният яралибдики, турли-туман зиддиятлар қуршовида яшаб, курашиб келади. Зиддиятларнинг мавжудлиги, бир томондан, инсониятни курашга, ўзининг, жамиятнинг ҳаётини, давлат фаолиятини яхшилашга унласа, иккинчи томонидан турли хил деструктив, вайронкор кучларнинг фаоллашувига ҳам олиб келади. Томонлар бир бирларининг тушунмаслиги, бирор бир муросага келмаслиги мазкур кучларни ҳаракатга келтиради. Хўш, зиддият нима? Нега у

инсоният ҳаётида муҳим аҳамиятга эга? Оммавий ахборот воситалари зиддиятларнинг келиб чиқишига сабаб бўладими?

Зиддият – мураккаб, кўп қиррали ва даражали ижтимоий-руҳий ҳолат. Зиддият деганда, аввало, қадриятлар ҳамда маълум бир мақом, ҳокимият, захиралар учун қураш, рақиблар томонидан бир бирига моддий ва маънавий зарар етказиш, рақибни йўқ қилиш тушунилади. Зиддиятларда у ёки бу мавзулар, қизиқиш ва манфаатлар орқали бирлашган индивидлар, ижтимоий гуруҳлар, миллий-этник жамоалар, давлатлар, бир гуруҳ мамлакатлар қатнашадилар.

Зиддиятлар турли сабабларга кўра юзага чиқади, яъни: маънавий, моддий, иқтисодий, сиёсий, диний келишмовчиликлар ва бошқалар. Зиддиятни чукурроқ тушуниш учун, албатта унинг келиб чиқиш сабабларини ўрганмоқ лозим. Масалан, эр-хотин ўртасидаги зиддиятларни оладиган бўлсак, аввало уларнинг оиласавий ҳаётда турли маънавий ва моддий захираға эга бўлган оиласаларда тарбиялангандиклари, бир-бирини хурмат қилмаслиги, тушунмаслиги, эр хотинни, хотин эрни қўллаб-қувватламаслиги, оиласадаги иқтисодий этишмовчилик ва ҳоказоларни сабаб қилиб олиш мумкин. Ишхонада раҳбар ва ходим ўртасидаги зиддиятлар аксарият ҳолатларда раҳбарнинг бошқарув илмига тўлиқ эга эмаслиги, соҳани билмаслиги, қўл остидаги ходимлар билан келиша олмаслиги, уларни тушунмаслиги ёки ўз гапини ўтказа олмаслиги ва ҳоказолардан келиб чиқади. Ҳар қандай зиддият асосида бирор томоннинг маълум бир мақсадга эришиш йўлидаги ҳаракати ётади. Демак, зиддият маълум манфаат ва мақсадларга эришиш йўлидаги ўзаро мулоқотнинг ўзига хос сифатидир<sup>1</sup>. Ҳар қандай зиддият инсонлар ва индивиднинг руҳий ҳолатидаги қарама-қаршиликлар ҳосиласидир. Борлиқдаги ҳар бир предмет ва ҳодиса у ёки бу кўринишдаги қарама-қаршиликларга эга. Қарама-қарши хосса ва хислатларнинг ўзаро бир-бирини истисно этишлари асосида зиддият вужудга келади. Зиддият эса, албатта бошқа ҳолатга, босқичга, сифатга ўтиш заруриятини туғдиради<sup>2</sup>. Зиддиятнинг белгилари қандай намоён бўлади? У зиддият қатнашчилари томонидан қабул қилинган ҳолатнинг мавжуд бўлиши, зиддият обьектининг баҳслилиги, қатнашчиларнинг ўз мақсадларига эришиш учун зиддиятга киришишга тайёрликлари билан белгиланади.

Зиддиятнинг обьекти бўлиб манфаатлар тўқнашуви юзага келадиган қадрият хизмат қиласи. Унинг обьекти бўлсагина зиддият юзага келади. Бундай обьектлар ҳақиқий, потенциал, ёлғон ва хаёлий ҳам бўлиши мумкин.

Зиддиятнинг предмети бўлиб ўзаро алоқага кирган томонларнинг рақобат орқали ҳал қилмоқчи бўлган қарама-қаршиликлари хизмат қиласи.

### Зиддиятлар таснифи

<sup>1</sup> Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: Учебник для вузов. — М.: ЮНИТИ, 2000. — 11 с.

<sup>2</sup> Кўшқов С. Диалектика ва билиш назарияси. <http://uz.denemetr.com/docs/769/index-314213-1.html?page=7>

Зиддиятларни таснифлашда албатта уларнинг ўзига хослигини инобатга олиш зарур. Шу нұқтаи назардан уни:

- 1) шахснинг ички қарама-қаршиликлари ва кураши;
- 2) шахслараро;
- 3) шахс ва гурұх ўртасидаги;
- 4) гурұхлараро;
- 5) давлатлараро (ёки давлатлар коалициялари ўртасидаги) зиддиятларга бўлиш мумкин.

Шахсдаги ички қарама-қаршилик унинг асабийлашиши, ўз ҳаётй фаолиятидан қониқмаслиги, бир қарорга кела олмаслиги натижасида пайдо бўлади. Масалан, Зигмунд Фрейднинг психоанализ назариясига кўра<sup>3</sup>, ички зиддият «Мен» ва «Ўзига юқори баҳо бериш»дан келиб чиқади. Мазкур зиддиятлар руҳий асосга эга бўлиб, шахснинг ўзига паст ёки жуда юқори баҳо беришидан келиб чиқади. Улар конструктив ва деструктив характерга эга бўлиб, шахснинг руҳий ва жисмоний ҳолатига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Масалан, олий ўқув юртининг талабаси ўзидағи мавжуд билимга кўра, аллақачон етук мутахассис сифатида бирор бир ташкилот ёки корхонада ишлаши, ёхуд докторантурада ўқиши лозимлигини хис қиласи. Аммо ҳали олий ўқув юртини битирмаганлиги ва қўлида дипломи бўлмаганлиги сабабли у ич-ичидан сиқилади, талаба бўлиб ўзининг даражасига teng келадиган яхшироқ иш излашга интилади. Ёки инсон ўзи яшаётган жамият ривожидан қониқмайди. Бошқа, ривожланган давлатга кўчиб кетгиси келади, аммо унинг моддий аҳволи бунга йўл кўймайди. Натижада унда юзага келадиган ички зиддият, уни турли йўлларга бошлайди (яхши иш топишга интилиш, ўз устида ишлаш, яқинлари билан пул устида жанжаллашиш, қарз олиш ва ҳоказо)

Шахслараро зиддият. Бу икки ва ундан ортиқ шахс ўртасидаги зиддият бўлиб, ҳаётда турли сабабларга кўра тез-тез учраб туради. Бунга мисол қилиб, йигитлар ўртасида бир қизнинг муҳаббати учун кураш (ёки аксинча), раҳбар ва ходим ўртасидаги келишмовчилик, қўшнилар ўртасидаги зиддият, жамоат транспорти йўловчилари ўртасидаги тушунмовчилик ва ҳоказоларни кўрсатиш мумкин. Бундай зиддиятлар жамиятнинг ҳар бир жабҳасида: иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, маънавий ва бошқаларда содир бўлиши мумкин. Шахслараро зиддиятларда инсонларнинг шахсий сифатлари, уларнинг ақлий салоҳияти, тарбияси муҳим аҳамият қасб этади.

Шахс ва гурӯх ўртасидаги зиддият. Гурӯхлар ўз ичига бир қанча муносабатларни мужассам этади ва албатта унда расмий ва норасмий етакчи бўлади. Шу сабабли гурӯх ичида зиддиятга бориш хавфи кучаяди.

<sup>3</sup> Лукин, Ю.Ф. Конфликтология : управление конфликтами : Management of the conflicts : учебник для вузов / Ю.Ф. Лукин. — М. : Академический Проект Гаудеамус, 2007. — 19 с.

Шахс ва гурух ўртасидаги зиддият конструктив ва деструктив бўлиши мумкин. Биринчи ҳолатда у шахс ва гурух ўртасидаги муносабатларни мустаҳкамлашга хизмат қилса, иккинчисида гурух ўртасидаги тарқоқликка олиб келади.

Гуруҳлараро зиддият. Мазкур зиддият турли хил гуруҳлар манфаатларининг тўқнашуви натижасида юзага келади. Аксарият ҳолатда бундай зиддиятлар ижтимоий гуруҳлар ичida юз беради. Масалан, мактабдаги синфлар, талабаларнинг гуруҳлари, ишлаб чиқариш бригадалари, ОТМ кафедралари, сиёсий партиялар, этник жамоалар, диний ташкилотлар орасида. Ижтимоий зиддиятларни К.Маркс<sup>4</sup> ва унинг издошлари тадқиқ этишган бўлиб, уларнинг фикрича, зиддият асосида иқтисодий, ижтимоий, маданий, ирқий ва бошқа келишмовчиликлар ётиши мумкин.

Статистик маълумотларга кўра, дунёдаги асосий зиддиятлар гуруҳлараро характерга эга. Буларга асосан этник, ирқий, диний ва маданий белгилар асосида юзага келадиган зиддиятлар киради. Кўп ҳолатларда зиддиятлар этник гуруҳларнинг элементар эҳтиёжларини қондирмаслик, яъни уларга маълум бир мақом, маданий ўзига хослик, фикр, сўз, дин эркинлигининг берилмаслиги натижасида келиб чиқади.

Давлатлараро зиддият. Бундай зиддиятлар асосан алоҳида давлатлар ва коалициялар ўртасидаги келишмовчиликлар оқибатида юзага келиши кузатилади. Уларнинг сабаблари турлича яъни, иқтисодий, сиёсий, гоявий, ҳудудий ва бошқалар бўлиши мумкин. Албатта давлатлараро зиддиятлар асосида, биринчи галда мамлакатлар манфаатларнинг бир бирига зидлиги ётади. Бундай зиддиятларнинг энг хавфли томони – ҳарбий ҳаракатлар бошланган тақдирда одамларнинг оммавий равишда қирилишидир. Давлатлараро зиддиятларни мувофиқлаштириш ва жаҳонда тинчликни сақлашда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг тинчликпарвар фаолияти мухим роль ўйнайди. Унинг асосий вазифаларидан бири сайёранинг хавфли нуқталарида тинч аҳолтини ўлимдан ва турли хавфлардан сақлашади.

Айтиш жоизки, юқорида санаб ўтилган барча зиддиятларнинг турлари бирбири билан доимо алоқада бўлиб, ўзаро таъсир этиш кучига эга. Масалан, халқаро зиддиятлар кўп ҳолатларда давлатнинг ички зиддиятларига, давлат эса гуруҳлар ўртасидаги зиддиятга, гуруҳлар шахс ва гурух ўртасидаги зиддиятга таъсир ўтказади.

Бугун миллатлараро зиддиятларни ижтимоий тараққиёт нуқтаи назаридан ҳал этиш жаҳон халқларини, айниқса полиэтник давлатларни безовта қилаётган глобал муаммолардан биридир. Жумладан, Англияда Ольстер, Францияда Корсика, Испанияда Каталония, Италияда Жанубий Тиролия, Бельгияда

<sup>4</sup> The Context of Social Psychology // Ed. by J. Israel, H. Tajfel. – London, 1972. P.6

Фламандия, Хитойда Уйур автоном тумани ва Тибет, Болгарияда турклар, Туркияда курдлар миллий низоларга, сиёсий-ижтимоий тўқнашувларга сабаб бўлиб келади. Собиқ СССРнинг тарқалиши билан унинг ўрнида пайдо бўлган мустақил давлатларда, айниқса тоталитар тузум тазиқи остида бўлган Югославия, Руминия, Венгрия, Чехословакияда миллатлараро тўқнашувлар авж олди. Ҳаттоқи, энг ривожланган АҚШдек давлатда ҳам миллий-этник муаммолар мутлақ ҳал этилмаган. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримов таъбири билан айтганда, “этник ўзликни англашнинг ўсиши яна узоқ вақт давомида ҳозирги дунё сиёсий тараққиётининг динамикасини белгилаб беради”.<sup>5</sup>

Миллатлараро зиддиятлар бу – миллий-этник жамоалар ёки улар вакиллари ўртасидаги зиддиятлардир. Миллатлараро зиддиятлар ўзининг типологик хусусиятига кўра энг аввало ижтимоий характерга эга. Унинг субъекти бўлиб аниқ бир кўпмиллатли давлатда, ижтимоий тизимда манфаатлари бир бирига зид келиб қолган турли этник жамолар ҳисобланади. Айни вақтда миллатлараро зиддиятлар сиёсий аҳамият касб этади. Чунки, ҳеч бир миллат ёки этник гурух ўзининг сиёсий ташкилоти ва ўз давлатчилигисиз шаклланмайди ҳамда ривожланмайди. Шунинг учун ҳар қандай миллатлараро зиддиятларнинг орқасида маълум бир сиёсий кучлар ёки давлатлар манфаатлари ётади. Ҳозирги кунда дунёда миллатлараро зиддиятлар тобора ижтимоийлашиб бормоқда ва у миллий, ижтимоий-сиёсий зиддиятлар сифатида намоён бўлмоқда. Бугунги кунда дунёning турли нуқталарида юз бераётган миллатлараро зиддиятлар заминида кўпмиллатли давлатларда кичик этник жамоа ҳисобланаётган миллатларнинг аввало, ўз мустақил давлатчилигини шакллантириш ёки этник ватандошлари билан бирлашишга бўлган интилиш ётибди.

Миллий – этник зиддиятлар ўзининг узоқ тарихига эга. Унинг кичик кўриниши қадимги даврдаги қабила ва уруғлар ўртасидаги зиддиятлар бўлиб у унчалик даражада ҳалокатли эмас дейиш мумкин. Ҳозирги пайтдаги миллий-этник низолар нисбатан инсоният ва унинг келажаги учун анча хатарлироқдир. Чунки ҳозирда ўртacha энг кичик миллат беш юз миндан бошланади ва энг катталари миллиардан ошиб кетади ҳамда улар ўзига хос замонавий қирғин қуролларга эга эканлигини инобатга олсак унинг қай даражада эканлигини тасаввур қилиш қийин эмас. Унданда даҳшатлиси миллий-этник зиддиятларни ўз ичига олувчи динлараро ва конфессиялараро зиддиятлардир. Ушбу зиддиятлар бошқаларига нисбатан кенг кўламлиги, шафқатсизлиги, кўп қурбонлар бўлиши, узоқ вақт давом этиши мумкинлиги билан бошқаларидан кескин ажralиб туради. Масалан, ўтмишда християнланинг мусулмонлар

<sup>5</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 69 б.

устига “Салб юриши”, Котоликлар ва протестанлар ўртасидаги ўзаро урушлар ва х.к.

Миллатлараро зиддиятлар табиати бир жамиятда яшаётган турли хил миллатларнинг ўзаро ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-маданий ва ўзаро қўпқиррали алоқаларининг қай даражада йўлга қўйилганлигига боғлиқ. Бир сўз билан айтганда миллатлараро зиддиятлар кўпроқ ўзаро миллий манфаатларнинг тўқнашувидан келиб чиқади. Миллатлараро муносабатлардаги зиддиятлар ўзаро алоқаларнинг йўқолишига, у эса миллий биққиқликка олиб келиши мумкин. Бизга маълумки миллий тараққиёт бошқа бир миллатлар билан ўзаро яқин ҳамкорлик асосида ривожланади. Фақатгина ягона динга эътиқод қилувчи, маълум бир ижтимоий маконда узоқ йиллардан бери истиқомат қилувчи турли хил миллатлар ўртасидаги зиддияларга барҳам бериш ва ўзаро яқинлаштириш имкониятлари кенгрок бўлади. Бунга Европа Иттифоқига кирувчи давлат халқларини мисол қилиб келтириш мумкин. Миллатлараро муносабатлардаги зиддиятли ҳолатлар кўпроқ бир миллат манфаатларининг иккинчиси томонидан камситилиши ҳисобига ўзиникини юқорига қўтаришга бўлган амалий ҳаракатлар натижасида вужудга келади.

Кўпмиллатли жамиятни ташкил этувчи бир биридан айрим жиҳатлари билан ёки кескин фарқ қилувчи этник гурухлар, яъни жамиятдаги маҳаллий миллатлар ёки озчиликни ташкил этувчи майдада миллатлар, турли хил миллий гурухлар, миллий ташкилотлар, элита кабилар миллатлараро зиддиятларнинг субъекти ҳисобланади. Улар ичida зиддиятларни келтириб чиқарувчи асосий омил сифатида миллий ҳаракатларни келтириш мумкин. Миллий ҳаракатлар миллатлараро муносабатлардаги зиддиятларнинг ўз фойдасига ҳал этишга қаратилган интилишлар натижасида шаклланиши ва ривожланиши мумкин.

Кўпмиллатли жамиятларда миллатлараро муносабатларни барқарорлаштиришнинг ўзига хос жиҳатлари қуидагилардир:

Биринчидан, қўпмиллатли давлатда миллий сиёsat ва миллатлараро муносабатларни тартибга солишнинг концепцияси ишлаб чиқилмоғи лозим;

Иккинчидан, қабул қилинадиган қонунлар ва қарорларда барча миллатларнинг tengligини, уларнинг барча яратиладиган моддий ва маънавий бойликлардан teng фойдаланиши кабилар ўз ифодасини топишлари лозим. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 18-моддасига биноан «Ўзбекистон Республикасининг барча фуқаролари бир хил хуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар, қонун олдида тенгдирлар».

Фуқаролар хуқуқларини ижтимоий, ирқий, миллий, тил ва диний мансублик бўйича чеклашнинг ҳар қандай шакллари таъқиқланади. Бундан ташқари

Конституция эркак ва аёл тенг хуқуқ ва эркинликларга эгалигини ҳамда уларни амалга оширишда тенг имкониятларга эга эканлигини белгилайди.

Учинчидан, миллатлараро зиддиятларни хал қилишда дипломатик, келишувчанлик каби сиёсий воситалардан фойдаланиш зарур.

Миллий сиёsat деганда – давлат томонидан жамиятдаги турли миллатлар ва этник гурухларнинг ривожига, миллатлараро муносабатларни такомиллаштиришга ва шу асосида барқарор ривожланишни ташкил қилишга қаратилган аниқ мақсад асосида олиб бориладиган фаолият тушунилади.

Хулоса қилиб айтганда, кўпмиллатли жамиятларда барча миллат ва этник гурухлар манфаатлари қондирилиши адолатли ташкил этилган бўлса, айниқса, улар ўртасида хуқуқий тенглик мамлакатнинг бош қомуси бўлган конституцияси ва қонунларида ўз аксини топган ва амалиётга тадбиқ этилган бўлса, давлатда миллатлараро можаролар келиб чиқишининг эҳтимоли камаяди. Бу ўз навбатида жамиятнинг барқарор ривожланишида муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

## THE IMPORTANCE OF STRUP TEST IN UZBEK TONGUE EDUCATION O'ZBEK TILI TA'LIMIDA STRUP TEST AHAMIYATI

**Abdunazarov Otabek Abdupatto o'g'li**

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafesrasi o'qituvchisi

email: abdunazarov605@gmail.com

**Annotation.** The importance of non-standard assignments in uzbek tongue lessons, their impact on the development of students' thinking, and the benefits of structuring tests are discussed.

**Keywords:** non-standard task,strup test, reading comprehension, logical thinking, language skills, data coding, decoding.

**Annotatsiya.** O'zbek tili darslarida noan'anaviy topshiriqlarning ahamiyati, ularni o'quvchi tafakkurini rivojlanishiga ta'siri,strup testning foydali jihatlari ko'rastib o'tilgan.

**Kalit so'z:** noan'anaviy topshiriq,strup test,o'qib tushunish,mantiqiy fikrash,til ko'nikmasi,ma'lumotni kodlash,dekodlash.

O'qituvchilar odatda o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga duch kelishadi. "Erkin qiziqish tilni o'rganish uchun dahshatli zaruriyatdan ko'ra muhimroqdir", deb yozgan Avrelius Avgustin. Zamonaviy psixologlarning ta'kidlashicha, barcha bolalar ijodiy salohiyat bilan tug'ilishadi, lekin ular o'sib ulg'aygan sayin ularning ko'plari o'ziga xos qobiliyatlarini yo'qotadilar. Faqat bir nechtasi o'z iste'dodini saqlab qoladi. Nima uchun bu sodir bo'layapti? Buning asosiy sababi shundaki, bola atrofidagi odamlar uning qiziqishlarini biron bir tarzda qo'llab-quvvatlamaydilar, ularni rivojlantirishga urinmaydilar, ba'zida ular o'z farzandlarida shunchaki "alohida" narsani ko'rmaydilar. Shuning uchun, ko'plab bolalar hatto o'zlarining qobiliyatlarini bilishmaydi va agar bilishsa ham, ularni qanday qilib rivojlantirishni bilishmaydi. Shuning uchun tarbiyachining va o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri bolaning tabiatan unga xos bo'lgan ijodiy salohiyatini o'z vaqtida ko'rish va rivojlantirish kerak. Bu masalada, albatta, pedagogik yordam kerak. Iqtidorli bola bilan muloqot qilishning o'ziga xos texnologiyasini ishlab chiqishdan boshlashimiz kerak. Bolaning barcha qiziqishlariga yetarlicha javob beradigan, unga ta'lim faoliyatini tanlashga va uning bilish faoliyatini qondiradigan harakatlarni amalga oshirishga imkon beradigan shunday rivojlanayotgan muhitni yaratish kerak. Maktab fanlarini o'qitish mazmunli o'rganish jarayonlarini faollashtirish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Va bu holda o'qituvchiga quyidagi talab qo'yiladi: jarayon uchun qulay sharoitlar yaratish;

o‘quvchining qiziqish va qobiliyatları alomatlarini o‘z vaqtida sezish; o‘quvchilarini rivojlangan xotira, diqqat, izchillik va noan’anaviy fikrlashga o‘rgatish; ishdagi mustaqillik. Aynan ularning rivojlanishi va shakllanishi o‘qituvchining vazifasidir. Ushbu muammoni hal qilishda noan’anaviy mashq va topshiriqlar yordam berishi kerak.

O‘zbek tili faniga qiziqishni rivojlantirish vositalaridan biri bu noan’anaviy topshiriqlar. Noan’anaviy topshiriq juda keng tushuncha.. “Noan’anaviy topshiriq” atamasi ba’zi metodistlar tomonidan qo‘llaniladi. Yu M. Kolyagin ushbu konsepsiyanı quyidagicha ochib beradi: “Noan’anaviy topshiriq tushunilgan vazifa, taqdimotga binoan o‘quvchilar uni hal qilish usulini yoki yechim asosidagi o‘quv materialini oldindan bilishmaydi”.

Fridman, E.N. Turetskiy: “Noan’anaviy topshiriqlar - bular fan kursi uchun ularni hal qilishning aniq dasturini belgilaydigan umumiy qonun va qoidalarga ega bo‘lmaganligidir”. [<https://oimurschool.ru/uz/otnosheniya/nestandardnye-zadaniya-nestandardnye-zadachi-uchitel-matematiki-vysshei/>]

Ushbu turdagı topshiriqlarni an'anaviy (standart) topshiriqlardan ajratib olishga imkon beradigan bir qator xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Noan’anaviy topshiriqlarning assosiy farqlash xususiyati ularning "psixologiya samarali deb ataydigan faoliyat bilan" bog‘liqligi. Masalan, o‘quvchilarining belgilangan ta’lim muammosini hal qilish yo‘llari va variantlarini mustaqil ravishda izlashi (taklif qilingan variantlardan birini tanlash yoki o‘z variantini topish va yechimni asoslash); g‘ayrioddiy ish sharoitlari; ilgari olingan bilimlarni notanish sharoitlarda faol ravishda qo‘llash. Noan’anaviy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar (qiyin vaziyatlar, ulardan olingan bilimlardan foydalanib chiqish yo‘lini topish kerak), rol o‘ynash va ishbilarmonlik o‘yinlari, tanlovlar va musobaqalar shaklida taqdim etilishi mumkin. Noan’anaviy topshiriqlar darsni jonlantirishga yordam beradi. Topshiriqlarning g‘ayrioddiyligi ularni amalga oshirish boshlanishida maktab o‘quvchilarida kutilmagan hodisalar, ish jarayonida quvonch, natijalarini ko‘rib zavqlanishni keltirib chiqaradi, nafaqat o‘rganilayotgan topshiriqlarga, balki o‘zbek tilida ham mavzu sifatida qiziqish uyg‘otadi. Ta’lim jarayonida o‘zbek tili o‘qituvchilarini maktab amaliyotida hali keng qo‘llanilmagan noan’anaviy topshiriqlarning ayrim turlari bilan tanishtirib borishi lozim bo‘ladi.

I.Azimova “Matnni o‘qib tushunish murakkab psixolingistik jarayon bo‘lib, grafemalarni tanish, so‘zni o‘qish, so‘zning lug‘aviy ma’nosini, kontekstual ma’nosini anglash, sintaktik strukturani to‘g‘ri hal etish (ya’ni so‘zlarning o‘zaro munosabati, qaysi so‘z gapdagi assosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o‘zaro bog‘lanishini tushunish kabi darajalardan iborat” ekanligini, “mazkur darajalardan o‘tib matnni o‘qib chiqqan har bir o‘quvchini matnni to‘liq tushungan” deb

bo‘lmasligini ta’kidlaydi. [Azimova I. O‘zbek tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 215–224.]

O‘zbek tilini o‘qitishda noan’anaviy topshiriqlardan foydalanish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish asosida ularning umumiyligi va o‘ziga xos rolini belgilash mumkin. Noan’anaviy mashq va topshiriqlar quyidagi xusuyatlarga ega<sup>6</sup> :

- ✓ Bolalarni nafaqat tayyor qoidalardan foydalanishni, balki mustaqil ravishda qoidalarni hal qilishning yangi usullarini topishga o‘rgatish, ya’ni. muammolarni hal qilishning o‘ziga xos usullarini topish qobiliyatiga hissa qo‘shish;
- ✓ O‘quvchilarning zukkoligi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish;
- ✓ Muammolarni hal qilishda zararli qiliqlarni rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalaridagi noto‘g‘ri assotsiatsiyalarni yo‘q qilish, lingvistik metodlarni o‘zlashtirishni bilimdagi yangi bog‘lanishlarni topish, bilimlarni yangi sharoitlarga o‘tkazish, aqliy faoliyatning turli usullarini o‘zlashtirish kabi taxmin qilishni;
- ✓ O‘quvchilarning bilimlari kuchliligi va chuqurligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, o‘zbek tili haqidagi tushunchalarni ongli ravishda o‘zlashtirishni ta’minlash;
- ✓ Psixolingvistik nuqtayi nazardan til xususiyatlarini yaxshilash, nutq ravonligini oshirish, matnlar ustida ishslash ko‘nikmalarini paydo qiladi.

O‘quvchilar ikkala miya yarimsharlarini teng ishlatish orqali barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtirish;

1935-yilda miyamiz ishi bilan bog‘liq bo‘lgan, xotira, diqqatni rivojlantiruvchi va ijodiy tafakkurni uyg‘otuvchi ta’sir haqida maqola e’lon qilindi. Maqola muallifi amerikalik psixolog Jon Ridli Strupdir. U quyidagicha tajriba o‘tkazadi. Uning ishtirokchilariga kartochkalarning uchta varianti berildi:

1-ranglarning nomlari qora siyohda bosildi.

Ranglarni nomlash kerak edi (faqat beshta rang bor: qizil, ko‘k, yashil, jigarrang, binafsha rang).

2-so‘zning rangi va uning ma’nosi mos kelmadи (topshiriqn, "yashil" so‘zi qizil rangda, "sariq" so‘zi ko‘k rangda yozilgan).

O‘qilgan so‘zning rangini emas, balki shriftning rangini nomlash kerak edi.

3-faqat kvadratchalar yoki turli rangdagi geometrik shakllar guruhlari mavjud edi. Rangli geometrik shakllar, ichida rang nomlari har xil rangda berilgan.

Tajriba boshida barcha ishtirokchilardan birinchi va ikkinchi ro‘yxatlarning so‘zlarini ifodalovchi ranglarni nomlash, shuningdek kvadratlar yoki geometrik shakllar ranglarini nomlash talab qilindi. Bu bilan deyarli hech kimda muammo bo‘lmadi. Ammo ikkinchi variantda bu aniq qiyinchiliklarga olib keldi. Ishtirokchilar

<sup>6</sup>Булгакова, И.В. Нестандартные уроки русского языка. 5–7 классы. /– Ростов-на-Дону: «Феникс», 2002..

tez javob bera olmadilar, kechikish bilan javob berdilar va hatto tez-tez yozma va haqiqiy ranglarni aralashtirdilar.

Nima uchun bunday bo‘lishini tushunaylik. D.Strupga ko‘ra, bunday kechikish vaqt o‘tishi mumkin, chunki rangni bildiradigan so‘zni o‘qiyotganda shrift rangining nomiga mos kelmaydi va inson miyasi bir vaqtning o‘zida ikkita topshiriqni hal qiladi: birinchisi o‘qiydi, ikkinchisi esa rangni taniydi va uni nomlaydi. Matn va rangni idrok qilish miyaning turli qismlarida sodir bo‘ladi. Birozdan so‘ng bunday test o‘qiy olmaydigan bolalar bilan o‘tkazildi. Ularga 2 va 3 variantlar taklif etildi. Ma’lum bo‘lishicha, ular uchun turli ranglarda yozilgan kvadratlar va so‘zlarning rangini tanib olish vaqt vaqtli bir xil bo‘lgan.

Bu guruh bolalari uchun rang-barang so‘zlar mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi, ular uchun hech qanday ma’no tashimaydigan rangli geometrik shakllar kabi faqat ba’zi rangli ramzlardir.

Bugungi kunda olimlar nima uchun bunday bo‘layotganiga hali aniq javob berishmayapti. Miyaning turli qismlari ranglarni o‘qish va tanib olish uchun mas’uldir, lekin nima uchun o‘qish variantini tanlashadi va haqiqiy emas, mutaxassislarning fikrlari farqlanadi.

Nazariyalardan biri miya resurslari iqtisodiyoti – inson o‘zi uchun tanish bo‘lgan tilda so‘z ko‘radi va uni avtomatik ravishda o‘qiydi, ya’ni boshida tayyor javob paydo bo‘ladi va uning miyasi shunday deydi: “nima uchun ko‘proq o‘ylaysiz?” Yana bir nazariya (Strup nazariyasi) bir so‘zni baland ovozda o‘qish orasidagi odamda reaksiya u tegishli rangni eslab qolishi, tanishi va nomlashiga qaraganda tezroq bo‘ladi.

Strup testi miya yarim sharlarini rivojlantirish uchun yaxshi mashqdir. Bundan tashqari, testning murakkab versiyalari bilan muntazam ishslash keraksiz ma’lumotlarni filtrlashni tezda o‘rganishga kata yordam beradi. Mashqlar uchun faqat ikkinchi variant foydalidir, bu yerda barcha so‘zlar boshqa shrift rangida yoziladi. Olimlar juda tez-tez mashq qilmaslikni tavsiya qiladilar, haftada ikki marta yetarli bo‘ladi. Mashq juda oddiy, lekin u katta natijalar beradi. O‘qishda matnni anglashga o‘z ijobjiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bu diqqatni rivojlaniruvchi ikki miya tizimining (o‘qish va rangni aniqlash) "ziddiyati" bo‘lib, buning uchun miyada ma’lum bir topshiriq uchun yangi neyron bog‘lanishlar hosil bo‘ladi. Neytral ulanishlar faqat ma’lum bir tor topshiriq uchun jalb emas, shunday qilib, sinov, bir hafta ortiq ikki marta amalga oshirilishi kerak emas.

Testda ranglarning odatdagagi nomlanishi uchun qanchalik zarur ekanligini vastrup testidan foydalangan holda shu kabi harakat uchun qancha vaqt ketishini bilish uchun vaqt o‘lchanadi. Shuningdek, yo‘l qo‘yilgan xatolar soni ham kuzatib boriladi. Ongimiz uchun yangi bog‘lanishlarni o‘rnatish, shuningdek, ular orasiga o‘tish juda foydalidir. Strup testi bizga ma’lum bir vaqtida odamning e’tiborini qaratish va e’tiborga olish qobiliyati haqida aytib berishi mumkin.

Stress holat, shuningdek, boshingizdan chiqmaydigan har qanday hal qilinmagan muammolar, qattiq charchoq va boshqalar ushbu testning o‘tishiga xalaqit berishi mumkin. Lekin ba’zan, bir kishi yaxshi ko‘rinadi, va sinov katta qiyinchilik bilan o‘tadi, joyga jamlanganda mumkin emas, keyin u joyga jamlanganda qobiliyati e’tibor berish kerak. Yanada samarali ishlash uchun shrift rangini nafaqat nomlash, balki chap qo‘li bilan ham yozishi kerak. Agar chapaqay bo‘lsa, o‘ng qo‘lda. Shunday qilib, to‘g‘ri yozish uchun zarur bo‘lgan qo‘l-ko‘z koordinatsiyasi ham o‘qitiladi. Quyida namunalarni keltirib o‘tamiz:

**YASHIL QIZIL SARIQ QORA YASHIL  
OQ QORA YASHIL QORA SARIQ  
QIZIL KO‘K YASHIL QIZIL KO‘K  
SARIQ KO‘K QIZIL YASHIL SARIQ  
QORA YASHIL KO‘K SARIQ KO‘K  
YASHIL QORA SARIQ KO‘K QORA  
QIZIL SARIQ YASHIL KO‘K SARIQ QIZIL  
SARIQ KO‘K QIZIL SARIQ YASHIL  
KO‘K SARIQ OQ QIZIL SARIQ KO‘K  
YASHIL QIZIL OQ SARIQ QIZIL  
YASHIL KO‘K SARIQ QORA QIZIL  
YASHIL KO‘K QORA SARIQ KO‘K  
YASHIL SARIQ QORA KO‘K YASHIL  
QIZIL SARIQ KO‘K YASHIL QIZIL  
QORA YASHIL KO‘K SARIQ YASHIL  
KO‘K QORA QIZIL SARIQ KO‘K  
YASHIL QIZIL SARIQ OQ**

### 1-rasm

*1-rasmda avval nima yozilgan bo‘lsa shu o‘qiladi. So ‘ngra yozuv shirifti qaysi rangda bo‘lsa shu rang o‘qiladi. Topshiriqn, 1-qator dastlab yashil, qizil, sariq, qora, yashil, keyin qizil, sariq, qora, yashil, sariq kabi o‘qiladi.*

QIZIL	QORA			YASHIL	QORA
YASHIL	KO'K			KO'K	YASHIL
SARIQ	QORA			SARIQ	QORA
KO'K	YASHIL			KO'K	SARIQ
QIZIL	KO'K			OQ	YASHIL
YASHIL	QORA			YASHIL	QIZIL
OQ	SARIQ			SARIQ	KO'K
QIZIL	SARIQ			KO'K	YASHIL
YASHIL	QORA			OQ	QORA
KO'K	OQ			KO'K	YASHIL
SARIQ	OQ			SARIQ	KO'K
YASHIL	KO'K			YASHIL	KO'K
SARIQ	QORA			QORA	SARIQ
QIZIL	OQ			OQ	QORA
OQ	SARIQ			SARIQ	KO'K
QIZIL	SARIQ			KO'K	YASHIL
YASHIL	QORA			OQ	QORA
KO'K	OQ			KO'K	YASHIL
SARIQ	OQ			SARIQ	KO'K
YASHIL	KO'K			YASHIL	KO'K
SARIQ	QORA			QORA	SARIQ
QIZIL	OQ			OQ	QORA
OQ	SARIQ			SARIQ	KO'K
QIZIL	SARIQ			KO'K	YASHIL
YASHIL	QORA			OQ	QORA
KO'K	OQ			KO'K	YASHIL
SARIQ	OQ			SARIQ	KO'K
YASHIL	KO'K			YASHIL	KO'K
SARIQ	QORA			QORA	SARIQ
QIZIL	OQ			OQ	QORA

2-rasm

2-rasmda qora birinchi va ikkinchi ustundagi yozuv faqat qora rangda yozilganligi uchun so'z o'qiladi. Uch, to'rinchi ustun rangi o'qiladi. Beshinchi va oltinchi ustun esa yozuv shirifti rangi o'qiladi. Topshiriqn, 1-qator: qizil, qora, qizil, yashil, ko'k, qora.

### YASHIL SARIQ QORA OQ KO'K YASHIL

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni nafaqat o'zbek tili fanini balki, har qanday fan, matnlarni to'g'ri o'qib tushunishi va shulardan olgan ma'lumotlarini og'zaki va yozma bayon qilishi uchun o'qib tushunish malakasini rivojlantirishimiz darkor. Strup testi ikkala miya yarim sharlarini rivojlantirish uchun yaxshi mashqdir. Bundan tashqari, testning murakkab versiyalari bilan muntazam ishlash keraksiz ma'lumotlarni filtrlashni tezda o'rganishga kata yordam beradi. Bu o'rinda yuqoridaqiz biz tavsiya etgan topshiriqlar va shu kabilar bizningcha muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'zbek tili darsliklarimizda ularning yoshi, qiziqishiga, psixologik holatiga, irodasiga tafakkur darajasiga mos o'qib tushunishga taalluqli topshiriqlarni ko'paytirishimiz, aniq, tabiiy fanlar bilan aloqani kuchaytirish lozim bo'ladi. Chunlik til ko'nikmasi inson hayotining barcha sohalarida muhim ahamiyatga egadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova, I. (2019) O'zbek tili ta'limida lisoniy malakanasi rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika

ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruza tezislari to‘plami. – Toshkent: 2019. – B. 215–224.

2. K.Mavlonova “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruza tezislari to‘plami. 149-150-betlar. Toshkent – 2020.
3. Булгакова, И.В. Нестандартные уроки русского языка. 5–7 классы. /– Ростов-на-Дону: «Феникс», 2002..
4. Shodmonqulova D. O‘zbek tili ta’limida keys texnologiyasidan foydalanish //Til va adabiyot ta’limi. – 2015. –№5. – B. 17.
5. G‘.Hamroyev. O‘zbek tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvovidaktik asoslarini takomillashtirish, Pedagogika fanlari doktori (Dsc)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya T: 2020.
6. Urazbayeva Dilnoza. “O‘zbek tili”dan mashq va topshiriqlarni takomillashtirish texnologiyalari (7-sinf darsligi misolida)”, Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Nukus – 2017.
7. Гепанова Людмила Николаевна, учитель русского языка и литературы, «Нестандартные задания на уроках русского языка как средство, способствующее развитию речи учащихся, привитию интереса к русскому языку».
8. <https://lesley.edu/article/what-the-stroop-effect-reveals-about-our-minds>.
9. <https://uz.warbletoncouncil.org/test-de-stroop-1294>.

## FARG'ONA VODIYSIDSA DASTLABKI MUZEYLARNING SHAKLLANISH TARIXIGA OID

**Karimov Islomjon Ilhomjon o'g'li**

Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

[karimovislomjon95@mail.ru](mailto:karimovislomjon95@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Farg'ona vodiysida dastlabki muzey Farg'ona o'lkashunoslik muzeyining tashkil etilishi va muzey faoliyatida tashabbus ko'rsatgan maxalliy va yevropalik ilm-fan vakillarining o'rni va dastlabki muzey fondini boyitish ishlari xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** A.S. Yermolov, A.E.Smirnov, G.G Ottendorf, ekspozitsiya, Turkiston, "tosh tobut", SREDAZKOMSTARIS, M.E. Masson, Okrug muzeyi.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о создании Ферганского историко-краеведческого музея, первого музея в Ферганской долине, роли местных и европейских учёных, проявивших инициативу в деятельности музея, а также пополнении первоначального музейного фонда.

**Ключевые слова:** А.С. Ермолов, А.Е. Смирнов, Г.Г. Оттендорф, экспозиция, Туркестан, «каменный гроб», СРЕДАЗКОМСТАРИС, М.Е. Массон, Музей графства.

**Abstract:** This article provides information about the establishment of the first museum in the Fergana Valley, the Fergana Local History Museum, the role of local and European scientists who took the initiative in the museum's activities, and the enrichment of the original museum fund.

**Keywords:** A.S. Yermolov, A.E. Smirnov, G.G Ottendorf, exposition, Turkestan, "stone coffin", SREDAZKOMSTARIS, M.E. Masson, County Museum.

Yurtimizda dastlabki muzeylarning tashkil etilishi va tarixi qariyb bir yarim asrga borib taqaladi. Shu vaqtda O'zbekistonning yirik shaharlari – Toshkent (1876)<sup>7</sup> va Samarqand (1896)<sup>8</sup> shaharlari qatorida Farg'onada ham birinchilardan bo'lib muzey tashkil qilingan. Farg'ona muzeyiga Yangi Marg'ilon shahrida 1894-yilda asos solingan<sup>9</sup>. Mazkur yilda Rossiya imperiyasi qishloq xo'jaligi va davlat mulki vaziri A.S. Yermolov tashrifi va Yangi Marg'ilon shahrining tashkil etilganligining 18 yilligi munosabati 1894-yil 16-oktyabrdan 7-noyabrga qadar Farg'ona qishloq xo'jaligi va sanoat ko'rgazmasi tashkil etildi<sup>10</sup>. Shu ko'rgazma materiallari asosida Farg'ona viloyat jamoat muzeyiga dastlabki tamal toshi qo'yildi.

<sup>7</sup> O'z MA, R-394-fond, 1-ro'yhat, 103-ish, 84-varoq.

<sup>8</sup> O'z MA, R-394-fond, 1-ro'yhat, 103-ish, 84-varoq.

<sup>9</sup> Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi. – Toshkent, 2005. –B. 6.

<sup>10</sup> Туркестанские ведомости, 1895 й. № 83.

Muzeyni tashkil etilishiga Qishloq xo'jaligi va sanoat ko'rgazmasi uchun yig'ilgan ashyolar turtki bo'ldi. Muzey fondi ko'rgazmada namoyish etilgan buyumlar, mahalliy qurol-yarog'lar kolleksiyalari hisobiga to'ldirildi. Bundan tashqari xususiy kolleksioner shaxslar: shifokor A.E.Smirnovdan etnografik buyumlar, kapitan N.P.Danilovdan mineralogik buyumlar, K.O.Maurerdan zoologik materiallar, A.G. Serebrennikov mahalliy qurulish ashyolari va turli numizmatika buyumlar kolleksiyalari qabul qilindi.

Farg'ona o'lkasida rus ma'murlarining mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash maqsadida mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odati va boshqa etnografik jihatlarni o'rghanish qiziqarli ko'ringan. Natijada bir nechta tashabbuskorlarning iltimosiga ko'ra 1895-yil 2-noyabrda Farg'ona viloyat harbiy gubernatori A.N.Povalo-Shviykovskiyning muzeyni tashkillash to'g'risidagi 238-sonli buyrug'i qabul qilindi<sup>11</sup>. Muzey uchun gubernator uyining yuqori qavatidan to'rtta xona ajratilib berilgan.<sup>12</sup>

Mazkur buyruq asosida muzeyni boshqarish uchun quyidagi shaxslardan iborat komissiya tayinlandi: Marg'ilon uezdi boshlig'i, podpolkovnik Bryanov, Marg'ilon shahar maktabi inspektori, sud maslahatchisi Gerbanevskiy, harbiy bo'lim shifokori, jamoa maslahatchisi Smirnov va injener, kapitan Serebrennikov.

Komissiya o'z sa'y-xarakatlarining boshlanishi haqida xabar qilib, rejasini bosib chiqarib, uni turli muassasalarga yubordi. Tez orada muzeyni rivojlantirish komissiyasi tarkibi kengayib 103 nafarga yetdi. Bular orasidan ayniqa o'rmon xo'jalaigi mudiri G.G Ottendorf, sanoatchi I.B. Vadyaev, me'mor E.A. Brun va xarbiy muhandis S.V. Lexanov, I.I. Virvinskiy va boshqalarning nomini tilga olish mumkin.

1896-yilda muzeyning nizomi loyihasi tuzildi. Nizomda muzeyning vazifasi tashrif buyuruvchilarни mintaqaning hozirgi va o'tmishdagi ahvoli bilan tanishtirish etib belgilandi. Nizomni tuzuvchilar asosan muzeyning tarixiy qismiga e'tibor berishga intilib, arxeologiya va etnografiya ekspozitsiyasini birinchi bo'limlar sifatida joylashtirdilar.<sup>13</sup> 1897-yilda tasdiqlangan nizomda esa mintaqaning hozirgi holatini tavsiflovchi materiallar qishloq xo'jaligi va sanoat birinchi o'ringa qo'yildi. Ulardan so'ng tarixiy ekspozitsiya bo'limlari o'rin oladi.

Bu davr mobaynida muzey Rossiya geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi mulki hisoblanib, uning tasarrufida bo'ladi<sup>14</sup>.

1897-yilga kelganda eksponatlar soni 1000 ga yaqinni tashkil qilib, muzeyga ajratilgan 4 ta xona butunlay to'lgan va boshqa eksponatlarni namoyish etishga imkoniyat qolmadı. 1899-yilda muzey gubernator uyining kengroq qanot tomoniga ko'chirildi va 1899-yil 26-may kuni A.S.Pushkin tavalludining 100 yilligi munosabati

<sup>11</sup> Иванов Г. П. Фаргона ўлкашунослиги. – Фаргона: Фаргона, 1996. –Б. 6.

<sup>12</sup> Туркестанские ведомости, 1895 й. № 83.

<sup>13</sup> О'з MA, R-2681-fond, 1-ro'yhat, 42-ish, 51-varoq.

<sup>14</sup> О'з MA, R-2681-fond, 1-ro'yhat, 42-ish, 51-varoq.

bilan muzey “Farg’ona ommabop muzeyi” nomi bilan rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.<sup>15</sup> Muzey maydoni kengaygani bilan ekspozitsiya boy emas edi. Bu paytda muzeyda jami 2223 ta eksponatlar jamlanmasi mavjud edi<sup>16</sup>. Turkistonda oktyabr inqilobigacha bo‘lgan davrda faoliyat yuritgan muzeylar tadqiqotchisi G.N. Chabrovaning “O’rta Osiyoda inqilobgacha bo‘lgan davrda muzeylar tarixi” qo’lyozmasida muzey yangidan tashkil etilgandagi eksponat soni qishloq xo‘jaligi bo‘limida 75 ta, sanoat bo‘limida 227 ta, tabiatshunoslik bo‘limida 465 ta, antropologiya va etnografiya bo‘limida 259 ta taqsimlangan<sup>17</sup>.

Muzey ochilishi munosabati bilan Turkistonning sobiq general-gubernatori

A.B. Vrevskiy, Imperator Rus geografiya jamiyati, Imperator Moskva tabiat sinovchilari jamiyati, Minusinsk mahalliy Xalq muzeyi, Imperator Odessa Tarix va antiqiy buyumlar jamiyati, Farg’ona viloyat statistika komiteti muzeyga ko’plab asori-atiqalarni hadya qilishadi<sup>18</sup>.

Tabiiy-tarixiy bo‘lim eksponatlar soni jihatdan eng kattasi, arxeologiya bo‘limi esa eng kichigi bo‘lgan.

1899-yilda muzeyda quyidagi bo‘limlar:

- Qishloq xo‘jaligi;
- Sanoat;
- Tabiiy-tarixiy;
- Antropologiya va etnografiya;
- Arxeologiya;
- Numizmatika;
- Umumta’lim; (kelib chiqishi mahalliy bo’lmagan buyumlar)
- Kutubxona faoliyat yuritgan<sup>19</sup>.

Bu davrda muzey odatda, dam olish va bayram kunlari ochiq bo‘lardi. Zotan, muzey “ommabop” deb atalsa-da, u asosan yangi marg’ilonlik ziyorilar yoki viloyatga kelgan nufuzli mehmonlar uchun maxsus ochilar edi xolos.

E’tiborlisi shundaki, muzey tashkil etilgandan boshlab shaxsiy hayriyalar evaziga tutib turilgan. Xususan, 1895-yilda jami hayriya qilingan 160 rubl 30 kopeek pul mablag‘i Marg‘ilon g‘aznachiligining omonat kassasiga topshirilgan.<sup>20</sup>

Muzey qoshida maxsus klub tuzilgan edi va ushbu klub a’zolari turli kasb egalari (shifokor, o’qituvchi, muhandis, harbiy zabit, botanik tadqiqotchi, agronom va boshq.) bo‘lishiga qaramay, doimiy ravishda muzey fondiga ashyolar topshirib turishardi. Klub a’zolari orasida ayniqsa viloyat o’rmon xo‘jaligi mudiri, biolog G. Ottendorf katta

<sup>15</sup> Иванов Г. П. Фаргона ўлкашунослиги. – Фаргона: Фаргона, 1996. –Б. 10.

<sup>16</sup> Хошимов Б. Фаргона водийсининг кекса музейи. // Мозийдан садо. 2-сон, 2019. –Б. 30.

<sup>17</sup> О’з МА, R-2681-fond, 1-ro’yhat, 42-ish, 52-varoq.

<sup>18</sup> Иванов Г. П. Фаргона ўлкашунослиги. – Фаргона: Фаргона, 1996. –Б. 10.

<sup>19</sup> Ахмедова З. Кўхна музейлар тилга киргандага // Infolib. 4-сон, 2016. –Б. 72.

<sup>20</sup> Туркестанские ведомости, 1895 й. № 83.

jonbozlik ko'rsatib, viloyatning turli chekkalaridan yig'ilgan noyob ashyolarni muzeyga topshiradi.

Shunday klub a'zolaridan yana biri mashhur rus tadqiqotchisi A. Fedchenko va uning rafiqasi O. Fedchenkolar edi. Ular muzeyga gerbariylar va noyob hasharotlar kolleksiyasini topshirishadi.

1900-yilga kelib muzey kolleksiyasi yana 1000 ga yaqin eksponatga boyidi. 1901-yilda chiqarilgan yillik hisobotida ularning eng yiriklari sanab o'tilgan. Misol uchun axeologiya bo'limiga texnik B.B. Rogovskiy Andijon uezdidagi qo'rg'onlardan biridan topilgan qadimgi "tosh tobut" devorlarini tashkil etgan, bo'rtma naqsh tushirilgan ikki dona g'ishtli plitalarni topshirgan. K.A. Brjenskiy esa Marg'ilon uyezdining Asaka qishlog'i yaqinida yer haydash jarayonida topilgan uch dona qizil gildan ishlangan sopol idishni xadya qilgan. Antropologiya va etnografiya bo'limiga K.A. Rudanovskiy mahalliy kumush uzuklar, Eski Marg'ilonlik oqsoqol Yo'ldosh Mahram Yuvosh Xo'jaev tomonidan mahalliy musiqa asboblari topshirilgan.<sup>21</sup>

1901-yilgi hisobotda muzey o'zining fotosuratlari bilan 1-Turkiston ko'chma ko'rgazmasida ishtirok etganligi, shuningdek o'zining etnografiya, tabiiy-tarixiy va sanoatga oid kolleksiyalari bilan 1900-yilda Parij Butunjahon ko'rgazmasining Turkiston bo'limida ishtirok etganligi yozib qoldirilgan<sup>22</sup>.

Muzey 1911-yilda hayriya xususiy mablag'larni kelishini to'xtashi natijasida faoliyatini to'xtatadi, binosi olinib, muzey ashyolari Konstantinovskaya ko'chasidagi Qishloq xo'jaligi jamiyati binosiga ko'chirildi.

Shunday bo'lsada, 1918-yilda muzey yana 1000 ga yaqin tabiat tarix va qishloq ho'jaligiga oid eksponatlar bilan boyidi.<sup>23</sup>

1920-yilda Farg'ona viloyat mehnatkashlar deputatlari kengashi qarori bilan muzeyda kutubxona fondi kattaligini inobatga olib faoliyati ikkiga ajratildi.

"Ommabop kutubxona" va "Farg'ona shahar ilmiy muzeyi" sifatida yangidan o'z faoliyatini boshladi.

Kutubxona muzeyning avvalgi binosida qoldirildi, muzey esa hozirgi Farg'ona shahri Turon ko'chasidagi binolarning biriga ko'chirib kelindi va u 1984-yilga qadar mazkur binoda faoliyat ko'rsatdi<sup>24</sup>.

1920-yil 15-yanvardan ishga tushgan bo'lsada uning rasmiy ochilishi va faoliyat yuritishi 5-sentyabrdan boshlandi<sup>25</sup>. Shu yillarda namoyishga qo'yilgan buyumlarga nazorat sust olib borilganligi tufayli, qishloq xo'jaligi bo'limida 115 ta, sanoat bo'limidan 222 ta, numizmatika bo'limidan 137 ta, tabiiy-tarixiy bo'limdan 1580 ta

<sup>21</sup> Иванов Г. П. Фаргона ўлкашунослиги. – Фаргона: Фаргона, 1996. –Б. 11.

<sup>22</sup> Иванов Г. П. Фаргона ўлкашунослиги. – Фаргона: Фаргона, 1996. –Б. 11.

<sup>23</sup> Ферганская правда, 14 июл, 1954 й, № 116.

<sup>24</sup> Иванов Г. П. Фаргона ўлкашунослиги. – Фаргона: Фаргона, 1996. –Б. 12.

<sup>25</sup> Мирзаев М.А. Ўзбекистонда тарихий маданий ёдгорликларни муҳофаза этиши ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917-1941 йиллар): Тарих фан. номз. илмий даражасини олиш учун тайёrlанган дисс. – Тошкент: Ўзбекистон миллый университети, 1994. –Б. 24.

eksponatlar sotib yuborilgan<sup>26</sup>. Shunday bo'lsada 1920-yilda qishloq xo'jaligi bo'limiga 102 ta, tabiiy-tarixiy bo'limi bo'limga 802 ta, elshunoslik bo'limiga 1 ta yangi asori-atiqalar olib kelindi. Bundan kelib chiqadiki, 2054 ta eksponat sotib yuborilgan bo'lsa, 905 ta eksponat olib kelingan.

Bu davrda muzeyda 2 ta shtat birligi mavjud bo'lgan: muzey mudiri va xizmatchi-farrosh. 1920-yilda muzeyga Y.L. Shestopetrov mudir etib tayinlangan. U Mixaylov artileriya bilim yurtini tamomlagan, havaskor tabiatshunos va zoolog edi. Uning davrida Qishloq xo'jaligi mashinalari omborxonasi xovlisidagi xonalarga 1914-yilda hom g'ishtdan qurilgan)<sup>27</sup> ko'chirib keltirilgan muzey faoliyati boshlandi. Muzey haftada bir marta tashrif buyuruvchilarga bepul ochilgan. Y.L. Shestopetrov 1922-yilgacha mudir sifatida faoliyat yuritdi, so'ngra Ashxobodga ko'chib borib mahalliy muzeyda faoliyat yuritgan.

1922-1924-yillarda muzeyda bolgar millatiga mansub bo'lgan Emiliy Georgnevich Balkanskiy mudirlik qiladi. U 1916-yilda Farg'ona viloyatiga ko'chib kelgan, mudir bo'lguna qadar mahalliy gazetada muharrir va Farg'ona fundamental kutubxonasi raxbari sifatida ishlagan.

Muzey 1923-yilda Moskvada bo'lib o'tgan Umumittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasiga eksponatlarini yuboradi ammo ko'rgazma tamomlangach muzey yuborgan eksponatlar muzeyga qaytarilmaydi.<sup>28</sup>

Eksponatlar Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi va Xalq komissarlari soveti kengashining 1923-yil 5-dekabrdagi 187-sonli qaroriga asosan O'rta Osiyo muzeyining qishloq xo'jaligi bo'limiga olib qo'yiladi.

Muzey tarixida iz qoldirgan direktorlardan yana biri Semyon Dmitriyevich Dmitriyev hisoblanadi. U 1924-yildan muzeyga rahbarlik qiladi. Uning davrida muzey fondini boyitish ishlari samarali yo'lga qo'yildi. 1928-yilda M.E. Masson ko'magida muzeyda tarixiy-arxeologiya bo'limi ochildi<sup>29</sup>. O'rta Osiyo bosh muzeyi bilan o'rnatilgan aloqalar numizmatika bo'limini boyitish imkonini berdi. Romanovlar sulolasiga mansub mis va kumush tangalar kolleksiysi va Ivan IVning kumush tangalaridan iborat 87 ta tangalar qabul qilindi.

Muzeyga tashrif buyuruvchilar soni ham ko'payib bordi. Xususan:

### 1924-yilda Farg'ona shahar ilmiy muzeyiga tashrif buyurganlarning STATISTIK JADVALI<sup>30</sup>

<sup>26</sup> Мирзаев М.А. Ўзбекистонда тарихий маданий ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917-1941 йиллар): Тарих фан. номз. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент: Ўзбекистон миллый университети, 1994. –Б. 24.

<sup>27</sup> O'z MA, R-94-fond, 5-ro'yhat, 357-ish, 15-varoq.

<sup>28</sup> O'z MA, R-94-fond, 1-ro'yhat, 357-ish, 16-varoq.

<sup>29</sup> Иванов Г. П. Фарғона ўлқашунослиги. – Фарғона: Фарғона, 1996. –Б. 14.

<sup>30</sup> O'z MA, R-394-fond, 1-ro'yhat, 101-ish, 8-varoq.

<b>№</b>	<b>Oy</b>	<b>Ruslar</b>	<b>O'zbeklar</b>	<b>Xorijiy o'quvchi yoshlar</b>	<b>Mahalliy o'quvchi yoshlar</b>	<b>Jami</b>
1	Yanvar	18	4	28	-	50
2	Fevral	15	5	31	-	51
3	Mart	17	7	34	27	85
4	Aprel	18	8	21	29	76
5	May	21	11	21	-	53
6	Iyun	44	24	36	-	104
7	Iyul	111	98		30	239
8	Avgust	68	82	-	-	150
9	Sentyabr	20	46	23	84	173
10	Oktyabr	53	154	77	-	284
11	Noyabr	22	94	-	60	176
12	Dekabr	32	199	-	-	231

Shunday bo'lsada, SREDAZKOMSTARIS tomonidan Farg'ona viloyat ijroiya qo'mitasiga 1925-yil boshida Farg'ona shahar ilmiy muzeyning tekshirilganligi, hozirda muzey faoliyat yuritmayotganligi va tashrif buyuruvchilar uchun yopiqligi uchun muzey faoliyatini to'xtatish, inventar va eksponatlarini yangi tashkil etilishi kutilayotgan Qo'qon shahri Xudoyorxon o'r dasidagi muzeyga ko'chirilishi bo'yicha 1925-yil 1-fevralda 296-sonli xat yuboradi<sup>31</sup>. Huddi shu mazmundagi 295-sonli xat bilan SREDAZKOMSTARIS Namangan shahar ijroiya qo'mitasiga ham murojjat qilib, Namangan shahar muzeyini ham yangi tashkil etilayotgan Qo'qon shahar muzeyiga qo'shib yuborilishi haqida ogohlantiradi<sup>32</sup>.

Bunga sabab esa TURKKOMSTARIS<sup>33</sup> (Muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza etish Turkiston qo'mitasi) tomonidan 1924-yil 15-oktabrda Qo'qon shahridagi Xudoyorxon o'r dasida qishloq xo'jaligi ko'rgazmasini ochilishi va shu munosabat bilan Farg'ona vodiysida yagona muzeyni tashkil etilishi edi. Shuni inobatga olgan holda, hatto Qo'shchi ittifoqi viloyat qo'mitasi tomonidan boshlangan sobiq xon saroyini ta'mirlash va tiklash ishlarini yakunlash uchun 5000 rubl ajratadi<sup>34</sup>.

<sup>31</sup> O'z MA, R-394-fond, 1-ro'yhat, 48-ish, 2-varoq.

<sup>32</sup> O'z MA, R-394-fond, 1-ro'yhat, 148-ish, 5-varoq.

<sup>33</sup> 1921-yil 22-mayda Turkiston ASSR XKK dekreti bilan Maorif xalq komissarligi tarkibida tashkil etilgan. 1924-yil oxirida milliy hududiy chegaralanish o'tkazilishi munosabati bilan TURKKOMSTARIS tashkiliy jihatdanqayta ko'rib chiqilib, 1924-yil 26-dekabrda SREDAZKOMSTARIS (Muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza etish O'rta Osiyo qo'mitasi) deb nomlandi. Yangi respublikalar tashkil etilgan dastlabki yillarda butun O'rta Osiyo hududida yodgorliklar muhofazasiga rahbarlik qilgan Sredazkomstaris moliyaviy ta'minot milliy respublikalarning o'ziga yuklanishi munosabati bilan O'zbekiston SSR maorif xalq komissarligining 1928-yil 28-martdagi qarosriga ko'ra Samarqand shahrida O'zkomstaris (Muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza etish O'zbekiston qo'mitasi) sifatida qayta tashkil etilgan.

<sup>34</sup> O'z MA, R-394-fond, 3-ro'yhat, 34-ish, 39-varoq.

Farg'ona shahar ilmiy muzeyi xodimlari va mas'ullarning sayi-harakatlari natijasida muzey faoliyati tugatilmaydi. 1925-yilda Xudoyorxon o'r dasida o'tkazilgan qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi eksponatlari asosida Qo'qon muzeyi tashkil etiladi<sup>35</sup>. Muzey 1929-yilgacha Okrug muzeyi, 1937-yilgacha Qo'qon tumanlararo muzeyi deb nomlangan.

1926-yildan muzey faoliyati kengayib tashrifchilar soni ham ortib boradi. Xususan, fevral oyida mahalliy aholidan 63 ta erkak, 26 ta ayol, 11 ta o'quvchi tashrif buyurgan bo'lsa, rus va yevropalik aholi vakillaridan 90 ta erkak 7 ta ayol 15 ta o'quvchi tashrif buyurgan. Demak 186 nafar kattalar 18 nafar o'quvchi yoshlar tashrif buyurgan.

Shu orada Farg'ona shahar ilmiy muzeyiga Kovalkin (1890-yilda Kazanskiy guberniyasida tug'ilgan, millati: tatar)<sup>36</sup> direktor etib tayinlanadi. U bir yilgina faoliyat olib boradi, so'ng Semyon Dmitriyevich Dmitriyev yana qayta mudir sifatida tayinlanib 1931-yilgacha faoliyat olib boradi. 1932-yildan to vafotiga qadar (1939 y.) muzeyda ilmiy xodim sifatida faoliyat olib boradi.

SREDAZKOMSTARISning 1927-yil 19-oktyabrdagi buyrug'iga asosan Samarqandga "Rishton sopollari" ko'rgazmasiga yuborilgan eksponatlardan 6 donasi: 4 dona tarelka (№ 109), 1 dona rangli idish (№ 120), 1 dona piyola (№ 121) muzeyga qaytarilmadi.

Muzey bu davrda ziyoratchilar uchun haftadan 3 marta 12:00 dan 15:00 gacha faoliyat yuritadi. Boshqa shaharlardan tashrif buyuruvchilarni istalgan vaqtida qabul qilinadi<sup>37</sup> va ekskursiyalar tashkil etiladi, mahalliy ziyoratchilar uchun xam istalgan vaqtida faqat buning uchun bir vaqtning o'zida bir nechta ekskursiyalar bo'lib qolmasligi uchun avvaldan muzey bilan kelishilgan bo'lishi kerak edi.

<sup>35</sup> Мухаммад Яхёон Хўқандий. Худоёрхон ўрдаси. Наманган. Водий медиа, 2016. –Б. 148.

<sup>36</sup> O'z MA, R-394-fond, 1-ro'yhat, 148-ish, 13-varoq.

<sup>37</sup> O'z MA, R-94-fond, 5-ro'yhat, 357-ish, 17-varoq.

## FRANSUZ VA O'ZBEK ERTAKLARI, NAQLARIDA MILLIY-MADANIY O'XSHASHLIKlar HAMDA DIFFERENTIAL BELGILAR

**Matyakubov Oybek Quralbayevich**

Urganch davlat universiteti akademik litseyi fransuz tili o'qituvchisi

Xorazm, O'zbekiston

e-mail: [matyakubov.o@mail.ru](mailto:matyakubov.o@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada fransuz va o'zbek ertaklari, naqlarida milliy-madaniy o'xshashliklari hamda differential belgilari, til, madaniyatning roli haqida fikr yuritiladi, nazariy asoslari tadqiq etiladi, ishning dolzarbligi o'rganiladi. Tilshunoslikda mayjud bo'lgan lingokulturologiyaga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi, olimlarning nazariy qarashlari bir tizimga solinadi. Fransuz va o'zbek ertaklaridagi o'zaro milliy-madaniy o'xshashlikning aks etishi, ular orasidagi differential belgilarning lingvokognitiv, lisoniy vositalar orqali ifodalanishi misollar yordamida tahlil qilishga harakat qilindi. Fransuz va o'zbek xalq ertaklarida milliy o'ziga xosliklarni til hamda madaniyatda aks ettirishda lisoniy vositalarning roli katta. Lingvokulturemalarning qilingan tahlillari asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, til – bu xalq madaniyatini tushunishda ramziy boshqaruvchi, leksika esa uning madaniyatining his-tuyg'ularga boy ifodasidir. Xalqning xarakteri va uni tashkil etuvchi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash juda mushkul vazifa bo'lib, o'zbek va fransuz millati shaxsiga xos xususiyatlar boshqa ko'p millatlarga ham xosdir.

**Kalit so'zlar:** urf-odat, lingvokulturologiya, lingvokognitiv, etnosemantika, temporallik, leksema, toponimlar, sintaktik birliklar, aksiologik modallik, epistemik modallik.

## НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ СХОДСТВА И ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЕ ПРИЗНАКИ ВО ФРАНЦУЗСКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗКАХ

**Матякубов Ойбек Куралбаевич**

Старший преподаватель французского языка

академического лицея при Ургенчском государственном университете

Хорезм, Узбекистан

e-mail: [matyakubov.o@mail.ru](mailto:matyakubov.o@mail.ru)

**Аннотация:** В данной статье обсуждаются национально-культурные сходства и различия, роль языка и культуры во французских и узбекских сказках и пословицах, исследуются теоретические основы, изучается актуальность

работы. Анализируются существующие в лингвистике научные исследования по лингвокультурологии, теоретические взгляды ученых сводятся в одну систему. Предпринята попытка проанализировать отражение взаимного национально-культурного сходства во французских и узбекских сказках и выражение дифференциальных признаков между ними лингвокогнитивными и языковыми средствами. Во французских и узбекских народных сказках велика роль языковых средств в отражении национальных особенностей в языке и культуре. На основе анализа лингвокультуремы можно сделать вывод, что язык является символическим регулятором в понимании национальной культуры, а лексика — эмоциональным выражением ее культуры. Определить характер народа и уникальные черты, составляющие его, — очень сложная задача.

**Ключевые слова:** традиция, лингвокультурализм, лингвокогнитив, этносемантика, темпоральность, лексема, топонимы, синтаксические единицы, аксиологическая модальность, эпистемическая модальность.

## NATIONAL-CULTURAL SIMILARITIES AND DIFFERENTIAL SIGNS IN FRENCH AND UZBEK FAIRY TALES AND TALES

**Matyakubov Oybek Kuralbayevich**

Senior French language teacher

at the academic lyceum of Urganch State University

Khorezm, Uzbekistan

e-mail: [matyakubov.o@mail.ru](mailto:matyakubov.o@mail.ru)

**Annotation:** In this article, the national-cultural similarities and differences, the role of language and culture in French and Uzbek fairy tales and proverbs are discussed, theoretical foundations are researched, and the relevance of the work is studied. The scientific researches on linguculturalology existing in linguistics are analyzed, the theoretical views of scientists are put into one system. An attempt was made to explore the reflection of mutual national-cultural similarity in French and Uzbek fairy tales and the expression of differential signs between them through linguocognitive and linguistic means. In French and Uzbek folk tales, the role of linguistic tools in the reflection of national characteristics in language and culture is significant. Based on the analysis of Lingvokulturema, it can be concluded that language is a symbolic controller in the understanding of national culture, and lexicon is an emotional expression of its culture. It is a very difficult task to determine the character of the people and the unique features that make it up.

**Key words:** tradition, linguoculturalism, linguocognitive, ethnosemantics, temporality, lexeme, toponyms, syntactic units, axiological modality, epistemic modality.

## KIRISH

Jahon tilshunosligida dunyo xalqlarining madaniy va ma’naviy boyliklari bilan tanishish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etsa, o‘zaro qiyoslash uni munosib baholaydi. Til va madaniyat munosabati, uning ijtimoiy hayotda aks etishi, xorijiy tillarni o‘rganish masalalari alohida e’tiborni talab qiladi. Ertak tushunchasi belgilari, albatta, lingvokulturologiya, etnosemantika nuqtai nazaridan ham ajralib turishini inkor qilib bo‘lmaydi. Chunki ertak – mental hodisa. U og‘zaki aytilgani va yozib olingani uchun unga ertakchining – xoh u ertak aytuvchi bo‘ladimi, xoh ertakni yozib oluvchi bo‘ladimi, til mentaliteti o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Ma’lumki, ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy janrlaridan biri bo‘lib, ular yaratilishi jihatdan qadimiyligi, rang-barangligi, g‘oyaviy-badiiy yuksakligi, dunyo xalqlari adabiy merosiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiluvchi ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Qadimiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bu bebafo mumtoz adabiyot, me’morchilik san’ati va musiqasi asarlari kabi bebafo va ardoqli bo‘lib, ularning mazmuni negizida soddalik va ayyorlik, ezgulik va yovuzlik, to‘g‘rilik va egrilik, muhabbat va nafrat, boylik va kambag‘allik kabi barcha mintaqqa xalqlari hayotiga xos bo‘lgan umuminsoniy g‘oyalari yotadi.

Shuningdek, ertaklar mazmunini anglash uchun xalqning tarixiy o‘tmishi, ijtimoiy turmush tarzi, mehnat sharoiti, xo‘jalik yurutish an’analaridan, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, tajribasidan, mehnat va ro‘zg‘or buyumlari, quroq-yarog‘i, tabiatga munosabati tarixidan, diniy qarashlari, milliy qadriyatları va dunyoqarashi tizimidan ma’lumot va bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, tinglovchi ertak mazmunini chuqur idrok etishga qiynaladi. Qolaversa, o‘zbek ertaklari yoki fransuz ertaklarining tarjima qilish jarayonida milliylikning ifodalananishidan tashqari boshqa qiyinchiliklar ham uchraydi. Albatta, ertaklar qadim zamonlardan buyon yaratila boshlanganligi tufayli ular juda ko‘p va turli-tumandir. Ma’lum bir shaxs yoki joy haqida ko‘plab nazariy qarashlar, fikrlar aytilgan, ular bir xillikni saqlamagan holda turlicha talqin etiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir xalqning o‘z tabiatni, turmush sharoiti, urf-odatlari, madaniyati va san’atida bo‘lgani kabi, ertaklarida ham o‘ziga xoslik mavjud. Har bir xalqning orzu-niyatlari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, lekin o‘z milliylik xususiyatiga ham egadir. Masalan, fransuz va o‘zbek ertaklarining ham bir-biriga aynan xos va, aksincha, zid tomonlarini ko‘rish mumkin. O‘zbek ertaklari odatda, «*Bir bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan...*» singari an’anaviy kirish bilan boshlanadi. Ushbu jumlalarni lingvistik

nuqtai nazaridan tahlil qilsak, albatta, fransuz ertagi boshlamasidan ham stuktura, ham mazmun, ham modallik xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, possessivlik (mavjudlik) kategoriyasi ham tasdiq: «*bor*», ham inkor «*yo‘q*» semalarini ifodalayotgan bo‘lsa, holat kategoriyasi *och*, *to‘q* so‘zлari yordamida berilmoqda. O‘zbek tilida yuqoridagi kategoriyalar fe’lning to‘liqsiz shakli *ekan* bilan kelib, fe’lning analitik shaklini hosil qiladi va - *da* yuklamasi orqali gap mazmunini yanada tasdiqlash maqsadi ko‘zda tutiladi.

Fransuz ertagida esa yuqoridagi an’naviy kirish usuli boshqacha, ya’ni «*Il était une fois...*» yoki «*Il était une fois un Roi et une Reine...*» iboralari orqali ifodalanmoqda. Bunda ertakning boshlanish qismi fe’lning shaxssiz shakli *Il était* va miqdorni anglatuvchi *une fois* so‘zi orqali namoyon bo‘lsa, keyingi jumlada qirol – *un Roi* yoki qiroliche – *une Reine* so‘zлari orqali qo‘llanmoqda. Yuqorida bayon qilingan fikrlardan ko‘rinadiki, fransuz va o‘zbek tillarida ertakning boshlama formulasi bir-biriga mos tushmay, balki ular turli xil lisoniy vositalar bilan keladi.

Yuqoridagi kirish gaplarni tahlil qilar ekanmiz, bevosita 2009 yil «Qishloq hayoti» gazetasida chop etilgan internetda qisqa axborot berilgan misralar diqqatimizni o‘ziga tortdi [217].

O‘zbek xalq ertaklari «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...» degan an’naviy jumladan foydalanib, bor-yo‘g‘i ikki misrada tugal mazmunga ega ertak so‘zlash, inson qaddi-qomatining go‘zal tasvirini berish mumkinmi? Mumkin ekan.

Jahon adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan buyuk mutafakkir hazrat Alisher Navoiyning «*Badoyi’ ul-bidoya*» devonidan o‘rin olgan quyidagi fardga e’tiborni qaratamiz:

*Belu og‘zidin, dedilar-kim, degil afsona-e, Boshladim filhol-kim: «Bir bor edi, bir yo‘q edi...»*

Ma’lumki, fard tugal mazmunga ega, hajman eng kichik nazmiy janrdir. Mazkur fard ham ana shunday mukammal she’r. Fardning sodda sharhi shunday:

*«Seni maftun etgan go‘zalning husnu jamoli qanday o‘zi? Beli qanaqa, og‘zi qanaqa, qani ular haqida biror afsona aytib ber-chi, dedilar. Shuzahoti ertakni boshladim: «Bir bor edi, bir yo‘q edi...».*

Oxirgi so‘zlardan so‘ng mantiqan ertakning davomini kutasiz. Lekin ertak tugadi, aytib bo‘lindi. Ma’shuqaning ta’rifi keltirildi, qaddi-qomati, husn-jamoli madh etildi. Uning nozik belini, xushbichim og‘zini bor edi desa ham, yo‘q edi desa ham bo‘larkan. Biri shu qadar ingichka, ikkinchisi shu qadar kichik. Demak, boshqa a’zolari ham ularga mutanosib, chiroyli bo‘lishi tabiiy. Mumtoz she’riyatimizda ma’shuqaning xipcha beli, jonbaxsh lablari, dilga yoqimli so‘zlar taraluvchi og‘zi qiyoslangan chiroyli o‘xshatishlar ko‘p. Masalan, hazrat Navoiy «*O‘z zamonining malikulkalomi erdi*» deya ulug‘lagan shoir Mavlono Lutfiy sanamning nozik belini shunday ta’riflagan:

*Nozuklik ichra belicha yo‘q tori gisuyi, O‘z haddini bilib, belidin o‘lturur quyi.*

Shoirming mubolag‘asiga ko‘ra, sochning tolasi ingichkalikda yor belining nozikligiga teng kela olmaydi. Shu sababli soch o‘z holini bilib, yorning belidan quyiga tushib turadi. Xullas, misrada sochning uzunligi-yu, belning nozikligi tasviri shunchalar go‘zal ifoda etilgan. Biroq, bel va og‘izning tasvirini ertaklarimizdagi «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...» deb boshlanuvchi an’anaviy jumla bilan berish bu jozibani yanada kuchaytirmoqda. Bu xalq ijodiga hamohang go‘zal topilma bo‘lib, ulug‘ shoirimizga xos betakror iste’dod nishonasidir. Faqat mumtoz she’riyatimizdagi bunday badiiy ifodalarni, go‘zallikning sharqona tashbehlarini, ramzlarni his qilmoq va zavqlana olmoq kerak» [1, 327].

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, o‘zbek ertagini an’anaviy kirish qismiga xos ikki qator jumlaning juda katta mazmunni qamrab olishi uning fransuz ertagi boshlamasidan butunlay farq qilishini namoyon qilib turadi.

O‘zbek ertagiga aloqador an’anaviy kirish qismi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zbek ertagini **boshlama** qismi fransuz ertagidan quyidagi motivlari orqali farq qiladi.

*Birinchidan*, temporallik ma’nosining ifodalanishi: *Bir zamonda, o‘tgan zamonda, qadim zamonda, bugungi zamonda, hozirgi zamonda, zamonlarning zamonida, bir necha yuz asrlar ilgari, uzoq zamonlarda...*

*Ikkinchidan*, o‘zbek ertagi boshlamasida miqdorni anglatuvchi «bir» sirli raqami yoki leksemasining mahsuldor qo’llanishi:

*Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir podsho (odam, dehqon, savdogar, boy, chol bilan kampir) bo‘lgan ekan, kunlardan bir kun, bir kuni, bir sehrgar, bir afsungar, bir jodugar, bir shaxzoda, bir qirol, bir mengan, bir dehqon, bir o‘siran yigit, bir tentak, bir chol bilan kampir, kunlardan bir kun, bir uy, bir ko‘l, bir tog‘, bir bog‘, bir dala....*

Keltirilgan lisoniy birliklardan ko‘rinadiki, demak, o‘zbek ertagi janrida «bir» leksemasining qo’llanish darajasi yuqori. Bunga sabab, xalq ertaklarining boshlanmasida aytilgan kirish so‘z – boshlamalarda «bir» leksemasi takror-takror qo’llanishida ko‘rinsa, ikkinchidan, mazkur lisoniy birikma o‘rni va vazifasiga ko‘ra turli xil ma’nolarni, jumladan, *ko‘plik, inkor, ta’kidlash, temporallik* kabi semalarni ifodalishida ham kuzatildi. Bu esa «bir» leksemasining shakl yasovchi va shakl o‘zgartiruvchi turli xil morfologik birikmalar bilan uzviy qo’llanishi, ushbu so‘zning semantik xususiyati o‘sha lisoniy birliklar bildirgan semalarga daxldor ekanligini bildiradi.

D.O’rinboyeva o‘z maqolasida ta’kidlashicha, folklor asarlari tilida «bir» leksemasining juda keng ma’no nozikliklari mavjud bo‘lib, uning ifoda va vazifa semalari bog‘liq qurshovda yuzaga chiqadi». Olima «bir» leksemasi bilan bog‘liq 13 ta sema borligini aniqlagan [3, 86–87].

*Uchinchidan*, toponimlar, ya’ni shahar, mamlakat va viloyat nomlarining qo’llanishi: *Buxoro, Urganch, Xiva, Toshkent, Samarqand, Zomin, Qo‘qon, Bog‘dod, O‘zgan, Zabiliston, Chin* va boshqalar.

*To‘rtinchidan*, 1) insonlarning *lavozimi, kasbi, xarakteri va ruhiy holati* kabi fazilatlarning «bir» raqami bilan boshlanishi: *bir odil podsho, mergan, yamoqchi, duradgor, mardikor, tentak, xasis, kal, garang...*; 2) ertakning kirish qismi hayvon nomlari va ularning *lavozimi, xarakteri* kabi semalar bilan berilishi: 1) «*Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, toshbaqa tarozibon ekan, to‘ng‘iz qassob ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan*» [2,186]; 2) «*Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, toshbaqa tarozbon ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan*» [2, 33];

Yuqorida ikki noqardosh tillarda ertaklarning an’anaviy muqaddima bilan *boshlanishi* haqida fikr yuritdik. Ammo ushbu tillardagi ertaklarning *yakuniy*, ya’ni *tugallanma* qismida ham bir-biriga o‘xshamas tomonlar, xususiyatlar borligi ma’lum bo‘ldi.

O‘zbek ertaklarining oxiri, ya’ni *tugallanma* qismini lingvokognitiv tahlil qilar ekanmiz, ertaklar ko‘pincha yaxshilik g‘alabasi bilan nihoyasiga yetganligining guvohi bo‘lamiz. Ertaklarning yakuniy qismi ko‘pincha ikki syujet asosida, birinchidan, to‘y motivi bilan, ikkinchidan, «*Bizlar ham yetaylik murodga, sizlar ham yeting murodga, o‘qib, eshitganlar ham yetsin murodga, dushmanlar qolsin uyatga*» kabi istak murojaati bilan o‘z nihoyasiga yetishi kuzatildi. Ushbu matnni lingvistik tahlil qilsak, unda yetaylik *murodga* – istak semasini anglatsa, *yeting murodga* verbal iborasi ham istak, ham undov, ham buyruq ma’nolarini ifodalamoqda; *yetsin murodga* lisoniy birligi istakni va buyruqni namoyon etayotgan bo‘lsa, *qolsin uyatga* iborasi esa ertak janridagi salbiy personajlarga nisbatan aytilgan aksiologik murojaat hisoblanadi.

## NATIJALAR

Misollar tahlilidan kelib chiqib, o‘zbek ertaklarining yakuniy-tugallanma qismlarini quyidagi semantik guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) to‘y-tomosha tasviri;
  - 2) istak-niyat, «yaxshi yetsin murodga, yomon qolsin uyatga», murodu maqsadga yetish;
  - 3) sokin, yaxshi, baxtli turmush kechirish;
  - 4) o‘ziga yaqin kishilar bilan ahil yashab o‘tish;
  - 5) yashash turmush tarzini obod va ozod o‘lkaga aylantirish va hokazo.
- 1-jadvalga qarang:

<i>Konseptual belgilar (yoki modallik turlari)</i>	<i>O'zbek ertaklari</i>
<i>temporallik, miqdor, to'y motivi, maqsad</i>	<b>1.</b> <i>Odilxon podsho qirq kechayu qirq kunduz to'y- tomosha qilib, Bektemir botir bilan Oqbilak oyimni bir-biriga qo'shdi. Shu bilan ular murodu maqsadiga yetishdi (O'XE, 2007, 1, 362).</i>
<i>temporallik, to'y motivi</i>	<b>2.</b> <i>Ovchi Kenja botirga qirq kechayu qirq kunduz to'y qilib haligi qizni olib beribdi va shu bilan murodumaqsadiga yetibdi (BbE, Semurg', 33).</i>
<i>makon, temporallik, holat</i>	<b>3.</b> <i>Sulton shahar xalqiga yetti kun ziyofat beribdi. Navoiy bir necha kun turgach, Hirota qaytibdi. Ziyod botir Qamarxon shod-xurramlik bilan umr kechirishibdi (BbE, Ziyod Botir, 41).</i>
<i>Aksiologik, maqsad,makon</i>	<b>4.</b> <i>Shunday qilib, cho'pon o'zining donishmandligi orqasida shaharga podsho bo'lib, begunoh zindonda yotgan kambag'allarni ozod qilib, o'zi odillik bilan yurt so'rab, bolaschaqa ko'rib, murodu maqsadiga yetdi (BbE, Donishmand cho'pon, 76).</i>
<i>temporallik, makon, tabiat, holat</i>	<b>5.</b> <i>Bir qancha vaqtidan beri jimlik hukm surgan archazor shodlikka to'libdi. Zulm ko'rganlar, alamdiydarlar Quyosh yerining pahlavoni yetchiligida ozod, hur, go'zal hayot kechira boslabdilar (BbE, Quyosh yerining pahlavoni, 214).</i>
<i>holat, niyat- maqsad, istak, aksiologik, makon</i>	<b>6.</b> <i>Chol quvona-quvona ayolga: – Rahmat, qizim, murodingga yet, qo'shganing bilan qo'sha qari, – debdi va ayolning farosatiga tahsin o'qib, qishlog'iga ravona bo'libdi (O'XE, Tadbirli ayol, 106).</i>

Misollardan ko'rindaniki, o'zbek xalq ertaklarining yakuniy qismida ko'plab lisoniy birliklar ishtirok etmoqda. Jumladan, ertak tugallamasi har doimgidek to'y-tomosha, uylanish motivi (1,2), ziyofat berish (3) leksemalari bilan, shuningdek, begunoh kishilarni zulmlardan ozod qilish va ular uchun go'zal turmush tarzini yaratish (4) lisoniy birliklari orqali, mamlakatni ozod-obod o'lkaga aylantirish, ozod va hur, go'zal hayotni barpo qilish (5) aksiologik vositalari va nihoyat, (6) qo'shganing bilan qo'sha qari naqli bilan berilishi o'zbek xalqiga xos milliy qadriyatlarining ertaklarda o'z o'rnida qo'llanishidan darak bermoqda. Quyidagi misollarni tahlilga tortamiz.

2-jadvalga qarang:

<i>Konseptual belgilar (yoki modallik turlari)</i>	<i>Fransuz ertaklari</i>
--	--------------------------

<i>to'y motivi, reallik, istak</i>	<b>1.</b> <i>Malikaning otasi ham to'yda hozir bo'libdi... Qizi bilan diyordi ko'rishgan qiroq kelin hamdakuyovga oq fotiha beribdi</i> (OG'E, Eshak terisi, 95).
<i>egalik, turmushga chiqish, reallik</i>	<b>2.</b> <i>Shahzoda Kuloyimning yanada ochilib ketganini ko'rib, o'zida yo'q xursand bo'libdi va bir necha kundan keyin unga uylanibdi</i> (OG'E, Kuloyim, 60).
<i>go'zallik, holat, temporallik, ulyanish motivi</i>	<b>3.</b> <i>Blansh endi fermada singlisi bilan birga yashay boshlabdi. U ham Vermey kabi o'z ona qishlog'ida baxtiyor kun kechiribdi</i> (Janob Segining echkisi, Beva va uning qizlari, 65).
<i>fiziologik vafodorlik</i>	<b>4.</b> <i>Ko'k soqolning merosxo'rlari bo'l maganidan, rafiqasi uning bor davlatiga ega bo'libdi. U boyliklarning hammasini eng yaqin kishilariga bo'lib beribdi va insofli bir odamga turmushga chiqib, shirin hayot kechiribdi</i> (OG'E, Ko'k soqol, 32).
<i>makon, reallik,</i>	<b>5.</b> <i>Jimjiloqvoy otasiga yangi ustaxona ochib beribdi, akalarini o'qimishli qilib, yuqori lavozimlar olib beribdi. O'zi bo'lsa, bir umr qiroqla sidqidildan xizmat qilibdi</i> (OG'E, Jimjiloqvoy, 87 ).

Mazkur fransuz ertaklari (tarjimasi) misollarida to'y motivi eng ko'p uchraydigan syujet hisoblangan.

## MUHOKAMA

Birinchi va ikkinchi gaplarda ertak tugallanmasi uylanish motivi bilan bog'liq bo'lib, ularda *oq fotiha berish, unga uylanish* leksik birliklari to'y motivini yaqqol aks ettirib turgan bo'lsa, *baxtiyor kun kechiribdi, shirin hayot kechiribdi* lisoniy vositalari esa epistemik va aksiologik modallik kategoriyalarini ifodalashga xizmat qilmoqda. *Sidqidildan xizmat qilibdi* sintaktik birligi personajning o'z qiroliga vafodorligini, samimiyligini, sadoqatini ifodalab, aksiologik modallikni bildirib kelmoqda. Shuningdek, *otasiga yangi ustaxona ochib beribdi, akalarini o'qimishli qilib, yuqori lavozimlar olib beribdi, boyliklarning hammasini eng yaqin kishilariga bo'lib beribdi* kabi sintaktikbirliklar ham aksiologik va epistemik modallikni ifodalamoqda.

Misol keltirilgan ertaklarning mazmunidan ko'rindaniki, uylanish motivi ifodasida o'zbek va fransuz ertaklarida o'xhash tomonlar mavjud.

Fransuz va o'zbek ertaklarida milliy-madaniy o'xhashliklar, milliy o'ziga xosliklar va differensial belgilarni til va madaniyatda aks ettirishda lisoniy vositalarning roli, qolaversa, tilning eng murakkab, muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etuvchi ko'p qamrovli, differensial belgilarning semantik maydonda o'zaro kesishish holatlari ifodalaydigan, lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishda modallik kategoriyalari katta

ahamiyatga egadir. Ertak, xalqning madaniyatidan darak beruvchi voqealarga hodisalar hamda leksik birliklarni o‘zida yashirgan presedent (*o‘zidan keyingi sodir bo‘ladigan xuddi shu turdagи voqealarga o‘rnak, misol bo‘larli hodisa*) matnning bir shakli hisobalanadi.

## XULOSA

Xalqning xarakteri va uni tashkil etuvchi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash juda mushkul vazifa bo‘lib, o‘zbek va fransuz millati shaxsiga xos xususiyatlar boshqa ko‘p millatlarga ham xosdir. Shunga qaramay, ajratilgan madaniy dominantlar o‘zbek va fansuz ertaklarida «o‘zbek va fransuz milliy xarakteri»ni eng yuqori darajada ifodalovchi hamda aynan o‘zbek va fransuz shaxsining milliy o‘ziga xosliklarini farqlovchi lisoniy vositalardir. Til madaniyatning ahamiyatli bir bo‘lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Shu sababdan ham tilshunoslikda hamisha til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi masalasiga, millatning o‘ziga xos urf – odati, an’anasi, madaniyatning bir bo‘lagi bo‘lgan nutqni normaga solish hamda qonun – qoidalarga rioya qilinishi muammolariga e’tibor qaratib kelingan.

Qolaversa, “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy–ma’naviy bog’liqlik til orqali namoyon bo‘ladi”.

Har bir sohaning o‘z tarixi bo‘lgani kabi, tilshinoslik, adabiyotshunoslik va folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o‘z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o‘tmishga borib taqaladi va albatta bu uchlikning o‘zaro uyg‘unligi ko‘rinadi. Til madaniyatning ahamiyatli bir bo‘lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Shu sababdan ham tilshunoslikda hamisha til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi masalasiga, millatning o‘ziga xos urf - odati, an’anasi, madaniyatning bir bo‘lagi bo‘lgan nutqni normaga solish hamda qonun – qoidalarga rioya qilinishi muammolariga e’tibor qaratib kelingan.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. 2-том. – Т., 1959. – 327 б.
2. Ўзбек халқ эртаклари. Т., 1960, Сусамбил. – 186 б.
3. Ўринбоева Д. Ўзбек тили ва адабиёти. – № 5, 2010. – 86 – 87 б.
4. Ўзбек халқ эртаклари. З жилдлик. 1-ж. – Т.: «Ўқитувчи», 2007. – 384 б.
5. Жаноб Сегэннинг эчкиси. Француз адибларининг эртаклари. – Т.: Юлдузча, 1989. – 110 б.
6. Она ғоз эртаклари. – Тошкент: «Шарқ» нашриёти, 1996.
7. [www.qishloqhayoti.uz](http://www.qishloqhayoti.uz)

## TA'LIMDA ILMIY TADQIQOT ISHLARIDAN FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLARI

**Karimov Yusuf Narzullayevich**

Jizzax Politexnika Instituti muhandislik kommunikatsiyalari kafedrasi assistenti

**Karimova Shoira Abdulhaq qizi**

G'allaorol xizmat ko'rsatish va servis texnikumi o'qituvchisi

**Abdurahmonova Sojida Aliqulovna**

G'allaorol tumani 29-maktab o'qituvchisi

**Abdusalomov Ilyos, Abdullayev Abdulkarim**

G'allaorol xizmat ko'rsatish va servis texnikumi talabalar

**Annotatsiya:** Ushbu ishda texnikumda tahsil olayotgan talabalar uchun o'qitiladigan fanlarda mashg'ulotlarni o'tkazishda ilmiy tadqiqot elementlari hamda yangi ilmiy yutuqlaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarining mazmuni, turlari va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan vazifalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ilmiy tadqiqot ishlari, zamonaviy oliy ta'lism, fikrlash, ijodkorlik, tadqiqotchilik, induviduallik, dars samaradorligi.

Bugungi kunda ta'lism tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri mustaqil fikrlovchi va kasbiy faoliyatida yuqori malakali mutaxassis kadrlarni yetkazib chiqarish. Buning uchun oliy o'quv yurtida olib boriladigan har bir mashg'ulotlar ilmiy yondoshuvga asoslangan bo'lishi kerak. Ushbu maqsadga erishish uchun har bir o'tkaziladigan mashg'ulotlarni ilmiy tadqiqot elementlari bilan boyitilgan halda olib borish kerak.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot jarayoni - bu talabalarning fikrlash, ijodkorlik, tadqiqotchilik, induviduallik qobiliyatini shakllantiradigan hamda shaxsning o'z-o'zini anglashiga tayyorligini to'liq ifodalaydigan faoliyatdir. Bu faoliyat talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy muammoni ko'rish, uni o'z tilida bayon qilish, ro'y berishi mumkin bo'lgan natijani oldindan tahlil qilish hamda savollar berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ilmiy tadqiqot ishlari talabalarning o'quv faoliyatidagi ijodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi [1-3]. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarining pedagogik ahamiyati uning tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi.

Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilar kerak bo'ladi:

- talabalarning ilmiy ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga kompleks yondashuv;
- talabalarning barcha turdag'i ilmiy ishlarini birlashtirish;

- talabalarning ilmiy ishlari sifati ustidan nazoratni ta'minlash.

Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining mazmuni va amalga oshirish usuliga qarab quyidagi uchta turga ajratamiz.

1. Talabalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan o'quv jarayoniga kiritilgan ilmiy-tadqiqot faoliyati. Talabalarning o'quv jarayoniga kiritilgan ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishning asosiy vazifasi "tayyorlanish qanchalik yuqori bo'lsa, ilmiy ish shunchalik ko'proq samarali bo'ladi" tamoyili bo'yicha ularni o'qish jarayonini izchil faollashtirishdir.

Bunday ishlar o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejasi va dasturlariga muvofiq, so'zsiz amalga oshiriladi. Fanlar bo'yicha auditoriya va mustaqil mashg'ulotlar jarayonida talabalar ilmiy ishning analitik, ishlab chiqarish, izlash va sintezlash elementlarini o'rganadilar. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining bu turi professor-o'qituvchilarning metodik rahbarligida ilmiy tadqiqot elementlari bilan auditoriya va uy vazifalarini mustaqil bajarish (referatlar, tahliliy ishlar, maqolalar tarjimalari va boshqalar), o'quv va ishlab chiqarish bo'yicha hisobotlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. O'quv jarayoniga kiritilgan talabalarning barcha turdagи tadqiqot faoliyati natijalari professor-o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va baholanadi.

2. Talabalarning o'quv jarayonini to'ldiradigan tadqiqot faoliyati. O'quv jarayonini to'ldiradigan ilmiy-tadqiqot faoliyatining asosiy vazifasi o'quv rejasidan tashqariga chiqish ya'ni o'quv jarayonini individuallashtirishdir. Talabalarning tadqiqot faoliyatining bu turi ularning mustaqilligini nazarda tutadi va o'quv dasturi doirasidan tashqaridagi ishlarni o'z ichiga oladi, yani individual ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, olimpiadalar, tanlovlardan, ilmiy konferentsiyalar va seminarlarda ishtiroy etish imkonini beradi. O'quv jarayonini to'ldiruvchi talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan rejorashtirish va tashkil etish mexanizmining samaradorligiga va pedagoglarlar tomonidan uning bajarilishini nazorat qilishinishga va unda talabalarning ishtiroyini rag'batlantirishga bog'liq.

3. O'quv jarayoniga parallel ravishda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borilishi. Talabalarning o'quv jarayoni bilan parallel ravishda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarida ishtiroy etishining asosiy vazifasi ularning ilmiy jihatdan fikrlash ko'nikmasini hosil qilishdir. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining ushbu turining asosiy shakli universitetdagи ilmiy rejalariga kiritilgan byudjet hamda tijoriy ilmiy tadqiqotlarida ishtiroy etishdir. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining bu turi talabalarga ilmiy tadqiqot ishlarining usullari va o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirishga hamda ilmiy jamoalarda ishslash ko'nikmalarini egallahsga imkon beradi [4-6].

Talabalarning ilmiy tadqiqot ishi turlaridan yana biri loyihali texnologiya hisoblanadi. Uning istiqbolligi shundaki, loyiha topshirig'i ma'lum bir fan bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayonini uning egallagan bilimlaridan real foydalanish bilan bevosita bog'laydi. Olingan natijani ko'rish, fikrlash va real amaliyotda qo'llash

mumkin. Bunday natijalarga erishish uchun talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni topish va yechishga, olinadigan natijalarni ko‘ra bilishga, yechim topish yo‘llarini o‘rgatishga tayyorlash lozim. Loyiha texnologiyasida o‘qituvchining vazifasi katta.

Loyiha ishining bosqichlari quyidagi shaklda taqdim etiladi:

- mavzuni izlash va aniqlash (loyiha muammolari, maqsad, vazifalarini belgilash, yakuniy mahsulotni aniqlash);
- axborotni to‘plash usullari va olish vositalarini aniqlash (diagrammalar, jadvallar, so‘rovnomalar tuziladi);
- olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish;
- loyiha natijalarini baholash, asosli xulosalar tayyorlash, natijalarni tayyorlash, ularni taqdim etish

Har bir mavzuga kerakli adabiyotlar ro‘yhati, jurnal maqolalari ham ilova qilinadi. Taklif etilgan ro‘yhatdan talaba o‘z qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mavzuni tanlashi yoki mustaqil ravishda shakllantirishi mumkin.

Talaba ilmiy g‘oyadan ilhomlansa yoki bilim olishda yuzaga keladigan falsafiy savollarga qiziqsa, fanning kerakligini chuqr his qiladi. Talaba nazariy olingan bilimlarini amaliy mashg‘ulot shaklida mustahkamlashning muhum natijalari bu ilmiy ishning ma’lum qismini o‘z qo‘li bilan amalga oshiradi, ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi va bu sharoitda ishlayotgan olimlarning mehnatini qadrlaydi. Bunday ishlariga misollar quyida keltirilgan [7].

Har qanday tadqiqot ishi singari, esse ham aniq mantiq va tuzilishga ega quyidagicha bo‘lishi kerak:

- muammoni o‘z ichiga olgan kirish qismini, qandaydir ko‘rilayotagan tezisga nisbatan izohlash;
- asosiy qism – shakllantirilgan tezisni asoslash;
- yakuniy qism – tahlilga asoslangan xulosalar.

Ish matnida albatta foydalanilgan adabiyotlarga havolalar bo‘lishi kerak.

Loyiha usuli kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda qurish va axborot makonida harakat qilish qobiliyatiga asoslangan talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish. Loyiha usuli u yoki bu amaliy va nazariy jihatdan muhim muammolarni hal qilish orqali olinishi mumkin bo‘lgan natijalarga qaratilgan.

O‘quv jarayonidan ijodiy essedan foydalanish o‘quv materialini chuqr fikrlashga, bo‘lajak mutaxassislarga olgan nazariy bilimlarini aktual muammolarni tahlil qilishga, talabalarning ilmiy izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga va mustaqil ravishda ilmiy-izlanish ishlarini olib borishga yordam beradi.

Doklad – talabaning yangi narsalarni o‘rganishga intilishi tashabbusini rag‘batlantirishning usullaridan biri hisoblanadi. Agar talaba o‘rganilayotgan

mavzudagi ma’ruza va seminarlarda muhokama qilinmagan dolzarb masalaga qiziqsma ma’ruza tayyorlab, ma’ruza qilishi mumkin. Dokladni tayyorlash mustaqil ravishda amalga oshiriladi, lekin uni himoya qilish ommaviy xarakterga ega bo‘lishi kerak va eng muhim, jamoatchilik taqdim etish uchun eng yaxshi dokladlarni tayyorlash lozim bo‘ladi. Professor-o‘qituvchi tomonidan talabalarga taklif etadigan ma’ruzalar mavzularini qanchalik puxtalik bilan tayyorlasa, bajarilgan ishlarni nazorat qilib, tahlil qilsa, professor-o‘quvchilar shunchalik qiziqarli va hatto o‘ziga xos bo‘ladi, buning natijasida talabalarning mustaqil izlanuvchanlikdagi yutug‘i yuqori darajada bo‘ladi [1-2].

Multimedia texnologiyasidan foydalangan holda talabalar dokladlar tashkil qilishi juda muhim, chunki:

- ma’ruzani faol idrok etishga, uning dizayni va ravshanligini hisobga olgan holda e’tiborni kuchaytirish orqali o‘quv jarayonini faollashtirishga yordam beradi;
- ilmiy-tadqiqot ishlariga ko‘nikma va qiziqishni oshiradi;
- talabalarni kompyuterdan foydalanishning turli imkoniyatlari bilan tanishtiradi;
- talabaning joriy attestatsiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy ishning ushbu shaklidan foydalanganda o‘qituvchi ma’ruza tuzilishini belgilaydi, adabiyotlarni tavsiya qiladi. Materialini slaydlarda aks ettirishga yondashuv bo‘yicha alohida tavsiyalar beradi, yechimning turli variantlarini ko‘rib chiqadi, natijani aniqlaydi. Dokladni tayyorlashda talaba odatiy javobga qaraganda ko‘proq materialni o‘rganadi va o‘quv jarayoni qiziqarli va samarali bo‘ladi.

**Xulosa.** Audiovizual kuzatuv bilan taqdimotni tayyorlash muhim o‘rin tutadi, bu nafaqat nutq ko‘nikmalarini, balki nutqni mantiqiy tuzish qobiliyatini, to‘g‘ri strategiyani tanlashni va audidatoriya tinglovchilari bilan muloqot qilishni rivojlantiradi. Shunday qilib yuqorida keltirilgan ilmiy izlanish faoliyatining shakllari talabalarda izlanuvchanlik faoliyatini rivojlanishiga keng imkon yaratadi.

### **Adabiyotlar:**

1. B.B.Turdiqulov, O‘S.Nazirov, Yu.N.Karimov. // Atom va molekulalarning yorug’likni yutishi va nurlanishi // UIF = 8.1 | SJIF = 5.685. 2022. –C. 1252-1258. ([https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=HF\\_xJoAAAAJ&citation\\_for\\_view=HF\\_xJoAAAAJ:u5HHmVD\\_uO8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=HF_xJoAAAAJ&citation_for_view=HF_xJoAAAAJ:u5HHmVD_uO8C))
2. X.N.Karimov. //Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriya ishidan foydalanish.// “Yosh olimlar, doktarantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy-forumi” materiallar to‘plami. –P. 102-104 (<https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/130>).
3. X.N.Karimov, A.E.Imamov, E.Z.Imamov. // Development of creative thinking in higher education.// “Science and innovation” international scientific journal. (ISSN: 2181-3337) 2023. №3. -C. 359-361. (<http://scientists.uz/view.php?id=3836>)

4. X.Sh.Asadova, Yu.N.Karimov. // [Effective organization of the educational process based on new modern technologies](#). // “Science and innovation” international scientific journal. Volume 1 Issue 7. 2022. -S. 230-233. (<https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zamonoviy-tehnologiyalar-asosida-uv-zharayonini-samarali-tashkil-etish>).

5. Kh.N.Karimov. // Methods of self-education in teaching students physics using ict-information and computer technologies. // “Galaxy international Interdisciplinary Research Journal”, 11(2), -C. 471–475. (<https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/4889>).

6. X.N.Karimov. //Fizika fanini o ‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo ‘llash// Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 22-23 noyabr. Toshkent-2023. –B. 57-60

7. A.S.Ganiyev, Yu.N.Karimov // Problems and solutions of organizing students' scientific research works // “Science and innovation” international scientific journal volume 2 issue 10 october 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337. Toshkent -2023. –P. 77-80

## **“KITOBU-T-TAFHIM” ASARI BO‘YICHA O‘ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN NASHR VA TADQIQOTLAR TAHLILI**

**Islom Sobir o‘g‘li Bo‘riev**

O‘zFA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

[islomb361@gmail.com](mailto:islomb361@gmail.com)

**Annotatsiya:** Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) o‘rta asrning eng buyuk olimlaridan biri hisoblanadi. U qoldirgan ilmiy meros 152 kitob va risoladan iborat. Uning asarlari mavzu jihatdan turli-tuman. Xususan, “Kitobu-t-tafhim” uning eng yirik asarlaridan biri bo‘lib, ensiklopedik xarakterga egadir. Asarda matematika, astronomiya, geografiya, tarix, xronologiyaning umumiylasalari va ularning munajjimlik san’ati (astrologiya) ga tatbiqi bayon qilingan. Asarni odatda “Tafhim”, “Astronomiya” va “Astrologiya” nomlari bilan atalib kelinadi. Jahon olimlari ham, o‘zbek olimlari ham mazkur asar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan va natijada ko‘plab asarlar, dissertatsiyalar, turli darajadagi ilmiy ishlar vujudga keldi. Lekin bu ilmiy ishlarda ba’zi o‘rinlarda chalkashlikka yo‘l qo‘yilganiga duch kelish mumkin. Mazkur maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Kitobu-t-tafhim” asari bo‘yicha o‘zbek olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi.

**Abstract:** Abu Rayhan Muhammad ibn Ahmad al-Biruni (973-1048) is considered one of the greatest scientists of the Middle Ages. The scientific heritage left by him consists of 152 treatises. His works are diverse in subject matter. In particular, "Kitobu-t-tafhim" is one of his largest works and has an encyclopedic character. The work describes the general issues of mathematics, astronomy, geography, history, chronology and their application to the art of astrology (astrology). The work is usually called "Tafhim", "Astronomy" and "Astrology". Both world scientists and Uzbek scientists conducted scientific research on this work, and as a result, many works, dissertations, scientific works of various levels were created. But it is possible to encounter confusion in some places in these scientific works. This article analyzes the research carried out by Uzbek scientists on Abu Rayhan Beruni's book "Kitobu-t-tafhim".

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) o‘rta asrning eng buyuk olimlaridan biri hisoblanadi. Beruniy o‘z zamonasining ko‘pchilik fanlari bilan shug‘ullangan qomusiy olimdir. Uning asarlari mavzu jihatdan turli-tuman. Xususan, “Munajjimlik san’ati (astrologiya) negizlarini tushuntirish kitobi” – “Kitobu-t-tafhim” uning eng yirik asarlaridan biri bo‘lib, ensiklopedik xarakterga egadir. Asarda matematika, astronomiya, geografiya, tarix, xronologiyaning umumiylasalari va

ularning munajjimlik san'ati (astrologiya) ga tatbiqi bayon qilingan. Asarni odatda "Tafhim", "Astronomiya" va "Astrologiya" nomlari bilan atalib kelinadi. Lekin sharqda Beruniyning bu asari "Tafhim" nomi bilan mashhurdir.

"Kitobu-t-tafhim" asari o'zbekistonlik olimlar tomonidan o'rganilishi, asosan, jahon urushi tugaganidan so'ng boshlandi. Asar xususidagi dastlabki o'zbek tilidagi tolagon chop etilgan "Biruniy – o'rta asrning buyuk olimi" nomli maqolalar to'plamini ko'rsatish mumkin<sup>38</sup>. Xususan, A. A. Semyonovning to'plamdagagi maqolasida Beruniyning 1017-yilda Sulton Mahmud G'aznaviyga asir tushib G'aznaga ketgandan so'ng vaqt o'tib Xorazmga qaytganligi to'g'risidagi fikr "Kitobu-t-tafhim" asarining yozilishi bilan bog'lanadi. Maqolada mazkur asar xorazmshoh Ma'mun II ning singlisi Rayhonaga bag'ishlab 1029 – 1030 yil (hijriy 420) bilan 1033 – 1034-yil oralig'ida yozilganligi ta'kidlanib, bu Sulton Mahmud (997 – 1030) ning vafoti (421-hijriy – 1030-milodiy yil) dan sal oldin va undan keyin Xorazmda yashaganligiga dalil qilinadi<sup>39</sup>.

Bu yerda maqola muallifi xatolikka yo'l qo'yemoqda, chunki Beruniy 1030 – 1034-yillarda Xorazmda yashaganligiga biror ishonzchli dalil yo'q bo'lib, kitob bag'ishlangan Rayhona aslida Ma'mun II ning singlisi emas, balki xorazmlik Hasan ismli kishining qizidir. Buni Beruniy o'z asarida ta'kidlagani ma'lum. Maqola muallifi bu masalaga "Kitobu-t-tafhim" asarini ingliz tiliga tarjima qilgan Ramzey Rayt nuqtayi nazaridan yondashgan. Chunki Rayhona Ma'mun II ning singlisi, Xorazmshoh Ma'mun ibn Muhammad (995 – 997) ning qizi degan fikrni R. Rayt bergan. Maqola muallifi Rayt tarjimasidan juda yaxshi xabardor bo'lgan ekan.

Maqolada asarning tarjimasi 1934-yilda Londonda R. Rayt tomonidan 100 nusxada "The Book of Instruction in the Elements of the Art of Astrology, By - Abu'l-Rayhan Muhammad ibn Ahmad al-Biruni written in Ghazna 1029 A.D. Reproduced from Brit, Mus. Ms. Or. 8349" nomi bilan nashr etilganligini, bu bosma 133 bet arabcha original va shuncha tarjimadan iborat bo'lib, ko'rsatgichlar ham berilganligini muallif batafsil aytib o'tadi. Maqolada, shuningdek, Beruniyning bu asari ikki ail til: arabcha va forschada yozilganligi, ularning qaysi biri qaysisidan tarjima qilinganligini aytib bo'lmasligi ham ta'kidlanadi. Maqolada asarning qo'lyozmalari to'g'risida berilgan qisqacha ma'lumot diqqatga sazovordir. Jumladan, asarning Parij milliy kutubxonasida saqlanuvchi juda qadimgi forschcha nusxasi 668-hijriy / 1263-milodiy yilda ko'chirilganligi qayd etiladi. Muallif mazkur nusxadan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi fors tilidagi qo'lyozma 685-hijriy / 1286-milodiy yilda ko'chirilganligini va u Britaniya muzeyida saqlanishini ham aytib o'tadi. Mazkur nusxa Britaniya muzeyidagi

<sup>38</sup> Бируний – ўрта асрнинг буюк олими (Бируний вафотининг 900 йиллигига бағишланган мақолалар тўплами). – Тошкент, ЎзССР Фанлар Академияси нашриёти, 1950. Носиров А. Бируний ҳақида шарқ қўлэзма китобларидағи материаллар. – 146-б.

<sup>39</sup> А. А. Семёнов. Ўрта асрнинг машхур олими. Бируний – ўрта асрнинг буюк олими (Бируний вафотининг 900 йиллигига бағишланган мақолалар тўплами). – Тошкент, ЎзССР Фанлар Академияси нашриёти, 1950. – Б. 41.

forscha qo‘lyozmalar katalogida doktor Rye tomonidan tavsiflangani ko‘rsatilib, Cat. of the Persian MSS. in the Museum ed. in London, 1881; pp. 451 – 452 havolasi ham beriladi. Maqolada asarning nomi ilk marotaba o‘zbek tiliga, “Astronomiya san’ati asoslarini tushuntirish kitobi” deb tarjima qilinganligi diqqatga sazovordir. Shuningdek, maqolada Beruniyning bir necha asarlari qatorida “Astronomiya asoslarini tushuntirish kitobi” ham tadqiqotchilari va ilmiy tarjimonlarini kutib yotgani aytilib, mazkur risola kam o‘rganilganligiga ishora qilib ketilgan<sup>40</sup>.

Mazkur to‘plamdagi G‘. Jalolovning “Бируний ва астрономия фани” maqolasida, “Kitobu-t-tafhim” asarining nomi “Astronomiya san’atining boshlanishini o‘rganish kitobi” deb tarjima qilinib, risolaning yozilish sababi, 1029 yilda Hasan ismli bir mashhur shaxsning qizi Rayhonaga taqdim qilinganligi qayd etiladi. Asarning forscha yozilganligi, bir nusxasi O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasining sharq qo‘lyozmalari institutida saqlanishiga alohida urg‘u berilganligiga qaraganda maqola muallifi arabcha nusxalar va tarjima nashr to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘limganligi ko‘rinadi<sup>41</sup>.

Asarning O‘zbekiston SSR FA Sharqshunoslik institutida saqlanuvchi 1293-yilda ko‘chirilgan forscha qo‘lyozmasi fonddagi eng nodir qo‘lyozmalardan hisoblanishi ham aytib o‘tiladi. So‘ng mazkur nusxaga oid ma’lumotlar berib o‘tiladi. Muallifning ijodiy-tahliliy fikrashi shundaki, u asarni geografiya, hisob, jabr, geometriya, astronomiya (ilmi hay’at) va astrologiya (ilmi nujum) ilmlarini o‘rganish uchun boshlang‘ich qo‘llanma, aniqrog‘i, bir elementar ochqich (справочник) deb ta’riflaydi. Muallif, shuningdek, asarda astrologiya (ilmi nujum) yozilgan bo‘lsa ham, Beruniyning bu sun’iy ilmga mutlaqo ishonmaganligini ta’kidlab, astrologiyaga oid qism munajjimlarning talabini qondirish uchun yozilgan, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Muallif astronomiya ilmi astrologiya asosida uzoq davomida rivojlanganligini astronom Iogan Kepler ning quyidagi so‘zlar bilan izohlaydi:

To‘g‘ri, bu astronomiya ahmoq bir qiz; agarda aqlli, o‘tkir astronomiya - onaning shunday fosiqa qizi bo‘lmaganida edi, ey xudo, ona qanday nochorlikda qolar edi. Qarang, dunyo shu (qiz) singari beaql bolgandan shunday sof, aqli ona astronomiya öz qizi hisobiga yashashga majbur, chunki qizi boqmaganda onaning och qolishi mumkin edi<sup>42</sup>.

Maqolada Beruniyning astrologiyaga Keplerniki singari bo‘lganligi tahmin qilinadi. Maqolada asardagi yoritgichning kuyishi, harakatsiz yoritgich yulduzlar soni, Yer atmosferasining tuzilishi, Yer bilan Oy oralig‘idagi narsalar, Yer sharining o‘lchami, Yerdan turli sayyoralar va Quyoshgacha masofa, turli osmon jismlarining o‘lchamlari, Oy tutilishlari, olam tuzilishi to‘g‘risidagi savol-javoblarning mazmuniy

<sup>40</sup> Ўрта асрнинг машхур олими. – Б. 41.

<sup>41</sup> F. Жалолов. Бируний ва астрономия фани. Бируний – ўрта асрнинг буюк олими (Бируний вафотининг 900 йиллигига бағишиланган мақолалар тўплами). – Тошкент, ЎзССР Фанлар Академияси нашриёти, 1950. – Б. 79.

<sup>42</sup> Бируний ва астрономия фани. – Б. 80.

tarjimasi berilib, Beruniyning bu masalalardagi fikrlari tahlil qilinadi va hozirgi ilm-fan yutuqlari bilan solishtiriladi. Shuningdek, maqolada Beruniy tomonidan chizilgan Yer yuzining xaritasi, Yer atmosferasi, olam tuzilishi tasvirlari, oy utilishi ko'rsatib berilgan geometrik chizma va sayyoralarining o'lchamlari berilgan jadval ham keltiriladi<sup>43</sup>.

To'plamdagi A. Nosirovning "Biruniy haqida sharq qo'lyozma kitoblaridagi materiallar" nomli maqolasida esa asarning nomi "At-tafhim at-tanjim" deb keltirilib, Beruniy bu kitobini 1029 – 1034-yillarda Xorazmda yashab, Rayhonaga bag'ishlab yozganligi aytildi<sup>44</sup>.

Bu yerda ham muallifning xatolari ochiq ko'rindi. Shu yillarda Beruniy Xorazmda yashaganligini isbotlovchi biror ishonchli dalil hali topilgani yo'q. Maqolaning "Biruniy fan sohasida" qismida "Kitobu-t-tafhim" asarining nomi "Nujum ilmining boshlang'ichlarini tushuntirish" deb tarjima qilinib, u maxsus va nodir asarlardan ekanligi aytib o'tiladi. Beruniyning fors tiliga ustaligi asarini shu tilda arabcha so'zlarni qo'shmasdan yozgani bilan izohlanadi<sup>45</sup>.

Mazkur to'plamdagi "Biruniy to'g'risida qolgan manbalarning qisqacha mazmuni" nomli maqolada Muhammad ibn Mas'ud G'aznaviyning "Kifoyatu-t-ta'limgar sinoati t-tanjim", Muhammadxon Qazviniyning "Chahor maqola"ga yozgan hoshiyasi, Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning "Tarixi Guzida", Xondamirning "Habibu-s-siyar", "Toshko'frizoda Ahmad ibn Mustafoning "Mavzuotu-l-ulum", Kotib Chalabiy Hoji Xalifaning "Kashfu-z-zunun", Shamsiddin Somiyning "Qomusu-l-a'lom", Solih Zakkiyning "Osoru-l-boqiya", Muhammadxon Qazviniyning "Bist maqolai Qazviniy" asarlaridagi Beruniyning hayoti va ijodi, xususan, "Kitobu-t-tafhim" risolasi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi<sup>46</sup>.

To'plamda A. Nosirov tomonidan Beruniyning asarlariga o'zi tuzgan ro'yxati ham nashr etilgan<sup>47</sup>. "Kitobu-t-tafhim" asarining nomi ro'yxatdagi "Yulduz hukmlari haqida yozgan kitoblarim" ruknida keltirilgan<sup>48</sup>.

To'plamdagi "Beruniy asarlaridan ba'zilarining mazmuni va mavqe'i haqida turli manbalardan olingan ma'lumotlar" nomli maqolada asarni Beruniy 60 yoshlar chamasida, 1023-1034-yillarda yozganligi aytildi, bunga asos sifatida Hamdulloh

<sup>43</sup> Бируний ва астрономия фани. – Б. 80 – 86.

<sup>44</sup> А. Носиров. Бируний ҳақида шарқ қўлёзма китобларидағи материаллар. Бируний – ўрта асрнинг буюк олими (Бируний вафотининг 900 йиллигига бағишиланган мақолалар тўплами). – Тошкент, ЎзССР Фанлар Академияси нашриёти, 1950. – Б. 116.

<sup>45</sup> Бируний ҳақида шарқ қўлёзма китобларидағи материаллар. – Б. 120 – 121.

<sup>46</sup> А. Носиров. Бируний тўғрисида бўлган манбаларнинг кискача пазмуни. Бируний – ўрта асрнинг буюк олими (Бируний вафотининг 900 йиллигига бағишиланган мақолалар тўплами). – Тошкент, ЎзССР Фанлар Академияси нашриёти, 1950. – Б. 125 – 143.

<sup>47</sup> Бируний – ўрта асрнинг буюк олими (Бируний вафотининг 900 йиллигига бағишиланган мақолалар тўплами). – Б. 144 – 155.

<sup>48</sup> Бируний – ўрта асрнинг буюк олими (Бируний вафотининг 900 йиллигига бағишиланган мақолалар тўплами). – Б. 150.

Mustavfiy Qazviniyning “Tarixi Guzida” va Rizozoda Shafaqning “Tarixi adabiyoti Eron” asarlariga tayaniladi<sup>49</sup>.

Shuningdek, asar xorazmlik Hasanning qizi Rayhonaga atab yozilganmi yoki Hoji Xalifa ko‘rsatganidek, Abul-Fazlga bag‘ishlanganligi tahlil qilinib, birinchi variant aniqroq, degan xulosaga kelinadi. Maqola muallifi Beruniy asarni dastlab arab tilida yozib, keyin forschaga tarjima qilganligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari sursa ham, bunga yetarli jiddiy asosni ko‘rsata olmaydi. Ba’zilarning bu asarni Beruniy ko‘pchilik bilishi uchun sodda va oson uslubda ifodalar bilan fors tilida yorgan, degan fikriga munosabat bildirilmagan, faqatgina forschcha nusxadagi arabcha so‘zlarning soni 105 tadan oshmasligi keltirib o‘tilgan, xolos. Bu ma’lumotni berishda Og‘a Muhammad Taqiy Bahorning “Sabukshunosiy” asariga havola berilgan. Umuman, maqola muallifi “Kitobu-t-tafhim” asari dastlab qaysi tilda yozilganligiga doir yakuniy xulosani asosli bera olmagan. Shunday bo‘lsa-da, muallif asarning Toshkent, Berlin, Oksford, London, Aligarx Istanbul, Marokash, Tehpon, Rampurda saqlanuvchi nusxasi nusxalari va 1934-yilgi inglizcha tarjimasi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berib o‘tgani diqqatga sazovor.

Bu yerda ham muallif asarning forschcha nusxalari ichida eng eskisi sifatida O‘zbekiston SSR FA Sharqshunoslik institutida qo‘lyozmalar fondidagi 3423-inventar raqamli qo‘lyozmani ko‘rsatadi<sup>50</sup>.

Maqolada asarning 10 dan ortiq qo‘lyozmasi xususida ma’lumot berilganligiga qaraganda o‘sha vaqtida O‘zbekistonda boshqa nusxalar ma’lum bo‘lmagan. Chunki hozirda asarning 50ga yaqin nusxasi borligi ma’lum.

Sobiq SSSR Fanlar Akademiyasi Tarix va falsafa bolimi tomonidan 1950-yilda nashr etilgan “Beruniy” nomli maqolalar to‘plamida “Kitobu-t-tafhim” asariga doir ikki maqola uchraydi<sup>51</sup>.

To‘plamdagagi X. Sodiqovning Beruniyning astronomik qarashlariga doir maqolasida “Kitobu-t-tafhim” ta‘kidlanı 300 yil davomida astronomiyaga oid asosiy darsliklardan biri bo‘lganligi. unda astronomiyadan tashqari matematik geografiya va geometriya qismlari borligi ta‘kidlanadi<sup>52</sup>.

Beruniy “Tanlangan asarlari” nashrining I tomi – “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”ning kirish qism maqolasida “Kitobu-t-tafhim”ning nomi “Munajjimlik san‘atidan boshlang‘ich tushunchalar” deb tarjima qilinib, u arab va fors tillarida bizgacha yetib kelganligi, bir necha fanlarga oid muhim manba ekanligi aytib o‘tiladi<sup>53</sup>.

<sup>49</sup> А. Носиров. Беруний асарларидан ба’зиларининг мазмуни ва мавқе’и ҳақида турли манбалардан олинган ма’лумотлар. Бируний – ўрта асрнинг буюк олимни (Бируний вафотининг 900 йиллигига бағишиланган мақолалар тўплами). – Тошкент, ЎзССР Фанлар Академияси нашриёти, 1950. – Б. 158.

<sup>50</sup> Беруний асарларидан ба’зиларининг мазмуни ва мавқе’и ҳақида турли манбалардан олинган ма’лумотлар. – Б. 159.

<sup>51</sup> Бируни. Сборник статей под редакцией С.П. Толстова. – Москва – Ленинград, 1950. – 140-с.

<sup>52</sup> Бируни. Сборник статей под редакцией С.П. Толстова. – С. 80.

<sup>53</sup> Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I том. Қадимги халқлардан колган ёдгорликлар. – Тошкент, 1968. – Б. 10.

Shuningdek, Beruniy fors tilini yaxshi bilganligiga dalil sifatida “Kitobu-t-tafhim”ni shu tilda yozganligi to‘g‘risidagi fikr ham keltirib o‘tiladi<sup>54</sup>.

“Hindiston” hamda “Qonuni Mas’udiy” asarlarining asarining o‘zbek va rus tillaridagi tarjima nashrlari kirish qismida ham “Kitobu-t-tafhim” astronomiyaga oid asar ekanligi eslab o‘tiladi<sup>55</sup>.

“Geodeziya”ning ruscha tarjimasi<sup>56</sup>dan ko‘ra o‘zbek tiliga pilingan tarjimasidaning so‘zboshisida “Kitobu-t-tafhim” asari to‘g‘risida batafsilroq ma’lumot beriladi. Xususan, asarni tadqiq va tarjima ilgan olimlarning nomlari zikr qilinadi<sup>57</sup>. So‘zboshida, shuningdek, asarning nomi “Yulduzshunoslik san’ati negizlarini tushuntirish kitobi” deb tarjima qilinib, 1029-yilning so‘ngida yozib tugatilganli, forscha tarjimasi ham mavjudligi aytildi. Demak, so‘zboshi muallifi Ashraf Ahmedov “Kitobu-t-tafhim” dastlab arab tilida yozilgan, degan fikrda bo‘lgan. Asarning nusxalari, tarjima va ilmiy nashrlari hamda unda ko‘tarilgan mavzular xususida ham qisqacha so‘z yuritiladi<sup>58</sup>.

Yuqoridagi ma’lumotlardan shu narsa ko‘rinadiki, vaqt etgan sari Beruniyning asarlari tarjima va tadqiq etilishi hisobiga o‘zbek olimlari orasida “Kitobu-t-tafhim” borasidagi ma’lumotlar ko‘payib kengayib, ilmiy izlanishlarga ko‘proq jalb qilina boshlagan. Buni 1973-yilda nashr etilgan ikki maqolalar to‘plami misolida ham ko‘rish mumkin.

O‘zSSR FA Sharqshunoslik instituti tomonidan nashr etilgan “Beruniy tug‘ilgan kunining 1000 yilligiga bag‘ishlangan to‘plam”dagi U. Karimovning “Abu Rayhon Beruniy (Hayoti va jodi)” nomli maqolasida asar nomi “Ilmi nujumdan boshlang‘ich ma’lumotlarni anglatish” deb tarjima qilinib, hijriy 420-/milodiy 1029-yilda yozilganligi aytildi. Maqola muallifi asarga tanqidiy yondashib, “Kitobu-t-tafhim” o‘z nomidan astrologiyaga bag‘ishlangan bolsa ham, bu risolani arifmetika, geometriya, geografiya, astronomiya, xronologiya fanlaridan dastlabki tushunchalarni beruvchi darslik deb hisoblaydi. Maqolada asarning yozilgan tili va yaratilish sababi xususida ham so‘z yuritiladi. Muallif Beruniyning fors tili ilmiy asarlar yozish uchun qulay emas, u faqat Husravlar haqida hikoyalar aytish uchun yaraydi, degan fikriga asoslanib, “Kitobu-t-tafhim” bu tilda yozilganiga shubha bilan qaraydi<sup>59</sup>.

<sup>54</sup> Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Б. 6.

<sup>55</sup> Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения. I том. Индия. – Ташкент, 1963. – С. 49; Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения. V том. I часть. Канон Масуда, 1973. – С. 9, 33; Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. V том. I часть. Қонуни Масъудий. – Тошкент, 1973. – Б. 7.

<sup>56</sup> Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения. II том. Геодезия. – Ташкент, 1966. – С. 9.

<sup>57</sup> Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. II том. Геодезия. – Тошкент, 1982. – Б. 19 – 20.

<sup>58</sup> Геодезия. – С. 35 – 36.

<sup>59</sup> У. Каримов. Абу Райхон Беруний (Хаёти ва жоди). Беруний тугилган кунининг 1000 йиллигига бағишиланган тўплам. – Тошкент, 1973. – С. 25 – 26.

To‘plamdagi Ashraf Ahmedovning “Qonuni Mas’udiy” asari bo‘yicha yozgan maqolasida esa “Kitobu-t-tafhim”, uning inglizcha tarjimasi va mazkur risolaga oid ilmiy tadqiqotlar eslab o‘tiladi<sup>60</sup>.

To‘plamdagi Q. Munirovning, “Tafhim”ning Toshkent qo‘lyozma nusxasi haqida” nomli maqolasi mazkur asar unda ancha batafsil manbashunoslik jihatidan tadqiq etilganligi bilan aratib turadi. Xususan, muallif Beruniy qolgan barcha asarlarini arab tilida yozganligini hisobga olib, I. Krachkovskiy, C. Tolstov, R. Raytlarning fikrlariga tayanib “Kitobu-t-tafhim” arab tilida yozilgan, degan xulosaga keladi. Shu bilan birga, asarning fors tilida yozilgan qo‘lyozmalari ham uchrashi zikr qilib o‘tiladi. Maqolada asarning 23 ta qo‘lyozma nusxasi, fors tilidagi nashri va inglizcha tarjimasi xususida aniq va muhim ma’lumotlar beriladi. Asarning Oligarx, Berlin, Bodleyan, London, Istanbul, Parij kutubxonalaridagi arabcha va Toshkent, London, Istanbul, Parij, Rabot, Tehran, Xesperis, Dushanbe shaharlaridagi forscha nusxalari hamda ular tavsiflangan kataloglarning nom-banom keltirilganligi ilmiy tadqiqotchilar uchun ancha qulaylik tug‘diradi. Maqolada O‘zSSR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanuvchi 3423- va 445/1-inventar raqamli nusxalarning ancha batafsil manbashunoslik tavsifi beriladi. 3423-inventar raqamli nusxa Yazdijard erasining 628-yili mehrmoh oyida ko‘hirilganligi aniqlanib, bu sana milodiy 1260-yilga to‘g‘ri kelishi keltirib chiqariladi. Mazkur ma’lumotlarga asoslanib Toshkent nusxasi asarning fors-tojik tilidagi eng eski qo‘lyozmasi ekanligi isbotlab beriladi<sup>61</sup>.

Shuningdek, maqolada D. Buale, Rye, A. Semyonov, I. Krachkovskiy, Jalol Humoiy, H. Hasanov, A. Abdurahmonovlarning asar xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari ham qiyosan tahlil qilingan va maqola so‘ngida ularning bibliografiyasini berilgan<sup>62</sup>.

To‘plamdagi A. Abdurahmonovning maqolasida esa “Kitobu-t-tafhim”ning geometriya va geografiya bo‘limlaridagi Beruniyning trigonometriyaga oid fikrlari tadqiq etilgan<sup>63</sup>.

T. Usmonovning maqolasida “Kitobu-t-tafhim” asaridagi richagli tarozining surati keltirilib, richaglar va oddiy mexanizmlar xususidagi Beruniyning kashfiyotlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Asarda Yer yuzi, havo va ularda suvning harakati to‘g‘risida Beruniy keltirgan fikrlar orqali maqola muallifi ulug‘ olim XI asrdayoq issiqlik energiyasining mexanik energiyasiga aylanishi, to‘yingan bug‘lar, bug‘ kondensatsiyasi xususida fikr yuritganligini isbotlab beradi<sup>64</sup>.

<sup>60</sup> Ашраф Аҳмедов. Берунийнинг “Қонуни Масъудий” асарида математика ва сферик астрономининг айрим масалалари. Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига багишиланган тўплам. – Тошкент, 1973. – С. 111 – 122.

<sup>61</sup> К. Муниров. “Тафхим”нинг Тошкент кўлёзма нусхаси хақида. Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига багишиланган тўплам. – Тошкент, 1973. – С. 124 – 126.

<sup>62</sup> “Тафхим”нинг Тошкент кўлёзма нусхаси хақида, – С. 123 – 129.

<sup>63</sup> А. Абдурахмонов. Беруний асапларида тригонометрияning баъзи теоремалари. Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига багишиланган тўплам. – Тошкент, 1973. – С. 159 – 169.

<sup>64</sup> Т. Усмонов. Берунийнинг физика тарихида тутган ўрни. Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига багишиланган тўплам. – Тошкент, 1973. – С. 187 – 191.

Shuningdek, toplamda A. Rasulov tarjimasida nashr etilgan “Abu Rayhon Beruniyning o‘z asarlariga o‘zi tuzgan ro‘yxati”da ham “Kitobu-t-tafhim” asari, “Astronomiyada qo‘llaniladigan dastlabki tushunchalar haqida kitob” nomi bilan zikr etib o‘tilgan<sup>65</sup>.

1973-yilda O‘zSSR FA Sharqshunoslik instituti tomonidan chop etilgan “Beruniy va ijtimoiy fanlar” maqolalar to‘plamida ham “Kitobu-t-tafhim” asariga doir anchagina ma’lumotlar uchraydi. P. Bulgakovning maqolasida to‘plamdagi “Kitobu-t-tafhim”dagi terminologiya xususida so‘z boradi<sup>66</sup>.

I. Abdullayevning maqolasida “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida uchrovchi “mutahayyir yoritgichlar” atamasiga sharh sifatida Beruniy “Kitobu-t-tafhim”da “hayratda qolgan yulduzlar”ga bergen izohi keltirib o‘tilgan<sup>67</sup>.

Abu Rayhon Beruniy tug‘ilgan kunining 1000 yillik yubileyi munosabati bilan 1975-yili B. A. Rozenfeld va A. Ahmedovlar tomonidan M. M. Rojanskaya, A. A. Abdurahmonov, N. D. Sergeyevalar ishtirokida Beruniy tanlangan asarlarining VI tomi sifatida “Kitobu-t-tafhim”ning ruscha nashri chop etildi<sup>68</sup>.

Asarning rus tiliga tarjimasi “Книга вразумления начаткам науки о звездах” deb nomlandi. Tarjimaning kirish qismida asardagi 460-savolda Aleksandr erasining 1340 yili (milodiy 1029-yil) eslatilishiga asoslanib “Kitobu-t-tafhim” 1029-yilda yozilgan deyilgan. Tarjimon asar dastlab arab tilida yozilgan, degan fikrni qat’iy ilgari suradi va unga Beruniyning fors tili ilm tili emasligi, Xusravlар to‘g‘risidagi qissalar va tungi ertaklar uchun xizmat qilishi borasidagi so‘zlarini dalil qiladi<sup>69</sup>.

So‘ng asar 530 savol va 8 bobdan iboratligi, har bir bobda ko‘tarilgan masalalar xususida so‘z yuritiladi. Xususan, Beruniy ilmi nujumni yoqtirmaganligi, qator asarlarida uni qoralaganligi ham zikr etib ketiladi<sup>70</sup>.

Asarga asos bo‘lgan manbalar, shuningdek, “Kitobu-t-tafhim”ning 14 ta arabcha va 21 ta forscha nusxalari, inglizcha tarjimasi hamda forscha nashri to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berib o‘tiladi<sup>71</sup>. Asar o‘rganilgan ilmiy adabiyotlarning bibliografiyasi ko‘rsatilishi tarjima nashrning diqqatga sazovor jihatidir<sup>72</sup>.

<sup>65</sup> Абу Райҳон Берунийнинг ўз асарларига ўзи тузган рўйхати. Беруний туғилган кунининг 1000 йиллигига бағишланган тўплам. – Тошкент, 1973. – С. 237.

<sup>66</sup> П. Г Булгаков. Берунийнинг ижтимоий фанлар соҳасидаги илмий мероси. Беруний ва ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1973. – С. 45.

<sup>67</sup> И. Абдуллаев. Қадимги халқлардан колган ёдгорликлар асари ва унинг Ўзбекистонда ўрганилиши. Беруний ва ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1973. – С. 144.

<sup>68</sup> Абу Райхан Беруни (Бируни). Избранные произведения. Т. VI. Книга вразумления начаткам науки о звездах. Перевод и примечания Б.А.Розенфельда и А.Ахмедова. – Ташкент.: ФАН УзССР, 1975. – 328 с.

<sup>69</sup> Книга вразумления начаткам науки о звездах. – С 8.

<sup>70</sup> Книга вразумления начаткам науки о звездах. – С 15.

<sup>71</sup> Книга вразумления начаткам науки о звездах. – С 16 – 17.

<sup>72</sup> Книга вразумления начаткам науки о звездах. – С. 317 – 319.

Asar so‘ngida asardagi so‘z va tushunchalarga izohlar<sup>73</sup>, ismlar, geografik va etnik nomlar, atoqli otlar, mazkur kitobda uchrovchi boshqa asar nomlari, matematika va astronomiyaga oid atamalar ko‘rsatkichlari berilgan<sup>74</sup>.

Usmonov Toshpo‘latning “Fizika darslarida Beruniy asarlaridan foydalanish” nomli risolasida “Kitobu-t-tafhim” asaridagi Yerning quruqlik va suvlikdan iboratligi, atmosferaning qavatlari, tabiatda suvning harakati, yog‘ingarchilik, chaqmoq, momaqaldiroq, kamalak xususidagi ulug‘ olimning fikrlari tahlil qilinadi<sup>75</sup>.

Nihoyat, 2006-yilda taniqli manbashunos olim Ashraf Ahmedov tomonidan “Kitobu-t-tafhim” asari o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilindi. Asar nomining tarjimasi “Munajjimlik san’ati (astrologiya) negizlarini tushuntirish kitobi” deb berildi. So‘zboshida asar 1029-yilning so‘ngida yozilganligi aytilib, bunga matnds 460-savolda Iskandar erasining 1340-yili (milodiy 1029-yil) eslatilganligi asos sifatida berilgan<sup>76</sup>.

Asarning bizgacha ikki tilda yetib kelganligi xususida tadqiqotchilarining fikrlari tahlil qilinib, yakumy xulosaga kelingan. Unga ko‘ra, fors tilining “Xusravlar haqidagi hikoyalar va tungi ertaklar” uchun qulay ekanligini aytib, “fors tilida madh eshitgandan ko‘ra arabcha hajv eshitgan yoqimplitoq” deb hisoblagan Beruniy asarini arab tilida yozgan. Asarming forscha nuxxalarida arabcha nusxalarge xos bo‘lmagan ayrim kamchilik va o‘zgarishlarning mavjudligi ham bu fikrni quvvatlaydi<sup>77</sup>.

So‘zboshida asarning 15 ta arabcha va 21 ta forscha nusxalari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beriladi. Asarning o‘rganilganlik darajasi va bunga oid bibliografiya esa diqqatga sazovordir<sup>78</sup>. Beruniyning astrologiyani qoralashiga qaramay asarda ko‘proq bu sohaga ahamiyat berilganligi kitob bag‘ishlangan Rayhona va uning zodagon otasining talabi bilan izohlangan<sup>79</sup>.

So‘zboshida, shuningdek, asar 530 ta savolni 52 ichiga oluvchi 8 bobdan iboratligi aytib o‘tilib har bir bobda ko‘tarilgan masalalar qisqacha izohlanadi<sup>80</sup>.

Nashrning so‘ngida asardagi tushunchalar va atamalar, tushunilishi qiyin ö‘rinlarga ancha bat afsil izohlar berilgan. Buni nashrning tadqiqot qismi deyish mumkin<sup>81</sup>. Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati ham nashrga ilova qilingan<sup>82</sup>.

<sup>73</sup> Книга вразумления начаткам науки о звездах. – С. 259 – 316.

<sup>74</sup> Книга вразумления начаткам науки о звездах. – С. 320 – 327.

<sup>75</sup> Ташпулат Усманов. Использование трудов Беруни на уроках физики. – Ташкент, 1989. – С. 9.

<sup>76</sup> Абу Райхон Мухаммад ибн Аҳмад Беруний. Мунажжимлик санъати (астрология) негизларини тушунтириш китоби (Тафхим). Сўз боши, таржимон, изоҳлар ва кўрсатгичлар муаллифи Ашраф Аҳмедов. – Тошкент-Урганч-Хива, 2006. – Б. 4.

<sup>77</sup> Мунажжимлик санъати (астрология) негизларини тушунтириш китоби (Тафхим). – Б. 4 – 5.

<sup>78</sup> Мунажжимлик санъати (астрология) негизларини тушунтириш китоби (Тафхим). – Б. 5 – 6.

<sup>79</sup> Мунажжимлик санъати (астрология) негизларини тушунтириш китоби (Тафхим). – Б. 13.

<sup>80</sup> Мунажжимлик санъати (астрология) негизларини тушунтириш китоби (Тафхим). – Б. 7.

<sup>81</sup> Мунажжимлик санъати (астрология) негизларини тушунтириш китоби (Тафхим). – Б. 229 – 287.

<sup>82</sup> Мунажжимлик санъати (астрология) негизларини тушунтириш китоби (Тафхим). – Б. 288 – 291.

“Kitobu-t-tafhim” asari borasidagi so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar sirasiga O‘z FA Tarix instituti kichik ilmiy xodimi Islom Bo‘riyevning “Beruniy va Rayhona” nomli maqolasini kiritish mumkin. Maqolada muallif e’tiborni asar bag‘ishlangan Rayhona ismli qizga qaratadi. Beruniy asarda turli ilmlarni sodda usulda tushuntirganligiga urg‘u berilib, bu orqali ulug‘ olim o‘z oldiga aniq ta’lim-tarbiya maqsadini qo‘yanligi ta’kidlanadi. Rayhona borasida shu paytgacha turli olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar qiyoslanib, bu qiz Beruniyning xorazmlik zodagon do‘sti Hasanning farzandi ekanligi, 1017-yilda Mahmud G‘aznaviy (998 – 1030) tomonidan Xorazm egallangach, G‘aznaga olib ketilganlardan bo‘lganligi ochib beriladi<sup>83</sup>.

Rayhona bolaligida arab tilini yaxshi yoki umuman bilmaganligi sabab “Kitobu-t-tafhim” dastlab fors tilida yozilgan, degan fikr maqolada ilgari surilgan. Muallif bu qiz kelib chiqishidan qat’iy nazar Sharq ayollarini orasida bilimga zo‘r ishtiyoqi va unga atab bir kitob yozilganligi bilan ajralib turishini ta’kidlaydi<sup>84</sup>. Bu orqali esa bundan 1000 yil ilgari ham o‘zbek xalqining, xususan, kazo-kazolarring turli fanlarga qiziqishlari, farzand tarbiyasi, ayniqsa, qizlar ta’limiga e’tiborlari shunchalar kuchli bo‘lganligi ko‘rsatib berilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Kitobu-t-tafhim” asari 70 yildan oshiq vaqt mobaynida o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilib kelsa-da, u borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarni tugal deb bo‘lmaydi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda bir qator xato va asossiz fikrlar ham ilgari surilgani ma’lum. Xususan, 1950 – 1970-yillarda asar tadqiq etilgan ilmiy ishlarda uning xorazmlik Rayhona ismli qizga atab yozilganligiga tayanib, Beruniy 1030-1034-yillar oralig‘ida o‘z Vataniga qaytib kelib yashaganligi to‘g‘risidagi asossiz xato qarash ilgari surilgan. Manbalarda bu tahminni tasdiqlovchi biror ma’lumot uchramaydi. Asar bag‘ishlangan Rayhona ismli qiz xususida ham yetarli darajada ilmiy izlanish olib borilmagan. Vaholanki, bu mashhur ayol to‘g‘risidagi ma’lumotlar bundan 1000 yillar ilgari o‘zbek ayolining xo‘jalik hayot tarzi, ta’lim-tarbiyasi, qiziqishlari tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Asar fanga ma’lum bo‘lganidan buyon tahminan 250 yilga yaqin vaqt o‘tganiga qaramay, uning arab tilidagi ilmiy-tanqidiy matni o‘zbek va jahon olimlari tomonidan ishlab chiqilmagan. Bu ham olimlar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Asarning barcha qo‘lyozmalarining to‘liq ilmiy tavsifi ham amalga oshmagan. Xususan, “Kitobu-t-tafhim” asarining 20 ta arabcha nusxasidan 5 tasi o‘zbek olimlari orasida ma’lum emas.

Asar matnining til xususiyatlari tilshunoslar, arabshunos-manbashunoslar tomonidan o‘rganilmagan. Xolbuki, “Kitobu-t-tafhim” O‘rta asrlar tarixidagi aniq fanlarga oid dastlabki to‘laqonli izohli lug‘atdir.

<sup>83</sup> Ислом Бўриев. Беруний ва Райхона // Ўзбекистон тарихи журнали, 2021. № 4. – Б. 156 – 159.

<sup>84</sup> Беруний ва Райхона. – Б. 156 – 159.

Asardagi kashfiyotlar, yangicha qarashlar hozirgi ilm-fan yutuqlari bilan o‘zaro qiyoslanib, uning aniq fanlar rivojidagi ahamiyati to‘laroq ochib berilishi olimlar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

## **TOMCHILATIB SUG'ORISH TIZIMI SUG'ORISH MEYORLARI VA TIZIMNING TUPROQ MELIORATIV HOLATIGA TA'SINI O'RGANISH**

**Mirqodir Usmanov**

Tayanch doktorant, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

**Hikmat Sadullayev**

Kichik ilmiy xodim, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv muammolari ilmiy tadqiqot markazi

**Damirov Feruzbek**

Magistrant, Qozoq-German Universiteti, Qozog’iston, Olma-ota

**Annotatsiya:** Suv tanqisligi va aniq meteorologik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati cheklanishi kuzatilayotgan tumanlarda tomchilatib sug'orishga o'shash tadbirlarni qo'llash suv resurslaridan samarali foydalanish da muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ma'lumotlari cheklangan sharoitda paxta yetishtirish uchun sug'orish jadvalini optimallashtirish muammosini hal qilishga qaratilgan. Tadqiqot 20 yillik MODIS (Moderate Resolution Imaging Spectroradiometer) potentsial Evapotranspiratsiya (PET) ma'lumotlaridan foydalanadi, fazoviy o'lchamlari 500 m, bunda algoritm Penman-Monteit tenglamasi mantig'iga asoslangan. Ushbu tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad bu O'zbekistonning janubiy tumani, Gurlanda paxtani tomchilatib sug'orish uchun ishlab chiqilgan ekspluatatsion va taxminiy sug'orish jadvalini yaratishdir. Buni amalga oshirish uchun tadqiqot hududida 2000 yildan 2019 yilgacha bo'lgan keng qamrovli MOD16A2 Version 6 mahsulot ma'lumotlar to'plamining bilan tahlili o'tkazildi. Bu g'o'za (*Gossypium hirsutum L.*) fenomenologik bosqichlaridan olingan hosil koeffitsientlari (Kc) bilan o'rtacha kunlik potentsial bug'lanishni (ET0) hisoblashni o'z ichiga oldi. Olingan natijalar paxta yetishtirish mavsumida suvga bo'lgan talab miqdorining vaqtga bog'liq ravishda o'zgarishi, yozning o'rtalarida maksimal iste'mol  $270,9 \text{ m}^3$  ga yetganligini ko'rsatadi. Hisoblangan paxta suviga bo'lgan umumiyoj  $4714,9 \text{ m}^3$ , bu hududlarda sug'orish amaliyotini optimallashtirish uchun muhim tushunchadir.

**Kalit so'zlar:** suv tanqisligi, tomchilatib sug'orish, tuproq sho'rланishi, mineralizatsiya, go'za, masofadan zondlash.

**Abstract:** Applying measures to increase drip irrigation in districts where there is a shortage of water and limited access to accurate meteorological data is important for efficient use of water resources. This research aims to solve the problem of optimizing the irrigation schedule for cotton production under limited conditions. The study uses 20 years of MODIS (Moderate Resolution Imaging Spectroradiometer) Potential Evapotranspiration (PET) data with a spatial resolution of 500 m, where the

algorithm is based on the logic of the Penman-Monteith equation. The main objective of this study is to create an operational and approximate irrigation schedule developed for drip irrigation of cotton in Gurlan, southern district of Uzbekistan. To do this, a comprehensive MOD16A2 Version 6 product data set from 2000 to 2019 was analyzed in the study area. This involved calculating average daily potential evapotranspiration (ET<sub>0</sub>) with crop coefficients (K<sub>c</sub>) obtained from phenomenological stages of cotton (*Gossypium hirsutum L.*) The obtained results show that the amount of water demand changes depending on time during the cotton growing season, and the maximum consumption reaches 270.9 m<sup>3</sup> in the middle of summer. The estimated total cotton water requirement is 4714.9 m<sup>3</sup>, which is an important concept for optimizing irrigation practices in these areas.

**Key words:** water shortage, drip irrigation, schedule, cotton, soil salinity, mineralization, remote sensing.

## Kirish

Markaziy Osiyoda suv tanqisligi haqidagi xavotirlarning kuchayishiga javoban O‘zbekiston hukumati qishloq va suv xo‘jaligi sohasida tartibga solish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda.

Ana shunday istiqbolli o‘zgarishlardan biri qishloq xo‘jaligida suvni tejash, yo‘qotishlarni kamaytirish va hosildorlikni oshirish uchun suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligidan ma’lum qilishlaricha, o‘tgan 4 yilda qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etuvchi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini subsidiyalash uchun hukumat tomonidan 1 trillion 429 milliard 800 million so‘m mablag‘ ajratilgani suvdan foydalanishga erishish imkonini berdi. Sug‘oriladigan yerlarning 28 foizida ana shunday texnologiyalar ishlab chiqarildi va O‘zbekistonni suvni tejovchi texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetakchi davlatlar qatoriga kiritdi. Birgina 2022 yilga kelib suvni tejovchi texnologiyalarning umumiyligi maydoni 463,8 ming gektarga yetdi. Biroq, bu suvni tejovchi texnologiyalarning to‘liq imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ilmiy asoslangan yondashuvlarga e’tibor yetarli emasligi sabab bo‘lmoqda[1].

Masalan, qurg‘oqchil iqlim zonasida joylashgan Xorazm viloyatining aksariyat sug‘oriladigan yerlarida yer osti suvlari darajasi yuqori, tuproqlari sho‘r bo‘lib, paxta yetishtiruvchilar o‘rtasida tomchilatib sug‘orishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Chap sohil-Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu hududda 2022-yilda 4 ming 482 hektar paxta maydonida tomchilatib sug‘orish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilga nisbatan qariyb ikki barobar (46,1 foiz) kamdir. Umuman mintaqada 2019-2022 yillarga 14 ming 299 hektar paxta maydonlarida tomchilatib ekish tizimi joriy etildi. Bu degani, 2022-yilga

kelib, paxta maydonlarining taxminan 17,2 foizi tomchilatib yuborish tizimlari o'matiladi. Shu bilan birga, viloyatda 2021 va 2022 yillarda o'rtacha paxta hosildorligi 3,08 va 3,43 ts/ga tashkil etdi. Taqqoslash uchun, Xorazmda 1980-1983 yillarda jo'yakli sug'orishda paxta hosildorligi o'rtacha 4,6, 4,3 va 4,45 ts/ga tashkil etgan. Tarixiy paxta hosildorligi bilan taqqoslash tomchilatib sug'orish va uning qishloq xo'jaligi texnologiyasini mintqa sharoitiga yanada moslashtirish orqali qo'shimcha hosildorlikni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Qoida tariqasida, tomchilatib sug'orish, optimal suv ta'minoti va o'simliklarning ildiz zonasida tuproq tuzlarining yuvilishini nazorat qilish qobiliyati bilan ajralib turadi, bu esa paxta hosilini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu maqsadni amalga oshirish uchun tomchilatib sug'orishni joriy etishning sug'orish jadvaliga, tuproqda tuzlarning to'planishiga va yer osti suvlari yaqin sharoitda paxta hosiliga ta'sirini aniqlash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi[2].


B.V.Federova (1953) vegetatsiya davrida sho'rangan erlarda namlikning yuqori darajasini saqlab turishni tavsiya qiladi, uning dala namligining 70-80% dan kamayishiga yo'l qo'ymaydi. Ushbu maqsadga erishish uchun pasaytirilgan stavkalar bilan tez-tez sug'orishni amalga oshirish taklif etiladi. Sho'rangan tuproqlarda paxta yetishtirishda namlik darajasini oshirishning bunday amaliyoti tuproq eritmasini suyultirish orqali tuzlarning salbiy ta'sirini kamaytiradi [3].

Shuningdek, S.N. Ryzhova (1967), yaqin er osti suvlari sharoitida tuproq namligini kamida 70% ushlab turish zarurligini ko'rsatadi. A.P.Gorelik (1962, 1964) 1,5-2 metr chuqurlikda joylashgan sho'r bo'limgan yer osti suvlari bo'lgan o'tloqli tuproqlarda 2-3 marta sug'orish yetarli ekanligini aniqladi[4].

### **Tadqiqot metodologiyasi va joylashuvi**

Tadqiqot maydoni O'zbekistonning g'arbiy qismidagi Turkmaniston bilan chegaradosh Gurlen tumanida, Urganch shahridan taxminan 42 km shimoli-g'arbda, Shovot shahridan shimolda va Amudaryo janubida joylashgan "To'ra Mirzo" fermer xo'jaligi maydonida tanlangan.


O'rganilayotgan hududning iqlimi keskin kontinental, yozi quruq, issiq va qishi nisbatan sovuq. Eng sovuq oylar yanvar va fevral oylari bo'lib, o'rtacha harorat mos ravishda  $-1,01^{\circ}$  va  $1,134^{\circ}$ . Bu oylar 11,569 mm va 14,969 mm yog'ingarchilik bilan ajralib turadi. Eng yuqori harorat yoz oylarida (may-avgust) kuzatiladi. Iyulda eng yuqori o'rtacha harorat –  $30,825^{\circ}\text{C}$ . Biroq, ayniqsa, iyun va iyul oylarida yog'ingarchilik sezilarli darajada kamayadi, ya'ni ko'plab ekinlar uchun o'sishning muhim davrlarida tabiiy yog'ingarchilikdan suv mavjudligi kamayadi.



1-diagramma.

Manba: <https://sites.google.com/view/climate-portal#h.mpflbrd83rfk>

Bu hududdagi paxtakor fermer sayoz chuqurlikdagi sho'r yer osti suvlarini tufayli tuproq sho'rlanishi muammosi tufayli bu maydonda paxta yetishtirishda qiyngalgan. G'oza yetishtirish davrida er osti suvlarining chuqurligi odatda 0,6 m dan kam bo'lgan. Tuproqning mexanik tarkibiga ko'ra, ular 45 sm chuqurlikdagi og'ir qumloqlar deb tasniflanadi, keyinchalik ular o'rtacha qumloqlarga aylanadi[6]. Agrotexnik tadbirlarni o'tkazish to'g'risida qaror fermer tomonidan qabul qilingan, sug'orish va tomchilatib yuborish tizimi bilan o'g'it berishdan tashqari.



2-diagramma.

Manba: <https://paydo.boladil.yer.almalumotlari.bulutu.nasa.gov/>

Yuqoridagi ma'lumotlar "MOD16A2GF\_061\_PET\_500m" dan olingan bo'lib, 500 m fazoviy o'lchamdag'i potentsial bug'lanish haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etuvchi masofaviy zondlash mahsulotidir. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib, mavjud bo'lgan ekinlarga qarab qancha suv talab qilishini taxmin qilish mumkin. iqlim sharoiti. Viloyatda birinchi sug'orish odatda g'o'za gullashdan oldin, oddiy yillarda 10-15 iyun, issiq, quruq yillarda 1-5 iyunda amalga oshiriladi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, sug'orish jadvali tuzildi, jadval-1.

$$ETS = ETo * Kc * 10 * 3,5$$

ETc = ekinlar uchun taxminiy suv talabi,

ETo = mos yozuvlar evapotranspiratsiya,

Kc = ekinlar uchun suv iste'mol koefitsienti,

10=mm/kunni m<sup>3</sup>/kunga aylantirish uchun,

3,5=sug'orish oralig'i.

1-jadval.

Tomchilatib sug'orish tizimining xususiyatlari					
Sug'orish oralig'i (belgilangan kunlarda haftada ikki marta suv)					3.5
Emiteent iste'moli, 1/soat					1.03
Emiteentlar orasidagi masofa, m					0.4
Yon shlanglar orasidagi masofa, m					0,9
Tomchilatib sug'orish tizimida suv sarfi, m <sup>3</sup> /ga/soat					28.6
Reja					
		Potentsial, ETo			
Qo'ngandan keyin haftalar	Sug'orish sanasi/taqvimi	mm/kun	Kc	m <sup>3</sup> /ga	Sug'orish soatlari
8	5.6.23	8.7	0,30	26.1	0,9
	8.6.23	8.7	0,30	91.4	3.2
9	12.6.23	9.2	0,45	144.9	5.1
	15.6.23	9.2	0,45	144.9	5.1
10	19.6.23	9.3	0,60	195.3	6.8
	22.6.23	9.3	0,60	195.3	6.8
11	26.6.23	9.2	0,70	225.4	7.9
	29.6.23	9.2	0,70	225.4	7.9
12	3.7.23	9.1	0,75	238.9	8.3
	6.7.23	9	0,75	236.3	8.3
13	10.7.23	9	0,85	267,8	9.4
	13.7.23	8.6	0,90	270,9	9.5

14	17.7.23	8.6	0,90	270,9	9.5
	20.7.23	8	0,95	266,0	9.3
15	24.7.23	8	0,95	266,0	9.3
	27.7.23	8	0,95	266,0	9.3
16	31.7.23	7.6	0,90	239.4	8.4
	3.8.23	7.6	0,90	239.4	8.4
17	7.8.23	7.3	0,85	217.2	7.6
	10.8.23	7.3	0,75	191.6	6.7
18	14.8.23	6.9	0,70	169.1	5.9
	17.8.23	6.9	0,60	144.9	5.1
19	21.8.23	6.5	0,50	113.8	4.0
	24.8.23	6.5	0,30	68.3	2.4
20	28.8.23	6.3		0,0	0,0

4714.9

Taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, bu sug'orish jadvali ba'zi cheklowlarga ega. Ulardan biri g'o'za o'simliklarining yer osti suvlarining kapillyar ko'tarilishi orqali suv sarfini hisobga olinmaganligidir. Tadqiqot hududida er osti suvlari sathi 1 metrdan 0,6 metrgacha. Shuning uchun biz sug'orish jadvalidagi ma'lumotlarni qo'llay olmadik.


Shuni ta'kidlash kerakki, bunday tebranishlar va er osti suvlarining yaqinligi o'simliklarning, bu holda, paxtaning suv iste'moliga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun kelgusida ilmiy-tadqiqot ishlari va sug'orishni rejalashtirishda suv resurslaridan samarali foydalanish va paxta hosildorligini oshirish uchun nafaqat iqlim va tuproq omillari, balki yer osti suvlarining xususiyatlarni ham hisobga olish kerak.

Tuproqning sho'rланish darajasini va suv qo'shganda sho'rланishning o'zgarishini aniqlash uchun ekish mavsumining o'rtalarida sug'orishdan oldin va keyin ikki maydonda tuz konsentratsiyasini o'lchash ishlari olib borildi. O'lchovlar 0,15 m dan 0,6 m gacha bo'lgan chuqurlik oralig'ida va 0,15 m dan 0,75 m gacha kenglikda amalga oshirildi. Tuz konsentratsiyasi pin tipidagi konduktor-termometr "PROGRES C 1 T" yordamida o'lchandi. Qurilmada haroratni to'g'irlaydigan o'rnatilgan qurilma yo'qligi sababli, olingan o'lchovlar  $25^{\circ}\text{C}$  deb qabul qilingan xona haroratida amalga oshirildi, bu esa olingan tuproq sho'rланish darajasiga ko'ra xususiyatlarni solishtirish imkonini beradi. mualliflar turli geografik joylarda va turli harorat sharoitida. Tuproqning elektr o'tkazuvchanligi qiymatini  $25^{\circ}\text{C}$  ga etkazish uchun quyidagi formuladan foydalanilgan.

**ECe 25 = ECe o'lchangان x Kt**

**Bu erda ECe25  $25^{\circ}\text{C}$  da elektr o'tkazuvchanligi, ECeo'lchovi = joriy o'lchov haroratida elektr o'tkazuvchanligi, K t =  $1+(25 - \text{T o'lchov.}) \times 0,02$**


## Tmeas = o'lchash vaqtidagi tuproq harorati.



1-rasm. Paxta ekish sxemasi va “To‘ra Mirzo” tomchilatib sug’oriladigan shlanglarning joylashishi.




2-rasm. G‘o‘za ildiz tizimining rivojlanishi va “To‘ra Mirzo” yer osti suvlarining joylashishi.



3-rasm. 2023-yil 27-iyun g‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda tuproqdagi tuz konsentratsiyasining taqsimlanishi (EKE).

Tomchilovchi lenta yonida tuz konsentratsiyasining past darajasi kuzatiladi (0,57-1,53 mS/sm). O'lchov chuqurligi (0,45-0,6 m) ortishi bilan sho'rlanish ortib, 3,81 mS / sm gacha etadi. Yuvish tomchilatib yuborilgan liniyalardan masofa bo'lganda kamayadi, qo'shni tomchilar orasidagi masofaning o'rtasida past yuvish darajasi kuzatiladi. Paxta nisbatan sho'rga chidamli ekin bo'lsa-da, tuz konsentratsiyasining ortishi vegetativ o'sishga salbiy ta'sir qiladi (Khan va boshq. 1995). Paxta uchun tuzga chidamlilik chegarasi 7,7 mS/sm ( Iram Sharif va boshqalar, 2019). Tuz kontsentratsiyasini o'lhash vaqtida g'o'za o'simligining ildizlari 0,6 m gacha chuqurlikka yetgan.Elektr o'tkazuvchanligining maksimal kuzatilgan qiymati 3,81 mS/sm bo'lganligini hisobga olsak, sho'rlanish salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. paxta rivojlanishining ushbu davrida. Ammo aniqroq xulosalar chiqarish uchun viloyatimizda yetishtirilgan g‘o‘za navlarining tuzga chidamliligini o‘rganish bo‘yicha qo‘srimcha tadqiqotlar olib borish zarur.



4-rasm. G‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda tuproqdagi tuz konsentratsiyasining taqsimlanishi (ECE) 07.07.2023.


FAOning sho‘rlanish darajasini baholashga ko‘ra, tuproq sho‘rlanmagan ( $0-2$  mS/sm) va ozgina sho‘rlangan ( $2-4$  mS/sm) tuproqlarga bo‘linadi.

San'at asari aks ettirish g'oyasidan o'tishi kerak, bu tomoshabinni siz ko'rayotgan va tahlil qilayotgan narsangizni o'ylashga va savol berishga undaydi, **ya'ni odamlarni o'ylashga majbur qiladigan insoniy tuyg'ular va fikrni uyg'otadi.**

Inson qiyofasi tasviriy bo'limgan san'atning yuksalishiga qaramay, zamonaviy haykaltaroshlikda markaziy rol o'ynashda davom etmoqda. Kompozitsiyada salbiy va ijobiy fikrlar markazida inson obrazi shakllar orqali tasvirlangan. Bosh atrofida inson qo'llari shakida ifodalangan fikrlar, g'oya yoki bilimlar inson ongiga kirayotgani va

<sup>103</sup> Браво журнал. *Artes Plasticas*, Сентябрь 2004 года 7.

ВЕБ КЛЕЙ. **Современное искусство**. Доступно [www.coladaweb.com/artes/arte-contemporanea-parte-1/](http://www.coladaweb.com/artes/arte-contemporanea-parte-1/) Доступ на 20 июня. 2014

<sup>104</sup> «Искусство восприяе искусство» ko'rgazmasida namoyish etilgan “калама-каршилик” nomli asar

chiqayotgani kabi tasvirlanadi. Foydalanilgan oq va qora ranglar ilgari surilayotgan g'oyani teran anglanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ko'rgazmalarda haykaltaroshlik buyumlari tobora ko'payib bormoqda. Joriy yilda Respublikamiz miqiyosida o'tkazilgan qator ko'rgazmalarga e'tbor qaratsak, zamonaviy san'at namunalari va bu san'atning ihlosmandlari ham ko'pchilikni tashkil etayotganini ko'rshimiz mumkin. X-Toshkent halqaro Biennalisi doirasida namoyish etilgan ijodiy instolyatsiyalar fikrimizni isboti.

Frantsuz rassomi Niki de Sent-Phalle o'z faoliyatini spektakllar (san'at tarixidagi birinchilardan biri!) va "U sobor" ko'rgazmasidagi ulug'vor installyatsiya bilan boshlagan va rang-barang haykallari tufayli butun dunyoga mashhur bo'lgan.<sup>105</sup> Bunday holda, eng noodatiy materiallar ishlataladi. qiziqarli shakllar va syujetlardan foydalanish fonida qiziqarli materiallar ham qo'llaniladi, ba'zida hatto birinchi qarashda, bu sohada mutlaqo yaroqsiz. **Haykallar emas, balki montajlar** juda mashhur.<sup>106</sup> Asosiy e'tibor kollajga qaratilgan. Syurrealistlar tomonidan ixtiro qilingan bu usul bir necha bor o'zgartirildi va zamonaviy san'atning barcha vositalariga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu jumladan haykaltaroshlikda ham o'z aksini topdi. Kollaj frantsuz tilidan "yopishtirish" deb tarjima qilingan, ammo san'at sohasida u juda ko'p imkoniyatlarga ega. Ushbu kompozitsiya tomoshsbinga ob'ektlarni turli kontekstlardan ko'chirilib, yangi asar yaratilgan hissini beradi.

Shuningdek, zamonaviy haykaltaroshlik asta-sekin yangi xususiyatga ega bo'ldi va zamonaviy texnologiyalar va yangi materiallarning paydo bo'lishi bilan u haykaltaroshning har qanday maxsus texnik mahorati bilan bog'liq bo'lishni to'xtatdi. Va asarlarni yaratilishda g'oya muhum ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Senyagina A.I. Haykaltaroshlik san'atining HAYOTIMIZDAGI AHAMIYATI Zamonaviy haykaltaroshlik yutuqlari. - 2013. - No 8. - B. 86-87;
2. Art Since 1900: Modernism, Antimodernism, Postmodernism, by Hal Foster, Rosalind Krauss, Yve-
3. Alain Bois and Benjamin HWD. Buchloh, New York, Thames and Hudson, 200
4. BOSI, Альфредо. Размышления об искусстве. 4. ed. Лондон: Routledge, 1991.
5. Арчер, Майкл. Современное искусство: краткой истории. Сан-Паулу: Martins Fontes, 2001
6. Браво журнал. **Artes Platicas**, Сентябрь 2004 года 7.

<sup>105</sup> Современная скульптура: теория и практика

<sup>106</sup> BOSI, Альфредо. Размышления об искусстве. 4. ed. Лондон: Routledge, 1991.

7. ВЕБ КЛЕЙ. Современное искусство. Доступно

[www.coladaweb.com/artes/arte-contemporanea-parte-/http](http://www.coladaweb.com/artes/arte-contemporanea-parte-/) Доступ на 20 июня. 2014

8. Современная скульптура: теория и практика

9. Golubkina A. S., Neskolkо слов о ремесле скульптора, М., 1963

10. 3D haykaltaroshlik RenderArt. URL: <http://renderart.ru/terms/3d-sculpting>

11. erde.ru/catalog/kineticheskie-skulptury/

## MAHALLIY MANBALARDA BUXORO AMIRLIGIDA TA'LIM TIZIMI VA MADANIY HAYOT MASALALARI

**Tilavova Shahnoza Salohitdinovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasи o‘qituvchisi

Email:tilavovashahnoza249@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Buxoro amirligidagi ilm-fan, maorif tizimining ahvoli, Buxoro amirlarining ta'lismida amalga oshirgan islohotlari mahalliy va xorijiy tarixchilarining asarlari asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ta'lism, maorif, masjid-madrasa, mudarris, nafaqa, ta'til, hujjatlar, diniy fanlar, jadid maktablari.

**Аннотация:** В данной статье анализируются наука Бухарского эмирата, состояние системы образования, реформы бухарских эмиров в системе образования на основе работ местных и зарубежных историков.

**Ключевые слова:** образование, образование, мечеть-медресе, мударрис, пенсии, праздники, документы, религиозные науки, джадидские школы.

**Annotation:** In this article, the science of the Bukhara emirate, the state of the education system, the reforms of the Bukhara emirs in the education system are analyzed on the basis of works by local and foreign historians.

**Keywords:** education, education, mosque-madrasa, mudarris, pensions, holidays, documents, religious sciences, jadid schools.

Ta'lism – davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotining muhim tarmog'i bo'lib, ularning taraqqiy etishi, jahon hamjamiyatida munosib o'rinnegallashiga sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Har qaysi davlatning rivojlanishi, ushbu davlat rahbarlarining ilm-fan, ta'lismida amalga oshirgan sa'y – harakatlariga bog'liq bo'lib hisoblanadi. O'zbek davlatchiligi tarida muhim o'rinni egallagan 1756-1920 yillarda mavjud bo'lgan Buxoro amirligida ham mang'it hukmdorlari ilm-fan va maorif sohasiga yetarlicha e'tibor qaratib, bu sohada muhim tadbirlarni amalga oshirganlar. Mang'it amirlarining maorif sohasiga munosabatlari, ta'lismida amalga oshirgan ishlari xususidagi ma'lumotlar mahalliy va xorij tarixchilarining asarlarida keltirilgan. Mirza Abdulazim Somiy, Ahmad Donish, Mirzo Salimbek, Muhammad Nosuriddin To'ra, Muhammad Ali Baljuvoniy, Sadreddin Ayniy kabi mahalliy tarixchilar o'z asarlarida Buxoro amirlarining ta'lismida madaniyatga qo'shgan hissalari, maorif masalalari haqida yetarlicha ma'lumotlarni yoritganlar.

Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadi-ki, Buxoro amirligini boshqargan mang'it hukmdorlari ta'lismida jarayoniga jiddiy e'tibor qaratib, uning taraqqiy etishiga

munosib hissasini qo'shgan. Jumladan, shunday hukmdorlardan biri Amir Shohmurod (1785- 1800) bo'lib, uning masjid- madrasalarni qayta ta'mirlab [1.31] ularga vaqf tayinlab, ilm ahlini e'zoz- ikrom qilgani, Buxoroning Gulobod deb atalgan ko'chasida o'zining nomi bilan ataluvchi kichikroq madrasa qurdirganini [6.173] tarixiy manbalardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Xorij tarixchisi L.Sobolevning ma'lumotiga ko'ra, Amir Shohmurod amirlik shaharlarini, xususan, Samarqandni obodonlashtirishga yetarlicha e'tibor qaratgan. Uning hukmronligi davrida 75 ta masjiddan 50 tasi ta'mirlangan, 3 ta madrasa qayta tiklangan hamda va o'zi ham madrasalar qurdirgan [9.6]. Amir Shohmurodning amirlikdagi madrasa hujralarini ta'mirlash ishlari haqidagi ma'lumotlar mahalliy tarixchi olim Sadriddin Ayniy (1878-1954)ning asarida ham uchraydi. Jumladan, u o'z "Esdaliklari"da quyidagilarni qayd etib o'tgan: "Amir Shohmurod madrasa hujralarini turar- joyga yaroqli qilish maqsadida quyidagi mazmunda farmon chiqargan. "Har bir talaba madrasa hujralarining birini o'z xarji va mehnati bilan obod qilib, unga kirib o'tirsa, hujra u talabaniki bo'ladi va qachonki talaba hujrani tark etmoqchi bo'lsa, hujrani tuzatishga sarf qilgan mablag'ini boshqa bir talabandan olib, hujrani uning nomiga o'tkazishi mumkin". Bu tadbir yaxshi natija berib, Buxoro va Samarqand madrasalarining hujralari obod bo'ldi va bir qancha yillar madrasa hujralarining talabandan- talabaga o'tishi- tuzatishga sarf bo'lgan haqiqiy mablag'ning "oldi- sotdi"si bo'lar va talaba bo'lмаган kishi, bunday turar joyga yaqinlashmas edi" [7.167]. Mahalliy tarixchilardan Ahmad Donishning yozishicha, Amir Shohmurod masjidlarga imom va muazzin (azon aytuvchi)larni, xonaqohlarga shayx, madrasalarga mudarrislarni ham tayinlaydi [2.25]. Xorij tadqiqotchisi Anke fon Kyugelgen tarixiy manbalarga tayanib, Amir Shohmurod madrasada tahsil oluvchi talabalarga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) to'lashni joriy etganligi xususida ma'lumot beradi [10.331].

Shuningdek, tarixda ayrim hukmdorlarning o'zi ham madrasada mudarrislik qilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Mirza Abdulazim Somiyuning yozishicha, Amir Shohmurodning o'g'li Amir Haydar (1800- 1826) o'z hukmronligi davrida ilm bilan shug'ullangan paytalarida, davlat ishlari bilan bandligiga qaramay, mudarrislik ham qilgan va talabalarining soni 1000 kishidan kam bo'lмаган [1.131]. Mirzo Salimbek esa, o'z asarida Amir Haydarning raiyatparvar, saxiy olim ekanligini ta'kidlab, 400 ta talabaga dars bergenligi [3.296] xususida ma'lumot keltiradi. Buxoro amirlaridan biri Amir Muzaffarning farzandlaridan biri Nosuriddin To'ra o'zining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tariqat ulamolari, shayxlarga bag'ishlangan "Tuhfat az- zoirin" nomli asarida ma'lumot berishicha, Amir Haydar ko'plab shogirdlarni tarbiyalagan. U "Sharhi qofiya", "Sharhi Mishkot", "Shamoyili nabaviy" va "Tafsiri qozi Bayzoviy" kabi diniy fanlardan dars bergen. Talabalardan yettitasi amirdan ijozat olib mudarrislik bilan shug'ullangan [4.94-95].

Buxoro amirligida yashab faoliyat korsatgan mahalliy tarixchilardan biri Ahmad Donish Amir Haydarning ilmiy faoliyatini asarida quyidagicha yoritadi: “Tinchlik hukm surgan vaqtarda amir (Izoh: bu yerda Amir Haydar nazarda tutilmoxda) poytaxtda bo‘lsa, ulamolarning ko‘pchiligi uning oldiga borar, suhbatida bo‘lardi. Buxoro akobirlarining farzandlari, maxdumzodalar g‘uj-g‘uj bo‘lib, Buxoro arkiga chiqib, amir huzurida mashg‘ulotlar va ilmiy munozaralar o‘tkazar edilar. Tarixda bunday boshqaruv shakllari bo‘lganligi hech kimning yodida yo‘q. Buning ovozasi butun islom diyoriga tarqalib, turli maskanlardan odamlar ilm olish uchun kela boshladilar.

Buxoroda diniy ilmlar, shariat qoidalari shunchalik rivojlandiki, islomiyat davrida hech bir podsholikda olimlar bunchalik rivojlanmagan edilar...”[2.25]. Mirza Olim Maxdum hojining yozishicha, Amir Haydar hayotlik chog‘idayoq, kichikroq madrasa qurdiradi va u Madrasayi Amir va Oliycha nomi bilan mashhur bo‘ladi. Savdogarlardan Tursunjon ismli kishi ham 1805-yilda Buxoroda katta madrasa qurdirishni boshlaydi. Ammo qurilish tugallamay turib, to‘satdan vafot etgach, Amir Haydar qurilishni yakunlaydi [6.178]. Tadqiqotlarda keltirilishicha, 1815- yilda devonbegi Eshmuhammad va Mirza Muhammad Yusuf qo‘rhiboshini maktub bilan Istanbulga yuborib, Sulton Mahmud II dan shariatga doir kitoblarni so‘ratganda, Mahmud II o‘z elchisi Hasan Chalabiy orqali Buxoroga 32 jildli kitob yuborgan [11.38].

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining boy qo‘lyozma xazinasida saqlanayotgan “Sayyid Amir Haydar Bahodirxon maktuboti” nomli nodir qo‘lyozma ham Amir Haydarning o‘z davrining ma’rifatparvar hukmdorlaridan biri bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ushbu qo‘lyozma Amir Haydarning turli xil rasmiy maktub va hujjatlarining nusxalarini (963 ta) o‘z ichiga olib, ular amir hukmronligi yillarida bitilgan. Maktublar fors- tojik tilida bo‘lib, ularning asosiy qismi Buxoroning mashhur zodagonlaridan biri bo‘lmish Sayid Ahmad xoja naqib nomiga yo‘llangan (Sayid Ahmad xoja Amir Haydarning suyukli jiyani, Jo‘ybor xojalaridan birining rafiqasi bo‘lgan singlisining o‘g‘li) [12.154]. Hujjatlardan birida Buxoro amiri Amir Haydarning aholi o‘rtasida umumiylar zarur ta’limni joriy etish haqidagi qonunni amalga oshirish borasidagi tadbir va ko‘rsatmalariga bag‘ishlangan. Hujjat Qarshi viloyatining hokimi Amir Haydarning jiyani Sayyid Ahmad xoja Fayziy nomiga 1803-1804 yillarda yozilgan [12.157]”. Bu hujjatdagi ma’lumotlar XIX asr boshlaridayoq Buxoro amirligida aholi o‘rtasida umumiylar majburiy ta’limni to‘la yovlga qo‘yish uchun davlat g‘amxo‘rlikni o‘z zimmasiga olganligini va hukumat tomonidan nazorat ostiga olinganligini isbotlaydi.

Amir Haydarning o‘g‘illaridan biri Amir Nasrullo (1826- 1860) ham otasi kabi shariat qonunlariga qattiq bo‘ysunardi [1.132]. Ammo, aynan shu amirning boshqaruv davriga kelib, ilm-fan, xususan, ta’lim tizimiga e’tibor ancha susaydi. Bu fikrni Mirzo

Olim Maxdum hoji o‘z asarida tasdiqlaydi: “Buxorodagi madrasalarining aksarida avqofi mutafovot bo‘lib, hujrada iste’qomat qilguvchi talabalarning darsi “Sharhi Mullo” (“Jomiy”) din “Adno” va “Aqoid” din “Mullo Jalol” gacha avsat va andin yuqorisi a’lo e’tibor ila uch qismga taqsim qilinur edi. Bu amirning asrida hammasi barobar qilindi. Ilgari vaqtarda shanba, yakshanba, dushanba, seshanba to‘rt kun tahsil va uch kun ta’til bo‘lur edi. Ammo choharshanba kuni ham tahsil qildi. Ammo mudarris mazkur tunni yo yarim soat darsxonada o‘ltursalar ham talabalar dars o‘qimoqg‘a kelmas edilar va ko‘p zamondin buyon Buxoro kitobxonlarida mahfuz muntafi’ kutubi avqofning aksarini har xil majhul va no’malum odamlarga besanad va behujjat berib, kitoblar atrof javonibga tarqalib tamom zoye bo‘ldi [6.188] “.

Buxoro amirlaridan Amir Abdulahad (1885-1910) davriga kelib, ta’lim jarayonida o‘zgarishlar yuz berib, jamiyatni yangilash va isloh qilishga qaratilgan g‘oyalar bilan jadidlar maydonga chiqdilar. Jadidchilik harakati tashabbuskorlari jamiyatni qoloqlikdan taraqqiyotga olib chiqishda ta’lim tizimining roli beqiyos ekanligini anglagan holda, dastlabki faoliyatni ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlaydilar. Jadid ma’rifatparvarlari murakkab, ziddiyatli davrlarda ham o‘zlarining islohotchilik faoliyatlarini davom ettirdilar. Taraqqiyatparvarlar tomonidan amalga oshirilgan eski usuldagagi maktablarni isloh etish, iqtidorli yoshlarni chet elga yuborish, teatr sahnalarini ibratxonaga aylantirish, milliy matbuotni yaratish kabi ishlari kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo‘ldi. Matbuotning vujudga kelishi odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashishi va dunyodan xabardor bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi va ma’naviy ehtiyojga aylandi.

Shuningdek, Amir Said Olimxon (1910-1920) o‘z davrida konservativ qarashlarga ega, eskicha fikrlovchi ulamolarning tazyiqi ostida jadidlar tomonidan barpo etilgan yangi usul maktablarini yopgan bo‘lsada, o‘zi ham madaniy qurilishlarni amalga oshirgan edi. Jumladan,, Buxoro minorasinining past tomonida deb yozadi Amir Said Olimxonning o‘zi, -o‘z nomimdan Dorul-ulum bo‘lgan bir madrasa qurdirdim; turli ilmlardan dars beruvchi muallimlar tayin etdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf xarajati, maosh va kiyim –kechagi ham o‘z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir ham tayin etdim; ularning yemak –ichmak, maosh va kiyim –kechaklarini muayyan bir vaqtida yetkazdirardim [8.8]. Amir qurdirgan bu madrasani hozirgi kundagi o‘quv muassasasiga to‘g‘ri keladigan bir bilimgoh desa ham bo‘ladi. Bu esa o‘sha davr nuqtayi nazaridan olib qaralganda, albatta juda katta voqeа bo‘lgan.

Xulosa shuki, mahalliy va xorij manbalarida Buxoro amirlarining ilm-ma’rifatni rivojlantirish maqsadida qurdirgan madrasalari, kutubxonalarining mavjudligi, talaba va mudarrislarga maosh tayinlanganligi, ta’lim tizimida ta’tillarning joriy qilingani haqida ma’lumotlar berilgan va bu jarayonlar o‘sha davr nuqtayi nazaridan olib qaraganda katta bir yangilik bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim tizimidagi

kamchiliklar ham asarlarda ko‘rsatib berilgan. Amirlikdagi ilm-fan, o‘quv tizimi isloh qilishga muhtoj edi. Ilm-fan, ta’lim tizimini isloh qilishni jadidlar boshlab bergan bo‘lsalar, to‘laqonli isloh qilish O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘nggina amalga oshirila boshlandi va bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Мирза Абдулазим Сомий. Манғит султонлари тарихи ёки Бухоро хонлигининг инқирози. Форс – тожик тилидан И. Султонов таржимаси // «Шарқ юлдوزи», 1993. № 3- 4. 129- 143 бетлар;
  2. Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд Манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Таржима, изоҳлар ва кириш сўзи муаллифи К. Йўлдошев. –Тошкент: Ўзбекистон миллый энсиклопедияси, 2014;
  3. Мирзо Салимбек. Кашқули Салимий. Таворихи муттақадимин ва мутаахирин. Форс – тожик тилидан Н. Йўлдошев таржимаси. –Бухоро: «Бухоро» нашриёти, 2003;
  4. Мухаммад Насриддин Ал- Хасани Ал- Бухари. Тухфат аз- заирин. Перевод, предисловие, комментарии Х. Тураев. –Ташкент- 2003;
  5. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофей (Фойдали тарих). Тожик тилидан таржима, сўзбоши ва айрим изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов ва З. Чориев. –Тошкент: Академия, 2001;
  6. Мирза Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. Араб ёзувидан Ш. Воҳидов ва Р. Холиқова табдил этган. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2008;
  7. Айний С. Асарлар. 8 томлик. Т. 5.. Эсталиклар 1- 2 қисм (Мухаррир Р. Комилов) – Тошкент: «Тошкент» бадиий адабиёт нашриёти, 1965;
  8. Sayyid Amir Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi Forschadan tarjima muqaddima va izohlar bilan Abdusodiq Irisov. –Toshkent: O‘zbekiston SSJ,, Fan” nashriyoti, 1991 8-bet;
  9. Sobolev L. Latest history of the Khanates of Bokhara and Kokand. Translated from the Russian of the “Turkesten gazette” for 1876 by P. Mosa. –Calcutta: Foreign department press. 1876;
  10. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII- XIX вв.). –Алматы «Дайк- Пресс» 2004;
  11. Асророва Л. Бухоро мадрасалари тарихидан. –Тошкент: Ҳилол -нашр, 2018;
  12. Муҳаммедов Т. Савол тарихига оид ҳужжат // Жаҳон адабиёти, №1, 2019;
- Bobojonova Feruza. Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) /F. Bobojonova; -Toshkent: „Adib” nashriyoti, 2014.

13. Sh, Murtazoyev. "Oh the Manuscript of “Avariful-maarif”(Those People Recognizing Enlightenment) of Shakhabuddin Umar Sukhravardi." *International Journal on Integrated Education* 2.5.
14. Kilichev, Rajab Ergashovich. "BUKHARA IS THE ANCIENT CITY OF THE EAST." *Theoretical & Applied Science* 7 (2020).
15. Rajabov, Alisher, and Shoxijahon Urnov. "XVII ASRNING 1-HALF BUXORO XONLIGINING SIYOSIY INQIROZI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI." *Development of pedagogical technologies in modern sciences* 2.5 (2023).
16. ERKINOVICH, TUYEV FAZLIDDIN. "FACTORS OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT IN BUKHARA REGION IN 1991-1995 AND THE ISSUE OF PARTICIPATION IN FOREIGN RELATIONS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.05* (2022).
17. Shokirov Mubin. "Tarixiy jarayonni bilish methodlari asosida analiz qilish." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 5.5 (2021).

## LEXICAL AND STYLISTIC MEANINGS AND PECULIARITIES OF LINGUISTIC UNITS WITH ‘HEART’ COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Mo’soyeva Hayitgul O’roqovna**  
PHD student of SamSIFL

**Annotation:** In this article, the stylistic meanings and peculiarities of the linguistic units with the word ‘heart’ in English and Uzbek have been described. The word ‘heart’ has been analyzed in different meanings according to the contextual usage in the authentic materials - as a metonymy for the person, a movable object, a changeable object in size, a solid thing, an anthropomorphized entity, a living organism, an autonomous entity, an object of value, a coveted entity, a prize, a booty, a manipulable object, a container for emotions, a lid container, a manipulable container, an open container for liquids, as a container with great depth, a container with an internal container, a storehouse container, the heart as a compartmentalized container. To clarify the meanings in both English and Uzbek languages, the exact translation samples have also been written.

**Key words:** metonymy, a movable object, a changeable object, a solid thing, an anthropomorphized entity, a living organism, an autonomous entity, an object of value, a coveted entity, a prize, a booty, a manipulable object, a container.

In many cultures, the word ‘heart’ plays an important part as a conceived source of emotions and feelings. From a cognitive semantic perspective, the heart in English has received some attention from scholars, notable among whom is Niemeier (2003; 2008) who argues that in English, a folk model exists that places the heart as the site of emotions. Swan (2009) also discusses the role of the heart in the history of English and its function as a key term in English speaking cultures. He shows that the metaphorical meanings related to the heart are not only largely subsequent to and developed from concrete meanings, but also that new meanings develop over time, often constituting complex networks of interrelated conceptualizations. Other studies have been contrastive in nature. Of all these studies, the two works by Niemeier appear to offer the most comprehensive description of the conceptualizations of the heart in English. I, therefore, present an overview of the cognitive representations of the heart in English as discussed in Niemeier (2003; 2008). The main aim of Niemeier (2003) is to show that the heart metaphors in English rely on a metonymic perspectivisation of the heart as a source domain for the metaphorical mapping. She groups the metaphorical expressions found in her corpus into four categories: the heart as a metonymy for the person, the heart as a living organism, the heart as an object of value

and the heart as a container. (Niemeier 2003, p. 199). Niemeier (2003, pp. 200-208), then, discusses the four categories and the conglomerate of different sub-folk models related to them. What follows is a summary of the main categories as well as the sub-folk models that fall under them.

1. The heart as a metonymy for the person

a. The heart is a movable object ('set one's heart on somebody')

b. The heart is changeable in size ('heart-swelling', 'have a big-heart')

c. The heart as a solid ('hardness of heart', 'heavy-hearted', 'heart of iron', 'heart of stone')

d. The heart as an anthropomorphized entity ('somebody being one's heart's desire')

1. The heart as a living organism The heart as an autonomous entity ('All hearts throb for her')

3. The heart as an object of value

a. The heart as a coveted entity

b. The heart as a prize ('to win someone's heart', 'to offer one's heart')

c. The heart as a booty ('to lose one's heart to somebody', 'to steal every heart')

d. The heart as a manipulable object ('broken heart', 'heart-broken', 'broken-hearted')

4. The heart as a container

a. The heart as a container for emotions ('to have a soft heart', 'to have a tender heart')

b. The heart is a lid container ('to open one's heart', 'to close one's heart to something')

c. The heart as a manipulable container ('to open one's heart', 'to close one's heart to something', 'to pour out one's heart to something')

d. The heart is an open container for liquids ('a heart overflowing (with gratitude')

e. The heart as a container with great depth ('from the bottom of one's heart')

f. The heart is a container with an internal container ('in one's heart of hearts')

g. The heart is a storehouse container ('I could not find it in my heart')

h. the heart as a compartmentalized container ('have a place in every heart')

Conceptualizations of the Heart in Uzbek. All the four major metonymic and metaphorical mappings identified in English the heart stands for the person, the heart is a living organism, the heart is an object and the heart is a container exist in Uzbek. In the sections that follow, I present a detailed discussion of them. The heart stands for the person This metonymy belongs to the model the part for the whole or the body part for the person. In Uzbek, the heart is considered the seat of emotions.

'I have given you all my heart.'-Men senga butun qalbimni berdim.

‘Give me your heart so we can stay in love.’-Menga yuragingni ber biz muhabbat ila qolaylik. ‘He/She takes his/her heart all love him/her’-U uni butun qalbi bilan sevadi. (i.e. ‘He/she loves him/her with his/her whole heart’) In all the examples, the heart is used to stand for a person.

In Uzbek, as it is in English, the heart is conceptualized as changeable in size. Here, it is often described as big or small. These descriptions of the heart are used for behaviour types that belong to the antonym of courage or cowardice. Someone who is not courageous may be said to have ‘a small heart’, whereas someone who is courageous may be said to have ‘a big heart’. It is worthy of note that in Uzbek, the expression may also be used to describe someone who is kind.

a.**Yuraging kichkina** ‘Your heart is small.’ (i.e., ‘You are not bold’/ ‘You are not courageous’.) b.Yuraging katta ‘Your heart is big’. (i.e., ‘You are kind’.) Speakers of Uzbek use the heart for the articulation of negative emotions. Here, the heart is conceptualised as hard or solid as a stone or metal - the heart is solid. In Uzbek, expressions such as those in are used to describe someone with an unyielding attitude or a difficult person. The hard materials can be said to be metaphorically connected with the unyielding attitude or ‘hard’ feelings of the people involved.

### **His/Her heart is hard-Yuragi qattiq.**

(‘S/he is a difficult person’.)

‘His/her heart is as hard as stone or as metal.’ Uning yuragi tosh kabi, metaldek qattiq. (i.e.,‘S/he is very wicked/unkind/difficult’). The metaphor the heart is a solid is used metonymically in so far as it picks out one detail of a person’s disposition to stand for the whole moral frame of the person. The metaphor, then, has a metonymic basis. The heart, for Uzbek speakers, is sometimes perceived as full entities which may be present, or even totally absent; it is not visualized as half-present as it is in English. Whereas in English the notions of presence or absence of the heart are used to describe people who are considered heartless or wicked, in Uzbek the notions are deployed to describe people who are regarded as impatient or quick-tempered. In Uzbek, the expression could also mean that the person is patient or kind. That meaning contrasts with that of. It is in this sense that people who get irritated or angry are sometimes advised to calm down with the expression which literally means that ‘they should get a heart’:

‘The man really has a heart.’ Bu erkak chindan ham sabrli. (i.e., ‘The man is patient’)

‘The man does not have a heart at all’. Bu erkak sabrsiz. (i.e. ‘The man is impatient/quick-tempered’)

Get heart. –Umidsiz bo‘lmang. ‘Get a heart’ (i.e., ‘Take heart’/ ‘Take it easy’) In Uzbek, the heart is also configured as a movable entity. Here, it is the direction of

movement that is highlighted. In those expressions, the heart is visualized as an entity that can move in an upward direction or in a downward direction.

When the heart is viewed as having moved upwards, the people so described are considered to have been agitated. Consequently, the expression which literally means ‘let your heart move downwards’ - in Uzbek “Tinchlan, sabrli bo‘l” is sometimes used to advise such people to calm down or be patient. At other times, such people are advised ‘to move their hearts into their stomachs’ (9), which also involves movement from an upward direction to a lower direction. This conceptualization is based on a folk model in Uzbek which gives priority to up-down orientation, where up denotes a positive value and down denotes a negative value. This view, as held in the Uzbek culture, is consistent with the position of Clark (1973): Facts of perception also suggest how we could assign positive and negative values to directions away from the... plane... of asymmetry... where positive is taken in its natural sense to mean the presence of something, and negative the absence... since everything above ground level is perceptible and nothing below it is, upward is naturally positive and downward naturally negative. (p. 33 quoted in Tyler and Evans 2003, p. 137).

However, in this context, there is an added specific cultural value in the linguistic expressions: an attitude that is high or up is not regarded as positive but negative, whereas an attitude that is low or down is regarded as positive. In this particular case, high is understood as negative and low is understood as positive in terms of human qualities:

‘Your heart has gone up too much.’ -Sening achchig‘ing chiqqan (i.e., ‘You are too angry’) ‘Let your heart come down. –“Tinchlan, sabrli bo‘l”

(i.e., ‘Take heart’/ ‘Be patient’) ‘Move your heart into your stomach.’ – Yuragingni bosib ol. “Tinchlan, sabrli bo‘l” (i.e., ‘Take heart’ /‘Be patient’) The Heart as a Living Organism In Uzbek, sometimes the heart may be conceptualised as a living organism or an autonomous entity. Here, the heart is understood as acting in its own right. **As the example illustrates, the heart is viewed as a living organism and an autonomous entity that is capable of ‘flying’.** The heart is used to express fear. Some other expressions in Uzbek conceptualise the heart as what (Niemeier 2003, p. 203) describes as ‘an anthropomorphised entity’, where the heart itself, not the human being with which it is connected, may be regarded either as desiring someone or something, may become proud or may grumble: ‘My heart flew (away).’ Yuragim hapqirib ketdi. Sarosimaga tushib qoldim. (i.e., ‘I panicked’.).

My-heart top entity ‘My heart’s desire’ –“Yuragim istagi”

... then your heart will become proud-... shunda qalbing mag'rur bo'ladi Give generously to him and do so without a grudging heart. - Unga saxiylik bilan bering va buni g'azablanmasdan qiling. The Heart as an object of value. It is worthy of note that Uzbek people sometimes perceive the heart as an object or an entity. Consequently,

they attribute characteristic properties of objects to the heart. In this regard, in Uzbek the heart as a whole is considered to be a kind of treasure or something of great value to its owner and to the other person as a coveted entity. Whereas in English the heart as an object of value can be conquered or won in a contest or in a war, in Uzbek it can be a coveted entity as indicated and repeated here or an object that may be offered generously as indicated, also repeated here as:

‘Give me your heart.’ ‘I have given all my heart to you’

Menga yuragingni ber. Men butun yuragimni senga bergenman.

The heart is sometimes conceptualised as delicate or fragile and can even be destroyed. Common expressions that illustrate this include those in (13a) and

Yuragimni parchala-destroy my heart ‘You have destroyed my heart.’ Sen qalbimni pora etding. (i.e., ‘You have made me angry’/ ‘You have disappointed me’).- (Sen meni ranjitding/ Sen ko‘nglimni o‘ksitding) ‘Be careful you do not destroy my heart.’ Ehtiyot bo‘l. Qalbimga ozor berma. (i.e., ‘Do not disappoint me’/ ‘Do not break my heart’). In all these cases, emotions are involved. Whereas the expression may be used by someone who has been agitated or one whose love is unrequited, the one may be used by someone who is madly in love and does not want to have his or her heart broken.

The heart is also visualized as a container that can be filled with emotions (often positive emotions). The linguistic expressions illustrate this. This metaphor may be said to be based on the generic-level metaphor the body is a container for the emotions. In this connection, the heart stands metonymically for the emotions involved. If there are too many emotions involved, the container might be too small to absorb them, in which case it might overflow. ‘My heart is full (of joy) –Mening yuragim quvonchga limmo-lim.

‘My heart is overflowing (with joy).’-Mening yuragim quvonchdan hapqirib ketmoqda.

As Niemeier (2003, p. 207) has noted for English, this representation of the heart is illustrated by a dynamic view of an open container for liquids, where the path of the movement of the liquid from the container is visualized. Sometimes, the opposite kind of movement, namely movement towards the container is highlighted as illustrated in Uzbek expressions below. This is a clear indication that the way from our feelings or emotions to the heart is not a one-way street, but works both ways, as feelings may enter or leave it. Happiness/Joy/Sadness -fill my heart full ‘Joy/Sadness has filled my heart’. –“Xursandchilik/g‘am mening yuragimni to‘ldirdi”. (i.e. ‘My heart is overflowing with happiness /joy/ sadness’)

“Mening yuragim baxtdan/ xursandchilikdan/ g‘amdan toshib bormoqda” Niemeier (2003) has observed that in English, the heart is sometimes seen as ‘a container with great depth’ and as filled with positive emotions. This type of container,

she notes, is conceptualized as having a bottom representing the location where one's innermost feelings which are often thought to be very intense and sincere are stored. This is illustrated in the expression in below: from (the bottom of) one's heart-...ning qalbining tubidan In Uzbek, it is the inner part of the heart that is conceptualized, and not as one with great depth. Come from my heart inside 'It comes from my heart.' (i.e., 'It is from my heart'.) Bu yuragimning tubidan chiqadi.

In Uzbek, the container metaphor is also used to describe another type of attitude, that is, honesty or purity. Here, the heart is visualized as a container whose inner part is clean or white in colour. This gives us the metaphor the heart is a container with a white/clean interior. Here, there is an added specific cultural value in the linguistic expressions: the colour white in Uzbek symbolizes purity or cleanliness. Therefore, honest people or people who are believed not to harbour any ill-feelings against others are described with expressions such as those in 'The inner part of my heart is good.'(i.e., 'I am honest' / 'I have a pure heart'). Mening qalbim sof, toza. "The inner part of my heart is good white." (i.e., I am honest / I have a pure heart). Again in Uzbek, the heart is conceptualized as a container or a storehouse where items dear to one's heart are kept or where matters or issues dear to the heart are kept or hidden. 'My sweetheart' Mening suyukligim.

'I have hidden the matter in my heart.' (i.e., 'I have kept the matter in my heart'.) Bu masalani men o'z qalbimda berk saqlayman. My examination of the conceptualizations of the heart in English and Uzbek was based on the methodology proposed by Kövecses (2010). In both languages, the heart is talked about in terms of both conceptual metonymies and conceptual metaphors. With regard to the source domains in the metonymic conceptualization, the linguistic evidence suggests a similarity. Both languages make references to the human person, where the heart is made to represent the person. Moreover, in both languages, the metonymy, the heart stands for the person, forms the basis of metaphorical mappings. The metaphors the heart is changeable in size, the heart is a solid, the heart is an anthropomorphized entity and the heart is a movable entity are all based on the metonymy the heart stands for the person. It is interesting to note that the same conceptual sources and the targets are metaphorically associated in both languages. However, there are differences in the elaboration in the two languages of the metaphor the heart is a movable entity. In English, the metaphor is derived from the expression 'to set one's heart on somebody' (Niemeier, 2003, p. 200). As she explains, the heart or the person 'only knows one goal that s/he tries to pursue with perseverance' (Niemeier 2003, p. 200). In English, the elaboration is associated with love. Moreover, the movement is not clearly defined and may be described as traversing a path. In Uzbek, this metaphor is associated with the human attitudes of patience and impatience, and the movement is expressed in terms of an upward or a down movement. Interestingly, the idea of movement in both cases

implies a sudden change and is based on the conceptual metaphor change is motion (Lakoff and Johnson 1999, p. 52), which is an entailment of the more general metaphor change of state is change of location (Lakoff& Johnson, 1999, p. 179).

In terms of the conceptual metaphors, the two languages share the following source domains: a living organism, an object and a container. However, the source domains a prize, and a booty are exclusive to English, whereas an abode and a container with a white interior or a container with a clean interior are the Uzbek-specific source domains of the heart identified. There are also language specific construal of some of the source domains identified. For instance, in both languages the heart is sometimes perceived as a full entity which may be present, or even totally absent. However, in English it is also visualized as half-present. Moreover, whereas in English the notions of presence or absence of the heart is used to describe people who are considered heartless or wicked, in Uzbek the notions are used to describe people who are considered impatient or quick tempered.

In conclusion, in Uzbek, both the head and the heart are words that denote concrete body parts. However, it has now become common to conceive of the heart as the seat of feelings, while the head is seen as the location of the intellect. Thus, the head ‘contains’ our reason and intellect and the heart on the other hand ‘contains’ various feelings and emotions. In spite of the dichotomy between heart and head expressions in Uzbek, some exceptions were detected in the corpus of heart expressions. These are cases where the heart is connected to mental faculties. In this research paper, I have compared and contrasted the general metonymic and metaphoric conceptualizations of the heart in Uzbek and English. The similarities and differences in the conceptualizations have been attributed to the commonality in human experience or to the thesis of embodied cognition, and also to our cultural models. The article focused on conceptualizations of one internal body organ in Uzbek and English. It is hoped that the article will contribute to the understanding of the intricate relationship between culture, body and language. It would be interesting to know the kind of results studies of other internal body organs in Uzbek would yield.

## References:

1. Esther S. Afreh. (2015). The Metonymic and Metaphoric Conceptualisations of the Heart in Akan and English.
2. Niemeier, S. (2008). To be in control: Kind-hearted and cool-headed. The head-heart dichotomy in English. In F. Sharifian, R. Dirven, N. Yu & S. Niemeier.(Eds.), Culture, body and language: Conceptualisations of internal body organs across cultures and languages (pp.349-372). Berlin, Germany: Mouton de Gruyter.

3. Niemeier, S. (2003). Straight from the heart: Metonymic and metaphorical explorations. In A. Barcelona (Ed.), *Metaphor and metonymy at the crossroads: A cognitive perspective* (pp. 195-213). Berlin, Germany: Mouton de Gruyter.
4. Kövecses, Z. (2010) Metaphor and culture. *Acta Universitatis Sapientiae, Philologica*, 2 (2), 197-220.
5. Lakoff, G. & Johnson, M. (1999). *Philosophy in the flesh: The embodied mind and its challenge to Western thought*. New York, NY: Basic Books.
6. Swan, T. (2009). Metaphors of body and mind in the history of English. *English Studies*, 90, (4), 460–475.

## G‘O‘ZANI TURLI MATERIALLAR YORDAMIDA MULCHALAB (PLYONKA OSTIDA) TOMCHILATIB SUG‘ORISH TARTIBINI ISHLAB CHIQISH

**Olloniyo佐 Sardor Po’lat o’g’li**

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti  
I bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar asosida g‘o‘za yetishtirish texnologiyalarni ishlab chiqish tartibi ko‘rib chiqilgan hamda tomchilatib sug‘orish hosildorlikni oshirish uchun qanchalar ahamiyatli ekanligi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** tomchilatib sug‘orish, sug‘orish texnologiyalari,plyonka,mineral o‘g‘itlar, hosildorlik.

**Абстрактный.** В данной статье рассмотрен порядок разработки технологий выращивания хлопка на основе инновационных технологий и проанализировано, насколько важно капельное орошение для повышения урожайности.

**Ключевые слова:** капельное орошение, технологии орошения, пленка, минеральные удобрения, урожайность.

**Abstract.** This article examines the procedure for developing cotton cultivation technologies based on innovative technologies and analyzes how important drip irrigation is for increasing productivity.

**Key words:** drip irrigation, irrigation technologies, film, mineral fertilizers, productivity.

Avvallari dehqonchilik-bog‘dorchilik bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan kishi kanal yoki ariqdan ekinlarga suv tortib kelishi kerak bo‘lgan. Mashaqqati, xarajati katta bo‘lsa ham, shu uslubda ishlab kelayotgan fermerlar hamon topiladi. Lekin hozir innovatsiya davri. Tomchilab sug‘orish orqali tonnalab mo‘l hosil olish mumkin. AQSh, Germaniya, Xitoy, Turkiya, Isroil, Misr va boshqa davlatlar qishloq xo‘jaligida tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish usulidan keng foydalanmoqda.

Dunyo qishloq xo‘jaligida chuchuk suv taqchilligi sharoitida ekinlarni ilmiy asoslangan sug‘orish texnologiyalari va tartiblarini qo‘llash, qo‘srimcha suv manbasi sifatida kollektor-zovur suvlaridan hamda chiqindi suvlardan foydalanish orqali daryo suvlarini tejash imkoniyati yaratilmoqda. Suv resurslari taqchilligi ekinlar hosildorligi va uning sifatiga o‘z ta’sirini sezilarli darajada ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarni, eng avvalo, suv tanqisligida g‘o‘zaning suv tejovchi texnologiyasini yanada takomillashtirish orqali suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni takomillashtirishda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda bugungi kunda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda tomchilatib, egatga plynka to'shab va o'qariqlar o'rniga ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Buning natijasida sug'orish suvlari tejalishi, yerlarning meliorativ holati yaxshilanishi, sizot suvlarining sathi yaqin joylashgan maydonlar kamayishi va provardida hosildorlikning oshishiga erishilmoqda.

Tomchilatib sug'orish qurg'oqchil hududlarda sabzavot etishtirish imkonini berdi. Katta va kichik maydonlarga zamонави tizimlarning kiritilishi hosildorlikni oshiradi, o'simliklar o'zini qulay his qiladi, qurg'oqchilik paytida o'lim xavfi kamayadi.

Suv to'g'ridan -to'g'ri o'simliklarning ildiz zonasiga etkazib beriladi. Ta'minot miqdori, davri ekinlar ehtiyojiga qarab tuziladi. Suv qismlari bir xil, kichik hajmlarda. An'anaviy sug'orish usuliga qaraganda iste'mol 5 barobar kamayadi.

Tomchilatib sug'orish tizimi qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan yuqori texnologiyalarning asosiy komponentlaridan biridir. Usulni qo'llash bir qator afzalliliklarga ega:

- hosildorlikni 2 barobar oshiradi;
- tuproqdagi havo almashinuvini yaxshilaydi;
- botqoqlik yo'q, tuproqning siqilishi
- ildiz tizimi faol nafas oladi, yaxshi rivojlanadi;
- mineral o'g'itlar sug'orish bilan birgalikda to'g'ridan -to'g'ri ildiz zonasiga qo'llaniladi;
- ozuqa moddalarining bug'lanishidan yo'qotishlar kamayadi, ularni o'simliklar tez iste'mol qiladi;
- barglar quruq qoladi, bu kasalliklarga chalinish xavfini kamaytiradi;
- zararkunandalarga, kasalliklarga qarshi ishlatiladigan vositalar sug'orish paytida barg plastinkasidan yuvilmaydi;
- ekinlarni qayta ishlash, yig'ish har qanday qulay vaqtida amalga oshiriladi;
- qatorlar orasidagi tuproq har doim quruq bo'ladi;
- suv, o'g'itlar, energiya, mehnat xarajatlarini sezilarli darajada tejaydi;
- mahsulot tannarxi sezilarli darajada kamayadi, sug'orish tizimlari tezroq to'lanadi;
- bog'dorchilik, uzumchilikda o'simliklar sotiladigan meva berish davriga 2-3 yil oldin kiradi;
- ko'chatlar yaxshiroq ildiz otadi;
- suv eroziyasini yo'q.

G'o'za ekinini tomchilatib sug'orish tizimi, sug'orish tartibi, sug'orish davriyligi, sug'orish elementlari, texnika va texnologiyasiga ta'sir etuvchi omillari quyidagilardan iborat: Fermer xo'jalik maydonlarining iqlim sharoiti; tuproq va meliorativ sharoiti;

geologik va gidrogeologik sharoiti; gidrologik sharoiti; iqtisodiy xo'jalik sharoiti; g'o'za ekinlari navlarining turlari va geografik joylashishi; g'o'za ekinlarining biologik xususiyatlari; g'o'zaning sug'orish usuli va texnika -texnologiyasi; g'o'zani yetishtirishda ilg'or agrotexnik tadbirlarini tadbiq qilish darajasi. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan davlatlar AQSh, Isroil, Kanada, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya va boshqa davlatlarda qishloq xo'jalik ekinlarini tomchilatib sug'orish texnikasi va texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Yer-suv resurslaridan oqilona foydalanishda tomchilatib sug'orish tizimlarining turlariga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- past bosimli;
- o'rta bosimli;
- yuqori bosimli;

Ushbu tizimlarning elementlari, qismlari, kerakli bosimli tizimlar, geomorfologik, tuproq, geologik, gidrogeologik, gidrologik sharoitlar va xo'jalik sharoitlariga qarab qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi sharoitida bog', uzumzorlar, paxta, sabzavot, g'alla ekinlarini tomchilatib sug'orish rivojlanmoqda. Vegetatsiya ishlarida parvarishlangan g'o'za uchun maqbul namlikning eng past chegarasi, chegaraviy dala nam sig'imiga (ChDNS) nisbati 60 foizni tashkil etgan, bu namlikni yengil qumoq tuproq uchun 70 va og'ir qumoq tuproq uchun 60 foiz deb tabaqalashtirgan. Shu kabi tajribalarni xam o'tkazishgan. Binobarin, bunday tadqiqotlar bir qator olimlar tomonidan xam o'tkazilgan. Tuproqning sug'orish oldi tartibini bir maromda saqlash uchun sug'orishlar soni xar xil belgilanishi va suv turli me'yorda berilishi talab etiladi. Bu sug'orish me'yorining turlicha bo'lismiga olib keladi. Sug'orishlar tarafdorlari bo'lib, ularning fikricha sug'orish me'yori oshirilishi bilan xosil miqdori ko'paymaydi, lekin pishishi kechikadi. Amaldagi sug'orish me'yor va tavsiya etilganidan O'zbekistonning qadimdan sug'oriladigan yerlarida 25-30%, yaqinda o'zlashtirilgan yerlarda 75-100 % ko'prokdir. Tomchilatib sug'orishda dalaga suvni bir tekis taqsimlash va sug'orishni sifatli olib borishda sug'orish texnikasi va texnologiyasini ishlab-chiqishning ilmiy -amaliy axamiyati katta. Shu sababli sug'orish texnikasi elementlarining parametrlarini aniqlashda asosiy bo'lib, uni keng miqyosda qo'llash uchun ayrim xolatlariga o'zgartirishlar kiritish kerak bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, sug'orishda egatning bosh qismi ortiqcha namlanishi, etak qismida nam yetishmasligi tuproqda degradatsiya xolatini keskinlashuviga olib keladi. Shuning uchun geomorfologik, relef, tuproq turiga qarab sug'orish usuli tanlanganda bu nazariyaga tuzatish kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sug'orish rejimini belgilashda dala uzunligi bo'yicha namlanish nazariyasi tuproq turi, geologik va gidrogeologik hamda iqlim sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgartirishni ta'kidladi. Suvdan samarali foydalanishga, asosan yer ustidan sug'orish usullarini

takomillashtirish va yangi texnologiyalarni qo'llashni tashkil etish bilan erishiladi. Bunda suvni filtratsiyaga va paynovga isrofi kamayadi.

Tuproqni mulchalash - unumdorlikni oshirish uchun yerni ishlov berish texnologiyasi. Ushbu protsedura yordamida siz o'simliklarni ob-havo sharoitining salbiy ta'siridan himoya qilishingiz mumkin. Mulchalash tizimini o'rganib chiqib, uni o'zingiz qilishingiz mumkin.

Mulchalash - muvaffaqiyatli ekinlarni etishtirish uchun tuproqni himoya qilish texnologiyasi. Yer uchastkasini qayta ishlashning ushbu tartibi 17 asrdan beri ma'lum bo'lgan. Ilgari u "tuproq boshpana" deb nomlangan. Keyinchalik u tuproqni mulchalash deb nomlandi. Mulchalash, yerning yuqori qismida mulchdan tayyorlangan maxsus himoya qatlampini yotqizishni o'z ichiga oladi. Ushbu material quyidagi tarkibiy qismlarning aralashmasi: begona o'tlarning o'sishi; quritish; tuproqning yuqori qatlamida suv va havoning muvozanati buzilishi.

Tuproqni mulchalash bahorda eng samarali hisoblanadi. Beqaror ob-havo sharoitida ko'pincha ko'chatlarga zarar etkazadigan haroratning pasayishi kuzatiladi. Kechasi sovuqni kunduzi quruq ob-havo bilan almashtirishni minimallashtirish uchun yerga mulch sepiladi. Mulchalash tuproqqa murakkab ta'sir ko'rsatadi. Zaminning himoya qatlampini yer yuzasiga qo'llaganingizdan so'ng:

bug'lanish jarayoni sekinlashadi, buning natijasida namlik uzoqroq turadi va ildiz tizimini oziqlantiradi;

tuproqning kislotaligi normallashadi, buning natijasida u ozuqa moddalarini yaxshiroq singdiradi;

ildiz tizimi haroratning haddan tashqari ta'siriga chidamli bo'ladi;

tuproqning tuzilishi yaxshilanadi, konditsionerlikning ta'siri ta'minlanadi;

foydale moddalar tuproqda uzoqroq saqlanadi;

sug'orish paytida tuproqqa o'simliklar sepilishi kamayadi;

o'simliklarning ko'rinishi yaxshilanadi;

tuproqdagi foydale mikroorganizmlar soni ko'payadi;

zararkunandalardan himoya qilishni kuchaytirish;

sathdag'i begona o'tlar soni kamayadi.

G'o'za o'stirishda mulchalashdan foydalanish hosildorlikni oshiradi va kam harajat evaziga ko'proq daromad topishni kafolatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurayev, U. A., Atamurodov, B. N., & Najmiddinov, M. M. (2021). Scientific Benefits and Efficiency of Drip Irrigation. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(6), 62-64.

2. Jurayev, A. Q., Jurayev, U. A., Atamurodov, B. N., & Najmuddinov, M. M. (2021). Aphorisms of Farming in the Method of Kidropionics. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 1(6), 133-135.
3. Jo‘rayev, U. A., Jo‘rayev, A. Q., & Atamurodov, B. N. (2021). Application of Provided Irrigation Technologies in Irrigated Agriculture. International Journal of Development and Public Policy, 1(6), 164-166.
4. Atamurodov, B. N., Ibodov, I. N., Najmuddinov, M. M., & Najimov, D. Q. The Effectiveness of Farming in the Method of Hydroponics. International Journal of Human Computing Studies, 3(4), 33-36.
5. Jurayev, A. Q., Jurayev, U. A., Atamurodov, B. N., & Najmuddinov, M. M. (2021). The Main Purpose of Drip Irrigation in Irrigation Farming and Its M Propagation. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 10, 46-48.
6. Fazliev, J., Khaitova, I., Atamurodov, B., Rustamova, K., Ravshanov, U., & Sharipova, M. (2019). EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING. Интернаука, 21 (103 часть 3), 35.
7. Xamidova, S. M., Juraev, U. A., & Murodov, O. U. (2022). EFFECTS OF PHYTOMELIORANT PLANTS ON LAND RECLAMATION CONDITION AND SALT WASHING NORMS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 803-809.
8. Ulugbekovich, M. O., Komiljonovna, S. M., Sobirovich, K. B., & Murodovich, M.M. (2021, March). DETERMINATION OF EFFICIENCY OF GROUNDWATER USE IN IRRIGATION OF MILLET PLANTING. In Euro-Asia Conferences (Vol. 3, No. 1, pp. 131-134).
9. Murodov, O. U., Teshayev, U. O., Amrulloev, O. I., & Islomov, S. U. (2021). DETERMINING THE EFFICIENCY OF THE USE OF UNDERGROUND WATER IN IRRIGATION OF TARIK. Экономика и социум, (3-1), 187-191.

## THE IMPORTANCE OF CORPUS TO CONDUCT RESEARCHES IN VARIOUS FIELDS

**Vasliddinova Kamola Qodirjon qizi**

Phd student Uzbekistan State World Languages University

**Annotation:** This article provides detailed information about the importance of corpus in the various fields besides linguistics and show how the corpus helps to improve using of the corpus in the language learning process in education system and its fairy effectiveness aspects in other fields are highlighted.

**Keywords:** Corpus, computational linguistics, corpus theory, corpus and discourse, corpus-based methods, research, assessments.

We know that although corpus-based studies of language structure has a long term history and period to investigate and carry out researches, there has not had the general agreement in order to what exactly constitutes corpus linguistics.

The interest to a corpus in the field of linguistics has been growing rapidly over the ten year periods. Corpus in the simple term is defined as the compilation of texts that has been gathered for a specific reason [1.2].

The meaning of the term "corpus" varies slightly throughout academic areas. It usually refers to a grouping of texts; in literary studies; in theology, any collection of data (narrative texts or single sentences) elicited for linguistic research[2.769].

It is clearly that early corpus-based research was carried out in English and then became the main focus of research by linguists around the world. Although corpus-based methods emerged in the 1960s, they have emerged as a new field in linguistics since the 1980s, and corpora have developed new theories and directions in various linguistic fields.

The first researches carried out in the field of corpus were in the areas of educational processes, in the field of linguistics, cross-cultural studies and corpus & discourse. On learning processes Barker (2010), Bieber (2012), Boulton & Tyne (2015), Chen (2014), Conrad (2009), Fuster Márquez & Clavel, Arroitia (2010), K Hyland (2012), K Hyland & Wong (2013), Lee & Webster (2012), Ma (2012), Walsh (2010) carried out early basic scientific research. In the field of linguistics, the scientific works of Gries (2009), Kaszubski (2003), Moisl (2015), Cheng (2011), Lukin (2017) are highly recognized. Wiegand & Mahlberg (2019) investigated the importance of corpora in cross-cultural research. Baker (2006) and Partington & Marchi (2015) elaborated on the differences and similarities between corpus and discourse [3.176-181].

A number of advantages of using corpora in language teaching and learning have been identified by many corpus linguists and thereby its implementation into the language classroom has been highly recommended. The advocates of using corpora have argued that corpora can provide a powerful tool with which learners can explore and discover patterns of authentic language, providing such information as collocations, colligation, and semantic prosody that are hardly obtainable [4.159-178].

According to famous corpus researchers Aijmer, Kaltenbock, Mehlmauer-Larcher, it has been also contended that corpus-based language teaching has potentials to motivate learners and promote learner autonomy that are highly valued in pedagogy. I absolutely agree the mentioned ideas that at present we may take real life materials to enhance classroom environment with the help of corpus. In the following we may see some agreements by a few scolars who are doing on corpus.

Due to those potentials of corpora in language teaching and learning, a number of researchers (Aston, 1997; Braun, 2007; Conrad, 2004; Hunston, 2002; Tribble, 2001) offered them as an inventive teaching tool and a useful resource, and language specialists have begun to view their use as fairly trendy.

Many projects also review relevant factors related to the use of corpora in higher education. In a certain study titled “Corpus Linguistics and its Applications in Higher Education” by Fuster Márquez & Clavel Arroitia (2010), they are set out to depict implied essentials of corpus linguistics and its progress in relevance to theoretical linguistics and its implementations in modern teaching pursuits.

Although the first researches have been done in linguistics and methodology, later corpus has become one of the main objects to investigate in different fields such as politics, economics and especially medicine in recent years.

Firstly we should mention that the latest researches in medicine especially statistical ones are being done on corpus. For example, based on 214,340 written patient comments (14,403,694 words) about National Health Service (NHS) cancer care in England from 2015 to 2018, the analysis was conducted with the help of corpus. Patients are categorized based on the length of their therapy, and their qualitative assessments of their experiences are contrasted based on the keywords that best describe their language, the themes of their positive and negative comments, and the feedback ratings they provided[5.1].

Another copus-based quantitative analysis is related to expressions of epistemicity. That is to say, a category covering the expression of commitment to the information transmitted and comprising epistemic modality and evidentiality, in a corpus of 400 newspaper articles from The Guardian concerning the COVID-19 pandemic. 200 articles were written in April 2020; the other 200 were written between January and April 2022, after massive vaccination and an extraordinary increase in medical knowledge. The analysis distinguishes between a number of subtypes of

epistemic expressions and three kinds of authorial voice. The results show that the April 2020 articles contain more epistemic expressions, of both weak commitment ( might, perhaps, apparently ...) and strong commitment ( know, clearly, surely ...), which suggests a greater need to distinguish the known from the unknown in this period, due to the pervasive state of uncertainty. The analysis has social implications, since it gives readers an opportunity to appreciate the careful assessments of epistemicity found in the corpus and therefore to consider the convenience of obtaining information from quality media. These social implications, together with the methodology of the analysis, contribute to the potential of the paper for pedagogical applications.[ 6.1]

In conclusion we can see that corpus has been becoming a central object to conduct researches. Corpus focuses only real datas, for that reason it is so fairy tool or method to carry out or investigate.

### **References:**

1. Winnie Cheng 2011. Exploring corpus linguistics. London 2011.P2.
2. Sebba & Fligelstone conference, 1994. P.769
3. Ali Mohammed Saleh Al-Hamzi, Ayoub Gougui, Yuni Sari Amalia, Totok Suhardijanto. Parole: Journal of Linguistics and Education, 10 (2), 2020, | 176-181.
4. Lee, Shinwoong. Challenges of Using Corpora in Language Teaching and Learning. Linguistic Research. 2011. 28(1), P.159-178
5. G. Brookes and P. Baker. Applied Corpus Linguistics 1 (2021) 100010 Patient feedback and duration of treatment: A corpus-based analysis of written comments on cancer care in England.P.1
6. C. Jones, D. Oakey and K.L. O'Halloran. Applied Corpus Linguistics 3 (2023) "I will say the picture of the background is not related to the words": using corpus linguistics and focus groups to reveal how speakers of English as an additional language perceive the effectiveness of the phraseology and imagery in UK public health tweets during COVID-19. P.1

## O'QUV TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI

**Yulchiyev Sobirali**

Namangan viloyat PYAMO`MM Pedagogika, psixologiya va amaliy fanlar metodikasi kafedrasini o'qituvchisi

**Abstract:** This article sheds light on some aspects of the issue of the fact that the student's attitude to educational activity in the process of education is directly related to the skill of the pedagogue who meets high moral and ethical requirements and acquires the qualities of a pedagogue.

**Key words:** pedagogue, student, skill, education, professional quality, manners, educational activity.

Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga hizmat qilishiga bog'lik ekanini hamisha yodda tutishimiz va biz bolalarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy - ahloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur. Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida ta'lim-tarbiya yotadi.

O'qituvchilik kasbi - axloqiy xarakterga ega bo'lган insonparvar kasblardan biri bo'lib, o'quvchilarga insoniy munosabatda bo'lish o'qituvchi faoliyatining asosiy tamoyili hisoblanadi. Bu o'qituvchidan bolalarni sevish, ularni qadr-qimmatini hurmat qilish, sho'xliklariga bardoshli bo'lish, ularni jismoniy va axloqiy majruh etuvchi narsalarga murosasiz bo'lishni talab etadi. Pedagogning odob-axloqi, insonparvarligi – bolalarning kelajagi uchun g'amxo'rlik qilish, ularni hayotga ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlashga intilishida namoyon bo'ladi. Hushyorlik, pedagogik muomala, diqqat-e'tiborli bo'lish, bolalarni sevish, ularga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchini anglash, mas'uliyatli, talabchan vaadolatli bo'lish, bilimdonlik, halollik, rostgo'ylik kabilalar o'qituvchiga xos kasbiy axloqiy fazilatlardir. SHuning uchun ham o'qituvchilar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari oldida muhim vazifa - insonparvarlik tamoyilini ro'yobga chiqaruvchi, yuksak ma'naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi, pedagog odobi fazilatlarini egallab olgan bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyalash vazifasi turadi. O'qituvchilarning kasbiy-axloqiy sifatlari har tomonlama o'sishiga erishish uchun o'quvchilar shaxsini rivojlantirishning barcha jihatlari, sohalariga e'tibor qaratish zarur.

Axloqiy tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sohalari: Vatanga munosabat, tug'ilgan joyi, atrofdagi tabiatga, mehnatga, ishlab chiqarish va turmushda odamlarga; pedagogik

jarayon ishtirokchilari: o'quvchilar, ota-onalarga, kasbdoshlariga, o'z-o'ziga bo'lган munosabati sohalaridan tashkil topadi. Tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish, uni oldindan va u bilan bog'liq, ilmiy-tashkiliy, tadqiqot ma'lumotlari bilan ta'minlashni talab etadi. Tarbiya axloqiy-tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilganlik tavsifiga ega bo'ladi, o'quvchilar tarbiyasiga individual yondoshish mumkinligini o'zida mujassamlantiradi. SHu bilan birga pedagogik amaliyat oldidan ilmiy-tadqiqot o'tkazish tarbiyachi-pedagolgardan bunday ishni bajara olish malakasiga ega bo'lishni talab etadi, ularda bunday ko'nikma va malakalarni maxsus o'stirish va takomillashtirish maqsadga muvofiq.

O'qituvchilar o'quv faoliyati (amaliyat, o'quv jarayoni) davomida quyidagilarni amalga oshirmog'i maqsadga muvofikdir;

1) o'qituvchi insoniyatning bugungi avlodи uchinchi ming yillik xalqlarning mustaqillik, demokratiya, erkinlik, tinchlik, barqarorlik kabi umuminsoniy qadriyatlar ustivor bo'lган jamiyat qurish uchun jahon ahamiyatiga molik turmush tarzini yuzaga keltirish ehtiyoji kuchayishini o'z o'quvchilariga, tarbiyalanuvchilariga tushuntirishlari lozim;

2) hozirgi davrda kechayotgan jarayonlar kishilarning qadriyatlarga bo'lган munosabati, ishonchini o'zgartirmokda. Ular bilan bog'liq ehtiyojlar, talablar, qiziqishlarning ham o'zgarib borishiga sabab bo'lmokda. Bunday sharoitda fanlarni o'qitishda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishini amaliy jihatdan o'quvchilarga yetkazish asosiy vazifalardan biriga aylanishi zarur;

3) umuminsoniy qadriyatlarga oid mavzularni targ'ibot qilishda yurtimiz tsivilizatsiyasi taraqqiyoti va madaniyati rivojining asosiy davrlari hamda yutuqlariga, Al Xorazmiy, Al Farobi, Al Beruniy, Ibn Sino, Al Buxoriy, At Termizi, Yassaviy va Naqshbandiy, Jomiy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur va Mashrablarning buyuk meroslariga aoslanishi lozim;

Biror kasbning xaqiqiy ustasi bo'lish uchun tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy hislatlar jonli bo'lishi kerak. Pedagoglik faoliyatida yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va o'quvchilarning izzat - hurmatiga sazovar bo'lishi uchun kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Yuksak mahoratlari pedagog eng avvalo qobiliyatli, malakali va uddaburon bo'lishi kerak. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishida iste'dodning o'rni beqiyosdir. Ana shundagina qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyati taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun pedagogda

qobiliyatning qo'yidagi turlari mavjud bo'lishi lozim. Bilim qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati va h.k. Mahoratli pedagog o'quvchilar ruhiyatini, bilim va darajasini hisobga oladi. Ba'zi pedagoglarga o'quv materiali tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday pedagoglar o'quvchilarni emas, balki o'zlarini nazarda tutadilar. Qobiliyatli, tajribali pedagog o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi. U fanning ilmiy-nazariy asoslarini o'quvchilarga tushuntirish maqsadida ish tutadi. SHuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi. Mahoratli pedagog dars materialini bayon etish jarayonida o'quvchilarning qanday o'zlashtirayotganlarini o'quvchilarni kuzatish asosida payqab oladi va zarur hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi.

Pedagog faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakteriga ega. Pedagogik ijodkorlarning asosiy mohiyati faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog'lik. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jarayonidir. Pedagog faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa olishida ifodalanadi. Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba - muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz pedagogning o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz. Ijodiy ishlaydigan pedagog faqat o'quvchilarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiya berish, ilg'or ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqodchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lish zarur. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogning ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita bilish, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi.

O'quvchilar muallimning faxri, kelajagidir. SHu bois ular o'quvchilarini yangi O'zbekistonning bunyodkorlari, rivojlangan mamlakatlar kadrlari bilan bahslasha oladigan raqobatbardosh yetuk mutaxassislar bo'lishlari uchun tinmay izlanib faoliyat olib borishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.A.Sog'inov «Ta'lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostik vositalardan foydalanish», Toshkent, 2011.y.
2. SH.R.Baratov «Ta'limda psixologik xizmat asoslari», Toshkent, 1999.y

**BALIQLARNING ASOSIY EKOLOGIK GURUHLARI. SUVDAGI TUZ  
MIQDORINING BALIQLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI**  
**THE MAIN ECOLOGICAL GROUPS OF FISH. THE IMPORTANCE OF  
THE AMOUNT OF SALT IN THE WATER IN THE LIFE OF FISH**

**Vaxobova Dilafro'zoy Avazbek qizi**

[vaxobovadilafroz@gmail.com](mailto:vaxobovadilafroz@gmail.com)

**Qo'chqorboyeva Xushnozabonu Ro'zali qizi**

[qochqorboyevaxushnozabonu@gmail.com](mailto:qochqorboyevaxushnozabonu@gmail.com)

Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada *Pisces* katta sinfi va sistematik o'rni, baliqlar ekologiyasi, baliqlarning asosiy ekologik guruhlari, suvdagi tuz miqdorining baliqlar hayotidagi ahamiyati haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

**Abstract:** This article provides general information about the large class of *Pisces* and its systematic place, ecology of fish, the main ecological groups of fish, the importance of the amount of salt in water in the life of fish.

**Kalit so'zlar:** baliqlar, fauna, ekologik guruhlar, pelagik, litoral, abissal, ta'sir, o'tkinchi baliqlar, biotsenozi, tuzilishi, hayot kechirishi, xususiyatlari.

**Key words:** fish, fauna, ecological groups, pelagic, littoral, abyssal, impact, transient fish, biocenosis, structure, lifestyle, characteristics.

Tip: Xordalilar (*Chordata*)

Kena tip: Umurtqalilar (*Vertebrata*)

Bo'lim: Jag'og'izlilar (*Gnathostomata*)

Katta sinf: Baliqlar (*Pisces*)

Sinf: 1-Tog'ayli baliqlar (*Chondrichthyes*); 2-Suyakli baliqlar (*Osteichthyes*).

Baliqlar – eng qadimgi birlamchi suvda yashovchi jag'og'izli umurtqali hayvonlar hisoblanib, juda keng tarqalgan. Baliqlar katta sinfi 20000 dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Baliqlar suv biotsenoziда yashovchi hayvonlarning yetakchi guruhidir. Ular asosan qimmatbaho go'sht va yog' mahsulotlarini beruvchi oziq-ovqat obyekti sifatida katta ahamyatga ega. Hozirgi zamon faunasida 20 mingdan ortiq baliq turlari mavjud bo'lib, yer sharining barcha suv havzalarida tarqalgan. Tuzilishi, hayot kechirishi va ekologik xususiyati suv muhitiga juda yaxshi moslashgan bo'ladi. Tanasi ikki yonidan siqilgan, cho'ziq, suyri shaklda tangachalar bilan qoplangan, uchta toq, ikkita juft suzgichlari bor. Nafas olishi jabralar orqali amalga oshadi. Yuragi ikki kamerali qon aylanish sistemasi bitta doiradan iborat. Nerv sistemasi bosh va orqa miyyadan tashkil topgan. Baliqning sezgi organlari ko'z, qulqoq, burun, mo'ylov va yon chiziqlari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida yer sharining kattaligi 510 million kvadrat kilometr bo'lib, shundan 361 kvadrat kilometri ya'ni 71%i okean va dengiz suvlari bilan qoplangan. Shularning 51%ida baliqlar hayot kechiradi. Suv atmosfera havosini erita oladi va baliqlar suvda erigan kislorod bilan nafas oladi. Baliqlarning hayotida suvning oqimi, harorati, suvdagi kislorod va tuzlar miqdori katta ahamiyatga ega. Suv muhitining harakati daryo, dengiz va yopiq suv havzalarida doim bo'lib turadigan oqimlarga bog'liq bo'ladi. Suvning isishi suv qatlamlarini vertical yo'nalishda harakatlanishiga olib keladi. Baliqlar sovuqqonli hayvonlar hisoblanib, ya'ni ularning tana harorati doimiy emas, balki to'g'ridan-to'g'ri atrof-muhit haroratiga qarab o'zgarib turadi. Dengiz suvlari kislorodga to'yingan bo'ladi. Baliqlar kislorodga bo'lgan talabini hisobga olgan holda 4 ta asosiy guruhlarga bo'linadi:

➤ Kislородни juda ko'p talab qiluvchi baliqlar, ya'ni 1 litr suvda  $7-11 \text{ sm}^3$  kislород bo'lgan suvlarda yashaydigan baliqlar guruhi. Bularga gulmoy, qumja, peskar, nalm va golyan kabilarni misol qilishimiz mumkin. Bu guruh baliqlar suvi sovuq va tez oqar daryolarda yashaydi.

➤ Ko'p kislород talab qiluvchi baliqlar, ya'ni 1 litr suvda  $5-7 \text{ sm}^3$  kislород bo'lgan suvlarda hayot kechiruvchi baliqlar guruhi. Bu guruhga xarius, golavl va toshbaliq kabilalar misol bo'ladi.

➤ Nisbatan kam kislород talab qiluvchi baliqlar, ya'ni 1 litr suvda  $4 \text{ sm}^3$  kislород bo'lgan suvlarda yashaydigan baliqlar guruhi. Bu guruhga chavoq baliq, plotva va olabug'a kabilalar kiradi.

➤ O'ta kam kislород talab qiluvchi baliqlar. Ular kislороди juda kam bo'lgan oqmas suvlarda yashaydi, ya'ni bunday suvlarning 1 litrida  $0.5 \text{ sm}^3$  kislород bo'ladi. Bu guruh baliqlariga zog'ora baliq, lin va tobon baliqlar kiradi.

**Baliqlarning asosiy ekologik guruhlari.** Baliqlarning ekologik guruhlarini aniqlash uchun birinchi navbatda baliqlarning suvdagi tuz miqdoriga bo'lgan munosabatini va suv havzalaridagi yashash joylarini bilishimiz lozim. Suv muhitida yashash sharoitlarining turli xil bo'lishiga qaramasdan, baliqlarning uchta asosiy ekologik guruhlari mavjud: pelagik, abissal va litoral.

Pelagik – ochiq suv muhitida yashovchi baliqlar, suvning yuzasidan boshlab 150-200 metr chuqurlikkacha boradigan suv bag'rida yashaydi. Gavdasi uzun duksimon bo'lib, suvda suzib yuruvchi organizmlarni qidirib oziqlanadi va suv bag'riga yoki suv qirg'oqlariga yaqin joylarda ko'payadi. Pelagik baliqlar ochiq suv muhitida yashaganliklari sababli juda tez va faol harakatlanadi.

Litoral – ushbu guruhga mansub baliqlar suv havzalarining qirg'oqlariga yaqin joylarda va suv tubi bilan ma'lum darajada bog'langan holda hayot kechiradi. Suv tubidagi har xil toshlar, marjon orollaridagi yoriq kovaklari, suv o'tlari, qum va balchiqlar litoral baliqlar uchun boshpana hisoblanadi. Bu yerda ular oziq topadi, ko'payadi va hayot kechiradi. Litoral baliqlar ham harakatchan bo'lib, tuzilishi va

ko'inishi har xil bo'ladi. Ayrimlarining gavdasi yapaloq ko'inishda bo'lib, suvning tubida yashaydi.

Abissal – bu guruhgaga kiruvchi baliq turlari ko'p emas. Ular asosan dengiz va okeanlarning tubida katta chuqurliklarida hayot kechiradi. Katta chuqurliklarning asosiy xossalari – bosimning haddan tashqari yuqori bo'lishi, yorug'likning mutlaqo bo'lmasligi, suvning oqmasligi, haroratning bir xil va past bo'lishi, suvning sho'rлиgi va tirik organizmlarining bo'lmaslidir. Aynan shu tirik organizmlar ya'ni suvo'tlar bo'lmasligi tufayli bu guruh baliqlari go'shtxo'r bo'ladi. Bu guruhgaga kiruvchi baliqlar suv betiga olib chiqilganda, ularning gavdasi shishib ichaklari og'zidan tashqariga chiqib ketadi, ko'zlari esa ko'z kosasidan turtilib chiqadi. Abissal baliqlarning muskul va skeleti yaxshi taraqqiy etmagan bo'lib, og'zi katta bo'ladi.

Nº	Pelagik	Litoral	Abissal
1	Akula	Skatlar	Ajdaho baliqlari
2	Lososlar	Kambalalar	Elektr skatlar
3	Sardinalar	Dengiz shayton balig'i	Dengiz mushugi
4	Seldlar	Uch tikanli baliq	Tikandumlilar
5	Yelkan baliqlar	Sakrovchi loyqa baliq	Pelikan baliqlari

**Suvdagagi tuz miqdorining baliqlar hayotidagi ahamiyati.** Dengiz suvlari tarkibida asosan xlorid tuzlari, ya'ni osh tuzi va magniy xlorid hamda anchagina magniy sulfat bo'lishi bilan xarakterlidir. Dengizdagi tuzlarning 90%ini xlorli tuzlar egallaydi. Chuchuk suvlarda xloridli tuzlar miqdori ko'p bo'lmaydi. Baliqlarning har xil turlari turlicha tuzli suvlarda yashashga moslashgan bo'ladi. Ayrim tur baliqlar suvdagi tuz miqdorining yuqori bo'lishiga chidasa, boshqa tur baliqlar esa suvdagi tuz miqdori sal yuqori bo'lsa ham nobud bo'lishi mumkin. Misol uchun: kaspiy nina balig'i 100% suvning 60 % tuzdan iborat bo'lgan sharoitda ham yashay oladi, qilquyruqlar esa 0.2-0.3 % tuzli suvda ham nobud bo'ladi. Ko'pincha o'tkinchi baliqlar suvning har xil darajadagi sho'rлиgiga moslashgan bo'ladi. Baliqlar suvdagi tuz miqdoriga bo'lgan munosabatiga qarab ham 4 ta guruhgaga bo'linadi:

➤ Butun umrini sho'r suvlarda o'tkazuvchi dengiz baliqlari. Bu guruhgaga kiruvchi baliqlar ko'pchilikni tashkil qiladi va ular butun umrini sho'r suvlarda o'tkazadi. Bunday baliqlarni chuchuk suvgaga qo'yilganda ular qisqa vaqt mobaynida nobud bo'ladi.

➤ Butun umrini daryo, ko'l va xovuzlarda o'tkazuvchi chuchuk suv baliqlari. Bunday baliqlar ozgina sho'rangan dengiz suvlarida ham uchramaydi ular faqatgina chuchuk suvlarda hayot kechiradi.

➤ O'tkinchi baliqlar, ya'ni bu tur baliqlar dengizda yashasa, ko'payish uchun daryolarga o'tadi. Bu guruhgaga mansub baliqlar rivojlanish jarayoniga qarab ham dengizda va ham daryoda yashaydilar. Bu tur baliqlarning o'sishi va jinsiy voyaga yetishi dengizlarda kechsa, urchishi va ikra tashlashidaryolarda kichadi.

➤ Chala o’tkinchi baliqlar. Bu guruhga kiruvchi baliqlar dengizlarning daryolarga tutash bo’lgan va suvi ancha chuchuklashgan qismlarida hayot kechiradi.

Nº	Dengiz baliqlari	Chuchuk suv baliqlari	O’tkinchi baliqlar	Chala o’tkinchi baliqlar
1	Qambala	Gulmoy	Lososlar	Zog’ora baliq
2	Seldlar	Cho’rtan	Garbusha	Laqqa baliq
3	Treskalar	Ola bug’a	Ostyotr	Vobla
4	Akulalar	Tobon baliq	Beluga	Oqcha baliq

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.Dadayev, Q.Saparov “Zoologiya” (xordalilar) Toshkent-2009.
2. J.L.Laxanov “Umurtqalilar zoologiyasi” Toshkent-2005.
3. S.Dadayev, O.Mavlonov “Zoologiya” Toshkent-2008.
4. M.M.Abdulxayeva “Biologiya” Toshkent 2012.
5. portoleco.ru
6. depeces.com

## АКТУАЛЬНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ В ОРТОДОНТИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКЕ МЕТОДА ПОНА

**Машарипова С.К.**

магистр II го курса кафедры Хирургической стоматологии и  
дентальной имплантологии

Ташкентского государственного стоматологического института  
Научный руководитель- к.м.н., доцент **Насимов Э.Э.**

**Аннотация:** В ортодонтии диагностика основывается на точных цифрах и данных, что требует от врачей данного профиля хороших навыков и знаний. Кроме того, так как дальнейший план лечения будет зависеть от корректного диагноза, что в свою очередь нельзя получить без диагностики. В современной стоматологии существует множество методов диагностики: антропометрический, биометрический, цефалометрический и другие виды рентгенологического метода, которые постоянно развиваются и совершенствуются. В частности, в диагностике аномалий зубов и зубных рядов широко используется антропометрическое исследование гипсовых моделей челюстей. На моделях измеряют отдельные зубы, длину и ширину зубных рядов в целом и их отдельных сегментов. Недостатком этих исследований является то, что они занимают много времени врача, также высока вероятность возникновения ошибок из-за неточности измерений.[1] В данной статье рассматривается метод Пона, как один из биометрических методов диагностики. На протяжении многих лет индекс Пона широко применяется и, в некоторых случаях, согласно расовым признакам модифицируется. Поэтому целью данной работы явилась исследование актуальности и корректности метода Пона, применяемость данного метода в современной стоматологии в условиях технического развития.

**Ключевые слова:** индекс Пона, биометрический метод, соотношение зубов.

## THE RELEVANCE OF THE USE OF THE PONT METHOD IN ORTHODONTIC DIAGNOSTICS

**Masharipova S.K.**

Master of the second degree of the Department of Surgical Dentistry and Dental  
Implantology Tashkent State Dental Institute  
The scientific advisor is PhD, E.E. Nasimov.

[lebonheur78@mail.ru](mailto:lebonheur78@mail.ru)


**Abstract:** In orthodontics, diagnosis is based on accurate figures and data, which requires good skills and knowledge from doctors. In addition, since the further treatment plan will depend on a correct diagnosis, which in turn cannot be obtained without diagnosis. In modern dentistry, there are many diagnostic methods: anthropometric, biometric, cephalometric and other types of radiological methods that are constantly developing and improving. In particular, the anthropometric study of plaster jaw models is widely used in the diagnosis of anomalies of teeth and dentition. On the casts individuals measurements of teeth, the length and width of the dentition as a whole and their individual segments are performed by doctors. The disadvantage of these studies is that they take up a lot of the doctor's time, and there is also a high probability of errors due to inaccurate measurements.[1] This article discusses the method of Pont as one of the biometric diagnostic methods. Over the years, the Pont index has been widely used and, in some cases, modified according to racial characteristics. Therefore, the purpose of this work was to study the relevance and correctness of the Pont method, the applicability of this method in modern dentistry in terms of technical development.

**Keywords:** Cast models; Biometric method; Transverse discrepancy; Pont index; Tooth ratio.

## Введение

Сужение челюсти и ее недоразвитие является одним из самых распространенных нарушений в ортодонтической практике. Еще с самого начала истории ортодонтии стоматологи понимали важность диагностики проблем и поэтому каждый автор предлагал свой метод диагностики в целях повысить достоверность и точность диагностических мероприятий. Пон изучив взаимоотношение мезиодистальных размеров верхних резцов с шириной дуги у Южных французов, в 1909 предложил индекс для определения следуемой ширины зубной дуги. Индекс Пона позволяет определить и сравнить ширину зубной дуги для выявления наличия или отсутствия сужения челюсти, тем самым определять количество необходимого латерального расширения, которое требуется для достижения удовлетворительного размера при выравнивание зубов[2]. Полученные с помощью этого метода результаты позволяют выявить несоответствие между шириной верхней зубной дуги обследуемого и индивидуальной для него нормой[3].

Рисунок 1



## Описание метода Пона

Пон предложил метод определения идеальной ширины зубной дуги в области премоляров и первых моляров в зависимости от суммы

мезиодистальных размеров верхних резцов в постоянном прикусе.

Пон предложил:

1. Взаимотношение между суммой мезиодистальных размеров верхних резцов и трансверзальной шириной зубной дуги в идеале составляет в области премоляров 0,80, в области первых моляров 0,64;

2. Желательно во время лечения верхнечелюстная зубная дуга должна быть расширена на 1-2 миллиметра больше, чем при нормальной окклюзии, чтобы избежать рецидива[5].

3. Ширина между зубами (премолярами и вторыми молярами) верхней челюсти совпадает с шириной между зубами нижней челюсти. Это связано с тем, что при ортогнатическом прикусе измерительные точки на верхних зубах при центральной окклюзии совпадают с измерительными точками на нижних зубах.[4]

Рисунок 2

Корреляция между суммой коронок верхних резцов и шириной зубной дуги позволяет определить:

1. Является ли зубная дуга узкой или нормальной в премолярной и молярной областях для заданной суммы ширин резцов.

2. Необходимость расширения в боковых отделах зубной дуги.

3. Насколько возможно расширение в премолярной и молярной областях.

Правила и этапы проведения диагностики по методу Пона:

1. Снять слепки зубной дуги

2. Отлить модели

3. Измерить мезиодистальную ширину верхних постоянных резцов (ширина латеральных резцов вариабельна, поэтому следует учитывать планируемую ширину после будущей реставрации.)

4. При случаях отсутствия постоянных верхних резцов, следует взять ширину нижних резцов и умножить эту сумму на 1,36 для определения числа Пона.


5. Отметить измерительные точки на моделях(рис 1).

6. Измерить с помощью штангенциркуля межпремолярное и межмолярное расстояния

7. Подставить данные в формулу для расчета (формула 1,2).

8. Сравнить с таблицей Пона (табл 1).

9. Сделать выводы: если значения измеренные с помощью



штангенциркуля меньше, чем подсчитанное с помощью формулы, значит челюсть у пациента сужена и требуется её расширение. Если же измеренные межпремолярное и межмолярное расстояние больше, чем вычисленные по формуле, то челюсть имеет необходимую ширину и не требует расширения. [4].

Для практических целей Пон составил таблицу расстояний между премолярами и молярами при различной ширине четырех верхних резцов. Для нижней челюсти сумму поперечных размеров четырех резцов и соответствующие расстояния между премолярами и молярами берут из таблицы верхней челюсти (табл. 1).

$$\frac{\text{Ширина зубной дуги в области премоляров верхней челюсти.}}{\text{Сумма мезиодистальных размеров четырех резцов верхней челюсти}} \times 100 = 80$$

$$\frac{\text{Ширина зубной дуги в области первых моляров верхней челюсти.}}{\text{Сумма мезиодистальных размеров четырех резцов верхней челюсти}} \times 100 = 64$$

**Таблица № 1**  
Зависимость ширины зубных рядов от суммы резцов.

Сумма ширины четырех резцов,мм	27,0	27,5	28,0	28,5	29,0	29,5	30,0	30,5	31,0	31,5	32,0	32,5	33,0	33,5	34,0
Ширина в области первых премоляров, мм	32,0	32,5	33,0	33,5	34,0	34,7	35,5	36,0	36,5	37,0	37,5	38,2	39,0	39,5	40,0
Ширина в области Первых моляров,мм	41,5	42,3	43,0	43,8	44,5	45,3	46,0	46,8	47,5	48,5	49,0	50,0	51,0	51,5	52,5

### **Актуальность биометрического метода измерения ширины челюстей по Пону.**

По данным исследований частота сужения верхней челюсти среди детей составляет от 55 % до 63,2% от общего числа зубочелюстных аномалий [15,16,17,18], что требует своевременной и достоверной диагностики. Метод определения ширины дуги в области между шестыми и четвертыми зубами, предложенный Поном служит для диагностики сужения челюстей и является достаточно простым и удобным в выполнении. Также одной из главных причин широкого применения данного метода является его доступность и дешевизна, что не способствует повышению ортодонтического этапа диагностики. Однако индекс Пона имеет некоторые ограничения связанные с аномалией формы и ширины резцов, мезиодистальным положением зубов, щечно-язычным наклоном премоляров и моляров. наряду с этим нельзя не отметить объемность работы, требующий у врача много времени и труда.

На сегодняшний день многими исследователями[6,7,19,20] было обнаружено, что применение индекса Пона независимо от расовой принадлежности является некорректным и приводит к ложным результатам диагностики, так как не учитывается расовый диморфизм и этнические особенности. Согласно данным [8,9,10] других исследователей, нет строгой корреляции между мезиодистальной шириной коронок резцов и шириной дуги в области шестых и четвертых зубов. Однако, есть исследователи, выявившие высокую корреляцию между суммой ширин резцов и шириной дуг в области четвертых и шестых зубов [12, 13, 14]. Feştilă, D [11] в своей работе со своими соавторами пришел к выводу, что учитывая доступность и простоту применения метода Пона, последний является достоверным методом диагностики сужения челюстей.

## **Вывод**

В заключении мы можем сказать, что метод диагностики сужения челюстей по Пону является простым и доступным в применении, а также требует от врача и пациента минимальных затрат. Метод Пона прост для понимания и введения расчета для диагностики. Но следует отметить, что Индекс Пона должен корректироваться согласно расовой принадлежности и этническому происхождению. Также объемность вычислительных этапов и измерений делает данный метод диагностики менее удобным и применимым, что желает упрощения этапов вычисления. Данную проблему мы видим разрешаемой, созданием компьютерно-вычислительной программы, которая облегчит работу ортодонта и способствует упрощению метода в целом.

Изучив литературу, нами было выявлено, что метод диагностики Пона является посей день актуальным и достоверным в применении в связи с:

- относительной доступностью
- простотой в понимании и применении

- распространностью среди ортодонтов на мировом уровне
- не требует дополнительных затрат и оборудования
- при корректировке индекса Пона даёт достоверные результаты.

### Литература:

1. Нигматов, Р., Арипова, Г., Муртазаев, С., Насимов, Э., & Рузметова, И. (2014). Определение цефалометрических норм узбекской популяции (населения Узбекистана). Stomatologiya, 1(3-4)(57-58), 73–78. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/stomatologiya/article/view/3251>
2. Tweed CH. Ortodontia Clinica. Padova: Piccin Publisher, 1966.
3. Ортодонтия. Учебное пособие под редакцией профессора М.П. Водолацкого, 2005.
4. Руководство по ортодонтии под редакцией профессора Ф.Я.Хорошилкиной, издание второе Москва "Медицина" 1999 стр 108.
5. Model analysis in orthodontic, Dr Mohammed Maliha, <https://www.slideshare.net/DrMohammedMaliha/model-analysis-in-orthodontic>
6. Alam, M. K., Shahid, F., Purmal, K., & Khamis, M. F. (2015). Cone-beam computed tomography evaluation of Pont's index predictability for Malay population in orthodontics. Journal of natural science, biology, and medicine, 6(Suppl 1), S113–S117. <https://doi.org/10.4103/0976-9668.166106>
7. Celebi, A. A., Tan, E., & Gelgor, I. E. (2012). Determination and application of Pont's Index in Turkish population. TheScientificWorldJournal, 2012, 494623. <https://doi.org/10.1100/2012/494623>
8. Al-Omari, I. K., Duaibis, R. B., & Al-Bitar, Z. B. (2007). Application of Pont's Index to a Jordanian population. European journal of orthodontics, 29(6), 627–631. <https://doi.org/10.1093/ejo/cjm067>
9. Purmal, K., Alam, M. K., Moganadass, D. D., Zakariat, N. N., & Cheong, N. W. (2013). The application and correlation of Pont's Index to the facial framework of three main ethnic groups in Malaysia. Australian orthodontic journal, 29(1), 34–42.
10. Gupta, D. S., Sharma, V. P., & Aggarwal, S. P. (1979). Pont's Index as applied on Indians. The Angle orthodontist, 49(4), 269–271. [https://doi.org/10.1043/0003-3219\(1979\)049<0269:PIAAOI>2.0.CO;2](https://doi.org/10.1043/0003-3219(1979)049<0269:PIAAOI>2.0.CO;2)
11. Feștilă, D., Enache, A. M., Nagy, E. B., Hedeșiu, M., & Ghergie, M. (2022). Testing the Accuracy of Pont's Index in Diagnosing Maxillary Transverse Discrepancy as Compared to the University of Pennsylvania CBCT Analysis. Dentistry journal, 10(2), 23. <https://doi.org/10.3390/dj10020023>
12. A Study Of Pont's, Howes', Rees', Neff's And Bolton's Analyses On Class I Adult Dentitions John Stifter, B.S., D.D.S. Angle Orthod (1958) 28 (4): 215–225. [https://doi.org/10.1043/0003-3219\(1958\)028<0215:ASOPHR>2.0.CO;2](https://doi.org/10.1043/0003-3219(1958)028<0215:ASOPHR>2.0.CO;2)

13. .Gupta DS, Sharma VP, Aggarwal SP. Pont's Index as applied on Indians. The Angle Orthodontist. 1979 Oct; 49(4):269-271 PMID:292350. [https://doi.org/10.1043/00033219\(1979\)049<0269:piaaoi>2.0.CO;2](https://doi.org/10.1043/00033219(1979)049<0269:piaaoi>2.0.CO;2)
14. .Agnihotri, G., & Gulati, M. (2008). Maxillary molar and premolar indices in North Indians: A dimorphic study. Internet J Biol Anthropol, 2(1).
15. .Снагина Н.Г. Определение степени тесного положения зубов в раннем периоде сменного прикуса с использованием биометрического метода исследования / Н.Г. Снагина //Стоматология. -1983. -№ 5. -С. 41-43
16. Снагина Н.Г. Профилактика аномалий прикуса у детей: лекция Н.Г.Снагина. - М: ЦОЛИУВ, 1982. -19с.
17. .Снагина Н.Г. Ранняя диагностика зубочелюстных аномалий у детей: Лекция /Н.Г. Снагина -М.: ЦОЛИУВ, 1986. -42с
18. Снагина Н.Г. Сужение зубных рядов при нейтральном прикусе и методы лечения: диссертация на соискание ученой степени кандидата медицинских наук. -М., 1966. -175 с.
19. .Dungarwal, Nitin & Rahalkar, Jayesh & Deshmukh, Sonali & Prakash, Amit & Dhoka, Niketan & Shyagali, Tarulatha. (2013). Evaluation of Maxillary Interpremolar, Molar Width by DRNA Indices and Arch Dimension, Arch Form in Maratha Population 1. Journal of Indian Orthodontic Society. 47. 461-467. DOI:[10.5005/jp-journals-10021-1205](https://doi.org/10.5005/jp-journals-10021-1205)
20. .Pyakurel, Ujjwal. (2014). Assessment of Validity of Pont's Index and Establishment of Regression Equation to Predict Arch Width in Nepalese Sample. <http://www.nepjol.info/index.php/OJN/article/view/11305/9168>. Volume 4. 12-16. [10.3126/ojn.v4i1.11305](https://doi.org/10.3126/ojn.v4i1.11305).

**ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ВА БОШҚАРУВИ ОРГАНЛАРИ  
ФАОЛИЯТИНИНГ ОЧИҚЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ФУҚАРОЛИК  
ЖАМИЯТИ ИНСТИТУЛари БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ НАЗАРИЙ-  
ХУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ**

**Жўрабек Атананазарович Рахманов**

Тошкент давлат юридик университети мустақил изланувчиси, Урганч давлат  
университети “Хуқук” кафедраси ўқитувчиси

[jura198309@mail.ru](mailto:jura198309@mail.ru)

**Аннотация:** This article analyzes the theoretical and legal issues of cooperation with civil society institutions in ensuring the openness of the activities of state authorities and management bodies.

**Калит сўзлар:** давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, очиқлик, фуқаролик жамияти институтлари, ижтимоий шериклик.

Айтиш лозимки, бугунги кунда мамлакатимизда ҳукукни муҳофаза қилиш фаолиятида очиқлик ва ошкораликни таъминлаш учун фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ва аҳоли билан самарали ҳамкорликни кенг йўлга қўйиш давлат бошқарувидаги устувор вазифалардан бири бўлиб ҳисобланади<sup>107</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 146-моддасига мувофиқ, қонунийлик ва ҳукуқ-тартиботни, фуқароларнинг ҳукуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш мақсадида фуқаролар ва жамоат бирлашмалари ҳукукни муҳофаза қилувчи органларга ёрдам кўрсатишлари мумкин.

Мазкур конституциявий норма бугунги кунда фуқароларнинг ҳукуқий онг ва маданиятини юксалтириш, ҳукуқий билимлар тарғиботини ташкил этишда давлат органларининг жамоатчилик билан ҳамкорлигини таъминлашда муҳим ўрин тутиб келмоқда

Зоро, бундайин ҳамкорлик фуқароларнинг ўз ҳукуқларини, қонунларни яхши билишларига эришиш, ҳукуқбузарликнинг олдини олиш бўйича самарали иш олиб бориш ва қонунга итоаткор шахсни тарбиялаш учун муҳим аҳамият касб этади. Аслида, ижтимоий-ҳукуқий маконда шаклланадиган ҳукуқий хулқ-атвор, назарий қараплар, фикр-мулоҳазалар, тасаввурлар пировард натижада қонунга итоаткор фуқарони тарбиялаб, вояга етказиш масаласига бориб тақалади<sup>108</sup>.

<sup>107</sup>Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.-Т: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.Б.110

<sup>108</sup>Сабуров Н. Фуқароларнинг ҳукуқий хулқ-атворини шакллантириш муаммолари (назария ва амалиёт).ю.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати.Т.2001. Б. 13

Қонунга итоаткорлик кишининг ҳуқуқий хулқ-авторини ифода этадиган хислатлар сирасига киради. Қонунга итоаткорлик шахснинг ижтимоий позицияси ва фаоллигига боғлиқ бўлиб, муайян ижтимоий мухитда қонунларга қатъий риоя қилиш зарурлигини таъминлашга йўналтирилади.

Қонунга итоаткорлик азал-азалдан юртимизда юқори баҳоланган. Соҳибқирон бобомиз Амир Темур ҳам ўз “Тузуклар”ида бу ҳақда ибратли сўзларни битиб қолдирган: “Давлат агар дину-тартиб-қоида асосида қурилмас экан, тўра-тузукка боғланмас экан, ундай салтанатнинг шукухи, қудрати ва тартиби йўқолади. Бундан салатанат яланғоч одамга ўхшарким, уни кўрган ҳар кимса назарини олиб қочади”<sup>109</sup>.

Мамлакатимизда юксак ҳуқуқий маданиятнинг шаклланиши аҳоли ва давлат аппарати ходимларининг, шунингдек, фуқаролик жамияти институтларининг ижтимоий шериклик фаолияти самарадорлигини оширишни талаб қиласди.

2014 йилда мамлакатимизда қабул қилинган “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонун бу борада фуқаролик жамияти институтларининг мазкур йўналишдаги фаолияти учун кенг имкониятлар яратиб берди.

Мазкур фаолиятнинг ўзига хос хусусиятларини таҳлил қиласак, рус ҳуқуқшунос олими С.А.Васильев ҳақли равишда таъкидлаганидек, “жамоат бирлашмаларининг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан ҳамкорлиги ихтиёрий асосда амалга оширилувчи оммавий характердаги teng ҳуқуқли, ошкора, умумий фаолиятдаги қоидаларга асосланган ҳолда, инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя ва муҳофаза қилишга йўналтирилади”<sup>110</sup>.

Бу борада қозоғистонлик олим А.Канатовнинг фикрича, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлиги самараглигини оширишда аҳолининг юксак ҳуқуқий онги муҳим ўрин тутади. Мазкур йўналишда давлат ҳокимияти органлари фуқароларнинг ижтимоий-ҳуқуқий фаоллигини рағбатлантиришлари ва хавфсиз шароитлар яратишга қўмаклашишлари лозим бўлади<sup>111</sup>.

Бу борада давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларида жамоатчилик билан алоқаларни амалга оширишда доимий равишда ахборот алмашинуви зарур бўлади.

<sup>109</sup>Темур тузуклари.-Т.: F. Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.-Б. 57

<sup>110</sup>Васильев С.А.Конституционно-правовые основы взаимодействия общественных объединени с правоохранительными органами России в сфере защиты прав и свобод человека и гражданина:автореф.дис..канд.юрид.наук. М.2013.С 7

<sup>111</sup>Канатов А.К Взаимодействие правоохранительных органов с населением как фактор обеспечения национальной безопасности// Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения №1.2016. С.44

Жамоатчилик билан алоқалар тизимида ахборот алмашинуви давлат бошқаруви органларига яқин, ўрта ва узок муддатга мўлжалланган стратегик дастурларни ишлаб чиқишида оптимал вариантлардан фойдаланишга имкон беради.

Бундан ташқари, жамоатчилик билан алоқалар тизими орқали олинган ахборотлар давлат органларида бошқарувни ташкил қилишда самарали қарорлар қабул қилинишининг муҳим омили бўлиб хизмат қилади.

Бу борада рус олими В.Г.Афанасьевнинг фикрича, “Бошқарув субъекти бошқарув функцияларини амалга ошириш жараёнида бошқарувнинг ички ҳолати ва ташки мухит тўғрисида доимий равишда ахборотларни қабул қилиб олади, қайта ишлайди ва улардан фойдаланади. Мазкур жараёндаги ахборотлар тегишли қарорлар қабул қилинишига олиб келган ҳолда, бошқарув фаолиятини йўналтириб туради”<sup>112</sup>.

Бизнинг фикримизча, давлат бошқаруви органлари фаолиятида жамоатчилик билан алоқаларни амалга ошириш жараёнида ахборот алмашинуви давлат органлари тизимида янги билимлар, тажриба ва ишни ташкил қилишнинг самарали шакл ва услубларини тадбиқ қилиш имконии беради.

Бу борада давлат органларининг фаолият йўналишларидан келиб чиқкан ҳолда тақдим қилинадиган ахборотлар турли мазмунда бўлиши мумкин.

Хусусан, бу борада рус олими В.Стрельниковнинг фикрича, давлат органларига ахборотлар қўйидаги турларда тақдим қилиниши мумкин:

1. Сиёсий ахборотлар – сиёсий соҳада содир бўлаётган ўзгаришларни акс эттирган ҳолда, давлат органлари фаолиятининг асосий фаолият йўналишларини амалга оширишга тааллуқли бўлади.

2. Иқтисодий ахборотлар иқтисодиёт соҳаларидағи асосий миқдор ва сифат кўрсаткичларини ифодалаган ҳолда, хўжалик юритувчи субъектларнинг фаолияти билан боғлиқ бўлади. Мазкур ахборотлар шунингдек, ахолининг иқтисодий фаровонлигини таъминлаш билан боғлиқ омиллар ва факторларни таҳлил қилиш имконини беради.

3. Илмий-техник ахборотлар техник инновациялар, автоматлаштирилган тизимлар орқали замонавий технологиялардан фойдаланган фаолиятни ташкил қилиш имконини беради.

4. Илмий-услубий ахборотлар илмий-тадқиқот ва ўқув-услубий ишларнинг натижасини ўзида акс эттирган ҳолда давлат органлари олдига қўйилган вазифаларни замонавий услублар асосида ҳал қилиш имконини беради.

5. Статистик ва ҳисобот туридаги ахборотлар давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятига тааллуқли миқдор ва сифат кўрсаткичларини акс эттиради. Мазкур ахборотларнинг ўз вақтида таҳлил қилиниши ижтимоий-

<sup>112</sup> Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание и управление. М., 1981. С.17

иқтисодий соҳаларда қонун бузилиши ҳолатларини келтириб чиқарувчи омилларни тезкор аниқлаш имконини беради<sup>113</sup>.

Бу борада қозоғистонлик олим Н.Н.Турецкийнинг фикрича, ижтимоий шериклик фаолиятида давлат органларига бўлган ишончнинг ортиши ҳуқуқбузарликлар содир этилишига олиб келган сабаб ва шарт-шароитларни бартараф этишга имкон берган ҳолда фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлик мустаҳкамланишига олиб келади<sup>114</sup>.

Бизнинг фикримизча эса, давлат бошқаруви органлари фаолиятида очиқликни таъминлашда фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорликнинг самарали ташкил этилиши қўйидаги чора-тадбирларни оширишга имкон беради:

биринчидан, аҳолининг давлат органларга бўлган ишончи ортиб, жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш ва қонунийликни мустаҳкамлашга қаратилган қўшма тадбирларни амалга ошириш имконияти туғилади;

иккинчидан, фуқаролик жамияти институтларининг давлат бошқаруви органлари билан фаол ҳамкорлиги нодавлат нотижорат ташкилотларнинг ҳуқуқни химоя қилиш функцияси кенг қўлланилишига шароит яратилади;

учинчидан, жамиятда ёшларнинг ҳуқуқий тарбияси ва ҳуқуқий маданияти даражаси ошиб боради;

тўртинчидан, аҳолининг фуқаролик фаоллиги ошиб, ҳуқуқбузарликларнинг камайишига эришилади.

Давлат бошқаруви органларининг фаолиятида очиқликни таъминлаш бўйича нодавлат нотижорат ташкилотлар билан ҳамкорлик қўйидаги шаклларда амалга оширилади:

- фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг таъминланиши соҳасида амалга оширилган ишлар юзасидан мунтазам ахборот алмашиш;
- фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг химоя қилиниши аҳволини ўрганиш учун эксперталарни ажратиш;
- фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг бузилишини олдини олиш ва бузилган ҳуқуқларни тиклаш масалаларида маслаҳатлашувлар ўтказиш;
- фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш борасида қўшма лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;
- фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг таъминланиши ва химояланишининг норматив-ҳуқуқий базасини ва механизmlарини такомиллаштириш борасида таклифлар ишлаб чиқиш;

<sup>113</sup>Стрельников В.В. Информационное обеспечение управлеченческой деятельности в прокуратуре// «Право и безопасность». №4(37). 2010. С 55

<sup>114</sup>Турецкий Н.Н. Основы доверия населения правоохранительным органам//Криминология: вчера, сегодня, завтра.2014 №2. С38-40

- давра сұхбатлари, семинарлар, илмий-амалий анжуманларни ташкилластириш ва үтказиш;
- фуқароларнинг ҳуқук ва әрқинликларини ҳимоя қилиш, фуқаролик жамияти институтларини шакллантириш ва ривожлантириш ҳамда мамлакатни демократик янгилашда уларнинг иштирок этиши масалаларини оммавий ахборот воситаларида ёритиш борасида биргаликда тадбирларни амалга ошириш;
- фуқароларнинг ҳуқук ва әрқинликларини ҳимоя қилишга қаратилған қонун хужжатларининг қўлланилиш амалиётини такомилластириш учун жамоат, нодавлат нотижорат ташкилотлари вакилларини жалб қилиш.

Бизнинг фикримизча, бу борада жамоатчилик билан алоқалар тизимидағи вазифаларни самарали амалга оширишда давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари ҳузурида фаолият кўрсатувчи жамоатчилик маслаҳат-эксперт Кенгашлари муҳим ҳамият касб этади.

Мазкур жамоатчилик кенгашларини ташкил қилишда ҳар бир ташкилотнинг фаолияти билан бевосита боғлиқ бўлган соҳалар ва йўналишлардаги малакали мутахассисларни, нодавлат нотижорат ташкилотлари вакилларини, фан ва таълимнинг тегишли йўналишидаги олимларни жалб қилиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Чунки, халқ билан мулоқот тизимида жамоатчилик кенгаши аъзоларининг тегишли соҳалар бўйича компетентлиги, ташаббускорлиги, жамоатчилик орасида обрў-эътиборга эга бўлиши, ижтимоий аҳамиятга эга бўлган лойиҳаларни амалга ошириш лаёқати муҳим аҳамият касб этишини ҳисобга олган ҳолда, уларни танлашда юқоридаги мезонларни ҳисобга олиш лозим бўлади.

Хулоса ўрнида айтадиган бўлсак, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятининг самарали ташкил этилиши соҳадаги долзарб ижтимоий-ҳуқуқий масалаларни биргаликда кўриб чиқишига, бу борадаги мавжуд ечимлар юзасидан умумий қарашларни ишлаб чиқишига имкон беради.

Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари ҳузуридаги жамоатчилик кенгашларининг ахборот-таҳлил фаолияти давлат ҳокимияти билан фуқаролик жамияти институтлари ўртасида ўзаро фойдали ҳамкорлик алоқаларининг кенгайишига олиб келган ҳолда, жамиятдаги долзарб муаммоларни биргаликда ҳал қилиш имконини беради. Бунинг учун ушбу фаолият энг аввало очиқ асосда олиб борилиши ҳамда фаолиятнинг натижалари доимий равишда замонавий ахборот коммуникацион технологияларидан фойдаланган ҳолда жамоатчиликка эълон қилиб борилиши зарур бўлади.

## BOSHANG'ICH TA'LIM MAZMUNIDA TARBIYA DARSLARIDA INNOVATION TA'LIMNING QO'LLANISH IMKONIYATLARI

Jahonbekova Surayyo Avazbekovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

*“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot,yo najot, yo halokat, yo saodat,yo falokat masalasidir”.*

*Abdulla Avloniy*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda Tarbiya darsligidan o’qitish jarayonida o’rinli foydalanish hamda darslikdagi mavzular Oliy Ta’lim fanlari bilan uzviy bog’liqligi,1-2-3-4-sinflar tarbiya darsliklari mavzulari, ularning tahlili xususida so’z yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** Vatan, intellektual, ma’naviy va jismonan sog’lom, tafakkur, innovatsion ta’lim, metod tanlash, tarbiya darsliklari, odob, elga hurmat, interaktiv usullar va komil inson.

Ta’lim va tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, fan, texnika, madaniyatning obyektiv talablariga asoslanadi. Ta’lim va tarbiya mazmuni tabiat, jamiyat, inson va uning mehnati to‘g‘risida ijtimoiy tartibga mos keladigan bilimlar tizimi sifatida tushuniladi, ularning o‘zlashtirilishi yosh shaxsning aqliy, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy tarbiyasini ta’minlaydi. Ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “...Yosh avlodni barkamol, ma’naviy va jismonan sog’lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqqosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.<sup>115</sup> Darhaqiqat, yosh avlodni tarbiya qilish nafaqat jamiyatimizning, balki davlatimizning oliy maqsadi hisoblanadi. Bunda davlat, jamiyat, oila hamjihatlikda ishlashi lozim. Shundagina komil inson tomon qilinayotgan ishlar o‘z samarasini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish – bolalarga ta’lim va tarbiya berishning sifat jihatidan yangi konsepsiyanlarini amaliyotga joriy etilishini talab

<sup>115</sup>“Xalq ta’limi” jurnalı, 2021.4b

qilmoqda. Eng muhim ustuvor yo‘nalish sifatida boshlang‘ich ta’lim oluvchilarning bilimi, malakasi, ko‘nikmasi, qobiliyatlarini yangicha yondashuvlar asosida shakllantirish, ularning o‘rganish istaklari, talablarini inobatga oлган holda o‘quv fanlarini unifikatsiyalash; chet tillarini erta o‘rganish, axborot va axborot texnologiyalarini kafolatlangan tarzda o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilarning individualligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlanadirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish va mustahkamlashdan iboratdir.

Biz doimiy ravishda ta’lim oluvchilarga “nimani o‘rgatish kerak?”, “nimaga o‘rgatish kerak?”, “qanday o‘rgatish kerak?” degan savollarga javob topib, ularning yechimlari haqida izlanishimiz kerak.<sup>116</sup> Shuning uchun har bir sinfda o’tiladigan darslik mavzularini uzviylicha muhim o‘rin tutadi. O‘quvchining yosh qobiliyatidan kelib chiqib, ularga o‘ziga xos, qiziqtirib fanni yetkazishimiz lozim.

Amalda qo‘llanilayotgan “Tarbiya” kitoblarini ko‘rib o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf (A2), to‘qqizinchi sinf (A2+), o‘n birinchi sinf (B1) bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari, kompetensiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlariga mosligini hamda har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviyligi, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga olganligini ko‘ramiz.

Har bir bosqichda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhidagi tarbiyalash; O‘quvchilar tarbiyasida oilaning mакtab bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash; bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minalash, “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish kabi bir qator g‘oyalarni ko‘rishimiz mumkin.<sup>117</sup> Tarbiya darslari orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik, yaxshilik, saxiylik, insonparvarlik kabi ijobjiy hislatlarni shakllantirishtiramiz.

Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini chuqur o‘zlashtirishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishga, katta ijodiy xulosalar chiqarishlariga ham o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo‘naltiruvchanlik vazifasini bajaradi.

<sup>116</sup>“Xalq ta’limi” jurnali, 2021.4b

<sup>117</sup>Nizomiy nomidagi TDPU, PhD Sobirova Marjona Shavkat qizi Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistrantining BOSHLANG‘ICH “TARBIYA” DARSALARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI” maqolasi “Science and Innovation” international scientific journal, 2022.56b

Tarbiya darslari ijodiy, noan'anaviy suhbat, o'yin, oilada, tabiatda, bahs, munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda nimalarga e'tibor beriladi:

1. Darsdagi ta'lim-tarbiya maqsadining aniqligi;
2. Pedagogik texnologiya mazmunining hozirgi davr talabiga mosligi;
3. Pedagogik texnologiya jarayonida didaktik qoidalar;
4. O'qituvchining mahorat texnikasi.<sup>118</sup>

Darhaqiqat, tarbiya darsi hozirgi tez rivojlanayotgan davrimizda yosh avlod uchun suv va havodek zarur bo'lib qolmoqda. Darslikdagi mavzular va ularning g'oyalari kelajagimiz bo'l mish-yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Maktabda tarbiya fanining o'qitilishi 1-2-sinflarda tarbiya fanini o'rgatish bu o'quvchida tarbiyaning rivojlanishi uchun sabab bo'ladi. Bunda o'quvchi birinchi bo'lib o'zidan katta odamlarga salom berishni o'rganadi. Masalan Assalomu aleykum degani sizga sog'lik tilayman degani. Kattalar esa bunga javoban valaykum assalom deyishi ya'ni sizga ham sihat- salomatlik tilayman deyilishini tushuntirib beradi Tarbiya fani o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish orqali ularni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlaydi. "Milliy tiklanish- milliy yuksalish sari" g'oyasi mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga chuqur singdirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish orqali mas'ulyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik kabi fazilatlarni tarbiyalashni amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan. Tarbiya fani vazifalari:

- bolani maqsad qo'ya olish va unga intilishga undash;
  - milliy g'urur va iftixon, e'tiqod hislarini ularda shakllantirish;
  - moddiy va ma'naviy merosga hurmat tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat;
- 1-sinf

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yilgan talablar: orzularni aniqlay oladi; mas'uliyatni anglaydi; odob me'yorlariga rioya qiladi; hamkorlik qila oladi;

I. Bob Go'zal xulq— inson ko'rki (20 soat) Sehrli so'zlar. Sehrli so'zlearning qudrati. Oila a'zolari va do'stlarga muomala qilish. Telefonda so'zlashish odobi. Qalb oynasi. O'quvchi fikrini erkin ifodalashi. Qo'l harakatlari, yuz ifodasi (kulgi, kinoya va jahl), ovoz balandligi. Telefondan foydalanish qoidalari. Telefon va kompyuterdan foydalanish odobi (oila a'zolari va do'starning telefonidan foydalanish qoidalari). Tashqi ko'rinish odobi. Qaysi libos, oyoq kiyim qayerga kiyiladi? Taqinchoqlar qayerga va qachon taqiladi? Mening fikrim: "Agar taqinchoqlar (soat, zirak, uzuk, soch

<sup>118</sup>Nizomiy nomidagi TDPU, PhD Sobirova Marjona Shavkat qizi Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistrantining BOSHLANG'ICH "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI" maqolasi, "Science and Innovation" international scientific journal, 2022.58b

to‘g‘nog‘ichi)dan foydalanilsa...”, necha yoshdan taqish mumkin? Yaxshi va yomon odatlar. Nima yaxshi-yu, nima yomon? Xalq ertaklari asosida suhbat. Qaysi odatlar yaxshi?Yomon odatlardan qanday qutulish mumkin? Soy bo‘yida. Suv havzalaridagi xavfsizlik qoidalari haqida. Suv qadri va uni toza tutish odobi. Sog‘ tanda sog‘lom aql. Salomatlikni saqlash. Qo‘l yuvish qoidalari. Sog‘lik uchun zararli odatlar. Dasturxon atrofida. Dasturxon bezash haqida rasmli topshiriqlar: sochiq, sanchqi, qoshiq, pichoqdan to‘g‘ri foydalanish. Dasturxon atrofida o‘tirish odoblari. Dasturxon atrofida o‘tirish qoidalari va tartiblari. Jamoat joylarida o‘zini tutish.

## 2-sinf

### I bob. MEN O‘ZBEKISTON FARZANDIMAN

Vatan ishonchi. Prezident sovg‘asi haqida suhbat. Bolalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida videofilm namoyishi. O‘quvchilarning kelajak maqsadlarini shakllantirish. Salomlashish odobi. Salomlashish - odobning muhim belgisi. Salomlashish haqida turli vaziyatlar. To‘g‘ri salomlashish, kim birinchi salom beradi? Qayerda salom berish mumkin emas? Mening orzuyim. Mening orzuyim va imkoniyatlarim. O‘quvchilarning maqsadlarini amalga oshirishda oila tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlar. Bilim olish sirlari. Nima uchun bilimli bo‘lish kerak? Ustozga hurmat. Kitob va o‘quv qurollardan foydalanish qoidalari. Maktabim - gulshanim. Mening maktabim, maktabdagi sharoitlar, “Maktabning egasi kim?” hikoya. Maktab mulki va uni asrash mas’uliyati. Mening sevimli ertak qahramonlarim. Bilim olishni targ‘ib qiluvchi ertaklar va ularning qahramonlari haqida suhbat. Rasmlar asosida ertakni yakunlash. Har narsaning o‘lchovi bor. Vaqtning uvoli. Kun tartibiga rioya etish intizomlilik belgisi. Isrof bo‘lgan suv qadri. Gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi - milliy boylik. Bir kunlik harajat. Mening mahallamda yashash yaxshi. Muammoli vaziyatlar asosida bolada mas’uliyat, majburiyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish. “Bir bolaga yetti mahalla ota-on”, “Qo‘shning tinch, sen tinch”. Notanish kishi kim? Notanish kishilar bilan muloqotga kirishish. Yaltiroq quticha kimniki? (Begonalar bilan gaplashish, ulardan sovg‘a va turli narsalarni olishning xavfi haqida suhbat). Xavfli vaziyatlarda qaysi telefon raqamiga murojaat qilish lozim. Xavfli vaziyatlarda harakat qilish. Turli xavfli vaziyatlar haqida ma’lumot berish asosida o‘zini tutish qoidalari o‘zlashtirish. “Zukko o‘quvchi” o‘yini.Jamoat transportida,do‘konlarda, kasalxona va madaniyat maskanlarida, ko‘chalarda kim-kimga yo‘l beradi? Yakunlovchi dars.<sup>119</sup> Darslikdagi mavzular qiziqarli,rasmlar,o‘quvchiga mos topshiriqlar bilan to‘ldirilgan. Mavzuar xilma-xilligi va ketma ketligi to‘gri hamda hayot bilan bog‘liq tuzilgan, o‘quvchilar bevosita mavzular atrofini o‘rab turgan narsa va voqealar bo‘g‘laganligi uchun oson

<sup>119</sup>To‘raqulov Akbar Rustam o‘g‘liDTPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasini o‘qituvchisi Xoliyorova XumoraDenov tadbirkorlik va pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yonalishi2-bosqich talabasi,BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “TARBIYA” DARSLIKLARI TAHЛИLI -nomli maqolasi, “INTERNATIONAL JOURNA OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHERS’ THEORY” jurnali.2022.60-61b

o'zlashtiradi.

3-sinf

### I-bob. ORZULAR MADSADLAR SARI YETAKLAYDI

Munosib farzand,muvaffaqiyat-qat'iyat va mehnat natijasi,serquyosh,hur o'lka,eng buyuk sharaf,bilim olish odobi,kim bo'lsam ekan?,vaqting ketdi-baxting ketdi,ehtiyotkorlik,kitob-bilim manbai,elektron axborotlar,kiyinish madaniyati,ozodalik-inson ko'rki,ozodalikni xonamizdan boshlaymiz,inson-odobi go'zal,mehr oqibat-insoniy fazilat,qari bilganni-pari bilmas,quog'iga qulochchin raqqan"Qulqsiz"bola,mahalla va qo'ni qo'shnichilik,tejamkorlik,vaqt qanday tejaladi? va boblar yuzasidan savol va topshriqlar berilgan. 3-sinf darsligidagi mavzular aynan bola yoshidagi mavzular berilgan bo'lib,turli qiziqarli topshiriqar bilan yanada kitob boyitilgan.

4-sinf

I-bob.Vatan madhi, **O'zbekiston - ko'p millatli davlat**,mard va jasur inson - Vatanning tayanchi,bobolarimizning bebaho merosi,maktab - eng ulug' dargoh,kitob - buyuk donishmand,Bilim - tengsiz xazina,vatan bayrog'ini baland tutaylik,Yaxshilik qilish hikmati,imkoniyat va matonat,rostgo'ylik,halollik - muvaffaqiyat kaliti,tilga hurmat - elga hurmat,tejamkorlik,fazilatlar - inson ko'rki,muvaffaqiyat – bir jamoaga aylanishda,barcha insonlar qonun oldida tengdirlar,xavfli vaziyatlarda nima qilish kerak?,baxt oiladan boshlanadi,oilaviy kitobxonlik- muvaffaqiyat poydevor,ona - ulug' zot,sog'liq - katta boylik,sog'lom hayot uchun zarur kun tartibi,insonni xotirlash - milliy qadriyat kabi mavzular berilgan bo'lib,har bir mavzu yo'liq yoritib berigan.Tarbiya darsliklarining 1-2-3-4 sinflardagi mavzular va ma'lumotlar bir-biriga uzviy bog'liq holda sodda va bola tarbiyasiga mos tanlangan hamda ishlangan.

Shu kabi umumiy o'rtta ta'im darsliklarining yuqori sinf tarbiya darsiklari ham DTS (Davat Ta'lim Standartlari) asosida ishlab chiqilgan bo'lib,hozirda yuqori sinf o'quvchilarini mustaqil davlatimiz orzu qilayotgan yetuk shaxs, komil inson bo'lishiga yordam berib kemoqda. Bu albatta, yorqin kelajak imkoniyatlarini yaratadi va yoshlarni mustaqil fikrli, maqsadi sari intiluvchan inson bo'lish imkoniyatini beradi.

5-sinfdan 11-sinfgacha tarbiya darsliklarining to'laqonli davomi sifatida Oliy Ta'im muassasalarida Pedagogika, Umumiy Pedagogika va Tarbiyaviy ishlar metodikasi darslarida o'tiladi.

Fan sillabuslarida tarbiya fanining tarixi,allomalar va olimlarning olib borgan ilmiy ishlari va ularning tahlili, kelib chiqishi,uning rivoji,tarmoqlari,o'rganish metodlari beriladi.Shu fanlarda talabalarga tarbiyaning naqadar muhimligi va olimlarning ishlari va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalari bayon etiladi. Misol tariqasida, Kamenskiy tarbiyaning roliga juda yuksak baho berdi.Inson,deydi u-faqat tarbiya tufayligina insonga aylanadi,insonga u tarbiyaanishiga eng qulay yoshda bo'lganida,yani bolalik chog'ida tarbiya berilishi lozim.

Tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon pedagogika tarixi rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Bu borada yunon olimlari Arastu,Platon,Demokrit kabi olimlar o'z fikrlarini bayon etdilar. Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari,tarbiyaning roliga bergen katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi.<sup>120</sup>

Nafaqat chet el olimlari, balki, o'zimizning mutafakkirlarimiz ham tarbiya fani rivojiga Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi olimlarimiz o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan va hali hamon ularning izlanishlari va bizga qoldirgan noyob me'roslaridan keng foydalanib kelmoqdamiz.

Xulosa o'rnida yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, tarbiya va umumiy pedagogika darslari hozirda o'quvchilar, talabalarga ham kerakli fanlardan biri hisoblanadi. Darslikdagi har bir mavzu, topshiriqlar aynan inson tafakkurida tarbiyali,vatanparvar,yetuk,komil,saxiy,bag'rikeng inson qanday bo'lishi va buning natijasida hayotdagি imkoniyatlarini to'liq ochib beradi.Hozirgi zamonaviy texnologiya asrida, yosh,mustaqil davlatimizga YORQIN KELAJAK ga erishish uchun tarbiya(umumiy o'rta ta'lim maktablarda) va umumiy pedagogika (Oliy ta'lim bilim yurtlarida) fanlarida ilgari surilgan hislatlarga ega insonlar kerak!

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsliklari Toshkent-2020
2. "Xalq ta'limi" jurnali, 2021.4b
3. Sobirova Marjona Shavkat qizi. Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistrantining BOSHLANG'ICH "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI". "Scienceand Innovation" international scientific journal, 2022. 58b
- 4.To'raqulov Akbar Rustam o'g'liDTPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, Xoliyorova XumoraDenov tadbirkorlik va pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yonalishi2-bosqich talabasi,BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TARBIYA" DARSLIKLARI TAHLILI -nomli maqolasi, "INTERNATIONAL JOURNA OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHERS' THEORY" jurnali.2022.60-61b
- 5.Abdullayeva B.S.,Xoliqov A.A.,Farsaxanova D.R.,Muhammadiyeva S.V.,Sheranova M.B UMUMIY PEDEGOGIKA Pedagogika tarixi darslik. Tashkent "Innovatsiya-Ziyo"2022.4b

<sup>120</sup>Abdullayeva B.S.,Xoliqov A.A.,FarsaxanovaD.R.,Muhammadiyeva S.V.,Sheranova M.B UMUMIY PEDEGOGIKA Pedagogika tarixi darslik. Tashkent "Innovatsiya-Ziyo"2022.4b

## ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МЕДИАТАЪЛИМГА МУНОСАБАТИ

Умурзакова Бонухон Азизовна

Фарғона давлат университети

Гуманитар йўналишлар бўйича чет тиллари кафедраси  
катти ўқитувчиси Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

**Аннотация.** Хорижий тил ўқитувчиларида медиамаданиятни ривожалантириш, Медиатизациялашув натижаси, Олий ўқув юртлари учун яратиладиган мультимедиали медиа восиаталр, Медиамаданиятни шакллантириш модели, талабалар медиамаданиятини шакллантиришга оид билимлар, Бугунги кун толиби илмларининг дунёқарashi ва тафаккури.

**Калит сўзлар:** медиамаданият, модели, рационал фойдаланиш, мультимедиа, хорижий медиадан.

Мақолада хорижий тил ўқитувчиларида фанлараро ҳамкорлик асосида медиамаданиятни шакллантиришнинг мазмуни ва модели ҳамда уни ривожлантиришнинг амалиётдаги ўрни, холати тадқиқ этилган.

Медиатизациялашув натижасида медиалар ташкилот ва муассасалар ҳамда жамиятнинг шаклланишига таъсир кўрсатади ва улар медиаларга боғланиб қолади<sup>121</sup>. Шу боис хорижий медиадан фойдаланишда медиамаданиятни шакллантириш, уни биринчи қабул қилувчилари бўлган хорижий тилга ихтисослашган касб эгаларини медиасаводхонлигини ошириш масалалари долзарблик касб эта бошлайди.

Хорижий тил ўқитувчиларида медиамаданиятни ривожалантириш орқали уларда ўқувчиларга тил ўргатишида медиадан рационал фойдаланиш кўнимасини шакллантириш мумкин бўлади. Яъни талабаларга медиамаҳсулотдан тил ўрганишдагина фойдали жиҳатларини олиш кўнимасини шакллантириш амалиётини ўргатиш мухим аҳамиятга эга. Кўпгина тадқиқотларда шу нарса аниқланганки, доимий ахборот алоқаси бўлмаса, инсоннинг тўла қонли ривожланиши, ижтимоий гурухлар ва умуман жамиятнинг мўтадил фаолият олиб бориши мумкин эмас<sup>122</sup>.

Шу боис хорижий тил ўқитувчиларини медиамаданиятини шакллантириш моделини ишлаб чиқиши тадқиқотнинг илмий-педагогик вазифаларидан бири

<sup>121</sup> Маматова Я, Сулайманова С. Ўзбекистон медиатълим тараққиётини ўзида. Ўқув қўлланма.— Тошкент.:«Extremum-press», 2015. –Б.8.

<sup>122</sup>Сифоров В.И., Суханов А.П. Информация, связь, человек.-М.: Знание, 1997. –С.64.

бўлди. Моделнинг мақсади хорижий тил ўрганаётган талабани фанлараро ҳамкорлик асосида медиамаданиятини шакллантиришдан иборатdir.

Олий ўқув юртлари учун яратиладиган мультимедиали медиа восиаталр олдига қўйидаги талаблар қўйилади:

- танланган фан мазмуни, таълим мақсадларига ҳамда давлат таълим стандартлариға мос келиш;
- хорижий тил ўқитувчиларининг мустақил билим олишини таъминлаш;
- бошқа фанлар билан уйғуналашиш (интеграция);
- фанга оид етарли миқдордаги маълумотларни ўзида мужассамлаштириш;
- хорижий тил ўқитувчиларига ўз-ўзини ёки профессор-ўқитувчига талabalар билимини баҳолаш ва назорат қилиш имкониятини яратиш. Шу билан бир қаторда бўлажак хорижий тил ўқитувчиларининг мустақил фаолият қўникмаларини ривожлантиришга, ўзлаштирилган билимларни кундалик турмуш амалиёти билан боғлашга, таълим ва тарбияни ўзаро чамбарчас боғлашга, ўзлаштирилган билимларни мустаҳкамлашга хизмат қилмоғи зарур.

Медиамаданиятни шакллантириш модели 5 блокдан иборат бўлиб, у яхлит бирликка эгадир: мақсадли, методологик, ташкилий-фаолиятга йўналтирилган, натижавий баҳолаш ва натижадан ташкил топган.

Бўлажак хорижий тил ўқитувчиларининг медиамаданиятини шакллантиришда тарбия субъектларининг тарбиявий-профилактик ишларининг ўзаро алоқаси ва узвийлигини таъминлаш, ёмон хулқли талabalарнинг кундалик ҳаёт фаолиятини кузатиш, ахборот профилактика тадбирларини тўғри танлаш ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга. Бу жараёнда ҳар бир талабага алоҳида профилактик таъсир кўрсатиш унинг онгига миллий ахлоқ меъёрларига доимий риоя қилиш зарурлигини сингдириш ҳамда уларга тарбиявий ва назоратли таъсир ўtkазиш метод ва усуллари, ижобий хислатларни шакллантириш ва салбий жиҳатларни бартараф этишга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Айни пайтда хорижий тил ўқитувчиларига салбий таъсир этадиган медианинг маънавий бузғунчи омилларни бартараф этиш ва уларнинг муносабатини ўзгартириш тизимини ўрнатиш мақсадида ахборот муҳитига таъсир этиш шаклларини белгилаш зарур бўлади. Бу эса ҳар бир талабага самарали таъсир эта оладиган ижобий ахборотларга таянадиган таъсир воситаларини аниқлаш имконини беради. Шунингдек, хорижий тил ўқитувчиларда медиа таъсирга қарши ижобий ахборот муҳитини яратишнинг устувор вазифалари қўйидагилардан иборат:

-медиатаълим жараёнининг мазмунлилиги, йўналтирилганлиги, узвийлиги; бир томондан талabalарга маънавий-маърифий талабларни ўргатиш, бошқа

томондан улар шахсининг хусусий жиҳатлари ва умумий тараққиёт қонуниятларини ўрганишга қаратилганилиги;

- хорижий тил ўқитувчиларида медиатаълим асосида ҳимоя имуунитетини шакллантиришда мажбурлашга йўл қўймаслик;

- хорижий тил ўқитувчилари фаоллиги, ташаббускорлиги ва иродасини намоён этишига эришиш.

Бугунги кун толиби илмларининг дунёкараши ва тафаккури ва у асосидаги медиамаданияти телевизион каналларнинг янгидан-янги имкониятлари, видеотехника, компьютер ва интернет интернет тармоғи кенгайиб бораётган бир шароитда шаклланмоқда. Ўз навбатида бу ҳозирги глобаллашув шароитида медиа тизимлари ва технологиялари орқали кўплаб ахборот хуружи ва оммавий маданият хавфи кучайиб бораётган бир жараёнда намоён бўлмоқда<sup>123</sup>. Бу жараёнда турли интернет-кафе, компьютер клублари, компьютер ўйинларини ташкил қилаётган шахслар талабаларни доимий мухлисга айлантириш учун медианинг барча имкониятларидан фойдаланмоқдалар. Хилма-хил кайфият уйғотувчи ахборотлар орқали амалга оширилаётган ғоявий бузилишлар натижасида турли салбий ҳолатлар содир бўлмоқда. Ана шундай таҳликали вазиятнинг олдини олиш учун тезкор чоралар асосида медиамаданиятни шакллантириш учун масъул бўлган мутахассис ёки тир ўқитувчисининг кундалик фаолият дастурига киритилиши лозим бўлган энг муҳим вазифасидир. Бизнинг фикримизча, ушбу қайд этилган муаммоларни ҳал этиш ишлари қўйидаги йўналишлар бўйича амалга оширилиши лозим:

- хорижий тил ўқитувчиларида медиамаданиятни шакллантиришда хорижий тилни ўргатувчи фанлар билан ижтимоий-гуманитар ва ахборот хавфсизлигига оид фанлар ҳамкорлигини яратиш;

- олий таълимда “Медиамаданият асослари” фанини ўқитиш ва бу орқали ҳаётга нисбатан оқилона ва эҳтиёткорона муносабатда бўлиш кўникмаларини шакллантириш ҳамда ўқитишнинг таъсирчан механизmlарини ишлаб чиқиш лозим;

- хорижий тил ўқитувчиларида медиамаданиятни шакллантиришнинг педагогик жараёнини норматив-ҳукуқий ҳужжатлар ва илмий-услубий материаллар билан тўла ҳажмда таъминлаш;

- олий таълим тизими талabalарида медиатаълим ва у асосидаги медиамаданиятни шакллантиришнинг иягона концепцияси ва стратегиясини ишлаб чиқиш мақсадида илмий-услубий ва амалий фаолият марказини ташкил этиш;

<sup>123</sup> Фуломов С. ва бошқ. Ахборот тизимлари ва технологиялари. –Т.: Шарқ, 2000. 46 б.; Эркаев А. Глобаллашув, ахборот хуружи ва оммавий маданият. –Т. 2009. –Б. 18.

-таълим муассасаларида талабаларнинг медиамаданиятини шакллантиришга оид анжуманлар, кўргазмалар, конкурслар ва бошқа тадбирларни тизимли равишда амалга ошириб бориш;

-талабаларнинг медиамаданиятини шакллантиришга қаратилган таълим, тарғибот ва ташвиқот ишларини амалга оширишда кўргазмали воситалар, ўкув ва илмий адабиётларнинг аҳамиятини эътиборга олиб, маҳсус ахборот-ноширлик марказларини ташкил этиш;

-талабалар медиамаданиятини шакллантиришга оид билимларни оширишда ижтимоий фанларни ўқитиши учун юқори малакали педагог кадрларни ҳамда медиатаълимнинг барча жиҳатлари юзасидан замонавий билимларга эга бўлган мутахассисларни тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш ва бошқалар.

Хулоса қилиб айтганда, хорижий тил ўқитувчиларида медиамаданиятни шакллантириш орқали соғлом фикрловчи ва ўз позициясига эга кадрларни тарбиялаш, улар орасидаги медиатаълим ва медиамаданиятни шакллантиришда оила, олий таълим ва фанлараро ҳамкорлик методологиясини таъминлаш бу борадаги ишларини олиб боришининг энг таъсирчан омилларидан бири бўлиб ҳисобланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.**

1. Azizovna, U. B. (2023, February). Bo ‘lg ‘usi xorijiy til o ‘qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 2, pp. 163-167).
2. Azizovna, U. B. (2022). BO ‘LG ‘USI XORIJIY TIL O ‘QITUVCHILARI MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 26, 1-4.
3. Azizovna, U. B. (2022). Bo ‘Lg ‘Usi Xorijiy Til O ‘Qituvchilarning Mediamadaniyatini Rivojlantirishda Ta’lim Tizimilarining Integratsion Hamkorligining Ahamiyati. *Miasto Przyszlosci*, 26, 20-22.
4. Azizovna, U. B. (2022). Media ta’lim orqali media madaniyatni rivojlantirish. *Evrosiyo ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalar jurnali*, 12, 15-17.
5. Umurzoqova, B. A. (2023). PEDAGOG FAOLIYATI VA MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MEDIAMADANIYAT TA’SIRI. *Tadqiqot markazi*, 2 (1), 223-228.
6. Umurzoqova, B. A. (2022). BOLGUSI XORIZHIY TIL OKITUVCHILARINI FANLARARO HAKORLIK ASOSIDA MEDIAMADANIYTINI RIVOJLANTIRISH TUZILMASI VA PEDAGOG-PSIXOLOG XUSIYATLARI. *Fan va innovatsiyalar*, 1 (B3), 440-447.

7. Azizovna, U. B. (2023 yil, fevral). Bo 'lg 'usi ilmiy-nazariy yordam til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning asoslari. "*Umumjahon ilmiy tadqiqotlar konferentsiyasi 2023*" da (1-jild, № 2, 163-167-betlar).
8. Umurzoqova, B. (2022). BO 'LG 'USI XORIJY TIL O 'QITUVCHILARIDA FANLARARO HAMKORLIK ASOSIDA MEDIAMADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK MAZMUNI VA MODELI. *Fan va innovatsiyalar*, 1 (B4), 470-473.
9. Azizovna, U. B. (2022). BO 'LG 'USI XORIJY TIL O 'QITUVCHILARI MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Gospodarka va Innovacje.*, 26, 1-4.

## МЕДИАТАЪЛИМ-ШАХСНИНГ АХБОРОТ ОЛИШ ВА ТАРҚАТИШ ХУҚУҚИНИНГ БИР ҚИСМИ

**Умурзакова Бонухон Азизовна**

Фарғона давлат университети гуманитар йўналишлар  
бўйича чет тиллари кафедраси катта ўқитувчиси  
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори.

**Аннотация.** Таълим тизимида инновацион, тайёрлаш тизимини жаҳон андозалари даражасига чиқариш, Шахс фаолиятининг барча жабҳаларида халқаро алоқаларнинг кенгайиши, Хорижий тилни амалий билиш бизнинг давримизда нафақат яхши таълим белгиси, Оммавий ахборот воситаларининг кишилар онги, Медиатаълим атамаси доирасида, жамият ҳаётида.

**Калит сўзлар:** медиатаълим, инновацион педагогик, медиамахсулот, мультимедиа, вертуал олам.

Республикамизда сўнгги йилларда, таълим тизимида инновацион, рақамли технологияларга асосланган таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, ижтимоий фаол ва малакали, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш тизимини жаҳон андозалари даражасига чиқариш, талабаларнинг келгусидаги меҳнат фаолиятларида ўзлаштирган касбий компетенцияларини ривожлантиришнинг меъёрий асослари яратилмоқда. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси”нинг “Ижтимоий соҳани ривожлантириш” деб номланган тўртинчи йўналишнинг тўртинчи бўлими узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш йўлини давом эттириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ, юқори малакали кадрларни тайёрлаш мақсадларига қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.<sup>124</sup> Натижада олий таълим муассасалари талабаларининг медиатаълим орқали хорижий тилларни ўрганишларининг сифат ўзгаришлари ва юқори самарадорлиги мазкур соҳага ижобий янгиликларни киритиш ҳамда инновацион педагогик жараённинг вужудга келишига олиб келади.

Шахс фаолиятининг барча жабҳаларида халқаро алоқаларнинг кенгайиши, сиёсий, иқтисодий, илмий-техникавий маълумотлардан аввалгига нисбатан эркинроқ фойдаланиш, ахборот-коммуникация воситаларининг барча соҳаларга кенг жорий этилиши ҳар бир инсондан ҳеч бўлмаса битта хорижий тилни

<sup>124</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ти Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 92 б

билишни талаб этади. Хорижий тилни амалий билиш бизнинг давримизда нафақат яхши таълим белгиси, балки ҳаётин заруратга айланиб бормоқда. Бугунги кунда эса Олий таълим муассасаларида хорижий тилларни ўрганишда ахборот-коммуникация воситалари ва ижтимоий тармоқдан тенг нисбатда фойдаланиш заруратини беради.

Workoteka.ru порталининг ўтказган сўровномасига кўра, ахборот-коммуникация соҳалар тармоғида чет тилини биладиган ҳодимларга бўлган (асосан инглиз тили) эҳтиёж биринчи ўринда туради.<sup>125</sup> Бу эса ўз-ўзидан хорижий тил ўрганувчиларда ижтимоий тармоқ, медиамаҳсулот билан ишлаш қўникмаси бошқа соҳа вакилларига нисбатан юқори даражада эканлигини кўрсатади. Бундан кўриниб турибдики, медиавоситаларнинг таълим соҳасидаги ўрни, айниқса, хорижий тилларни ўқитиш тизимида аҳамиятлидир. Бўлғуси хорижий тил ўқитувчисининг тил билиш савияси чет тилини ўқитиш соҳасидаги маданиятларро мулоқотда тўлиқ иштирок этиш имкониятини беради.

“Медиамаданият” атамасини муаллифлик ёндошуви асосида таҳлил қилас эканмиз, медиа сўзига ижтимоий тармоқ ёки ахборот коммуникация воситалари ёрдамида бизга етказиладиган ҳар қандай кўринишдаги ахборот ёки хабар берувчи сифатида таърифлашимиз мумкин бўлади. Ўз навбатида медиа тўрт хил шаклда бўлади: босма( газета, журнал), видео, аудио ва расм.

Маданият атамаси эса, жамият томонидан белгиланган, маълум нормаларга асосланган, инсониятнинг хулқи, билими, дунёқараши, мақсадлари, урфодатлари ва қадриятлари жамланмаси дея таърифлаш мумкин. Маданият сўзига Ўзбекистон миллий энциклопедиясида<sup>126</sup> арабча “Мадина” сўздан олинган дейилади. Ўрта аср маданияти асосчиларидан бўлган Абу Наср Фаробий талқинига кўра “ҳар бир инсон ўз табиатига кўра олий даражадаги етукликка эришиш учун интилади.” Унинг фикрига кўра “маданий жамият ва маданий шаҳар(мамлакат) бўладики, бу мамлакатда ҳар бир одам касб-хунарда озод, ҳамма баробардир, кишилар ўртасида фарқ бўлмайди, ҳар ким ўзи истаган ёки танлаган касб-хунар билан шуғулланади.”<sup>127</sup>

Бугунги кунда медиамаданият сўзининг синоними сифатида педагогикада “медиатаълим” ва “медиасаводхонлик” сўzlари ҳам қўлланилади. Медиатаълим-шахснинг ахборот олиш ва тарқатиш хуқуқининг бир қисми.

Оммавий ахборот воситаларининг кишилар онги, руҳиятига таъсир этиш ва онгни бошқаришдаги имконияти жуда катта. Медиатаълим атамаси доирасида, жамият ҳаётида, айниқса ёшлар ўртасида “блогер”, “хеш-тек”, “челленж”, “тик-тokerчи” “селфи” каби атамалар пайдо бўлди. Бу каби атамалар ёшлар ҳаёт

<sup>125</sup> Кудряшова А.П. Роль изучения иностранного языка в современном образовательном процессе.

<sup>126</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд, 2000й

<sup>127</sup> Абу Наср Фаробий, Фозил одамлар шаҳри. –Т.: Янги аср авлоди. 2016. – Б. 163-164

тарзини тубдан ўзгаришига олиб келмоқда. Бу атамалар ўз навбатида хорижий тиллардан ўзлаштирилиб, ёшлар ўртасида янги қизиқишлиарнинг оммалашишига сабаб бўлмоқда.

Медиатадқиқотчилар селфи тушиш пайтидаги баҳтсиз ҳодиса ва ўлимларни ўрганишда “Heimdill-Project” эпидемиологик разведка усулидан фойдаланишмоқда. Бу усул ёрдамида ижтимоий тармоқдан Селфи оқибатида содир бўлган барча баҳтсиз ҳодисалар ҳақидаги ахборотни топа олади, шу билан бирга, Селфи вақтида ўлимга олиб келмаган баҳтсиз ҳодисаларни ҳисобга олмайди. 2020 йил статистикасига кўра Селфи вақтидаги ўлимлар 50 та давлатга тегишли бўлган. Бугунги кунга келиб(2022), бу кўрсаткич сезиларли даражада ошган. Ижтимоий тармоқнинг бу каби салбий оқибатларини минглаб санаш мумкин.

Бундай медиавоситаларнинг ёшлар ҳаётида салбий оқибатларини олдини олиш ва миллат менталитетига таъсирини камайтириш хорижий тил ўқитувчиларидан катта маҳорат ва маъсулият талаб этади. Хорижий тил ўқитувчиси чет тилини билувчи мутахассис сифатида талаба-ёшларда ўзга миллат ёки мамлакат маданиятини ўз маданияти ва анъаналарига аралаштирмаслигини, қабул қилинаётган медиамахсулотни тахлил қилиш, унинг давлат ва жамият хаётига салбий таъсирини камайтиришда воситачи бўлиб хизмат қиласди.

Хулоса шуки, ҳар бир талаба-ёшлар жамият ва миллатимизнинг эртанги келажагига даҳлдор мустаҳкам пойдевордир. Шундай экан, талабаларнинг ижтимоий тармоқлардан мақсадли равишда фойдаланишлари, уларда медиамаданиятни шакллантириш, улар фойдаланаётган вертуал оламга кўз-кулоқ бўлишимиз бугунги куннинг долзарб вазифаларидан биридир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.**

1. Azizovna, U. B. (2023, February). Bo ‘lg ‘usi xorijiy til o ‘qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 2, pp. 163-167).
2. Azizovna, U. B. (2022). BO ‘LG ‘USI XORIJIY TIL O ‘QITUVCHILARI MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 26, 1-4.
3. Azizovna, U. B. (2022). Bo ‘Lg ‘Usi Xorijiy Til O ‘Qituvchilarning Mediamadaniyatini Rivojlantirishda Ta’lim Tizimilarining Integratsion Hamkorligining Ahamiyati. *Miasto Przyszlosci*, 26, 20-22.
4. Azizovna, U. B. (2022). Media ta’lim orqali media madaniyatni rivojlantirish. *Evrosiyo ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalar jurnali*, 12, 15-17.

5. Umurzoqova, B. A. (2023). PEDAGOG FAOLIYATI VA MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MEDIAMADANIYAT TA'SIRI. *Tadqiqot markazi*, 2 (1), 223-228.
6. Umurzoqova, B. A. (2022). BOLGUSI XORIZHIY TIL OKITUVCHILARINI FANLARARO HAKORLIK ASOSIDA MEDIAMADANIYTINI RIVOJLANTIRISH TUZILMASI VA PEDAGOG-PSIXOLOG XUSIYATLARI. *Fan va innovatsiyalar*, 1 (B3), 440-447.
7. Azizovna, U. B. (2023 yil, fevral). Bo 'lg 'usi ilmiy-nazariy yordam til o'qituvchilarining mediamadaniyatini rivojlantirishning asoslari. "Umumjahon ilmiy tadqiqotlar konferentsiyasi 2023" da (1-jild, № 2, 163-167-betlar).
8. Umurzoqova, B. (2022). BO 'LG 'USI XORIJIY TIL O 'QITUVCHILARIDA FANLARARO HAMKORLIK ASOSIDA MEDIAMADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK MAZMUNI VA MODELI. *Fan va innovatsiyalar*, 1 (B4), 470-473.
9. Azizovna, U. B. (2022). BO 'LG 'USI XORIJIY TIL O 'QITUVCHILARI MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Gospodarka va Innovacie.*, 26, 1-4.

## ТОШКЕНТ ШАҲРИ НЕКРОНИМЛАРИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТАСНИФИ

Зоитова Шохиста Асқаровна

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси

[zoitova\\_sh@mail.ru](mailto:zoitova_sh@mail.ru)

**Аннотация:** Ушбу мақолада Тошкент шаҳри некронимлари лексик-семантик жиҳатдан тасниф қилинади.

**Калит сўзлар:** урбаноним, некроним, топоним, лексик-семантик.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается лексико-семантическая классификация некронимов города Ташкента.

**Ключевые слова:** некроним, топоним, урбаноним, лексико-семантический.

**Annotation:** This article classifies necronyms of Tashkent lexically and semantically.

**Keywords:** urbanonym, necronym, toponym, lexical-semantic.

Топонимларни лисоний жиҳатдан таҳлил қилиш, айниқса, семантик хусусиятларини ўрганиш халқнинг миллий, этник, ижтимоий-сиёсий, маданий тарихини, тилнинг тарихий тараққиёти ва такомилини ёритишда, номинатив, коммуникатив моҳиятини акс эттиришда аҳамиятлидир. Ўзбек тили топонимикаси анча ривожланган бўлса-да, республиканизнинг барча худудлари етарли даражада семантик жиҳатдан тадқиқ этилмаган.

Олимлар топонимларни бекорга “ернинг тили” дейишмайди. Топономия тили сермаъно, сермазмун, серқирра ва қадимий тилдир. Таниқли рус олими Н.И.Надеждин таъкидлаганидек, “Ер – бу топонимлар ёрдамида инсоният тарихи битган китобдир”[5, 8].

Маълумки, мустақиллик шарофати билан республикамизда жой номлари тартибга солинди ва солиниб келмоқда, миллийлаштирилди, ўринсиз ўзгартирилган номлар қайта тикланди. Чунки жой номлари халқимизнинг қўп асрлар ижод қилган улкан лисоний ҳамда маданий-маърифий бойлигидир. Халқимиз қадимдан жойларни номлаш бўйича бой тажриба эга бўлган, ҳар бир жойни асоссиз, бесабаб, у ёки бу тарзда атамаган. Номларнинг пайдо бўлиши, яратилиши, қўйилиши сабаблари ҳақида халқ орасида қўпгина ҳикоялар, афсоналар, ривоятлар, содда ва муболагали, ҳаққоний ва ҳаётий талқинлар яратилган.

Ўзбек тилида адирлар, боғлар, бозорлар, гузарлар, дарёлар, кўуллар, қўприклар, кўчалар, маҳаллалар, масжидлар, овуллар, тепалар, тоғлар,

чойхоналар, чўллар, шаҳарлар, экинзорлар, қабристонлар, қудуқлар, ҳовузлар каби ўнлаб географик объектлар мавжуд ва улар қадимдан ўз номларига эга. Бу жой номларнинг умумлингвистик атамалари ҳам мавжуддир. Ҳар қандай тилга мансуб топонимларни таҳлил этишда дастлаб уларни тасниф этиш масаласи туради. Чунки тўғри амалга оширилган таснифгина қузатишлар олиб боришни енгиллаштиради[3, 89].

С.Қораевнинг таъкидлаганидек, топоним муайян маънони англатади ва у реал ҳодисани акс эттиради. Топонимларнинг ана шу реал воқеликни акс эттиришини ҳисобга олиб, уларни қандайдир гурухларга бўлиш керак. Топонимларни ана шундай тасниф қилиш уларнинг семантик моҳиятини ўрганиш ишини осонлаштиради[7, 204]. Жаҳон тилшунослигида ҳам, ўзбек тилшунослигида ҳам топонимларнинг лексик-семантик таснифини ўрганиш долзарб масала бўлиб келган ва бу борада бир нечта тадқиқот ишлари амалга оширилган[4.44].

Жой номларини тасниф этишда топономист олимлар томонидан анча ишлар қилинганлигини кузатишмиз мумкин, бироқ ўзбек тилидаги атоқли отларнинг баъзи типлари деярли ўрганилмаган ёки таҳлиллар етарлича эмас[2,4]. Топонимларнинг лексик-семантик тасниф этишда агроонимлар, антропойконимлар, антропотонимлар, гелонимлар, гидронимлар, дримонимлар, дрионимлар, дромонимлар, комонимлар, лимнонимлар, ойконимлар, оронимлар, парагогонимлар, пелагонимлар, полисонимлар(полионимлар), потамонимлар, спелеонимлар, теотопонимлар, топотопонимлар, урбанонимлар, фитотопонимлар, фитоийконимлар, хоронимлар, этноийконимлар, этнотопоним, эргоним, эргоурбаноним кабиларни ўрганиш кераклиги бугунги куннинг талабидир.

З.Дўсимов топонимлар таснифи бўйича олиб борган тадқиқотларида Т.Нафасов ва Л.Каримовалар топонимлар лексик-семантик таснифининг анча мукаммал вариантини таклиф қилганлигини маъқуллайди[4.49]. Олимлар топонимларни таснифлашда асосан икки йўналишни тавсия этади, яъни лексик-семантик ва грамматик тузилишга қўра тасниф қилиш.

Шаҳар ичида жойлашган атоқли от типлари келтирилганда гидроним (арик, канал, фаввора, булоқлар номи), оронимлар (тепаликлар номи), некронимлар (қабристонлар номи) учрайди. Айрим тадқиқотларни ҳисобга олинмаганда ўзбек номшуностигида некронимлар тўпланмаган ва деярли ўрганилмаган[1,65]. Тошкент шаҳрида етмишдан ортиқ некронимлар мавжуд. Масалан, *Минор қабристони* (Юнусобод тумани Ш.Рашидов шоҳкӯчаси), *Оқтепа қабристон* (Юнусобод т. Чинобод кўчаси), *Султонқўл қабристони* (Юнусобод тумани 13-даҳада), *Қаллиқ Ота қабристони* (Юнусобод туманидаги Ҳасанбой даҳаси), *Болтамозор қабристони* (Юнусобод туманидаги Чимкент шоҳкӯчаси 19б-уй),

*Оқил Ота қабристони* (Юнусобод туманидаги Оқил Ота кўчаси), *Ялонгоч-II қабристони* (Мирзо Улугбек тумани, Темур Малик кўчаси 15-ий), *Ялонгоч-I ҳудуд қабристони* (Мирзо Улугбек тумани, Буюк ипак йўли кўчаси), *Ялонгоч-II ҳудуд қабристони* (Мирзо Улугбек тумани, Темур Малик кўчаси, 23-ий), *Чўл-дараҳт қабристони* (Мирзо Улугбек тумани Гулсанам, Пилла тор кўчалари), *Қизмозор* (Мирзо Улугбек тумани, ТТЗ 1-даҳа, Буюк ипак йўли), *Олтингепа* (Мирзо Улугбек тумани, Миришкор кўчаси), *Авайхон* (Мирзо Улугбек тумани Авайхон кўчаси 54а-ий), *Лафарга* (Мирзо Улугбек тумани, Лафарга кўчаси), *Шўртепа* (М.Улугбек тумани, Темир Малик кўчаси), *Улугбек қабристони* (Мирзо Улугбек тумани, Улугбек шаҳарчаси), *Чингелди қабристони* (Мирзо Улугбек тумани, Янгиобод ҚФЙ, Чингелди маҳалласи) “*Тўқтепа*” қабристони (Мирзо Улугбек тумани, Янгиобод ҚФЙ, “Тўқтепа” маҳалласи), *Чилонзор ота қабристони* (Чилонзор тумани, Чилонзор маҳалласи, Эски Чилонзор 3-тор кўча), *Илонли ота қабристони* (Чилонзор тумани, Катта Хирмонтепа, Ал-Хорозмий кўчаси), *Мозортепа қабристони* (Чилонзор тумани, Наққошлик кўча), *Хирмонтепа қабристони* (Чилонзор тумани, 19-мавзе, Катта хирмонтепа кўчаси), *Бўтабува қабристони* (Чилонзор тумани М.Турсунхожаев кўчаси), *Катта қозиробод қабристони* (Чилонзор тумани, Чилонзор кўчаси), *Чоштепа қабристони* (Чилонзор тумани, Чорбоғ 1-тор кўча), *Ҳожимозор қабристони* (Чилонзортумани Жанубий-Ғарбий саноат ҳудуди, Бунёд кўчаси), *Сўгаллик ота қабристони* (Чилонзор тумани, Сўгаллик ота кўчаси), *Нўзойқўргон қабристони*.

Шунингдек, Тошкент шахри некронимлари ҳам лексик-семантик ва грамматик тузилишига кўра тадқиқ қилинмаган. Тошкент шаҳрида етмишдан ортиқ некронимлар мавжуд. Ҳар бири ўзининг номланиши билан фарқланади ҳамда уларнинг ўзига хос этимологик номланиши мавжуд.

Ш.Қодированинг “Микротопонимы Ташкента”[6,1970] мавзусидаги номзодлик диссертациясида шаҳар худудидаги объектлар илмий жиҳатдан ўрганилган. Ҳозирга келиб давр ўзгариши ва ижтимоий янгиликлар туфайли шаҳар топонимлари янги топономик таҳлилларни талаб қилмоқда.

*Некроним* – топоним тури бўлиб, (юн. *νεκρός* – некрос- қабристон + *οποτα* – атоқли от), яъни мозорлар, қабристонлар ва мана шу тип муқаддас қадамжойлар атоқли оти деган маънони англатади[2,48]. Некронимлар муқаддас қадамжойлар билан бир қаторда қадимги қатлам эканлиги билан характерланса, иккинчи томондан, узоқ яшовчи атамалардир. Ушбу атамалар одатда “қабр”, “қабристон”, “мозор”, “жой” каби индикаторлар қўлланилиб келади. Масалан: *Болта мозор, Гойибота мозори, Мозортепа қабристони, Қиз мозор, Ҳожи мозор*. Айрим ҳолларда мозорнинг номи, унинг баъзи белгилар, хусусиятларини ва рақамлар билан ҳам ифодаланади. *Оқ уй қабристони,, Тол ариқ қабристони, Қорасув-1, Қорасув-2, Оҳангарон йўлидаги 3-сонли қабристон*.

Қабристонлар номининг асосий қисми азиз-авлиёлар, муқаддас деб ҳисобланган зиёратгоҳлар номларидан кўчган: *Қўйлиқ ота, Чилон ота, Эшон ота, Илонлик ота, Ёпуғлик ота, Каллик ота, Fouib ота* каби. Уларнинг маълум бир қисми атрофидаги географик обьектлар номларидан кўчган. Бошқа бир қисми халқ, миллат, уруғ ва кишиларнинг номи билан аталади:

-географик обьектлар номлари: *Қўшикўргон қабристони, Гулистон қабристони, Олтингепа қабристони, Қатортол қабристони, Зах ариқ қабристони, Бектемир қабристони;*

-миллат ва уруғлар номи: *Япон мозори, Корейслар мозори, Троцкий қабристони, Боткин қабристони, Нўгойкўргон қабристони, Қозоқмозортепа қабристони, Бухоро Яҳудийлар мозори, Христиан-корейс мозори;*

-кишиларнинг номлари: *Мирза ота, Иброҳим ота, Саид ота, Фозил ота, Султон Шайх Бува қабристони;*

Қабристоннинг озчилик қисми бир-бирига қиёсан ёки жойлашиши ўрнига кўра номланган: “Дўмбиробод қабристони”, *Хонабодтепа қабристони, Бектемир қабристони, Қатортол қабристони, Оҳангарон йўлидаги 3-сонли қабристон.*

Топономик шаклларда мозор, қабристон сўzlари топоиндикаторлар сифатида иштирок этган. Топоиндикаторлар истемоли, яъни нутқда уларнинг қайси бири маҳаллий халқ тилида кўпроқ меъёрлашганидан ва талаффузга қулайлигидан далолат беради. Функционал жиҳатдан эса қабристон сўзи мозор ва гўрга нисбатан расмий саналади.

Тошкент шаҳрида ҳам зиёратгоҳлар мавжуддир. Бу обьектлар номларининг семантик структураси бошқа топонимлардан фарқ қиласди. Бу фарқлашлар топоним таркибида *азиз, авлиё, чилтон, шайх, эшон, ҳазрат, хўжса* сингари сўзларнинг фаол иштирок этишида кўринади. Бундан ташқари, бу йўналишдаги некронимлар таркибида *бобо, ота* каби сўзлар ҳам бошқа бирор ҳолатда бўлмаган мазмун касб этади, унда муқаддасликка ишора қилувчи ва хурмат-эътиром белгиси пайдо бўлади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, қабристон ва муқаддас жойларнинг номланишидаги асосий хусусият уларнинг шахс атоқли отлари, шахснинг диний хизматлари ва унвонлари билан номланишидадир.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Асланов А. Шофиркон некронимлари// Ўзбек тили ва адабиёти, 1999. -№463. -Б.65.
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати, -Наманган, 2006, 48-б.

3. Бўриев Н. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили. Филол. фан. ном. дисс. –Тошкент, 2010, 89-б.
4. Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир.//Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 1980.- №2. -Б.44-49.
5. Муҳаммадкаримов А. Тошкентнома. Биринчи китоб. -Т., Мовароуннахр, 2004, 8-б.
6. Қодирова Ш. Микротопонимы Ташкента. Автореф. дис. канд. наук. - Т., 1970.
7. Қораев С. Географик номлар маъноси. –Т: Ўзбекистон, 1978, 204-б.

## MUMTOZ EPIK ASARLARNI O'QITISHNING BADIY ASOSLARI

**Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna**

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti  
“Pedagogika” fakulteti, “Pedagogika va psixologiya”  
kafedrasи o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mumtoz epik asarlarni o‘qitish to‘g‘risida fikr mulohazalar bildiriladi. Xususan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini mакtabda o‘qitishning pedagogik asoslari keltirib o‘tiladi. Ma’lumki mumtoz asarlarni o‘qitish biroz mushkul. “Zinama zina” texnologiyasi yordamida asarni tahlil qilish yo‘l-yo‘riqlari batafsil bayon qilingan. Shuningdek, doston obrazlari tahlilida analitik yondashuv to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xamsanavislik, ishq, mumtoz, doston, tahlil, “Zinama zina”, texnologiya.

**Annotation:** In this article, opinions are expressed about the teaching of classic epic works. In particular, the pedagogical foundations of teaching Alisher Navoi's epic "Farhad and Shirin" at school are presented. It is known that teaching classical works is somewhat difficult. The instructions for the analysis of the work using the "Zinama zina" technology are described in detail. Also, recommendations are given on the analytical approach to the analysis of epic images.

**Key words:** romance, love, classical, epic, analysis, "Zinama zina", technology.

Maktabda adabiyot darslarida bir soatlik dars mashg‘uloti jarayonida o‘rganilayotgan badiiy asar yordamida o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularga yangi bilim berish, fikrlash doirasini rivojlantirish yetakchi maqsad hisoblanadi. Buning uchun o‘quvchi adabiyot darslarida tahlilga tortilgan asarlar qahramonlarining xatti-harakatlariga o‘z munosabatini bildirar ekan, o‘z fikrlarini yozma tarzda ham ifodalashi kerak. Yozma tahlilda o‘quvchi aqliga, qalbiga tayanib erkin fikrlaydi, qahramonlar bilan xayolan suhbatlashadi.

Mashg‘ulotning dastlabki soatlarida o‘quvchilar shoir yaratgan qahramonlar bilan ijodkor fe’l-atvori, dunyoqarashi, maqsadi orasida ma’lum bir bog‘liqlik bor ekanligini his qilishlari kerak. Xamsanavislik an’anasi haqida tushuncha berishda Navoiy “Xamsa”sida keltirilgan Nizomiy, Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylar haqidagi baytlarni tahlilga tortish ma’qul. Shunda o‘quvchilar “Xamsa” yaratish mushkul ish ekanligini, ijodkordan mashaqqatli mehnat, sabr-toqat, fikriy zalvor talab etishini anglab yetadilar.

Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasiga panja urmoq.

Tutay kim qildi o‘z changini ranja,

Nekim urdi aning changiga panja (“Farhod va Shirin”, 38-bet)

Ya’ni “maydon” so‘zi xamsanavislар ahliga ishora. Nizomiyning “panjasiga” “Xamsa”siga javob qaytarish oson ish emasligi, shu paytgacha kim uning “panjasiga panja” urgan bo‘lsa, o‘z panjasini mayib qildi. Xamsanavislар ko‘p bo‘lgan-u, lekin barchasi ham mukammal “Xamsa” yarata olishmagan. Kotibi Turshiziyy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy kabi ijodkorlar to‘lig‘icha “Xamsa” yaratishmagan. Darslikdan tashqari bu kabi ma’lumotlarning berilishi o‘quvchini Alisher Navoiy shaxsining ulug‘vorligini his etishga undaydi. O‘quv rejada dostonidan berilgan parchani o‘qib o‘rganishga o‘n soat ajratilgan. O‘quvchi matn bilan tanishar ekan, uni idrok etishni, shoirning so‘z qo‘llash mahorati orqali, badiiy ta’sirchanlikka erishganligini tushunsagina ijodkorning asar yozishdan maqsadi, g‘oyasi nima ekanligini anglab yetadi. Baytlarda uchraydigan notanish so‘zlar izohi darslikda berilgan. Lekin bu so‘zlar matn zamiridagi ma’noni ochib berish uchun yetarli emas, albatta. Shu jarayonda o‘qituvchi ham ancha mehnat qilishiga to‘g‘ri keladi. Asar zamirida mutafakkirning tasavvufiy qarashlari ham o‘z aksini topgan.

T/r	Darsning mavzusi	Soat
1	Alisher Navoiyning hayoti va ijodi	1
2	Xamsachilik tarixi	1
3	“Farhod va Shirin” dostonidan o‘qish	3
4	Doston matni ustida ishslash	2
5	Doston timsollari tahlili	2
6	Nazariy ma’lumot. Komil inson	1
7	2-nazotat ishi. Insho va tahlil. Farhod va Shirin timsollariga tavsif.	2

“Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlardan farqli o‘larоq “Farhod va Shirin”da voqealar rivojida o‘zaro chambarchas bog‘liqlik kuzatiladi. Darslikda doston boblarini bir-biriga bog‘lash maqsadida mualliflar tomonidan nasriy bayon keltirilgan. Sir emaski, bugungi kun o‘quvchisi uyga berilgan topshiriqni vaqtida bajarmaydi. Asardan yod olinishi kerak bo‘lgan parchalarni yod olmaydi, hisob. Buning uchun dars mashg‘ulotlarida asarning asosiy mohiyati aks etgan baytlarni tahlilga tortish samara beradi. Darslikda Farhodning dunyoga kelishi, xoqonning xursandchiligi bilan bog‘liq baytlar berilgan. Shu baytlardan asar g‘oyasini ochishga xizmat qiladigan ikki yoki uch bayt tanlanadi va o‘quvchilar bilan birga tahlil qilinadi. O‘quvchilarga bayt mazmun tushuntirilgach, ulardan dars davomida shu baytlarni yoddan aytib berish talab etiladi. Tajribadan ma’lumki, bu o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bayt mazmunini


tushungan o‘quvchi uni tez yod oladi. Dostonni o‘qib o‘rganish uchun o‘n soat vaqt ajratilgan. Shu vaqt oralig‘ida asardan ancha baytni yodlash mumkin.

Asar tahliliga qaratilgan topshiriqlar tuzishda matnning murakkablik darajasi, hajmi, o‘quvchining yosh xususiyati, bilimi, dostonni o‘qitish bo‘yicha ajratilgan o‘quv soati inobatga olinadi.

Darsning dastlabki mashg‘ulotlarida shoirning hayoti va ijodi bilan bog‘liq mavzuni o‘rganishda iqtidorli o‘quvchi bilan past o‘zlashtiruvchi o‘quvchini bir guruhga birlashtirib maxsus topshiriqlarni berish mumkin. Bilish, rivojlanish nazariyasining asoschisi Jan Piaji va uning tarafdarlarining fikricha, bolalar faqat o‘zлari kashf qilgan narsalar to‘g‘risida haqiqiy tushunchaga ega bo‘ladilar. Biz tez-tez o‘rgatishga harakat qilganimizda, ularni narsalarni qayta kashf qilishdan to‘xtatamiz.<sup>128</sup> Bunday topshiriqlar sirasiga taqdimot tayyorlash, shoirning hayoti bilan bog‘liq xalq orasida paydo bo‘lgan rivoyatlarni o‘rganish, internet ma’lumotlari asosida mustaqil ish yozish, shoir haqida zamondoshlarining asarlarida bildirilgan fikrlarni tahlil qilish, ijodkorning yaratgan obrazlari orqali uning o‘zini kashf qilish kabi bo‘lishi mumkin. Albatta, bu topshiriqlarni bajarishda o‘qituvchi ularni yo‘naltirib turadi. Topshiriqni yaxshi bajarishlari uchun kerakli manbalar bilan ta’minlaydi. O‘quvchini fanga qiziqtirish, izlanuvchanlikka o‘rgatish shunday amalga oshiriladi.

### “Zinama zina” texnologiyasi

Ushbu mashg‘ulot o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda yodga olish, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi.



Ushbu texnologiyani asar matni o‘qiladigan soatlarda yoki o‘qib bo‘linganidan so‘ng asar tahlili o‘tkaziladigan soatlarda qo‘llash mumkin. Buning uchun o‘qituvchi ko‘rgazmani dars mashg‘ulotidan avval tayyorlab qo‘yadi. Mashg‘ulotning dastlabki

<sup>128</sup>Пеаже З. Бола нутқи ва тафаккури. 1923-йил.

soatlarida doston o‘qilib, baytlar tahlil qilinishi jarayonida, o‘qituvchi maxsus qog‘ozga yozib tayyorlangan so‘zлами galma galdan sinf taxtasiga iladi. Bu so‘zlar tahlil jarayonida asar mazmunini olib berishda kalit so‘zlar vazifasini o‘taydi. O‘quvchilarga savol orqali murojaat qilinib, izohlashlari so‘raladi. O‘quvchilarning fikrlari galma galdan tinglanib, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi. Shu zaylda o‘rganilayotgan bilimlar o‘zlashtiriladi. O‘quvchida mustaqil fikrlash ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Masalan, Farhodning tug‘ilishi bilan bog‘liq baytlar o‘qilib, tahlil qilinayotgan jarayonda o‘qituvchi “Tug‘ilish (Ishq)” so‘zi yozilgan qog‘ozni sinf taxtasiga iladi va quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi.

1. Xoqon farzandsizlikdan iztirob chekib otasizlarga otalik qildi. Siz buni qanday tushunasiz?

2. Talay tangalar sochdi. Nazrlar qildi. Davlat-u qudratda yagona shoh qanday nazrlar qilgan bo‘lishi mumkin?

3. Yangi tug‘ilgan bola nega oyga, olamni yorituvchi quyoshga o‘xhatilgan?

4. Ishq so‘zga ta’rif bering.

5. Chaqaloqni atirgul, uzuk, uzukning (la’l) ko‘ziga qiyoslashdan shoirning maqsadi nima?

Shu kabi savollarga javob topish orqali asar mazmuni o‘quvchi tomonidan tushunib boriladi.

Badiiy obraz tahliliga analistik yondashuv o‘quvchilarning asarning yangicha kashf qilinishiga olib keladi. Asarning ich-ichiga kirib borish unga turli yechimlar izlab topish, o‘rinli qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. Tahlilning bu yo‘nalishi o‘quvchini mustaqil fikrlashga, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarga teran nigoh tashlashga o‘rgatadi. Dostonda ota va o‘g‘il ruhiy kechinmalarining badiiy talqiniga analistik yondashamiz. Asardagi asosiy voqealar Chin xoqoning farzandsizligi bilan boshlanadi.

*Tajammul onda Afriduncha yuz ming,*

*Xazona maxzani Qorunda yuz ming. (“Farhod va Shirin”, 73-bet)*

Uning mulki Eron shohi davlatidan yuz ming marta ko‘p. Ammo unga falak farzand ato etmagan.

*O‘g‘ilsizlig‘din o‘ldi bu shikanjim*

*Ki, Haq daf aylagay bu dard-u ranjim. (“Farhod va Shirin”, 76-bet)*

Uning ko‘rgan barcha azoblari farzandsizlikdan. Nihoyat xoqoning yagona muddaosi farzand edi. Duosi ijobat bo‘ldi.

*Chu xoqoning bu erdi muddaosi*

*Ijobat qurbini topib duosi.*

*Shabistonida tug‘di yangi bir oy*

*Yangi oy yo‘qli mehri olamoroy. (“Farhod va Shirin”, 77-bet)*

Xoqonning muddaosi farzandli bo‘lish. U Ollohdan iltijo qilib merosxo‘r so‘raydi. Nihoyat duolari ijobat bo‘lib, farzandli bo‘ladi. Tun kabi bo‘lgan hayoti Farhod tug‘ilishi bilan yorishadi.

Shu o‘rinda o‘quvchini xoqonning ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni yaqqol gavdalantirishda mulohazaga undaydigan savollar bilan murojaat qilish mumkin.

1. Xoqonning ham hayoti shabiston (tun) kabi bo‘lishi mumkinmi? Axir uning imkoniyatlari ko‘p bo‘lsa, butun mamlakat oyog‘i ostida yastanib turadi-ku? Bunday savollar o‘quvchini o‘ylashga, hayot haqida mushohada yuritishga majbur qiladi. Azal taqdir qoshida shoh ham gado ham barobar ekanligini tushuna boradi.

*Nigin-u la’l yo ‘q, duri shabafro ‘z,*

*Dema dur gavhari, lekin jahonso ‘z. (“Farhod va Shirin”, 78-bet)*

Davron xoqonning qo‘liga shunday uzuk taqdiki, bu uzukning ko‘zidan otashin la’l parchasi yonib turgandek edi. Nigin deyilganda, Farhod nazarda tutilgan. Ko‘zida otashin la’l parchasining yonib turishi uning ishq bilan tug‘ilganiga ishora. Farzandli bo‘lganidan sevinchga to‘lgan xoqon o‘g‘liga chiroyli ism qo‘yadi. Farzandining kamoloti uchun neki yaxshi bo‘lsa barchasini bajaradi. Farhod tengdoshlariga nisbatan aqlida tengsiz, favqulodda iste’dod sohibi edi. Farhod yigit yoshiga yetdi. Lekin tug‘ma ishq ta’sirida doimo g‘amgin alam dard bilan ko‘milgan edi.<sup>129</sup> Xoqon o‘g‘lidan g‘amginlikni ketkazmak niyatida to‘rt qasr qurdiradi va o‘g‘lidan taxtga o‘tirishini so‘raydi.

*Ki, ya’ni taj-u taxt-u saltanat ham,*

*Sipoh-u mulk-u mol-u mamlakat ham. (“Farhod va Shirin”, 134-bet)*

Farhod odob tavoze bilan taxtni rad etadi. Asarda ota-o‘g‘ilning o‘zaro suhbat keltirilgan baytlarni ko‘zdan kechirilsa ularning mulohazalari teran. Bir so‘zni so‘zlashdan oldin obdon o‘ylab keyin mushohada yurituvchi Farhodda bir qancha ezgu fazilatlar mujassam ekanligini ko‘rish mumkin. Tahlil davomida ota-o‘g‘il munosabatlarda o‘zaro hurmat, andisha ustuvorligiga, ota o‘g‘ilga, o‘g‘il otaga munosib pokiza, iymon e’tiqodli inson ekaniga e’tibor qaratiladi.

Farhod suratining yorqin chizgilari – suhbat davomida o‘zini tuta bilishi, hozirjavobligi, ilm-u donishda tengsizligida ko‘rinadi. Xoqon o‘g‘lining ruhiy holatini tushunadigan, suhbatini tinglaydigan, farzandining orzu-istiklarini hurmat qiladigan ota timsoli. Farhod tilsimni yechish uchun Yunonistonga safar qilishga xoqondan ruxsat so‘raydi. Shunda ota o‘g‘liga rozilik berib, u bilan birga borishga qaror qiladi.

Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi aktual masalalar yechimini Navoiy shu o‘rinda berib o‘tadi. Ya’ni farzand bilan munosabatlarda otalarga mulohazakor bo‘lishni, farzandning fe’l-atvorini, uning ruhiy holatini hisobga olgan holda suhbatlashish kerakligini xoqon misolida ko‘rsatgan. Darslikda ota va o‘g‘il o‘rtasidagi suhbat

<sup>129</sup> Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf darsligi. –T.: O‘zbekiston, 2019. –B.

to‘laligicha kiritilmagan. O‘qituvchi aynan dostonning shu o‘rnidan tahlil uchun parcha tayyorlashi zarur bo‘ladi. Tayyorlangan parcha o‘quvchilarga suhbat odobi uchun saboq bo‘lishi kerak. Dars davomida o‘quvchi ota-onani qanday hurmat qilishni tushunishi, ota bilan so‘zlashganda o‘ylab gapirish, sharqona odob qoidalariga rioya etish kerakligini anglaydi. Dostonning aynan shu o‘rinlarini tahlilga tortish o‘quvchiga pand-nasihat qilgan bilan barobar bo‘ladi. Bola o‘ziga kerakli xulosani chiqaradi. O‘z-o‘zidan uydagи kattalar bilan munosabatini taftish qila boshlaydi. Badiiy obraz tahliliga analitik yondashuv ko‘proq yuqori sinflarga qo‘l keladi. Chunki 16-17 yosh oralig‘idagi o‘quvchi yon-atrofda bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabatini harchand bildirishga harakat qiladi. Adabiyot darslarida badiiy asarlar tahlil qilinib, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama etilish jarayonida o‘quvchilar odam va olam sirlarini o‘rganadilar, asar muallifi va adabiy qahramonlar timsolida insonni kashf etadilar, oxir oqibat navqiron fuqaro o‘zligini anglay boshlaydi. O‘zligini anglagan mustaqil nazarga ega bo‘lgan odam o‘z taqdirini boshqalar hal qilib yuboraverishiga yo‘l qo‘ymaydi.<sup>130</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Пеаже З. Бола нутқи ва тафаккури. 1923-йил.
2. Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf darsligi. –T.: O‘zbekiston, 2019. –B.
- 3.Q, Husanboyeva, R. Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T.: Innovatsiya-ziyo. 2020. – B. 46.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Tamaddun. –T. :2021. -540.

---

<sup>130</sup>Q, Husanboyeva, R. Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T.: Innovatsiya-ziyo. 2020. – B. 46.

## NEMIS TILIDA “HEIMAT” KONSEPTINING TARIXIY-ETIMOLOGIK TAHLILI

Hayotova Dilafro‘z Zoyirovna

Buxoro davlat universiteti nemis filologiyasi kafedrasи katta o’qituvchisi

[d.z.hayotova@buxdu.uz](mailto:d.z.hayotova@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bu - konseptdir. Bu termin kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada “Heimat” ya’ni “Vatan” konseptining nemis tilida o’rganilishi tadqiqqa tortiladi. Konsept atamasi kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyat uchun ham umumit atama bo’lsada, ikkala fan uchun ham ikki xil tushunchani anglatadi.

**Tayanch so’z va iboralar:** kognitiv tilshunoslik, konsept, diaxronik, tushuncha, mantiqiy kategoriya, "Vatan" konsepti.

Nemis tilida “*Heimat*” konseptini ta’riflashda diaxronik yondashuvni amalgaloshirish eng maqsadli hisoblanadi. “*Vatan*” konsepti nemis tilida *Heimat* leksemasi yordamida izohlanadi. Etimologik lug’atga ko’ra (Etymologisches Wörterbuch des Deutschen... 1993) Heimat f. **“Ort, Land, wo man geboren, wo man zu Hause ist.** “*Vatan*” bu yer, inson tug’ilib o’sgan yurti, o’zini uyidagidek his qiladigan joy deb ta’rif berilgan.

Demak, “*Heimat*” leksemasining asosiy semalari “*joy*” va “*yurt*” so’zlaridir. Shuningdek, “*Heimat*” so’zi semantikasida nafaqat aql sohasini, balki his-tuyg’ularni ham nazarda tutishini ta’kidlaydi.

Heimat so’zining kelib chiqishi haqida quyidagilar ma’lumotlar mavjud: “Die nur auf das dt. Sprachgebiet beschränkten Formen ahd. *heimōti* n. (XI. Jh.), mhd. *heimuot(e)*, *heimōt(e)*, *heimōde* f. n., mnd. *hēmōde* f. n. sind Bildungen zu dem unter Heim (s. d.) behandelten Substantiv mit dem Suffix westgerm. -ōđja-, ahd. -ōti (s. *Einōde* sowie *Armut*, *Kleinod*, *Zierat*). *Heimat* (mit Wandel von ō zu ā) begegnet seit dem XV. Jh. und wird vom XVI. Jh. vorherrschend. Neutrales Genus ist bis ins XVII. Jh. gebräuchlich, Mundartendagi danach nur noch. – heimatlich Adj. ‘in der Heimat vorhanden, die Heimat betreffend, zu ihr gehörend’ (XVIII. Jh.) (Etymologisches Wörterbuch des Deutschen... 1993, 525).

Etimologik ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, Heimat leksemasi asl bo’lib, boshqa tillardan o’zlashtirilmagan, u nemis tilida so’zlashuvchi mamlakatlarda G’arbiy nemischa -ōđja-, qadimgi nemis qo’shimchasini qo’shish orqali Heim otidan hosil bo’lgan shakllarda uchraydi. -ōti. Bu leksema (-at qo`shimchasi bilan shakllangan shakl) XV asrdan boshlab qo’llanila boshlagan va Heim leksemasi bilan birga sinonim

sifatida qo‘llanilgan. Faqat 16-asrdan Heimat leksemasining “vatan” ma’nosida qo‘llanishi Heim leksemasida ustunlik qiladi. 17-asrgacha Heimat leksemasi, shuningdek, Heim hosil qiluvchi ko‘rinishda ham saqlanib qolgan, shundan so‘ng uning sredniy roddagi ot turkumiga mansubligi sheva nutqida mustahkamlanib qolgan, adabiy nutqda esa jenskiy rodda qo‘llanilgan.

HEIMAT konseptini tahlil qilish hamda etimologik lug‘at ma'lumotlari asosida Heimat so‘zida - *Heim* ma’nosiga urg‘u beriladi. Heim so‘zi Germaniyada 15-asrgacha “vatan” ma’nosida ishlatilgan. *Heim* n. "Zuhause, Wohnung, Wohnstätte für einen bestimmten Personenkreis, Statte für Zusammenkünfte und Veranstaltungen". Lug‘at ta’rifi shuni ko‘rsatadiki, Heim leksemasining asosiy semasi “Zuhauze” bo‘lib, *burchak, o‘choq, uyni* bildiradi. *Heim*, shuningdek, *uy, odamlarning ma'lum bir doirasi uchun yashash joyi, uchrashuvlar va tadbirlar uchun joy* ma’nolarini anglatadi.

Qadimgi nemis adabiy davrida Heimat so‘zi jenskiy rodga tegishli bo‘lgan va "Wohnsitz, Heim, Heimat" kabi tushunchalarini ifodalagan, ya’ni: "turar joy, uy, vatan". Biroq XII asr qo‘lyozmalariga ko‘ra, X asrda faterheima f. ayol leksemasi bilan bir qatorda faterheim m. erkak leksemasi ham qo‘llangani aniqlangan bo‘lib, u "Heimat, Vaterland, Geburtsland", ya’ni: "Vatan, vatan, inson tug'ilgan yurt" ma’nolarini anglatadi.

Qadimgi sakson tilida o‘rganilayotgan etimonaning o‘xshashi bo‘luvchi leksema hēm n., o‘rta pastki nemis tilida — hēm(e) f., hēm n., o‘rta golland tilida — heem, heim n., in. Qadimgi inglizcha - hām m. leksemasi bo‘lib, u "Landgut, Dorf" "mulk, qishloq", inglizchada – *uy(home)* ma’nolarini ham berdadi. Qadimgi skandinav tilidagi *heimr* "Heimat" ma’nosi beradi va bu so‘zning rodi mujskoy rodda bo‘lib,

"Heimat" "vatan", "Welt" "dunyo, yorug‘lik, koinot, yer shari" ma’nolarini anglatadi.

Shved tilidagi *hem* leksemasi "Wohnung, Haus, Heimat" "turar-joy, uy, vatan" (qadimgi nemis \*haima-) ma’nolarida xizmat qilgan bo‘lsa, gotik tilidagi *haim* leksemasi f. "Qishloq, shaharcha, aholi punkti" ma’nosida "Dorf, Flecken" xalqaro ildiz \*kei- "liegen" bilan tavsiflanadi.

F.Klyugening etimologik lug‘atida qadimgi hind tilida "yer, dunyo, borliq", shuningdek, "yer, tuproq" kabi Heim leksemalari qiziqarli qayd etilgan: "(...) in ai.. bhūma (neytraler n-Stamm) 'Erde, Welt, Wesen' neben ai. bhūmi-f. (femininer i-Stamm) "Erde, Boden" (...)" (Kluge 1989, 301).

J. Grimm va B. Grimmning nemis tilining etimologik lug‘atiga ko‘ra, Heimat semelari sifatida quyidagilar ajralib turadi: 'shaxs tug'ilgan yoki uning doimiy yashash joyi bo‘lgan mamlakat yoki faqat joy'; hayvonlar va o’simliklar uchun vatan ma’nosida bir xil; "ota-onal uyi, mulk" (haus and hof, besitzthum); "tug'ilgan joyi va doimiy yashash joyi"; "Xristian uchun samoviy vatan, u mehmon yoki begona bo‘lgan erdan

farqli o'laroq"; nomli leksema ham she'riyatda va idiomatik birikmalarda (masalan, Bavariya shevasida) ishlatiladi (Deutsches Wörterbuch..., Bd. 4 1984, 864–866).

16-asrdan boshlab 18-asrning o'rtalariga qadar Nemis adabiy tilida Heim so'zi kamdan-kam ishlatilgan. Biroq 18-asrning o'rtalarida faol leksema (sredni rod) heim qo'shimchasi ta'sirida qo'llangan va "uy", ravishdosh otdan kelib chiqqan, mujskoy rod, tushum kelishigada, birlikda, qadimgi yuqori nemis tilida *heim* (IX asr), o'rta yuqori *heim* 'nach Hause' "uy", althochdeutsch (ya'ni qadimgi yuqori nemis tili davri – VIII–XI asrlar) *heime* (IX asr), *heime* (XI asr), mittelhochdeutsch (o'rta yuqori nemis tili davri – XI–XIV asrlar) *heime* "uyda", ingliz tilida *home*, shved tilida *hem* kabima'nolarni anglatgan ***Daheim*** ravishi yuqori nemis tili davrida "zu Hause" "uy" ma'nosini oldi. *thār heim* (IX asr), o'rta yuqori davrda *dā heim(e)*, shved tilida *hemma* uy ma'nosini bergen.

Shunday qilib, qaratqich va qaratqich kelishigida Heim ot ravishdoshi maqomini oldi. (Duden. Bedeutungswörterbuch... 1985, 524–525). Bu leksema fe'l bilan birikmada polisemantik bo'lib, *heimgehen* Vb. "uyga qaytish" (XV asr), majoziy ma'noda "o'lish" (XVIII asr), mos ravishda *Heimgang* m. (XIX asr) "uyga qaytish; evfem. o'lim, halokat"; *heimkehren*, "O'z vataniga, uyiga qaytish" (XVI asr), *Heimkehr* f. (XVIII asr) "uyga (vatanga) qaytish"; *heimzahlen*, "To'lash" (qarz), *mukofot*" (XVIII asr), *Heimzahlung* f. (XIX asr) "to'lov, qasos". *Heimisch* Adj. 'heimatlich, häuslich, vertraut, gewohnt' "mahalliy, uy, yaqin, tanish", yuqori nemis tili davrida *heimisk* (VIII asr), o'rta yuqori. *heim(i)sch*, shuningdek, "yovvoyi emas, qo'lga o'rgatilagan" degan ma'noni anglatadi.

*Heimwärts* Adv. "Vatanga, uyga", qadimgi yuqori *heimwartes* (IX asr), o'rta yuqori davrda *Heimwart*, *Heimwert* (qarang.- warts). *Heimweg* m, "Uyga yo'l, uyga qaytish yo'li", o'rta-yuqori nemis tili davrida *heimweg*. *Heimweh* n. "Uyni, uyni sog'inish" (16-asr oxiri). Oxirgi ot, ehtimol, dastlab Shveytsariyada kasallik belgisi sifatida paydo bo'lgan va 18-asrning ikkinchi yarmidan boshlab tibbiy ma'noni ko'rsatish uchun tarqaldi, "nostalgiya" ma'nosiga (Duden. Bedeutungswörterbuch 1985, 524–525). Ko'p jihatdan inglizlarning ta'siri tufayli *home* so'zi Heim so'zining muomalaga kirishida asos bo'ldi (Duden. Etymologie Herkunftswörterbuch... 1989, 276).

Demak, tarixan *Heimat* leksemasi "uy" ma'nosini bilan bog'langan, chunki u "uy, turar joy" so'zidan qo'shimcha hosil bo'lgan. 15-asrdan keyin semantik o'sish sodir bo'lganligi sababli nemis tili lug'atlarida qayd etilgan *Heimat* leksemasining polisemiyasi fonida uning tarkibida asosiy semantik komponenti ajralib turadi va "kelib chiqish joyi (joyi) / yashash joyi / topish istagi" (Ignatova 2008) kabi ma'nolarni anglatadi. Tarixiy jihatdan Heimat qo'shimcha shakllanish bo'lishiga qaramay, zamonaviy nemis tilida bu soddallashtirish jarayonidan o'tgan hosila bo'lmanган birlikdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, lug'atlarda XIX asrgacha Heimat va Vaterland leksemalarining ma'nosida farqlanish mavjud emasligi ko'rsatilgan.

Etimologik lug'atga ko'ra, Vaterland leksemasi XI asrdan boshlab tilga olinadi. (qadimgi yuqori.. faterlant), uning birinchi qismi lotin tilidan olingan (patria - pater "ota" dan olingan): "Vaterland n. 'Land, in dem man geboren ist, zu dessen Volk man gehört', ahd., faterlant (11 Jh.), mhd. vaterlant, nach gleichbed. lat. patria" (Etymologisches Wörterbuch... 1993, 1496). Shunday qilib, Vaterland - bu kimningdir tug'ilgan, aholisiga tegishli bo'lgan mamlakat. Vaterland leksemasi aniqlovchi va aniqlovchi komponentdan tashkil topgan kompozitsiyadir. So'zning ichki shaklida quyidagi komponentlar ajralib turadi: *Vater 'ota'* va *Land 'yer'*. 12-asrda "Vatan, osmon" semasini ta'kidlash qiziqarli ko'rindi. O'rta yuqorida: "12. Jh., mhd. vaterlant "Heimat, Himmel"; freie Übertragung von lat. patria 'Vaterland', dazu vaterländisch (18 Jh.) /.../" (Duden. Etymologie Herkunftswörterbuch... 1989, 776). J. Grimm va V. Grimmning nemis lug'atida Vaterland so'zi bo'limganligi qayd etilgan. qadimgi german shevalarida qo'llangan, lekin boshqa so'zlar bilan almashtirilgan, ayniqsa heim leksemasi yoki birikmalari, masalan, Anglosakson fæderêdelidagi kabi. Skandinaviya tilida föðurland "zamonaviy tovushli" / "modernklingend" leksemasi kamdan-kam uchraydi. O'rta oliv nemis davrida leksema keng tarqaldi, garchi eski past nemis shevasida uni o'z ichiga olmaydi. Hozirgi german tillarida quyidagi leksemalar ildiz otgan: golland tilida vaderland, inglizchada fatherland, daniyada fædreland, shved tilida fädernesland. Taxminlarga ko'ra, Vaterlandning tarixiy rejasidagi birinchi ma'no "haydaladigan er, otaga tegishli bo'lib, bola meros qilib oladigan er uchastkasi" edi. Bu yerning asl ma'nosini bilan bog'liq, ya'ni: 'der zu bebauende acker', ya'ni. ekilishi kerak bo'lgan dala, ekin maydonlari. So'zning hosilaviy salohiyatining keyingi rivojlanishi faterheim "otalar uyi" va faderuodal "otaning mulki" leksemalari bilan bog'liq bo'lib, ular "patria" ma'nosini oladi.

"Vatan" (Deutsches Wörterbuch..., Bd. 12 1984, 27-29). J. Grimm va V. Grimmlar lug'atida qayd etilgan Vaterland leksemasining ma'nolari quyidagicha: "Otam yashaydigan/yashagan, men tegishli ekanligimni anglagan mamlakat" bu ma'no ko'pincha "Otam" tug'ilgan mamlakat, garchi bu shart emas; "nafaqat aniq bir shaxsning, balki butun xalqning vatani"; "jannat masihiy uchun haqiqiy vatan sifatida, yerdagi vatandan farqli o'laroq"; "hayvonlar, o'simliklar va toshlar kelib chiqqan joy"; "jonsiz narsalar va mavhum tushunchalarning kelib chiqish joyi". Oxirgi ma'no yaqinroq bo'lib, u "vatan" tushunchasining timsoli bilan tavsiflanadi. Ushbu lug'at vaterland – vaterstadt leksemalarining sinonimik ishlatalishini ham ko'rsatadi (Deutsches Wörterbuch..., Bd. 12 1984, 27–29).

Demak, Heimat va Vaterland leksemalarida turg'un semantik o'zak bor. Dastlab ular sinonimik birliklar sifatida qo'llanilgan bo'lsa-da, bora-bora ularning ma'nolari semantik jihatdan farqlanadi. Ignatova Heimat- va Vaterlands- komponentlari bilan

kompozitsiyalarni tahlil qilib, Heimat asosan "uy" va "eng yaqin mikrotoponimik muhit" ma'nolariga ega bo'lgan substantivlar bilan birlashtirilgan degan xulosaga keldi. Uning "kichik vatan" ma'nosi shu tarzda amalga oshiriladi. Vaterland esa his-tuyg'ular va axloqiy va axloqiy tushunchalarni bildiruvchi otlar bilan birlashtirilgan bo'lib, bu o'z navbatida 19-asrning o'rtalarida shakllanishni tasdiqlaydi. siyosiy va mafkuraviy kontseptsiyani tavsiflovchi semantik komponent Vaterland leksemasi ma'nosida (Ignatova 2008).

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jo'rayeva M.M.Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv,milliy-madaniyxususiyatlari.Monografiya.Fanlar akademiyasining "Fan"nashryoti. – Toshkent, 2016
2. Jo'rayeva M.M.Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv,milliy-madaniyxususiyatlari.Filolog fan diss Toshkent,2017. –В. 45;48
3. Игнатова.Е.М Концепт Родина в социално-культурном контексте Германии.Вопросы филологии-2006-№С-8
4. Аскольдов С. Концепты слова Русская Словесность. М, 1997, – С.269
5. Арутюнова Н. Д. Воля и свобода / Н. Д. Арутюнова // Логический анализ языка. Космос и хаос. Концептуальные поля порядка и беспорядка. – М. :Индрик, 2003. – С. 73–100.
6. Пименова М. В. Концепт сердце : Образ. Понятие. Символ : монография / М. В
7. Das Psychologie – Lexikon.-Deutschland,2008
8. Akademie der Wissenschaften zu Göttingen Deutsches Wörterbuch von Jacob Grimm und Wilhelm Grimm.-Berlin,2013
9. Hayotova D. KONSEPT VA TUSHUNCHA MUNOSABATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
10. Zoyirovna H. D. The Role of the Concept in Modern Linguistics and Considerations about the Concept //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 134-138.
11. Hayotova D. TUSHUNCHA VA SO'Z MUNOSABATI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.
12. Zoyirovna H. D. Studies on the Concept of "Motherland"("Heimat") in Cognitive Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-158.
13. Sharopovna B. R. Nomlarni Tadqiq Qilishda Turli Yondashuvlar //Miasto Przyszlosci. – 2022. – Т. 30. – С. 337-339.

14. Бозорова Р. Ш. СУВ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖОЙ НОМЛАРИНИНГ ЛИСОНИЙ ҚАТЛАМЛАРИ ТАҲЛИЛИ //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 112-118.
15. Pirmukhammadovich R. A. Flipped Learning in The Educational Process: Essence, Advantages, Limitations //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
16. Babayev O. THE FIRST ENCOUNTER BETWEEN JALOLIDDIN RUMI AND SHAMS TABRIZI //SENTR NAUCHНЫХ PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
17. Abdikarimovich, Mr B. O. "The True Values of the Mavlono Jaloliddin Muhammad Rumiy's Philosophy in Russian Translations." International Journal on Orange Technologies, vol. 2, no. 12, 31 Dec. 2020, pp. 68-71, doi:10.31149/ijot.v2i12.1091.
18. Hayotova D. KONSEPT TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 42. – №. 42.
19. Hayotova D. " VATAN" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
20. Hayotova D. Studies on the Concept of “Motherland”(“Heimat”) in Cognitive Linguistics //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.

## CHO‘LPON SHE’RIYATINI O‘QITISHDA AUDIOVIZUALLIK

Choriyev Umar

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Cho‘lpone she’riyatini audiovizuallik asosida o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar berilgan bo‘lib, uni ta’lim bosqichlarida qo‘llashning samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bu jarayonda noan’anaviy darslarning ahamiyati borasida ham mulohazalar keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** audiovizual, noan’anaviy dars, QR kod, ifodali o‘qish.

**Аннотация.** В данной статье даны рекомендации по обучению поэзии Чолпона на основе аудиовизуальных средств, а также рассмотрена эффективность ее использования на образовательных этапах. Также в этом процессе учитывается важность нетрадиционных занятий.

**Ключевые слова:** аудиовизуальное, нетрадиционный урок, QR-код, выразительное чтение.

**Annotation.** This article provides recommendations for teaching Cholpon’s poetry on the basis of audiovisuals, and discusses the effectiveness of its use in educational stages. Also, in this process, considerations are made about the importance of non-traditional classes.

**Key words:** audiovisual, non-traditional lesson, QR code, expressive reading.

Maktab ta’limini rivojlantirish, ayniqsa, ta’lim jarayonini maqsadli tashkil etishda pedagogning boshqaruvchilik mahorati asosiy omillardan biridir. Chunki pedagog qanchalik bilimdon bo‘lsa, o‘z ishini sevsа, yangi samarali tajribalarni egallash ustida tinimsiz ishlasa, o‘zi yangiliklar ijod etish uchun izlansa, uning darsida ta’limning samarasi yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Ma’lumki, har qanday pedagogik texnologiya “ta’lim beruvchi – jarayon – ta’lim oluvchi” munosabatida tashkil etiladi, ya’ni ta’limning bu jarayonida ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham bir chiziqdа faoliyat olib boradi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchining o‘zi izlanishi, muammolar yechimini o‘zi topishi, guruhlarda do’stona muhitni yuzaga keltirishi, mantiqiy fikrlab yakdil qaror chiqarishi, fikrlarini asosli, erkin va ravon bayon etishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ta’lim beruvchining o‘zi esa dars jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi, yo‘naltiruvchisi, kuzatuvchisi, nazoratchisi, ta’lim oluvchi (o‘quvchi yoki tinglovchi)ning do’sti, hamkor, yordamchisi sifatida faoliyat yuritadi<sup>131</sup>.

Adabiyot yaratilgan ilk davrlaridan boshlab insoniyatga yuksak darajadagi ruhiy-ma’naviy ozuqa baxsh etib, unga o‘zi va o‘zligini, hayot mohiyatini anglatishga,

<sup>131</sup> Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.–T.: Sano-standart. 2017.–B.15.

yaratuvchi – yaralmish asrorlarini kashf etishga xizmat qilib kelmoqda. Shu ma’noda, har bir badiiy asar janri va hajmidan qat’i nazar o‘ziga xos hayot maktabi, “ma’rifat maktabi”, “estetik zavq manbayi”dir. Dars jarayonida “Qanday va qaysi vositalar bilan o‘quv mareriallarini o‘quvchiga yetkazish kerak?” degan savolga javob berishi zarur. Bu bosqichda ular o‘zlarining grafika bo‘yicha bilimlari asosida va kompyuterning audio imkoniyatlarini bilgan holda, qaysi vaziyatlarda axborotlarni qanday uzatish maqsadga muvofiqligini aniq bilishlari shart. Multimediya tizimlarini yaratishda kompyuterlar, audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlari uyg‘unligiga erishish muhim hisoblanadi. Bunday tizim dasturiy vositalar va asboblar majmuasini shakllantirib, axborotning matn, grafika, ovoz, tasvir kabi turli ko‘rinishlarini o‘zida mujassam etadi. Bunday vositalardan noan’anaviy darslarda unumli foydalaniladi.

Noan’anaviy darslarda asosiy e’tibor o‘quvchiga qaratiladi va asosiy ishtirokchi o‘quvchi bo‘ladi. Noan’anaviy darslarda dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarining qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi zarur. O‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, tadqiqot, rolli o‘yinlar metodlarini qo‘llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o‘quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta’lim vositalaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi<sup>132</sup>.

Ta’lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlarning o‘rni va imkoniyatlari beqiyosdir. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishslash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat. Interfaol metodlar va texnik vositalarni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash lozim. Jumladan, audio bilan ishslash jarayonlari.

Audio bilan ishslash murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Montajda videodagi audiolar bir nechta turlarga bo‘linadi:

1. Ovoz: bu personajlar ovozi yoki orqa fonda o‘qiladigan tekst yoki ovoz berish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.
2. Musiqa: videoga o‘ziga xos kayfiyat baxsh etish uchun yoki personajlar bo‘lmaganda videoda asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

<sup>132</sup> O‘quvchilarga dasturlash tillarini o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanishning psixologik imkoniyatlari. <https://elibrary.ru>

3. Intershum (Room tone): juda yuqori bo‘lmagan video tasvirga tabiiylikni beruvchi ovozlar. Masalan: qushlar ovozi, suv va hokazolar.

4. Foley (SFX): qisqa detal ovozlari. Masalan: eshik ochilishi, predmetlar surilishi, qadam ...

Ovoz muharriri - ovozli ma’lumotlarni raqamli shaklda tahrirlash uchun dastur (raqamli ovoz yozish). Ovoz ma’lumotlari to‘lqin shakli deb nomlangan audio signalning amplitudasiga mos keladigan bitta konvert bilan birlashtirilgan namunalar ketma-ketligi sifatida grafik ravishda taqdim etiladi. Bunday signalogrammaning grafik tasviriga ega bo‘lgan dastur oynasi trek yoki audio trek deb nomlanadi.

Audio va ovoz muharrirlaridan adabiyot darslarida ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biror bir ijodkorning she’r va nasriy asarini o‘rganishda ham qo‘llash mumkin.

Cho‘lpon ijodi umumta’lim maktablarining 7-sinfidan boshlab o‘rganilar edi (Umumiyo‘rtta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua, Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J., 2017 y.). Unda ijodkorning “Go‘zal”, “Buzilgan o‘lka”, “Binafsha” she’rlari berilgan bo‘lib, bu, albatta, o‘quvchining yoshi va o‘zlashtirish imkoniyatlari ko‘ra kiritilgan. Biroq yangi avlod darsliklariga (Mirzayeva Z., Jalilov K., 2022 y.) ushbu ijodkorning hayoti va ijodi bilan bog‘liq mavzular kiritilmadi. Shunday bo‘lsa-da o‘quvchilarni shunday buyuklar ijodidan bahramand bo‘lishlarini maqsad qilgan holda Cho‘lpon lirikasini sinfdan tashqari o‘qish darslarida hamda fan to‘garaklarida o‘tilishini tavsiya qilamiz. Chunki sinfda o‘rganish ko‘zda tutilgan she’rlar Cho‘lponning shoh asarlari sirasiga kiradi. Bu holat o‘qituvchining vazifasini bir qadar yengillatgani kabi uning zimmasiga qo‘srimcha mas’uliyat ham yuklaydi. Negaki, shoh asarlarni, zamon she’riyatining asl namunalarini o‘rgatishning o‘ziga yarasha mas’ulligi bo‘lishi tabiiydir. Tadqiqotimizda Cho‘lponning “Go‘zal” she’rini o‘qitishda audiovizuallik mavzusiga murojaat qilamiz. She’rning multimediya orqali quyidagi audiovizual shakllarini yaratish mumkin:

Audio shakli;

Video shakli;

Videorolik shakli;

QR kodli shakli.

Audio shaklida ovozli montajga alohida e’tibor qaratiladi. She’rni o‘qiyotgan shaxsning ovoz toni chiroyli bo‘lishi, she’r o‘qish texnikalaridan xabardor bo‘lishi va intonnatsiyaga e’tibor qaratishi lozim. Yozib olinayotgan ovoz she’rdagi ohangga mos kelishi ham muhimdir. Chunki shoir dardi va kechinmalarini tinglovchiga yetkazishda bu inobatga olinadi. Yozish jarayonida ovoz ostidan she’rga mos musiqa ham qo‘yilsa, yanada ta’sirchanroq bo‘ladi. Yozib olingan audioni QR kodini yaratish yoki ijtimoiy tarmoqlarga audio ko‘rinishida joylash mumkin.



Video shaklda olingan tasvirda ham ovoz muhim vazifani bajaradi. Chunki ovozsiz lirik asar imkoniyatini o‘quvchiga to‘laqonli yetkazib berish mumkin emas. Masalan, Cho‘lponning “Go‘zal” she’rining videotasvirini tayyorlashda ham yuqoridagi sifatlarga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, o‘qiyotgan insonning tashqi ko‘rinishi va tasvir foniga ham e’tibor qaratiladi. Tayyor videotasvirni izlovhiga mos ravishda *you tube*, *instagram*, *telegram*, *google*, *chrome* kabi ijtimoiy tarmoq sahifalariga joylashtirish mumkin.



Videorolik tayyorlashda ham ovoz toni muhim hisoblanadi. Videorolikni telefon qurilmasida tasvirlar ketma-ketligini birlashtirib, musiqa hamohangligida tayyorlash mumkin. Bu jarayonni barcha bajara oladi. She’rni o‘qiyotgan inson ekranda ko‘rinmasligi ham mumkin. U orqa fonda ovoz imkoniyatlari bilan qatnashishi kifoya. Adabiyot darslarida “Go‘zal” she’ri asosida “Eng yaxshi videorolik” tanlovini tashkil etish lozim, bu esa o‘quvchini yana-da faol bo‘lishga undaydi.

Yuqoridagi jarayonlarning barchasini QR kodini yaratib, elektron kutubxonalarga joylashtirish ham mumkin.

“Go‘zal” she’ri Cho‘lpon lirkasining gultojidir. She’r olti misralik besh banddan (jami 30 misra) iborat. Dastlab she’r matnini keltirib o‘tamiz.

### ***GO‘ZAL***

*Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,  
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen,  
Ul yulduz uyalib, boshini bukub,  
Aytadir: men uni tushda ko‘ramen.  
Tushimda ko‘ramen — shunchalar go‘zal,  
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!*

*Ko 'zimni olamen oy chiqqan yoqqa,  
Boshlaymen oydan-da seni so 'rmoqqa.  
Ul-da aytadir: Bir qizil yanoqqa  
Uchradim tushimda, ko 'milgan oqqa.  
Oqqa ko 'milganda shunchalar go 'zal,  
Mendan-da go 'zaldir, kundan-da go 'zal!*

*Erta tong shamoli sochlarin yoyib,  
Yonimdan o 'tganda so 'rab ko 'ramen.  
Aytadir: bir ko 'rib, yo 'limdan ozib,  
Tog '-u toshlar ichra istab yuramen!  
Bir ko 'rdim men uni — shunchalar go 'zal,  
Oydan-da go 'zaldir, kundan-da go 'zal!*

*Ul ketgach, kun chiqar yorug 'lik sochib,  
Undan-da so 'raymen sening to 'g 'ringda.  
Ul-da o 'z o 'tidan bekinib, qochib  
Aytadir: bir ko 'rdim, tushdamas, o 'ngda.  
Men o 'ngda ko 'rganda shunchalar go 'zal,  
Oydan-da go 'zaldir, mendan-da go 'zal!*

*Men yo 'qsil, na bo 'lib uni suyibmen,  
Uning chun yonibmen, yonib-kuyibmen,  
Boshimni zo 'r ishga berib qo 'yibmen,  
Men suyib... men suyib, kimni suyibmen?  
Men suygan suyukli shunchalar go 'zal,  
Oydan-da go 'zaldir, kundan-da go 'zal! <sup>133</sup> (1919)*

She'r audio shaklida o'quvchilarga eshittiriladi va ularning tinglash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Audiovizual asar — mualliflik huquqi obyektlaridan biri bo'lib, bir-biri bilan bog'langan tasvirlarning yozib olingan turkumidan iborat bo'lgan, tegishli texnika vositalari yordamida ko'rib va eshitib idrok etish uchun mo'ljallangan asar. Audiovizual asarni tayyorlovchi shunday asarni tayyorlash tashabbusi va mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs hisoblanadi. Audiovizual asar yaratish va undan foydalanish uchun mualliflik shartnomasini tuzish, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, bu asar mualliflari tomonidan audiovizual asarni tayyorlovchiga takrorlash, tarqatish, prokatga berish, omma oldida ijro etish,

<sup>133</sup> Yo'ldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –T.: Sharq, 2017.

efirga uzatish, kabel orqali yuborish va matnni dublyaj qilish bo‘yicha mutlaq huquqlarning o‘tkazilishiga olib keladi<sup>134</sup>.

### Ifodali o‘qish texnologiyasi

Ifodali o‘qishning o‘zi ta’limning bir texnologiyasi hisoblanadi. She’r maromiga yetkazib o‘qilgach, bir oz sukutdan keyin uning tahliliga kirishish lozim. She’riyatning chinakam namunalarini tahlil qilish nihoyatda mushkul. Chunki asl lirkada odamzod oddiy til bilan ifodalay olmaydigan tuyg‘ular, ruhiy holatlar aks etadi. Bunday holatni oddiy til bilan ifodalash she’rning jozibasini yo‘qqa chiqarish bilan barobar bo‘ladi. Ayni vaqtda, agar o‘qituvchi she’rning butun jozibasini o‘quvchilar qalbiga yetkaza bilgan bo‘lsa, uni tahlillashga dastlabki qadam to‘g‘ri qo‘yilgan bo‘ladi. She’rning jozibasi ham ifodali o‘qishda ko‘rinadi.

Cho‘lponning “Go‘zal” she’rida tabiat tasviri (peyzaj) bilan birga ruhiy manzara ham chiziladi, inson hayotining bir lahzalik to‘lg‘onishlari ko‘rsatiladi. Cho‘lpon tabiatning juda dilbar she’riy manzarasini yaratgan. Shoir inson ruhiyatidagi o‘zgacha holatlarni tabiat bilan mutanosiblikda tasvirlashga harakat qilgan. Asar qahramoni oshiqning hissiyotlari tabiatga ham jon bag‘ishlaydi. Oshiq tabiatni dard bilan, insoniy ishq bilan munavvar qiladi.

“Go‘zal”da Cho‘lpon tabiatning juda dilbar she’riy manzarasini yaratgan. Shoir tabiatdan nusxa ko‘chirmaydi, hech qachon o‘ziga go‘zal tuyulgan tabiiy lavhani shu holicha tasviriga inson ruhini singdiradi, lirk qahramonning hissiyoti tabiat go‘zalligiga jon bag‘ishlaydi. Uni dard bilan insoniy ishq bilan munavvar qiladi. She’rning tahlili o‘quvchilarga havola etiladi. Lirk qahramon holati, uning nimalarga murojaat qilganiga diqqat qaratiladi.

### She’rga doir savollar bilan ishlash texnologiyasi

Agar o‘qituvchi o‘z mutolaasi bilan she’rning jozibasini o‘quvchilar qalbiga yetkaza olgan bo‘lsa, uni tahlil etishga dastlabki qadam to‘g‘ri qo‘yilgan bo‘ladi. Asar ustida ishlashga kirishishdan oldin o‘qituvchi uning mazmuni bilan bog‘liq quyidagi savol va topshiriqlar ustida o‘zi o‘ylab ko‘rishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. Yulduz bilan oyning go‘zalligi o‘nglarida emas, tushlarida ko‘rishiga sabab nima deb o‘ylaysiz?

2. Shamol go‘zalni qay holatda uchratganini matndan qayta o‘qing. U go‘zalni qayerda, qanday holatda ko‘rishi mumkin deb o‘ylaysiz?

3. Sizningcha, nega yulduz bilan oy go‘zalni tushida ko‘rishgan-u, shamolni o‘ngida ko‘rgan? Bunga biror asos bormi?

4. “Men suyib, men suyib kimni suyibmen?” misrasidagi takrorning ta’sir kuchi haqida o‘ylab ko‘rib fikr aytинг.

5. She’rdagi Go‘zal obrazini kim deb o‘ylaysiz? Odam timsolimi, ozodlik ramzimi, baxtmi, Vatanmi?

<sup>134</sup> O‘RQ-42-coh 20.07.2006. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida. <https://lex.uz>

Shu kabi savol-topshiriqlar asosida o‘zi asarni tahlil qilib olgan o‘qituvchi ulardan darsda o‘quvchilarning imkoniyatlariga qarab foydalanishlari mumkin. O‘quvchilar shu savollarga javob topish uchun she’r matniga tayanib bosh qotirsalar asarning jozibasi, siri yanada chuqurroq ochila boradi. Savollarga sinfdagi o‘quvchilarning hammasi javob berishi shart emas. Javobni hammadan birday talab qilish ham metodik jihatidan uncha to‘g‘ri emas. Garchi sinfda savollarga umuman javob bo‘lmasa ham bundan fofija yasamaslik kerak. Yoki o‘quvchilarga bergan savoliga o‘qituvchining o‘zi javob berishi ham noto‘g‘ri. Agar savolga javob bo‘lmasa, uni ochiq qoldirish, bu haqda o‘ylab ko‘rishni tavsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dars so‘nggida bolalarga uyda she’rni yodlash hamda shoir tarjimayi holiga doir dalillarni o‘zlashtirib kelish topshiriladi.

### **Lug‘at bilan ishslash texnologiyasi**

She’rning asl mohiyati bir marta o‘qishda yuzaga chiqmaydi. Lug‘at bilan ishslash jarayonlaridan keyin she’r yana ham ta’sirli tuyuladi. Sababi she’rdagi o‘zlashma so‘zlar ma’nosini oydinlashadi.

*Namuna :*

**Lug‘at**

***Yanoq - yuz***

***Kun - quyosh***

***Yo‘qsil - bechora, kambag‘al***

***Istab yurmoq - Izlamoq***

***Zo‘r ish - qiyin ish***

***Suyukli - sevimli***

Xulosa, Cho‘lpon she’rlarini audiovizuallik asosida o‘qitish mavzuni qiziqarli o‘tishda va o‘quvchining she’rga muhabbatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Yo‘ldoshev Q,Qosimov B, Qodirov V,Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiyl o‘rtta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. –T.: Sharq, 2017, –365 b.
2. Xodjayev B.X. Umumiyl pedagogika nazariyasi va amaliyoti.–T.: Sano-standart. 2017.–B.15.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
4. Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. II jild. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
5. O'RQ-42-соҳ 20.07.2006. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida. <https://lex.uz>
6. [www.library.uz](http://www.library.uz)

## AHMAD DONISH «NAVODIR -UL-VAQOYE» ASARIDA BUXORO IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIGA MUNOSABATI

Jumayev Abbasjon Akmalovich

Zarmed universiteti tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ma'rifatparvar Ahmad Donishning to'liq ismi (1827-1897) Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy. Ahmad Donish XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda vujudga kelgan diniy-ma'rifiy islohotlarning g'oyaviy rahnamolaridan biri. Uning mamlakatni obodonlashtirish, xalq farovonligini ta'minlash, Buxoroni obod o'lkaga aylantirish borasida bildirilgan fikrlari o'z davri uchun muhim ahamiyatga molik. «**Navodir -ul-vaqoye» asarida** ijtimoiy-axloqiy masalalar xususida fikr yuritilgan. Bu kitob Ahmad Donishning shoh asari hisoblanib, unda olim o'zining turli masalalarga munosabatini ifodalagandir. Donishning fikriga ko'ra «davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlari uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog'i zarur.

Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlari «Navodir ul-vaqoye», «Risolai muxtasare az tarixi sultanati xonadoni mang'itiya» kabi asarlarida o'z aksini topadi.

Ahmad Donishning falsafiy dunyoqarashini aniqlash jihatidan 1870-1889-yillar davomida yozgan mashhur "Navodir ul-vaqoye" ("Nodir voqealar") nomli asari muhim ahamiyatga egadir. Bu olimning eng yirik asari bo'lib, o'zida falsafiy-etik hikoyalarni, yo'l bitiklarini jamlagan. Mutafakkir o'zining bu asarini butun umri davomida yozdi. Uning mundarijasi boy, xilma-xil bo'lib, o'z ichiga ilm-fanning falsafa, axloq, xulq, sotsiologiyaga oid masalalarning ko'p sohalarini qamrab olgan ham memuar, ham tarixiy, ham falsafiy asar hisoblanadi.

Buxoro amiri elchilarining mirzasini bo'lib, Rossiya (Peterburg) ga borgan. Safar taassurotlari asosida «Navodir ul-vaqoye» («Nodir voqealar») va «Tarjimai ahvoli amironi Buxoro» («Buxoro amirlarining tarjimai hollari») kabi asarlar yozgan. Ularda amirlilik tuzumini isloq qilish masalasini ko'targan<sup>135</sup>

Muallifning "Navodirul-vaqoye" asari 15 yil davomida, 1870- 1885 yillar oralig'ida yozilgan tarixiy, falsafiy, memuar asardir. Nodir voqealar yoki Navodir-ul-vaqoye' so'z boshi, uch bob va xotimadan iborat siyosiy traktat ham bor.

23 bobdan tashkil topgan bu asar haligacha to'la nashr etilgan emas. Uning ayrim boblarigina chop qilingan. Shu jumladan, uning bir qismi 1964 yili o'zbekchaga ham ag'darilgan va bosilgan edi. Kitobning ikki bobida Rossiya safari taassurotlari berilgan. Chunonchi: VII bobi A.Donishning 1869 yilgi Rossiya safariga bag'ishlangan va 1957 yilda chop etilgan.

<sup>135</sup> [Мўминов](#) И. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан, Тошкент., 1964.Б-34.

VIII bob podshoh Aleksandr II ning qizi Mariyaning 1874 yilda bo‘lgan nikoh to‘yiga yuborilgan elchi Abdulqodirbek safari haqida. Qolgan boblari xilma-xil mavzuda. Masalan, ota-onva farzand munosabatlari (1-bob), mol-dunyo (2-bob), tarix (Z-bob), olim va johil taqdirlari (4-bob), vaqt qadri (5-bob), safar qilish foydalari (b-bob), ilm-fan manfaati (9-bob), haqiqiy va majoziy ishq hamda uning odobi (10-bob), nikoh (11-bob), taqdir (12-bob), kasbkor (13-bob), jism va ruh (14-bob), yer tuzilishi va ma’danlar (16-bob), tush ta'biri (19-bob), Bedil baytlari (20-bob), ayrim hadislar talqini (22-bob), inson axloqini belgilash (23-bob) kabi tamaddun (madaniyat) haqidagi risolasi (15-bob) va xilma-xil voqeiy hikoyalar (18, 21-boblar) ham undan joy olgan. Ularning har biri ham muhim va qiziqarlidir.

Ahmad Donish «Nodir voqealar» asarida fan, texnika yangiliklari, tabiat hodisalari, geografiya, insonning uzoq umr ko‘rishi, koinotning kelib chiqishi, Oy va Quyoshutilishi, zilzila haqida fikr yuritgan, Yevropa ilm-fanini o‘rganishga da‘vat etgan.

Ahmad Donishning eng muhim asari «Navodir ul-vaqoye»dir. Bu asar juda ko‘p ijtimoiy-axloqiy masalalar xususida fikr yuritilgan. Bu kitob Ahmad Donishning shoh asari hisoblanib, unda olim o‘zining turli masalalarga munosabatini ifodalagandir. Donishning fikriga ko‘ra «davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlari uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog‘i zarur. Biz dunyonи gullab-yashnatish uchun, dengizlar kezib o‘rganish uchun, yer osti boyliklarini topish uchun, uning hamma qit’alari va aholisini bilish uchun tug‘ilganmiz» — deb yozgan edi Donish. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma’rifatli, odil va o‘z fuqarolari manfaatlari uchun xizmat qilmog‘i shart. U qanday masalani hal qilmasin, eng avval o‘zini fuqaro o‘rnida, ularni esa o‘z o‘rnida tasavvur qilmog‘i lozim. Bu adolatni ta’minalashga imkon yaratadi. «Mamlakatni idora qilishda, – deydi Donish, hukmdor muhim davlat muammolarini o‘z atrofidagi maslahatchilar bilan birgaliqtsa hal qilishi kerak. Maslahatchilar ham donishmand va adolatli kishilar bo‘lishi kerak va ularning fikri bilan hisoblashishi shart, chunki ko‘pchilikning aqli, bir kishining aqlidan ortiqroqdir».

Ahmad Donish o‘z Vatanini qoloqliqdan chiqarish yo‘llarini tinmay izladi. «Kishi o‘z Vatanini himoya qilsagina, o‘z xalqi bilan birga bo‘lsagina, u har doim barhayotdir» – deydi Donish. U Sharq mutafakkirlari ta’limotini o‘rganish bilan bir qatorda G‘arbda tarqalgan ijtimoiy-siyosiy ta’limotlar bilan ham qiziqadi. Garchi bu ta’limotlarni Donish qabul qilmagan bo‘lsa-da, uning bularga nisbatan bo‘lgan munosabati mutafakkirni keng ko‘lamdagil tadqiqotchi va ijtimoiy-siyosiy orzulari kengroq ekanligini ko‘rish imkonini beradi. Ahmad Donishning ijtimoiy g‘oyalari o‘z davri uchun muhim ahamiyatga ega edi. Donish mavjud iqtisodiy-siyosiy tuzumning taraqqiyotiga g‘ov bo‘lib qolganligini ko‘rsatadi va bu g‘oyani olib tashlash yo‘llarini qidiradi.

Bu asar haqida ko‘p yozilgan, mualliflar tomonidan unga yuksak baho berilgan, adabiyotshunos olim R. J. Vohidov qadrlaganchalik e’tiroz kam uchraydi: “Tarix sahifalaridan Ahmad Maxdumning barcha ilmiy, adabiy, tarixiy asarlari yo‘q bo‘lib ketsa – Yu, yolg‘iz “Navodir ul – vaqoye” avlodlardan – avlodlarga ko‘chib yashasa, shuning o‘zi Ahmad Donish ijodiyoti o‘sha davr adabiy hayotining cho‘ng qoyasi, musobaqa, intilish cho‘qqisi maqomidasalobat to‘kib turgan... ”<sup>136</sup> ehtimol filolog olim ushbu qomusiy asarning badiiy – ilmiy qimmatini nazarda tutgandir, ammo, bu ma’naviy boylikning tarixiy manba sifatidagi qimmati undan kam emas. Bu noyob va nodir asar nega shunchalik darajada qimmatlimi? Bu durdona Ahmad Donish bir umrlik ilmiy tadqiqotlarining qaymog‘i bo‘lgan shoh asardir.

Ahmad Donishning asosiy istak - maqsadi mamlakat aholisining asosiy ko‘pchiligi hisoblangan xalqni yorug‘ kunlarga olib chiqish muddaosi yotadi. Buning uchun mamlakatdaadolat mezonlarini ishlab chiqish va uni joriy etish, xalqni yangilik sari intilishga yo‘naltirish, uni zamonaviy madaniyatdan xabardor qilish, Yevropa, rus madaniyatining qabul qilish mumkin bo‘lgan jihatlarini targ‘ib qilish, mamlakatni obod qilish uchun texnika yangiliklaridan foydalanish kabi o‘sha davr uchun eng ilg‘or bo‘lgan g‘oyalarni ilgari surdi.<sup>137</sup>

Ahmad Donish Buxoroda XIX asrning 2 – yarmi jamiyat illatlarini ko‘ra olgan, bu jirkanch illatlar uning halovatini buzgan, bu haqda mutafakkir shunday deydi: “... zamona ahlining qilgan ishlari menga yoqmas edi. Juda ko‘nglim olinib, yuragim torayib ketganda qayg‘u alamlarimni chiqarish uchun do‘stlarim yoniga qalam ko‘tarib borib, qog‘oz yuzini qoralash bilan shug‘ullanar edim. Bu qog‘oz sahifalarini qilishimdan oydin va ravshan ma’nolar kelib chiqardi<sup>138</sup>” Ahmad Donish tomonidan yaratilgan bu asar, qog‘oz varaqlaridan iborat bo‘lib, u bu qog‘ozlarni tartibga solib bir kitob holiga keltiradi. Shuning uchun Ahmad Donishning bu asari bir syujetli asar bo‘lmay, bir necha rivoyatnamo hikoyalardan iborat bo‘lgan qimmatli ma’naviy mulk darajasiga ko‘tarildi. Bu nodir kitob yigirmaga yaqin yaxlit hikoyalardan iborat bo‘lib, uning muqaddimasida: “... bir qancha ilmiy hikoya va rivoyatlar, hamda eshitgan va ko‘rgan narsalarim qog‘oz parchalarida yozila borib to‘plandi ”<sup>139</sup> – deb yozadi muallif.

Ahmad Donish o‘zining bu asari yuzaga kelish davrida faylasuf va tarixchi olim sifatida shakllangan. U asarda Buxorodagi mutaassiblik sabablarini tahlil qiladi. Ilm – fan va ma’rifatning to‘xtab qolganligidan afsuslanadi. Buxoro va uning ahlini Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaydi. “Zamondoshlarim bu yozgan narsalarimni olib o‘qir edilarda taajublanib yana qaytarib berar edilar; chunki, ilm – hunar bozori, ichki va tashqi bir qancha sabablarga ko‘ra kasod edi. Zamona ahllari kitob yozmoq, ilm olmoq

<sup>136</sup> Рахим Воҳидов, Мэлс Махмудов Устод Садриддин Айний сабоқлари – Тошкент.: “Фан” 2004. – Б. 303.

<sup>137</sup> Аҳмад Дониш Наводир ул – вақоёй – Тошкент.: Фан. 1964. – Б. 16.

<sup>138</sup> Аҳмад Дониш Наводир ул – вақоёй – Тошкент.: Фан. 1964. – Б. 34 – 35.

<sup>139</sup> Ўша асар. – Б. 33 – 34

kabilarning vaqt o‘tgan deb, gumon qilar edilar. Bu ishni qilish uchun kashf etish kuchiga yoki avliyolik quvvatiga ega bo‘lish kerak, agar bu ikki sifat bo‘lmasa, kitob yozish mumkin emas deyardilar.

Muallifning ushbu satrlari Buxoroda ilm – fan taraqqiyotining zamonadan orqaga qolib ketganligini o‘z zamonasining ilm ahli unga va uning yozganlariga shubha bilan qarashlariga bo‘g‘zidan bug‘ilgan chorasiz odamga o‘xshatadi. Inson tafakkurining yuksak nuqtasi ijodkorlik, kashfiyotchilik ekanligiga yana bir karra ishora qiladi, yozish uchun, ijod qilish uchun avliyo bo‘lish shart emasligini yana va yana takrorlaydi. Kishilarni izlanishga da‘vat etadi. O‘zini ilm – fan fidoysi ekanligini ko‘rsatadi.

“Navodir ul - vaqoye” dagi hikoya va rivoyatlardagi qizil ipdek tizilib o‘tgan voqealar xalq hayoti va uni yaxshilashga, farovonligini oshirish, buning asosiy omili sifatida ma’rifat ko‘zga tashlanadi.

“Navodir ul-vaqoye” ning paydo bo‘lish tarixini Sadriddin Ayniy o‘z “Esdaliklari” ning IV qismida bayon etadi. Ahmad Donish o‘zi yozib tartibga solgan bu buyuk asarini Siddiqxon Hashmatga taqdim etgan ekan. “Siddiqxon Hashmat amir Abdulahadning ukasi bo‘lib, otasi Muzaffar zamonida Chorjo‘yning hokimi edi. U Muzaffarning bemorligida uni ko‘rish bahonasi bilan ruxsatsiz Buxoroga keladi. Biroq, u kelganda otasi o‘lgan va saroy ahli uning o‘limini yashirib, valiahd Abdulahadga toju – taxtni topshirish uchun, uni Karmanadan keltirgan va otasining vafotidan bexabar Siddiqxonni qamoqqa olgan edilar ”.<sup>140</sup> Siyosiy hayotdan chetlashtirilgan Siddiqxon Buxoro arkidan ancha yiroq bir hovliga uy qamog‘ida bo‘lganva bu yerda ilm, adabiyot bilan shug‘ullangan. Oradan uch – to‘rt yil o‘tmay donishmand sifatida mashhur bo‘lib, yozgan she’rlariga Hashmat degan taxallus qo‘ya boshlagan. Buxoro amirlari saroyidan norozi bo‘lgan Ahmad Donish u bilan do‘sit tutingan. Undan moddiy va ma’naviy manfaatni kutmagan holda o‘z asarini unga taqdim etgan XIX asrning 2 – yarmi va XX asr boshlarida ham Buxoroda mavjud ijtimoiy – siyosiy tuzum, despotizm va mutaassiblik, iqtisodiy nochorlik va qoloqlik, mahalliy va mustamlakachilik zulming nihoyatda kuchayganligi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining kirib kelishiga tog‘dek to‘sinq bo‘ldi. Har qanday dunyoviy ilm va adabiyotlarning kirib kelishiga yo‘l bermadi.

Ahmad Donish “Navodir ul - vaqoye” asarining muqaddimasida bu haqda: “Zamondoshlarimiz bu kitoblarni ko‘rmaydilar, eshitganlariga ishonmaydilar, hatto, o‘zlar yashagan yerdan boshqa yerkarning borligiga ishonmaydilar,(biror kitob) sahifasida yozilgan narsalarni topsalar, u garchi asossiz puch bo‘lsa ham, shuni qat’iy dalil deb gumon qiladilar. Shuning uchun ko‘pchilik bu ish bilan shug‘ullanishni miyasi ayniganlikka jo‘yib, bu kitobni yozganim uchun menga dushmanlik qillardilar, qarshilik ko‘rsatardilar. Mening yozgan so‘zlarimni yolg‘iz so‘z boshqalar vositasi bilan to‘plagan deyardilar” – deb yozgan edi. Boshidan oxirigacha ilmu – ibratdan

<sup>140</sup> Садриддин Айний Асарлар (Эсадаликлар) Т – VII. – Тошент: 1966. – Б. 153.

iborat bo‘lgan bu asarning bizgacha yetib kelganligi bir mo‘jiza, afsuski, o‘zbek tilida bir martagina 1964 yilda fors – tojik tilidan A. Hamroyev va A Shokirovlar tarjimasida, akademik Ibrohim Mo‘minovning umumiy tahriri ostida nashr qilingan xolos.

“Navodir ul - vaqoye” kitobining birinchi bobi “Mamlakatni boshqarish va xalqni ma'rifatli qilish haqida risola” deb nomlanadi. Biz ushbu ishda Ahmad Donishning “Dunyo tarixi va qadimligi haqida” gi bobi to‘g‘risida so‘z yuritishni lozim ko‘rdik. Bu bob uncha katta bo‘lmay, unda dunyoning yaratilganligi, o‘shandan beri qancha vaqt o‘tganligi masalasi qo‘yilgan bo‘lib, Ahmad Donish jahonda mashhur bo‘lgan hind, xitoy, fors hukamo (olim) larinining fikrlarini keltiradi. Masalan, hindlarning butun olam davrlarini to‘rtga bo‘lganliklarini, har bir davrning o‘z uzun (davomiy – ta’kid bizniki) ligi borligiga izoh berib: “ularning taxminlaricha, olamning yaratilishidan boshlab shu kungacha bir irb (milliard), to‘qson yuz lak (yuz ming), to‘rt ming to‘qqiz yuz sakson to‘qqiz yil o‘tgan bo‘ladi (bir milliard to‘qson besh million ellik sakkiz yuz to‘rt ming to‘qqiz yuz sakson to‘qqiz – 1.095.584.989) ” yil o‘tganligini hisoblashlarini keltiradi. Bu sanalarni hisoblashda tarjimonlar tomonidan ozgina xatolikka yo‘l qo‘yilgan shekilli, raqamlarning o‘qilishi bir milliard to‘qson besh million to‘qqiz yuz sakson to‘qqiz bo‘lishi kerak.

Bu asarning qomusiy ahamiyati haqida akademik Ibrohim Mo‘minov: “Ahmad Donish ‘Navodir ul – vaqoye’” da goh hayotni kuylaydi, goh umidsizlik, darvishlik ohangida so‘zlaydi, goh mavjud amirlik tartiblarini halok bo‘lishi muqarrar deydi, goh shu chirik – chirkin amirlik tartibini isloh qilish yo‘lida izlanish harakatida bo‘ladi, goh ilm muxlisi, zamonaviy fan jarchisi, gohida esa eski diniy aqidalar girdobida aylanadi<sup>141</sup>” mutafakkir olim “Navodir ul – vaqoye” asarining muallifini “sodda dehqon demokratiyasi”ning vakili deb ataydi, keyingi satrlarda esa uni mutafakkir deb baholaydi.

Ahmad Donish tomonidan yaratilgan bu asar, qog‘oz varaqlaridan iborat bo‘lib, u bu qog‘ozlarni tartibga solib bir kitob holiga keltiradi. Shuning uchun Ahmad Donishning bu asari bir syujetli asar bo‘lmay, bir necha rivoyatnamo hikoyalardan iborat bo‘lgan qimmatli ma‘naviy mulk darajasiga ko‘tarildi. Bu nodir kitob yigirmaga yaqin yaxlit hikoyalardan iborat bo‘lib, uning muqaddimasida: “... bir qancha ilmiy hikoya va rivoyatlar, hamda eshitgan va ko‘rgan narsalarim qog‘oz parchalarida yozila borib to‘plandi” – – deb yozadi muallif.

Ahmad Donish bu asarda Buxorodagi mutaassiblik sabablarini tahlil qiladi. Ilm – fan va ma'rifatning to‘xtab qolganligidan afsuslanadi. Buxoro va uning ahlini Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaydi. “Zamondoshlarim bu yozgan narsalarimni olib o‘qir edilarda taajublanib yana qaytarib berar edilar; chunki, ilm – hunar bozori, ichki va tashqi bir qancha sabablarga ko‘ra kasod edi. Zamona ahllari kitob yozmoq, ilm olmoq kabilarning vaqtি o‘tgan deb, gumon qilar edilar. Bu ishni qilish uchun kashf etish

<sup>141</sup> Аҳмад Дониш Наводир ул – вакоёй – Тошкент.: Фан. 1964. – Б. 16.

kuchiga yoki avliyolik quvvatiga ega bo‘lish kerak, agar bu ikki sifat bo‘lmasa, kitob yozish mumkin emas deyardilar. Holbuki, Eron, Turkiya, Farangiston (Evropa) mamlakatlarida har yili turli fan sohalarida besh yuzdan ortiq kitoblar yoziladi. Bu kitoblarning yozuvchilari va ular atalib yozgan podshohlar bu kun ham tirikdirlar ”<sup>142</sup>.

Muallifning ushbu satrlari Buxoroda ilm – fan taraqqiyotining zamonadan orqaga qolib ketganligini o‘z zamonasining ilm ahli unga va uning yozganlariga shubha bilan qarashlariga bo‘g‘zidan bug‘ilgan chorasiz odamga o‘xshatadi. Inson tafakkurining yuksak nuqtasi ijodkorlik, kashfiyotchilik ekanligiga yana bir karra ishora qiladi, yozish uchun, ijod qilish uchun avliyo bo‘lish shart emasligini yana va yana takrorlaydi. Kishilarni izlanishga da'vat etadi. O‘zini ilm – fan fidoysi ekanligini ko‘rsatadi.

Ahmad Donish “Navodir ul - vaqoye” asarining muqaddimasida bu haqda: “Zamondoshlarimiz bu kitoblarni ko‘rmaydilar, eshitganlariga ishonmaydilar, hatto, o‘zları yashagan yerdan boshqa yerlarning borligiga ishonmaydilar. (biror kitob) sahifasida yozilgan narsalarni topsalar, u garchi asossiz puch bo‘lsa ham, shuni qat’iy dalil deb gumon qiladilar. Shuning uchun ko‘pchilik bu ish bilan shug‘ullanishni miyasi ayniganlikka jo‘yib, bu kitobni yozganim uchun menga dushmanlik qilardilar, qarshilik ko‘rsatardilar. Mening yozgan so‘zlarimni yolg‘iz so‘z boshqalar vositasi bilan to‘plagan deyardilar<sup>143</sup>” – deb yozgan edi.

Ahmad Donish fors va ajam (arab bo‘lмаган мamlакатлар) hukamolarining ham fikrlarini keltiradi. Unga ko‘ra: “Olamning har bir davrasi uch yuz oltmis ming yildir. Shu davra tamom bo‘lgach, yana qaytadan davra boshlanib, shu muddat o‘tguncha davom etadi. Bularning aytgan davrlari esa sab'ai sayyor yulduzlari hamal burjining birinchi nuqtasida to‘plangan vaqtidan boshlanadi. Fors va ajamliklarning taxminlaricha, dunyo yaratilgandan boshlab, shu kungacha bir lak, sakson to‘rt ming to‘qqiz yuz sakson sakkiz yil vaqt o‘tgan”

Ahmad Donishning ushbu mashhur asari “Navodir – ul – vaqoye”ning qoralanma va asl nusxasi Buxoro davlat muzey – qo‘riqxonasida saqlanmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. И. М. Мўминовнинг Ўзбекистонда XIX аср охирида XX аср бошларида ижтимоий-фалсафий тафаккурнинг ривожланиш тарихидан. И. М. Мўминов. Танланган асарлар. биринчи том. Тошкент, 1969.
2. Раҳим Воҳидов, Мэлс Маҳмудов “Устод Садриддин Айний сабоқлари” – Т.: “Фан” 2004. – Б. 303.
3. Айний С. Эсадаликлар // С. Айний. Асарлар. 6 жилд. Тошкент: 1965.

<sup>142</sup> Аҳмад Дониш Наводир ул – вақоев – Тошкент.: Фан. 1964. – Б. 34.

<sup>143</sup> Аҳмад Дониш Наводир ул – вақоев – Тошкент.: Фан. 1964. – Б.34.

4. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақоे (Нодир воқеалар). Форстожикчадан А.Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси. – Тошкент: Фан, 1964.412-б.
5. Аҳмад Махдуми Дониш. Рисола ё муҳтасаре аз таърихи салотини хонадони манғитийа / Ба саъй ва иҳтимом ва тасҳеҳи Абдугани Мирзоев. Сталинобод: Нашриёти давлатии Тожикистон, 1960. 175-с.
6. 17.Аҳмад Дониш – XIX асрнинг буюк мутафаккири ва тараққийпарвари” мавзусидаги Республика илмийназарий конференция материаллари (1-китоб). – Бухоро, 2007; “Қомусий мутафаккир” мавзусидаги Республика илмий анжуман материаллари (2-китоб). – Бухоро, 2007.

## “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA INSON TABIATI, O‘ZLIK DAN UZOQLASHISH, QUDRAT, OILA, GENDER TENGSIZLIK, TA’LIM MAVZULARI

**Usmonova Umida Xaydarali qizi**

**Qayumova Ozoda Botir qizi**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

[v53861490@gmail.com](mailto:v53861490@gmail.com)

**Annotatsiya:** “Kecha va kunduz” romanida manfaatparastlik, nafsga erk berish insoniyatni baxtsizlikka mahkum etishi, o‘zlikdan uzoqlashish millat taqdirini ayanchli ahvolga olib kelishi, poraxo‘rlik tarqalgan joydaadolat yo‘qolishi, xalq xonavayron bo‘lishi, oila boshliqlarining mehri yetishmagan xonadanda har bir kishining baxtsiz yashashi, gender tengsizlik nafaqat ayollar, balki butun jamiyat xotirjamligini o‘g‘rilashi, ta’limsiz xalq qora ishchi holida hayot kechirishi keng ko‘lamda yoritib berilgan. Maqolada obrazlar tahlili orqali yuqorida keltirilgan roman mavzulari va ulardan kelib chiquvchi asosiy g‘oyalar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** “Kecha va kunduz”, mavzu, g‘oya, inson tabiat mavzusi, qudrat mavzusi, gender tengsizlik mavzusi, oila mavzusi, ta’lim mavzusi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani o‘zbek adabiyoti durdonalaridan biri bo‘lib, bu asar o‘zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslarining e’tiroflariga sazovor bo‘lgan. Roman asr oshgan asarlar sirasiga kiradi. Bu asarni qanday sifatlar yashovchan qildi? Quyida romanda ko‘tarilgan mavzu va g‘oyalarning asar umrboqiyligini ta’minlashdagi o‘rnini ko‘rib chiqamiz.

Romandagi bosh mavzu inson tabiatini oydinlamoqlik. Inson yaralganidan buyon uning tabiatidan chiqib ketmaydigan manfaatparastlik, nafsga erk berib yuborish romanda eng mayda epizodlargacha singdirilgan, ko‘p ishlangan, me’yoriga yetkazilgan. Mana shu me’yoriga yetish asarning eng katta yutug‘i bo‘lib, asarning qimmatli g‘oyasi ham shu mavzu ortidan keladi.

Miryoqub o‘zidan ancha pastda hisoblaydigan, xohlasa, bir kunda eski joyiga o‘tkazib qo‘ya oladigan Akbaraliga qulluq qilishdan or qilmaydi, shuncha yil bir dasturxonidan choy ichsa-da, uning pullarini o‘zlashtirishni ko‘zlaydi, xotinini rad qilmaydi. Miryoqbuning noyib to‘ra bilan munosabatlari manfaatlar asosiga qurilgan, u bundan ko‘p foyda topgan. Shunga qaramay, u nafsn ni jilovlashni istamaydi, noyib to‘raning xotinidan ham ishi uchun foyda kelishini o‘ylaydi. “Miryoqub kishilar bilan munosabatga kirisharkan, avvalo, undan keladigan foydani – o‘z manfaatini ko‘zlaydi” [Quronov D., 2022: 129]. Zunnun esa uylanmoqchi, uylanish uchun noyib to‘ra xotinini o‘zidan biroz uzoqlashtirishi kerak. U nega uylanish uchun shunchaki ketib

qo‘ya qolmaydi? Tayyor ish. Rus xotindan pul undirib turishi tayin. Uning hayotida o‘zidan boshqasi yo‘qligiga amin bo‘lsa-da, to‘yini o‘tkazib berishni aytgan Miryoqubga bu rus ayolni bemalol tortiq qiladi. Miryozubdan keladigan foyda ham rus ayolga borib taqaladi.

Akbarali sodda – ahmoq emas. Uning mulohazalaridan ma’lumki, u ruslarni yoqlamaydi, ammo u amalidan ayrilib, dushmani deb bilganlari oldida uyalib qolishni istamaydi. Shu boisdan hech narsaga aqli yetmaydigan mingboshi bo‘lish uning manfaatlariiga to‘g‘ri keladi. U uchun aqlni urintirmay, uxlatib qo‘yish ma’kulroq.

Razzoq so‘fining qizini qamashganida taqsiri haqida “Faqat ne chora, u kishi berib o‘rganmaganlar, olib o‘rganganlar; “O‘rgangan ko‘ngul o‘rtansa qo‘ymas”, “U kishini berishga o‘rgatish qiyin! U kishi shuncha badavlat bo‘lib turib, eshikdan gadoy kirsa, qo‘liga qaraydi, nazri yo‘qmikin?” [ Cho‘lpon, 2004: 290] qabilida yuritgan fikrlariga e’tibor bersak, u shunchaki ko‘r murid emas, u pirining qanday ekanligini yaxshi biladi, biroq uning etagidan ishlamay non yeb yurgani, u orqali so‘fi bo‘lib, jaamoat ichida qandaydir o‘ringa ega bo‘lgani, oila ichiga yuqorida kela olgani uchun pirinning asl yuzi haqida o‘ylash manfaatlarini bezovta qiladi. Qizining qaro baxti evaziga pul ishlashdan uyalmaydi. Sadri cho‘loq kabi. Sadri cho‘loq qizining ortidan shaharga ko‘chishni orzulaydi. Otalar farzandini o‘z manfaatlariiga qurban qiladi.

Ular egasi yomon parazitga o‘xshaydi, birovning hisobiga kun ko‘rishga harakat qiladi. Razzoq doim eshon va xotinidan foydalanib, tekinxo‘r bo‘lib yashaydi. Miryoqub mingboshi, mingboshi esa Miryoqub hisobiga kun ko‘radi. Asarda o‘z kunini ko‘radiganlar sanoqli. Qurvonbibi, O‘lmas, Xolmat, dehqonlar, lekin ular juda nochor yashaydi. Parazitlar va o‘z kunini ko‘ruvchilar qiyosi zamon qiyofasi va zamona kishilari xarakteri shakllanish tarixini butun bo‘y-basti bilan tasvirlab beradi.

Eshon necha yillik muridi dardini eshitmoqlikni bejizga “Bolasining yoniga nima uchun otasini jo‘natmaydi bu ahmoq o‘rus?” qabilida kesmaydi [Cho‘lpon, 2004: 291]. Elga doston qilingan qotil shogirdiga aloqador ekanligi uning obro‘siga to‘g‘ri kelmaydi, yana bu taqsirga pulni qo‘ldan chiqarish juda og‘ir.

Poshshaxon shaxsiy manfaati – o‘ch olish maqsadi tufayli yosh qizni qurban qiladi. Pullar sharofati bilan Miryoqubga turmushga chiqish maqsadida Zebini o‘ldirish qasdiga tushadi. Akbaralini rashk qilish orqasidan Sultonxonga shunchalik qasdashgan xotin Miryoqubning rus ayoli bilan ketganiga qattiq kuymaydi. Axir Poshshaxon “Miryoqubday qora chiroy-u ko‘zli, tanijoni sog‘, o‘zi bardam, bazmchi, aysh-u ishratni hamma vaqt shirin suhbat bilan boshlaydigan, ozoda va shirin so‘zli erkakni qanday” topadi?! [Cho‘lpon, 2004: 262] Xadichaxon alamlarini yo‘qotish dardida qizi kabi bir qizni baxtsiz qilayotgani haqida o‘ylab o‘tirmaydi, unga o‘z alamini tarqatish muhim.

Hakimjon Akbarali dargohida tuz totuvchilardan. U ham Zunnun, Miryoqub kabi nafsi qadriyatlardan ustun qo'yadi. Sultonxon Poshsha kabi qasd olish qasdida gunohga botishdan tap tortmaydi.

Mariya Ostrovanning xo'jayini gapiga qaraganda, u qilayotgan ishini o'z xohishi bilan pul topish maqsadida tanlagan. Mariya xiyonat tufayli xo'jayini qo'l ostiga kelgandir, ammo uni biz tanigan paytda ishratxonada ishlashga hech kim majbur qilmaydi. Hatto xo'jain tomonidan unga "Oson pul topish olchoqlik bo'lsa, mardikorlik qilishga nafsingiz ko'nadimi?" [ Cho'lpon, 2004: 134] savoli beriladi. Afsuski, Mariyaning tez katta pul topish manfaatiga mardikorlik ishi to'g'ri kelmaydi.

Umrinisa Sultonxondan narsa undirish payida unga girdikapalak, jadidlar Abdusamaddan manfaatdor bo'lgani uchun uning ko'pxotinligini boshqalarniki kabi ovoza qilmaydi, Qosim laylak o'zini ko'rsatib olish umidida xabarchilikka chopadi. Umuman, asarda o'smir qizlarning samimiy munosabatlaridan boshqa samimiy munosabatlarni topish mushkul.

Imomlarning biri vaqfni o'zi uchun ishlatsa, biri o'ziga ziyon yetmasligi uchun ochiq- oydin adolatsizlikka unsizgina ko'nadi. Buni qarangki, unda aybni yuvmoqlik uchun imkon tug'iladi, ammo u Razzoqqa bo'lgan voqeani aytish o'rniga tezgina xonaqodan chiqib ketishni afzal ko'radi.

Xullas, asardagilar shaxsiy manfaati-yu, nafsi tinchitish uchun hech narsadan tap tortmaydi. To'rt zinokor ayol, manfaatparast to'rt din vakili anchagina bo'rttirilgan, biroq shu bo'rtiqlik Markesning kinoyalari kabi kitobxonga kuchli ta'sir etadi. Inson borlig'ini yaxshiroq ko'ra olish uchun oyna bo'ladi. Inson zoti o'z foydasi uchun boshqalarga ozor berar, foydani qadriyati, iymon e'tiqodidan ustun ko'rар ekan o'zi va yaqinlarini baxtsiz qiladi. Nafsga cho'kib ketgan insoniyat takrorlanuvchi baxtsizlikni yaratadi. Fojialarini muqarrar qiladi: Akbarali nafsi uni zaharladi; Razzoq qotil bo'ldi, xotini va qizini yo'qotdi; eshon nomiga nomunosib holda qazo qilmadi; Miryoqub oilasini buzib, farzandlarini yetim qilib, o'g'lini fohisha qo'liga topshirish arafasida; Poshshaxonni vijdon azobi o'rtab, ado qilishi u haqidagi so'nggi ma'lumotlar bilan ochiqlanadi; boylarning masjidda mingboshining xotinlari buzuqligi haqida gapirgani Sultonxon va Poshshaxonning el og'ziga tushgani, bu esa otalari tomonidan voz kechilishini bashorat qiladi... Ular yashovchi makon Makonda kabi vayron bo'ladi. Vayrongarchilik sababiyati tuzum, din, madaniyat emas, insonga yopishib olgan nafsga bo'sh kelishdir. Nafsga qarshi turilmas ekan, tuzum, tizim, madaniyat, zamon, makon almashadi, baxtsizlik, insonning ichki va tashqi vayronaligi almashmaydi. Cho'lpon jadidlik e'tiqodi-yu, tuzum talabi ortiga qatlagan asosiy fikrdan biri – shu. Ushbu muammo Odamdan uning so'nggi avlodigacha bo'lgan bandayi ojizlarni bezovta qilar ekan, bu mavzu umrboqiyidir, muammoning asosiy sababi esa iymonning zaiflashuvi.

Romanda millatning ayanch ahvoliga “ota-bobolar, burungilar yo‘lidan” chiqmaslik emas, undan uzoqlashib ketish ham sabab ekanligi tasvir etiladi. Noyib to‘ra shunday deydi: “Biz ruslar aroq ichishi hammadan yaxshi bilamiz... Senlar ham iste’dodli xalq ekansan, bizdan o‘tkaza boshlading” [ Cho‘lpon, 2004: 147]. Bosi namozga yetmaydigan Akbarali ko‘p ichishi bois yaqin orada olamdan o‘tishi haqida o‘y suriladi. Xalq tepasida turgan mahalliy amaldorlardan biri aroqxo‘r bo‘lib bormoqda. Bu o‘zlikdan ayrilishning eng yuzaki tasviri xolos. Millat iymonni paranji, soqolda deb biladi. Ular asl o‘zligidan Allohdan uzoqlashgan. Din peshvolarining biri bachchaboz, biri xotinboz, yurt ustiga kun ko‘rvuchi, biri o‘n so‘mlik uchun indamay kofir bilan musulmon nikohini o‘qib qo‘yuvchi, biri o‘ziga bu dunyoda zarar yetishidan qo‘rqib, Allohdan o‘zgasi oldida ham tizzalari qaltirayveradigan shaxs. Mana shu tasvir iymondan uzoqlashgan eski avlod tasviri edi. Yangi avlod vakili nima qilyapti? Jadidlar ham rivojlanish yo‘lini, avvalo, Allohdan uzoqlashganlarni iymonga qaytarish va ta’limni targ‘ib qilish yo‘lidami? Sharaffidin tilidan asarning asosiy g‘oyalaridan biri beriladi: “Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo‘lmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak. Ilgari milliy hisni o‘stirib, o‘z millatini tanigandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga ixtisosga tegishli ilmlarni o‘qisin” [ Cho‘lpon, 2004: 196]. Millatni asramoq uchun millat bolalari ongini begonaga berib qo‘ymoq mumkin emas. Ammo shunday dohiyona fikr sohibi bo‘lgan jadidlarga Cho‘lpon bekam-u ko‘sht fikr egalari sifatida qaramaydi. Bola taniydigan millat qay holda? Iymonidan uzoqda, shariatini uylanish-u ayollarni paranjiga solish, arabcha yozuvni ko‘zga surtib qo‘yishdan iborat deb biladigan holdami? [Cho‘lpon, 2004: 90] Iymoni to‘liq bo‘lmagan, jadidlik bilan endi tanishgan bir insonga gimnaziyani ham tugata olmagan, tuzuk quruq o‘qimagan, Arsibashevning buzuqlik targ‘ib etilgan kitoblari mutolaasida ulg‘aygan rus ayoliga farzandi tarbiyasini topshirishni maslahat qilmoqlik Cho‘lponning jadidlar ham shoshma-shosharlikda, tuzuk- quruq o‘ylamay harakat olib borayotganiga qilingan ochiq kinoyasi edi. Aks holda, Mariyaning buzuq kitoblar mutolaasi tarixi nima uchun kerak? Ikki xiyonatchining farzandsizligi, rus xiyonatchisining farzandi bor bo‘lsa-da, shu bilan ovunmasligi, xiyonat sheriklarini osongina almashtirishi tasviri-chi? Xo‘jayinning Mariyaga qilgan va’zi-chi? Mariyaning qarta o‘ynashi, fol ochishi, ichishi yoki fokishalik qilgani uchun sira qiyalmagan vijdoni-chi? Uning ichki nutqida fokishalik qilgani uchun uyatni, vijdon og‘riqlarini topib bo‘lmaydi. “Chindan ham Turkiston kelajagi bo‘lmish Miryoqub farzandiga folisha o‘z onasidan ortiq tarbiya bera olishi mumkinmi?” [Mirzayeva Z, 2011: 195]. Nahot Cho‘lpon shunday ayollarni musulmon bolasiga tarbiya berishini yoqlagan?! Cho‘lponning ajdodlari so‘filar bo‘lib, iymonga mahkam insonlar bo‘lgani, otasi halol savdogarlik bilan kun ko‘rgani ma’lum. Gen haqiqati bor ekan Cho‘lponning iymoni mahkam bo‘lgani haqiqatdir. Bu gaplardan maqsad shuki, Cho‘lpon ba’zi yelkadoshlariga qarshi o‘laroq Yevropa madaniyatini millatga olib

kirishni mutlaqo yoqlamagan. U iymon asosiga qurilgan, ayollarga hurmat va erkinlik berilgan, ilm-ma'rifatga ega, tadbirkor, iqtisodni yaxshi tushunuvchi, milliy qadriyatlaridan uzilmagan yangi jamiyatni qurishni istaydi. Miryoqubning mulohazasida bu yanada oydinlashadi: “Bu yigit namoz-niyozni bilmaydi... Din yo‘lidan chiqarish uchun... g‘ayridinlar tomonidan tuzilgan tuzoq emasmi?”. “Agar jadidlarning asosi puch bo‘lsa, “Xalifayi Rum” jadidlarga taraf dor bo‘larmi? Hamma tartib-nizom o‘sha tomonda deydi-ku. Yangicha o‘qish Rumdan kelgan... *kalta kiyim* Rumdan chiqqan... *Rumcha yoqalar* o‘sha tomondan kelib rasm bo‘lgan...” [Cho‘lpon, 2004: 201]. Cho‘lpon dunyo adabiyoti, madaniyati bilan yaxshi tanish edi. Rus kishilarining ko‘pini yo‘ldan chiqargan Yevropa madaniyati ekanligini bilgani, Turkiston jadidlariga datur-ul amal yaratib berayotgan Turkiya, Qrim jadidlariga ham Yevropa madaniyati ta’sir o‘tkazayotganini mushohada qila olgani haqiqatga yaqin. U iymondan uzilgan ajdod qatori jadidlar harakati ham iymondan uzoqlashish yo‘lida ketayotganidan cho‘chigan. Buning yaxshi oqibatga olib bormasligini anglagan. Millati ichida yashab turib, iymoni-yu qadriyatlaridan ayrılgan ko‘plab o‘zbeklarni, bugungi Rumda yevropaliklar kabi nikoh qurmasdan birga yashash odatga aylanayotganini, muslim qizlarining ichki kiyimlarda reklamalarga tushayotganini e’tiborga olsak, Cho‘lponning havotirini anglaymiz. Cho‘lpon shunday deydi: “Ovro‘paning mo‘dasi va buzuq ahvoli sizlarni xonavayron, bevatan, asir-u qul qiladur. Bundan saqlaningiz!”, “Ovro‘paning maktab, madrasa, ilm-fan, san’at, hunarga o‘xshash madaniyatları sizlarni ozod, ma’mur, olim qilub, johillikdan, asorat qullikdan qutultiradur” [Cho‘lpon, 1914. 05. 6]. Yosh yigit chog‘ida shu qadar yetuk fikrlarga ega bo‘lgan insonning tajribasi ortgandan so‘ng fojhish qo‘liga millat bolasini berishni yoqlagani ishonarsiz hol. Cho‘lponning insoniyat o‘z o‘yicha yangilanish va yaxshilanish uchun bir-biridan ko‘r-ko‘rona olgani-yu, bu orada sharaflı tarixni yoddan chiqargani, iymondan uzoqlashgani, Oddisseylar Blumga, Penelopalar Molliga aylanganini chuqur anglagani romandan anglashiladi. Romanda ramziy she’riyati bilan el og‘ziga tushgan Cho‘lpon iymondan uzoq jamiyatga aralashish najot emasligiga ishora qiladi. Beshinchli sinf yoshida Finlandiyadagi gimnaziyada o‘qigan bola yurt deganda qayerni tushunadi? Maktab yoshiga yetmagan Finlandiyada katta bo‘layotgan bola-chi? Uning milliy muallimdan dars olishi milliy qadriyatlarini tuyishiga yetarli bo‘ladimi? Bu hovliqma tajriba oqibatini “Moskva seni aldabdi”, “rus-tuzem maktabi miyangni aynitibdi” mazmunida safdoshlariga dakki berib yurgan Cho‘lpon rus ayoli bilan yashab yurganida muhit ta’sirsiz qolmasligi haqiqatini yaxshi anglagandir. Demak, Cho‘lpon ilmni chetdan olmoqlig-u, ammo inson bu jarayonga kirishi uchun buzilmas kuchli iymon va qadriyatga ega bo‘lishi darkorligini, farzandni o‘zga madaniyat qo‘liga topshirmoqlik uni, u bilan millat kelajagini qo‘ldan boy bermoqlik ekanligini dinning sharafi nomini olgan jadidning poyma-poy o‘gitlari

ortiga yashiradi. Tarixi va qadriyatidan uzilish, o‘zlikdan (iymondan) uzoqlashish insoniyatni sharafsiz holga solayotgani bashar muammosiga aylandi.

Ushbu xulosani, Zunnun orqali mustahkamlash mumkin. Cho‘lpon Hakimjon va Zunnun qiyosi bilan ham Yevropa ta’sirini bermoqchi bo‘ladi. Hakimjon uyatchanroq, balki shu yagona tuzuk sifati uchun unga Hasanov uchratiladi. Zunnun 12-13 yoshlarida noib xizmatiga kirgan va hozir qirqqa yaqinlashgan, ehtimol, shu sababli bemalol hayotida o‘zi yagonaligini bilgan ayolni boshqasiga tortiq qilaveradi. Hakimjon Miryoqub kabi erli ayolni osongina qabul qiladi, ammo u manfaatparastlikda Zunnun va Miryoqubdan orqada. Zunnun uylanishini noib xotiniga qabul qildirish, undan kelib turadigan foydani kesib qo‘ymaslik maqsadida bekasini Miryoqubga ro‘para qiladi. Ayolga boshqa ermak topmay, qishloqdagi qizga uylanib, uni ranjitsa, u mingboshi bo‘larmidi, yo‘qmi? Ayolning Zunnunga “xiyonati”dan keyin Zunnunda uylanish uchun bahona bor, ammo ayolning marhamatidan mahrum bo‘lmaydi. Zunnun iymonsizlikda, orsizlikda, ustomonlikda Miryoqubdan oldinda. Chunki u yet millat qo‘lida o‘sgan. Shuningdek, ichkilik muammosi ham yet ta’sir oqibatlarini gapiradi. Noib o‘zbeklar ichkilikni o‘zlashtirishda iste’dodli ekanini bejiz aytmaydi. Zunnunning sevimli likyori bor. 12-13 yoshidan rus ayol qo‘lida tarbiya topgan Zunnunga qarash Cho‘lponning ta’limni dastlab milliy maktabda boshlash kerakligi, yet millatdan ta’limni olish, tarbiyani olmaslik kerakligi g‘oyasining haqli ekanligini mustahkamlaydi.

Ajoyib fikrlar bilan boyitilgan qudrat mavzusi asarni yanada qimmatli qiladi. Boylik va amal qarshisida nochor qoluvchi insonlar... Qizini qutqarib olmoqchi bo‘lgan Sadri cho‘loq amaldor kuyov bilan o‘chakishishdan qo‘rqadi, Miryoqubga hamma egilib-bukilishga majbur, oddiy dehqon boy va amaldor tufayli suvsiz o‘tiradi. O‘zini o‘ldirish uchun kelayotganini bilsa-da, Mamaturdi boy bolalariga birinchi hujum qilishdan qo‘rqadi, chunki: “Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham, boyning o‘g‘li gapirsin”, degan gap bor. Kim kuchlik? Puli bor kuchlik. Podsholik, amaldorlik, yarim podsho – hammasi puli borning og‘ziga qaraydi...“ Puli borning gapi o‘ng, puli yo‘qning gapi to‘ng” [Cho‘lpon, 2004: 258]. Akbarali mulohazasida bu mavzu zamonlar nishoniga uriladi: “Bitta og‘zi katta boyga kuchim yetmagandan keyin bu shop-shalopni nega taqdim etdi? A, puli tushkur-ey! Amaldan ham kuchlik ekan-a!” [Cho‘lpon, 2004: 251]. O‘tmishda bo‘lganidek bugun demokratiya “barq urgan” mamlakatlarda ham boylar eng kuchli kuch bo‘lib qolmoqda. Qonunlar ularga moslanadi yoki ular Umarali va Yodgorxo‘ja pattalig-u pattasiz soliqlarni to‘limgani kabi qonunlarni chetlab o‘tishga haqli. Noyib to‘ra bu fikrni tasdiqlaydi: “Podsholik hamma vaqt obro‘lik odamlarni himoya qiladi. Obro‘y davlat bilan topiladi” [Cho‘lpon, 2004: 266]. Shu sababli xalq hayotini yaxshilash maqsadida Cho‘lpon qudratni, Miryoqubni, Sharafiddin Xo‘jayevga ro‘para qiladi. Ikki boyga Abdisamat amaldorni maqtatadi. Cho‘lpon Miryoqub kabi ishbilarmonlarga qarshi emas, zero u shunday deydi:

“Yozaylik, qarindoshlar, iqtisoddan! Alar bo‘lsa, maktab ham bo‘lur, ilm ham bo‘lur” [Cho‘lpon, 1914.04. 30]. Pul bilan bog‘liq poraxo‘rlik mavzusi qudratli kishilarga qistirib ketilgan. Mingboshi qo‘y ortidan ellikboshi bo‘ladi, Miryoqub meva-cheva bilan Akbarali pinjiga kiradi, norasmiy so‘roqlari bilan Akbaralini so‘rovlardan qutqarib qoladi, noyibni siylab ishini bitiradi, eshon eshikdan kelgan gadoning qo‘lidagini olib, boyligini orttiradi, mingboshi vazifasini kambag‘alning pulini olmaguncha bajarmaydi, boy nohaq bo‘laturib, kambag‘al qamaladi. Qudrat egalari o‘zidan kichikdan oladi, o‘zidan kattaga qistiradi. Qudrat va poraxo‘rlik orqali abadiy o‘zgarmas fikr beriladi: pulga erk berilgan joydaadolat yo‘qoladi, qonun ishlamaydi, poraxo‘rlik esa xalqni xonavayron qiladi.

Oilaning nozik masalalari bu mavzuni ham umumbashariy holga keltirgan. Ahli ayoliga yaxshilik qilish buyurilgan din so‘fisi munosabatlarda oiladan uzoq, ularning qalbini-yu qadrini bilmaydi. Natijada so‘fi uydan uzoqlashsa, ona-qiz shod. O‘smir qiz otasini o‘z jallodi sifatida ko‘radi: “Otasi to‘g‘risida o‘ylagan vaqtida o‘zini o‘limga mahkum bir odam, otasini mahkumaning jallodi kabi ko‘radi” [Cho‘lpon, 2004: 41]. Mana umumbashariy oila fojiasi. Bir-biriga begona kabi yashovchi oila qaysi zamonda, qaysi makonda baxtli yashagan? Ota-onadan kelgan begonalik hissi qaysi farzand ruhiyatini sindirmagan? Oilaviy mehrsiz yashash, farzand hayotiga bog‘liq qarorni begonalardek berish, farzandga qaror qabul qilishga imkon bermaslik nafaqat farzandni, balki ota-onani ham baxtsiz qiladi.

Akbarali va xotinlari orasida shu begonalik hissi hukmron. Akbaralining o‘zi qatori xotini uning boriga ko‘nikib yashaydi. Ularning ruhiy holati yaqin. Ikki kichik ayolda bir xil holat: katta yosh tafovuti, oila ko‘rgan yosh ayollarning e’tibordan chetda qolishi va rashk. Asosiy muammo shuki, er o‘zi inson ekanini biladi-yu, ayolining insonligini fahm qilmaydi. Ayollarning fojiasi arning e’tiborsizligi oqibatida yuzaga keladi. Xiyonat yo‘liga osongina qadam qo‘yuvchi bu er-xotinlarda oilaviy samimi, xayrixoh mehr yo‘q, jismoniy yaqinlik va begonalik hissi bor xolos. Mehr va e’tibor yetishmovchiligi oila yaralibdiki, unga putur yetkazadi.

Ijtimoiy tengsizlik mavzusi gender tengsizlikning muammolari bilan muhimlik kasb etadi. Cho‘lpon ilk iste’dodli yosh aktrisa Tursunoyning o‘limi tufayli Zebi obrazini yaratgan bo‘lishi mumkin. Iste’dodli qizlarning ikki tanlov yo‘li birdek fojia bilan yakun topadi. Nima uchun? Qizlar mavjud qoidalar bo‘yicha yashaganda ham, yashamaganda ham ular jamiyatda erkaklar bilan teng huquqli emas ekan, ayanch taqdirga ega bo‘laveradi. Ayollar baxt topishlari uchun ularga erk kerak. Poshsha shunday deydi: “Hammamizni ota-onamiz bizdan so‘ramay-netmay uzatgan. Bizning ko‘z yoshlarimizga kim qaragan, deysiz?” [Cho‘lpon, 2004: 48]. Poshshaga erk berilsa, o‘zi qatori inson bilan turmush qurardi, zino, qotillik katta ehtimol bilan uning amal daftariga yozlimasdi.

Chalasavod amaldor oddiy muammolarni hal etishga qodir emas, ishbilarmon til bilmaydi, ilmsiz qiz o‘zini sud qilishganini ham tushunmaydi, ta’limsiz xalq qora ishchi, borini mahalliy amaldor, boylarga beradi. Borini Moskvaga 9-10 og‘ir vagonlarda jo‘natadi, yana shaldirab kelgan 40-50 vagonni to‘ldirishga kirishadi [Karimov. N., 2003: 411]. Ta’limsizlikdan na qonunni, na iqtisodni, na dinni biladi. Mavzu orqali ta’limsiz jamiyat ahvoli xarob ekanligi g‘oyasi beriladi. Bu haqiqat hech kimga sir emas. Ming yillar avval, bugun, ertaga – bir xil spektakl. Rollar bir xil: ilmli xalq – boshqaruvchi, ilmsiz xalq – qora ishchi. Shuningdek, asarda Zebi timsolida taqdirini o‘zgalar tomonidan hal qilinishiga qo‘l qovushtirib qarab turishni qoniga singdirib yuborgan o‘zbek xalqi gavdalantiriladi. Surunkali tarzda Qudrat egalarining tazyiqlari va iqtisodiy nochorlik tufayli ularga jismonan qaram bo‘lish; ilmsizlig-u mushohadasizlik oqibatida din peshvolari oldida qo‘l qovushtirish, taqdirini Allohga emas, ularga havola qilish, xurofotlarga qul bo‘lish; ta’limsizlig-u o‘zbek xalqi madaniyati etaloniga aylanib qolgan kattalar, katta yoshlilar yoki erkaklar izmidan chiqmay (ayollar nazarda tutilmoqda), ularning fikri bilan ish qilish oqibatida birovning ta’siriga oson berilish kabi odatlarning takrori butun xalqda boshqarishga emas, boshqarilishga moyillikni tarbiyalagan bo‘lsa bejiz emas. Roman yaxlit holda o‘zbek xalqining ushbu holatini turli taraflardan o‘rganib chiqadi va tasvir etadi. Uning oqibatlarini ko‘rsatadi. Bu jihatdan asar nafaqat o‘zbeklar, balki bugungi kunda ham ma’naviy, iqtisodiy qaramlikni boshdan kechirayotgan millatlar uchun muhim ahamiyat kasb eta oladi.

Demak, romanda inson tabiat, o‘zlikdan uzoqlashish, qudrat (poraxo‘rlik), oila, ta’lim mavzulari umumbashariy xarakterda taqdim etilgan bo‘lib, ushbu mavzular asosida chiqarilgan g‘oyalar makon va zamon tanlamaydi. Global xarakterdagi mavzu va g‘oya “Kecha va kunduz” umrboqiyligini ta’minlovchi asosiy sifatlardir. Bu xususiyat romanni jahon e’tirofiga sazovor asarlar qatoriga qo‘yadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirzayeva Z. XX asr o‘zbek adabiyotining Amerikada o‘rganilishi – T.: Fan, 2011. – 260 b.
2. Karimov Naim. Cho‘lpon (ma’rifiy roman). – T.: Sharq, 2003. – 464 b.
3. Quronov D. Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon.– T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 162 b.
4. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – T.: Sharq, 2004. – 306 b.
5. Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. Sadoyi Farg‘ona. – 1914, 30 aprel- 30 may soni.
6. Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda temiryo‘llar. Sadoyi Farg‘ona. – 1914. 6-iyun soni.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	SUG'ORISH TIZIMLARIDAGI SUV ISROFGARCHILIGI VA SUVNI TEJASHNING MAQBUL USULI M. Xurramov F. Yusupov	4
2.	ЖАМИЯТДАГИ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЗИДДИЯТЛАРДА МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР ОМИЛИ Мусаев Одил Рахматович	9
3.	THE IMPORTANCE OF STRUP TEST IN UZBEK TONGUE EDUCATION O'ZBEK TILI TA'LIMIDA STRUP TEST AHAMIYATI Abdunazarov Otabek Abdupatto o'g'li	17
4.	FARG'ONA VODIYSIDSA DASTLABKI MUZEYLARNING SHAKLLANISH TARIXIGA OID Karimov Islomjon Ilhomjon o'g'li	24
5.	FRANSUZ VA O'ZBEK ERTAKLARI, NAQLLARIDA MILLIY-MADANIY O'XSHAHSLIKLAR HAMDA DIFFERENSIAL BELGILAR Matyakubov Oybek Quralbayevich	31
6.	TA'LIMDA ILMIY TADQIQOT ISHLARIDAN FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLARI Karimov Yusuf Narzullayevich Karimova Shoira Abdulhaq qizi Abdurahmonova Sojida Alikulovna Abdusalomov Ilyos, Abdullayev Abdukarim	40
7.	"KITOBU-T-TAFHIM" ASARI BO'YICHA O'ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN NASHR VA TADQIQOTLAR TAHLILI Islom Sobir o'g'li Bo'riev	45
8.	TOMCHILATIB SUG'ORISH TIZIMI SUG'ORISH MEYORLARI VA TIZIMNING TUPROQ MELIORATIV HOLATIGA TA'SINI O'RGANISH Mirqodir Usmanov Hikmat Sadullayev Damirov Feruzbek	56
9.	INTERNET TERMINOLOGIYASINING LINGVOMADANIY KOMPONENTLARI TIPOLOGIYASI Umaranova Nigora	67
10.	XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MA'RIFATPARLIK-MAKTABCHILIK G'OYASINING SHAKLLANISHI VA TARQALISHI Nazarov Alisher Abdusamadovich	73
11.	THE FEATURES OF CHAPTERS IN ADVENTURE LITERATURE Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	79
12.	O'ZBEKİSTON ZAMONAVİY HAYKALTAROSHLIK SAN'ATIDA YANGI SHAKL VA OBRAZLAR Qodirova Zilola Ro'zibayevna	83
13.	MAHALLIY MANBALARDA BUXORO AMIRLIGIDA TA'LIM TIZIMI VA MADANIY HAYOT MASALALARI Tilavova Shahnoza Salohitdinovna	88
14.	LEXICAL AND STYLISTIC MEANINGS AND PECULIARITIES OF LINGUISTIC UNITS WITH 'HEART' COMPONENT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna	94

15.	G'ΟΖANI TURLI MATERIALLAR YORDAMIDA MULCHALAB (PLYONKA OSTIDA) TOMCHILATIB SUG'ORISH TARTIBINI ISHLAB CHIQISH Olloniyofov Sardor Po'lat o'g'li	102
16.	THE IMPORTANCE OF CORPUS TO CONDUCT RESEARCHES IN VARIOUS FIELDS Vasliddinova Kamola Qodirjon qizi	107
17.	O'QUV TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI Yulchiyev Sobirali	110
18.	BALIQLARNING ASOSIY EKOLOGIK GURUHLARI. SUVDAGI TUZ MIQDORINING BALIQLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI Vaxobova Dilafro'zoy Avazbek qizi Qo'chqorboyeva Xushnozabonu Ro'zali qizi	113
19.	АКТУАЛЬНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ В ОРТОДОНТИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКЕ МЕТОДА ПОНА Машарипова С.К. Насимов Э.Э.	117
20.	ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ВА БОШҚАРУВИ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ОЧИҚЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУЛари БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ Жўрабек Атананазарови Рахманов	124
21.	BOSHANG'ICH TA'LIM MAZMUNIDA TARBIYA DARSLARIDA INNOVATION TA'LIMNING QO'LLANISH IMKONIYATLARI Jahonbekova Surayyo Avazbekovna	129
22.	ХОРИЖИЙ ТИЛ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МЕДИАТАЪЛИМГА МУНОСАБАТИ Умурзакова Бонухон Азизовна	135
23.	МЕДИАТАЪЛИМ-ШАХСНИНГ АХБОРОТ ОЛИШ ВА ТАРҚАТИШ ҲУҚУҚИНИНГ БИР ҚИСМИ Умурзакова Бонухон Азизовна	140
24.	ТОШКЕНТ ШАХРИ НЕКРОНИМЛАРИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТАСНИФИ Зоитова Шохиста Асқаровна	144
25.	MUMTOZ EPIK ASARLARNI O'QITISHNING BADIY ASOSLARI Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna	149
26.	NEMIS TILIDA "HEIMAT" KONSEPTINING TARIXIY-ETIMOLOGIK TAHLILI Hayotova Dilafro'z Zoyirovna	155
27.	CHO'LPON SHE'RIYATINI O'QITISHDA AUDIOVIZUALLIK Choriyev Umar	161
28.	AHMAD DONISH «NAVODIR -UL-VAQOYE» ASARIDA BUXORO IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIGA MUNOSABATI Jumayev Abbosjon Akmalovich	168
29.	"KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDA INSON TABIATI, O'ZLIK DAN UZOQLASHISH, QUDRAT, OILA, GENDER TENGSIZLIK, TA'LIM MAVZULARI Usmonova Umida Xaydarali qizi Qayumova Ozoda Botir qizi	174

**Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

**Bosh muharrir**

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

**Mas’ul muharrir**

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

**Nashrga tayyorlovchi**

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnalı, 2023-yil. 185 bet.

© Talqin va tadqiqotlar,  
© Mualliflar jamoasi.